

# PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

## 2/2023

**Bosh muharrir:**

Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich  
(bosh muharrir o'rinbosari)

**Tahrir hay'ati:**

Djuraev Risbay Xaydarovich  
Abdullaeva Shaxzoda  
Bulatov Saidaxbor  
Ibrayimov Xolboy Ibragimovich  
Kamilova Nodira  
Karlybaeva Guljahan  
Quronov Maxammadjon  
Mamadaliyev Abdumajid  
Medetova Raushan  
Muslimov Narzulla  
Murtazaeva Maxfuza  
Safarova Roxat  
Tojiboeva Xilolaxon  
Xakimov Muxabbat  
Xodjaev Begzod

**Muassis** – Nizomiy nomidagi Toshkent

davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabr-dagi 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

# PEDAGOGIKA

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND  
METHODICAL JOURNAL

**2/2023**

## CHIEF EDITOR

Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abdusalim Xamidovich  
(deputy editor-in-chief)

## EDITORIAL BOARD:

Djuraev Risbay Xaydarovich  
Abdullaeva Shaxzoda  
Bulatov Saidaxbor  
Ibrayimov Xolboy Ibragimovich  
Kamilova Nodira  
Karlybaeva Guljaxon  
Quronov Maxammadjon  
Mamadaliev Abdumajid  
Medetova Raushan  
Muslimov Narzulla  
Murtazaeva Maxfuza  
Safarova Roxat  
Tojiboeva Xilolaxon  
Xakimov Muxabbat  
Xodjaev Begzod

The founder: Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

The journal publishes scientific theoretical and methodological articles in Uzbek and Russian languages in the fields of pedagogics, psychology, teaching methods and technologies. The journal has been certified under № 02-004 on the state registration of the mass media from the Tashkent Press and Information Administration as of May 26, 2014 and was awarded the international standard number (ISSN) - 2010-5320 of periodical journals on the basis of the 511/S contract from the National Book Chamber of the Republic of Uzbekistan. The journal has been registered by the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № 201/3 as of December 30, 2013.

**ZO'RAVONLIKNI BOSHIDAN KECHIRGAN VOYAGA YETMAGANLARNI  
SUD-PSIXOLOGIYA EKSPERTIZASI**

**Kamilova Nodira G'ayratovna**, TDPU huzuridagi psixologiya ilmiy-o'quv markazi  
direktori, psixologiya fanlari doktori, professor

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jinsiy zo'rvonlikdan jabr ko'rgan qizlarda yuzaga keluvchi yoshga oid psixologik buzilishlarning tashhisiy tavsifnomasi ko'rib chiqiladi. Taqdim etilgan ma'lumotlar voyaga yetmaganlarning axloqiy buzilishlari va ijtimoiy moslashuvidagi yoshga oid va jinsiy farqni ochib beradi.

**Tayanch so'zlar:** jinsiy zo'rvonlik, ijtimoiy moslashuv, moslashish holati, turmush sifati, patopsixologik simpotli kompleks, jarohatdan keyingi stressli buzilish.

**СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ЭКСПЕРТИЗА НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ,  
ПОДВЕРГШИХСЯ НАСИЛИЮ**

**Камилова Ноди́ра Гайра́товна**, директор научно-учебного центра Психоло-  
гия при ТГПУ, доктор психологических наук, профессор

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются диагностические характеристики возрастных психологических нарушений возникающих у девочек-жертв сексуальных насилиев. Представленные данные раскрывают возрастные и половые различия поведенческих нарушений и социальной адаптации несовершеннолетних.

**Ключевые слова:** сексуальное насилие, социальная адаптация, состояния адаптации, качество жизни, патопсихологический симптомокомплекс, посттравматическое стрессовое расстройство.

**FORENSIC PSYCHOLOGY EXAMINATION OF MINORS WHO HAVE  
EXPERIENCED VIOLENCE**

**Kamilova Nodira Gayratovna**, Director of the scientific and educational center  
Psychology at TSPU, doctor of psychological sciences, professor

**Abstract.** This article discusses the diagnostic characteristics of age-related psychological disorders that occur in girls who are victims of sexual violence. The presented data reveal age and gender differences in behavioral disorders and social adaptation of minors.

**Key words:** sexual violence, social adaptation, states of adaptation, quality of life, pathopsychological symptom complex, post-traumatic stress disorder.

**Kirish.** Jinsiy zo'rvonlik jarohatli vaziyat turlaridan biri sifatida nisbatan yaqin davrdan boshlab maxsus o'rganish predmeti bo'ldi.

**Asosiy qism.** Olimlarning jinsiy zo'rvonlik va voyaga yetmaganlarga nisbatan suiiste'mollik muammosiga qiziqishlari AQSH va G'arbiy Yeropada XX asrning 60-yillarida yuzaga keldi va hamon susaygani yo'q. Bizning mamlakatimizda mazkur masala oxirgi yillarda o'ta dolzarblikni kasb etdi. Jahon statistikasiga muvofiq voyaga yetmaganlar jinsiy zo'rvonlikdan jabr ko'rganlarning umumiy miqdoridan deyarli yamini tashkil etadi. «Tadqiqotlar ko'rsatdiki, jinsiy tajovuz qurbonlarining yoshi 4 yoshdan 15 yoshgacha davmi o'z ichiga

oladi. Bolalik yoshida ijtimoiy tajribaning yo'qligi jinoyatchining harakatini baholashni qiyinlashtiradi va samarali qarshilik ko'rsatish imkoniyatiga to'sqinlik qiladi» [1]. «Jinsiy zo'ravonlikka o'g'il bolalar kabi qiz bolalar ham duchor bo'lishlari mumkin. Bunda turli ma'lumotlarga ko'ra, qizlar o'g'il bolalarga qaraganda 1,5-3 marta ko'proq jabr ko'radilar. O'g'il bolalarga nisbatan zo'ravonlik ko'pincha o'qituvchilar, tarbiyachilar, katta yoshdagi boshqa bolalar tomonidan sodir etilsa, qizlar esa, oila a'zolari tomonidan jinsiy zo'ravonlikdan azob chekadilar» [2]. Ko'pincha psixologik jarohatlanish qizlarda o'smirlik yoshiga yetgunlariga qadar boshlanadi. Qizlar shaxsiy va umuman olganda, psixojinsiy rivojlanishlariga noxush ta'sir ko'rsatuvchi jinsiy zo'ravonlik holatlarini boshdan kechiradilar. Har bir bola – bu noyob va uning individual qadr-qimmat, alohida qiziqishlari va xususiy hayoti tan olinishi hamda himoyalaniishi zarur bo'lgan yuqori qadriyatga ega bo'lgan shaxs. Zo'ravonlik vaziyatida bola huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq asosiy muammolardan biri – tekshirish va surishtirish tartib-tamoyillari davomida bola shaxsini takror jarohatlash hisoblanadi. Bu muammoni hal qilish uchun tergov harakatlari tizimida bolaga nisbatan insonparvarlik pozitsiyasiga amal qilishlari zarur. Sud-psixologiya ekspertizasi voyaga yetmagan jabrlanuvchini ko'rsatma berishga layoqatini belgilashga, ularning himoyasiz holati zaminini, jinoiy-protsessual layoqatsizligini ekspert tomonidan baholashga yo'naltirilgan. Tuzilmaviy-fenomenologik yondashuvdan foydalanish jabrlangan guruhida ularning psixik holati, yoshiga, shuningdek, zo'ravonlik vaziyatining turi va davomliyligiga bog'liq ravishda jinsiy zo'ravonlik hamda suiiste'mollikning psixologik oqibatlarini batafsil tasvirlash imkonini beradi.

Bolalarning moslashish holatini ko'rsatuvchi quyidagi psixologik salomatlik darajalari ajratiladi: 1) kreativ daraja. Bolalar va o'smirlar psixologik ko'mak yoki korrektsiyaga muhtoj bo'lmaydilar. Moslashish barqaror, stressli vaziyatlarni bartaraf qilish uchun imkoniyatlar mavjud; 2) moslashuvchan daraja. Bolalar va o'smirlar, umuman olganda, moslashuvchan, biroq vaqti-vaqti bilan dezadaptatsiyaning alohida belgilari namoyon bo'ladi; 3) assimilyativ-akkomodativ daraja. Moslashishda jiddiy buzilishi bo'lgan bolalar va o'smirlar.

Voyaga yetmagan jabrlanganlarning psixologik nochorligini tashhis qilish va baholash turli yosh guruhidagilar uchun ishlab chiqilgan bolalar turmushi sifatida baholash so'rovnomalari yordamida mumkin bo'ladi. Bolalar turmush sifatini baholash so'rovnomalari bolaning jismoniy, ijtimoiy va maktabga oid harakatlanishi darajasining, shuningdek, uning subyektiv bahosi va uning ota-onalari yoki yaqin atrofidagi shaxslarni subyektiv bahosi evaziga qurilgan emotsional komforti darajasining ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Bolalarning turmush sifatining ta'rifi turlicha variatsiyalanadi, biroq ko'pincha ikkita majburiy shart ishtirok etadi: 1) turmush sifati – subyektiv ko'rsatkich; 2) turmush sifati – hodisalarning keng doirasidan iborat ko'p omilli ko'rsatkich [2].

Intellektual tarkibiy qismlardan (hodisalarni to'g'ri idrok etish, eslab qolish, tahlil qilish, ketma-ketligini izohlash qobiliyati) tashqari jabrlangan shaxsning mazmunli sohasi, ma'naviy-axloqiy rivojlanish darajasi tadqiq etilishi zarur. Voyaga yetmagan jabrlanuvchining psixik holatidagi dinamik o'zgarishlar va buzilishning yaqqol ifodalanganlik darajasini, shuningdek, uning individual-psixologik xislatlarini aniqlash salomatligiga yetgan zaraming og'irligini ekspert baholash uchun ham zarur. Sud ekspertizasi doirasida o'tkazilgan eksperimental-psixologik tadqiqotlar voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik va suiiste'mollikning psixologik hamda patopsixologik simptomli komplekslari oqibatlarini aniqlash va tasvirlash imkonini beradi. Psixologik simptomli kompleks nochor psixologik holatga xos bo'lgan oqibatlar kompleksiga mos keladi va ayni vaqtdagi nochor emotsional holatda, shaxslararo aloqalardagi adovatda, erkak jinsidagi shaxslarga nisbatan salbiy emotsional ustanovkalarda ifodalanadi. Psixogenli reaksiyalarning patopsixologik simptomli kompleksi muhim emotsional holatning nochorligini, shaxslararo aloqalardagi adovatni, zo'ravonlik va suste'mollikda butun javobgarlikni o'z zimmasiga olish hamda shaxslararo aloqalarni o'rnatishdagi qiyinchilikni o'z ichiga oladi. Psixogenli buzilishlarda patopsixologik simptomli komplekslar mavjud bo'lganida noxush dolzarb emotsional holat, shaxslararo aloqalarda

dushmanlik, o'z-o'zini anglashning buzilishi, zo'ravonlik va suiste'mollik uchun mas'uliyatni zimmasiga olish (o'smirlarda), astenik reaksiya, erkak jinsidagi shaxslarga nisbatan salbiy emotsional ustanovkalar aniqlanadi. Buzilish ko'rinishidagi psixogenli holati bo'lgan jabrlanganlarda jarohatdan keyingi reaksiyaning rivojlanishini boshqa yo'li suiste'mollik holati va aybdorga ambivalent munosabatda hamda xulq-atvor ko'rinishida namoyon bo'luvchi psixojinsiy sohada buzilishlarning yuzaga kelishi hisoblanadi. Jinsiy zo'ravonlik oqibatlarining namoyon bo'lishini yoshga oid xususiyatlari va bolalik yoshidagi reaksiya darajasiga xos bo'lgan salbiy psixologik belgilarning muvofiqligi aniqlangan. Maktabgacha yosh (3-6 yosh) reaksiyaning psixomotorli darajasini ko'zda tutadi, ushbu davrda yuzaga keluvchi buzilish emotsional-irodaviy sohani qamrab oladi, jabrlangan qizlarda yuqori qo'zg'aluvchanlik kuzatiladi. Kichik maktab yoshidagilarga (7-10 yosh) yuqori qo'zg'aluvchanlik, emotsional beqarorlik, jarohatli kechinmalar proyeksiyasi, zo'ravonlik vaziyatining emotsional qamrab olinganligi, asosiy ehtiyojlarni qondirishdagi frustratsiya bilan affektiv reaksiya qilish darajasi xos. O'smirlar (11-15 yosh) va ilk o'spirinlik (16-18) yoshi uchun jarohatdan keyingi reaksiyaning emotsional-ideatorli darajasi xos, buzilish shaxs tuzilmasi va mazmunining o'zgarishiga ta'sir qiladi. Voyaga yetmaganlarda mavjud shaxs fe'l-atvorining aksentuatsiyasi, shuningdek, jinsiy yetilish fonida zo'ravonga nisbatan ambivalent tuyg'ularning yuzaga kelishi ehtimoli bor. Bir marotaba zo'ravonlikka duchor bo'lgan voyaga yetmaganlar zo'ravonlik vaziyatining emotsional kechinmalarini ifodalaydi va psixosomatik shikoyatlar bilan arz qiladilar. Ekspertiza jarayonidagi ko'p yillik kuzatish fe'l-atvor aksentuatsiyasi bo'lgan o'smir yoshidagi voyaga yetmaganlarga ularning farovonligiga xavf soluvchi vaziyat o'rmini oshirib yuborish xosligini aniqlash imkonini berdi. Mazkur holatda shaxsning ijtimoiy moslashuvini tashhis qiluvchi ko'pgina so'rovnoma-lardagi mavjud yolg'on shkalasida bo'lganiday, ekspertiza jarayonida kuzatiluvchi pilomotor va vazomotor reaksiyalarda ham obyektiv vaziyatni o'rnatish imkonini beradi. Shunday qilib, ilmiy tahlil natijalari voyaga yetmagan jabrlanuvchilarda jinsiy zo'ravonlikning psixologik oqibatlarini tashhis qilish va baholash samaradorligini oshirish uchun bolalar va o'smirlarning turmush sifati holatiga, shuningdek, ularda deadaptatsiyaning yaqqol ifodalanganlik darajasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini aniqlashtirish imkonini berdi. Voyaga yetmaganlarda jinsiy zo'ravonlik va suiste'mollik oqibatlarini tashhis qilish va baholashda yoshga oid omilni, kriminal vaziyatning turi va davomiyligi omilini, jabrlanuvchining aybdor bilan o'zaro harakat xususiyatlarini inobatga olish zarur.

**Xulosa.** Jinsiy jinoyat jabrlanuvchilari bo'lgan voyaga yetmaganlarning – himoyaga muhtojligi va yetilmaganligini inobatga olib ularning jinsi, yoshi, salomatlik holati, yetuklik va alohida individual ehtiyojlari darajasiga muvofiq ularning jismoniy, psixik va ma'naviy rivojlanishida alohida himoya, yordam va ko'mak ko'rsatish talab qilinadi. Har bir bola bilan ularning jinoiy sud jarayonida ishtirok etishi natijasida takror jarohatlanishga yo'l qo'ymaslik uchun shaxsiy ehtiyojlari, istaklariga ega bo'lgan shaxs sifatida murojaat qilish zarur. Bunda tergov va jinoiy sud jarayonida vazifasi voyaga yetmaganlarning psixik salomatligini qo'llab-quvvatlash va himoyalash bo'lgan pedagoglar va psixologlarning ishtiroki ulkan rol o'ynaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Finkelhor D. Child sexual abuse: New theory and research. N.Y.: Free Press, 1983. - 248 p.; Alaggia, R. Self-psychology and male child sexual abuse: healing relation betrayal // Clinical social work journal. 2013. - Vol. 36 (3). - P. 265-275.
2. Дозорцева Е.Г. Соматическая психотерапия травмы у девиантных девочек-подростков // Московский психотерапевтический журнал. - М., 2003.- № 1. - С. 81-91.
3. Шигашов Д.Ю. Реабилитация детей и подростков, пострадавших от сексуального насилия. - СПб.: Наука и техника, 2010. - 240 б.
4. Шостакович Б.В., Ушакова И.М., Потапов С.А. Половые преступления против детей и подростков. - Ростов на Дону: Феникс, 1994. - 102 б.

---

## О МЕТОДАХ РАЗВИТИЯ МЫСЛИТЕЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ-МУЗЫКОВЕДОВ В ПРОЦЕССЕ НАУЧНО-ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Галущенко Ирина Георгиевна, профессор ГКУз*

**Аннотация.** В статье рассматриваются некоторые методы развития мыслительных способностей у будущих музыковедов, обучающихся в консерватории на основе научно-творческой, образовательной практики автора статьи.

**Ключевые слова:** музыковед, студент, метод, обучение, воспитание, мысль, способность, творчество.

## ILMIY-IJODIY FAOLIYAT JARAYONIDA MUSIQASHUNOS TALABALARDA FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

*Galushenko Irina Georgiyevna, O'zRDK professori*

**Annotatsiya.** Maqolada muallifining ilmiy, ijodiy, ta'lim amaliyoti asosida konservatoriyada tahsil olayotgan bo'lajak musiqashunoslar orasida fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning ba'zi usullari muhokama qilinadi.

**Tayanch so'zlar:** musiqashunos, talaba, usul, o'qitish, tarbiyalash, fikr, qobiliyat, ijodkorlik.

## ON THE METHODS OF DEVELOPING THINKING ABILITIES MUSICOLOGY STUDENTS IN THE PROCESS OF SCIENTIFIC AND CREATIVE ACTIVITY

*Galushenko Irina Georgiyevna, professor of State conservatory of Uzbekistan*

**Abstract.** The article discusses some methods of developing the thinking abilities of future musicologists studying at the conservatory on the basis of the scientific, creative, educational practice of the author of the article.

**Key words:** musicologist, student, method, training, education, thought, ability, creativity.

**Введение.** Музыковедение является социально-гуманитарной сферой художественной культуры. Оно охватывает весьма широкий диапазон научно-творческой деятельности, требующей от специалиста мыслительной активности, непрерывного совершенствования профессионального мастерства, повышения уровня компетентности.

**Основная часть.** Обучение музыковедов в консерватории направлено на формирование гармонично развитых специалистов, обладающих самостоятельным креативным мышлением, глубокими гуманитарными знаниями, профессиональными умениями и навыками.

В соответствии с Государственными образовательными стандартами, учебными планами и программами, квалифицированными требованиями студенты-музыковеды обязаны выполнять научно-творческие задания, рефераты, курсовые работы, проекты, статьи, доклады, логичным итогом которых являются выпускные квалифицированные работы и магистерские дискуссии. Для успешной реализации научно-творческой деятельности студентам-музыковедам необходимо осваивать методы научного исследования и уметь применять их на практике [1].

Современная педагогика располагает множеством технологий, методов и ме-

тодик обучения и воспитания специалистов в области музыкального искусства. Предпочтение определённых педагогических методов обучения музыковедов обусловлено различными факторами, в числе которых основополагающим условием является уровень компетентности студентов, их способностей к продуктивной научно-творческой деятельности. Важной педагогической задачей здесь является применение различных методов развития мыслительных способностей с обязательным анализом эффективности и результативности динамики профессионального роста будущих музыковедов. «Специфика, своеобразие музыкального мышления, – по наблюдению Рауфа Кадырова, – зависят от степени развития музыкальных способностей, а также условий той музыкальной среды, в которой живёт и воспитывается человек» [2, с. 57].

Естественно, что студенты-музыковеды обладают разными музыкальными способностями, уровни которых требуют от педагога специального аналитического внимания и, соответственно, выбора определённых методов развития как музыкальных, так и мыслительных способностей. «Музыкальные способности, – писал Борис Теплов, – не существуют независимо друг от друга. Только в результате научного анализа они выделяются как «отдельные» способности. Не может быть поэтому одной способности при полном отсутствии других» [3, с. 316]. Исходя из этого музыкальные и мыслительные способности являются составляющими единой сложной системы мышления музыковеда. Таким образом, развитие музыкальных и мыслительных способностей обучающихся происходит параллельно и, в то же время, взаимосвязано, дополняя и обогащая друг друга, способствуя формированию и кристаллизации музыковедческой мысли.

Разрабатывая тематику студенческих научных работ, необходимо ознакомить обучающихся с основными методами научного исследования, обращая при этом особое внимание на такие методы анализа, как историко-ретроспективный, структурный, аксиологический, эмпирический, функциональный, комплексный. В самостоятельной разработке избранной темы студенческого исследования следует предложить обучающимся самим выбрать определённый метод как наиболее целесообразный и соответствующий решению задач, связанный с реализацией цели работы. В данном случае имеет смысл применять педагогический навигационный метод, ориентирующий студентов на самостоятельную научно-творческую деятельность под контролем педагога и его рекомендаций. Метод навигации ориентирует студентов на поиск эвристических решений, оригинальных экспериментов, активизацию мыслительных способностей.

В активизации и систематизации музыковедческого мышления студентов весьма целесообразно применение сравнительно-сопоставительного метода изучения художественных явлений, требующего наличия мыслительных способностей для выявления факторов общности и различия и необходимости их сравнения. В связи с этим следует также использовать возможности информационного метода для получения фактологических данных, необходимых для полной картины изучаемой темы. Информационный метод также способствует развитию памяти, расширения объёма данных, накопления базовых знаний.

Необходимо отметить, что педагогические методы, как и методы собственно научн-исследовательские содержат в себе важную воспитательную функцию, которая в данном случае составляет значимость воспитательного метода органи-

зации научно-творческой деятельности музыковедов. Тем самым развитие мыслительных способностей у обучающихся направлено на формирование духовно-нравственных и эстетических качеств личности, гуманного экологического отношения к окружающему миру, воспитание патриотического чувства любви к родному краю. «В становлении патриотического сознания, – подчёркивает Раушан Медетова, – определяющее место принадлежит содержанию образования» [4, с. 34]. В этом смысле творчество современных композиторов Узбекистана, являющееся базовой основой музыкального образования и воспитания, предоставляет молодым учёным богатейший источник познания, воспитания, возникновения и разработки актуальных научных идей, концепций, выражения оригинальных мыслей. «Высказывая то или иное суждение, мы обычно верим в его истинность или даже убеждены в ней. При этом мы редко подразумеваем или оговариваем условия, при которых высказываемое нами суждение истинно. Между тем вопрос об условиях истинности – решающий. Одной только осмысленности суждений в данном случае недостаточно» [5, с. 55]. В этом отношении выдвижение молодым учёным научных гипотез должно иметь достоверность и опираться на научные методы, позволяющие доказательно обосновать исследовательскую позицию.

Утверждению собственной индивидуальной личностной позиции учёного способствует развитие мыслительных способностей, благодаря которым возникают ценные научные открытия и концепции. «Развитие личности не только придаёт стабильность тому, что человек делает, – полагал Кристиан Ларсон, – но заставляет его быть самим собой, что очень важно. Он может показать всё, на что способен, и стать тем, кем способен, только если будет самим собой в любых обстоятельствах» [6, с. 185].

**Вывод.** Безусловно, развитие личности невозможно без развития мыслительных способностей, которые происходят на протяжении всей человеческой жизни и благодаря развитию которых человек становится яркой творческой личностью, достигает целей и задач. Применение педагогических, научно-исследовательских и воспитательных методов обеспечивает восхождение к вершинам мастерства не только в музыковедении, но и в любой сфере жизнедеятельности.

#### Литература:

1. Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология научного исследования. - М.: Лаброком, 2010. - 280 с.
2. Кадыров Р.Г. Музыка и педагогика: Монография. - Т.: Coplex Print, 2022. - 376 с.
3. Теплов Б.М. Психология музыкальных способностей. - М.-Л.: Издательство Академии педагогических наук, 1947. - 385 с.
4. Медетова Р.М. Актуальные задачи по совершенствованию патриотического воспитания студентов // *Pedagogika*. - Т., 2022. - № 5. - С. 32-35.
5. Новоселов М.М. Абстракция и научный метод // *Логика научного познания. Актуальные проблемы*. - М.: Наука, 1987. - С. 30-56.
6. Ларсон К. Наука развития сознания и мозга. - М.: Эксмо, 2013. - 288 с.



---

## SULAYMON BOQIRG'ONIY VA NAJMIDDIN KUBROLARNING PEDAGOGIK MEROSI

**Xodjaniyazov Sardor Umarovich**, UrDU prorektori, pedagogika fanlari  
doktori, dotsent

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Sulaymon Boqirg'oni va Najmiddin Kubrolarning pedagogik merosi yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** talaba, o'qituvchi, oliy ta'lim tashkiloti, ma'naviy meros, an'ana, qadriyat, g'oya, insonparvarlik, alloma, inson, maktab, amaliyot.

## ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ СУЛЕЙМАНА БАКИРГАНИ И НАДЖМИДДИНА КУБРО

**Ходжаниязов Сардор Умарович**, проректор УрГУ,  
доктор педагогических наук, доцент

**Аннотация.** В данной статье освещено педагогическое наследие Сулеймана Бакиргани и Наджмиддина Кубро.

**Ключевые слова:** студент, преподаватель, высшая образовательная организация, духовное наследие, традиция, ценность, идея, гуманизм, мыслитель, личность, школа, практика.

## PEDAGOGICAL HERITAGE OF SOLOMON BAGIRGANI AND NAJMIDDIN KUBRO

**Khodzhanizayov Sardor Umarovich**, pro-rector of Urdu, doctor of pedagogical  
sciences, associate professor

**Abstract.** This article covers the pedagogical heritage of Solomon Bagirgani and Najmiddin Kubro.

**Key words:** student, teacher, higher education organization, spiritual heritage, tradition, value, idea, humanitarian, alloma, human, school, practice.

**Kirish.** Bugungi kunda Sharqning buyuk allomalarining ilmiy-nazariy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va tadqiq etish asosida yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda.

**Asosiy qism.** «Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim» [1]. Shu jihatdan, Sharq allomalari, ayniqsa, Sulaymon Boqirg'oni va Najmiddin Kubrolarni qoldirgan ma'naviy merosini, unda ilgari surilgan ma'naviy muhit va umuminsoniy g'oyalarni bugungi kun nuqtai-nazaridan ilmiy-nazariy o'rganish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda islom va tasavvuf ta'limotining ahamiyati katta. Shu ma'noda, aytish mumkinki, o'zbek xalqi tarixan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos maktablar yaratgan. Aynan shunday milliy ta'lim-tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarni ilmiy o'rganib, puhta tahlil qilish va uni zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish bugungi kunning muhim va dolzarb muammasidir. Ayni paytda bugunga qadar zavol topmay kelayotgan ta'lim-tarbiyaning tasavvuf maktabi ana shu milliy pedagogikaning muhim sarchashmasidir. Tasavvuf insonni nafsini poklash orqali ma'naviy

kamolot kasb etishini ham nazariy jihatdan, ham amaliy hayotda ko'rsatib bera olgan yagona ta'limot hisoblanadi. Uning yuksak ko'rinishi shaxs va jamiyat munosabatlarini axloqiy va ma'rifiy tartibga solishda yaqqol ko'rinadi desak, hech mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Ye.Bertels «Sufizm shunchalik keng va har taraflamaki, unga istalgan konsepsiya, dunyoqarashni kiritish mumkin» [2], degan bo'lsa, I.Mo'minov esa, tasavvufning falsafiy jihatlari haqida to'xtalib, «Sufizm – murakkab falsafiy oqimdir. U juda xilma-xil shakllarga, mazmunga va oqimga ega» [3, 34-b.] deb ta'kidlaydi. V.Zohidov o'z ilmiy izlanishlari asosida «... tasavvuf ortiq darajada murakkab, chigal dunyoqarashdir» [4, 416-b.], – degan xulosaga keladi.

Tarixdan ma'lumki, tasavvuf insonni ilm-ma'rifatga, ta'lim-tarbiyaga, o'zligini anglashga va u orqali Haqni tanishga, ya'ni irfonga chaqirgan. Shuningdek, u hamma davrlarda inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bunda o'z davrining yetuk murshidi komillari alohida o'rin tutgan. Ular murshid-ustoz sifatida nazariy jihatdan ta'lim berish bilan birga o'z hayoti va yashash tarzi orqali murid-shogirdlariga o'mak-namuna bo'lishgan. Tasavvufning axloqiy ta'limoti o'z davrida ikkita vazifani bajargan. Birinchisi, axloqiy o'zini o'zi takomillashtirishni axloqiy poklanish orqali insonning komillikka yetkazish. Ikkinchidan, bu ichki axloqiy hayotning namoyon bo'lishi, atrofdagi odamlar bilan munosabatlarda yorqin aks ettirilishi. Darhaqiqat, so'fiylik altruizmi, boshqa odamlarga, hatto o'z manfaatlariga zarar yetkazilsa ham fidokorona xizmat qilish, muhim ijtimoiy-pedagogik va axloqiy ahamiyatga ega. So'fiylikning o'ziga xos gedonizmi o'zining aniq ifodasini, birinchi navbatda, ma'naviy-axloqiy fazilatlar natijasida olingan zavq, quvonch va lazzatlanishda topadi. So'fiylik gedonizmi an'anaviy gedonizmdan farq qiladi: bu yerda zavqni ataylab hisoblash mumkin emas. So'fiylik baxt va zavqni boshqalar manfaati va o'ziga zarar yetkazib bo'lsada fidoyilikni ixtiyoriy ravishda amalga oshirishda ko'rgan.

Sulaymon Boqirg'oniy va Najmiddin Kubrolarning boy pedagogik merosini sinchkovlik bilan o'rganish ularni o'rta asr Sharqi pedagogikasi va didaktikasining taniqli nazariyotchilari va amaliyotchilari bo'lganligini ko'rsatadi. Chunki bu ta'limot o'zida shaxs va uning tarbiyasi, tarbiyaning maqsadlari va vositalari muammolarini o'z ichiga olgan pedagogik va didaktik g'oyalar tizimini aks ettirgan. Tasavvuf vakillari tarbiya tizimida axloqiy rivojlanishni birinchi o'ringa qo'ydi, bu esa, tarbiyaning boshqa turlari, masalan, mehnat, jismoniy, insonparvarlik va boshqalar bilan birga, uzviy bog'liqlikda amalga oshadi. Ular u yoki bu axloqiy sifatni tarbiyalash uchun so'fiy axloqshunosligining butun yaxlit majmuasini ishlab chiqdilar. Sulaymon Boqirg'oniy turli masallar va illyustratsiyalar yordamida o'quvchining ongiga chuqur kirib borish uchun bir xil fikrni turli yo'llar bilan ifoda etadi. Alloma ustoz fikr, shartli (yopiq) ongga, agar u to'siqlik pardasini yorib o'tishga muvaffaq bo'lsagina kira oladi, deb hisoblaydi. Bilim olovining kuchi tayyorgarliksiz davom ettirish uchun juda katta mehnat, mashaqqat va yuksak axloqni talab etadi. Ammo barkamollikka olib boradigan yo'lni yolg'iz yurib bo'lmaydi. Shuning uchun shogird boshidanoq aqlli rahbar boshchiligidagi yuksaklikka intilishi lozimligi alohida ta'kidlanadi. Sulaymon Boqirg'oniy asarlarida inson kamoloti va ma'naviy yetukligi to'g'risidagi mulohazalar ilgari suriladi. Ilmu-ma'rifatning so'nggi manzili haqiqat bo'lib, unga tahsil ila erishgan kishi axloqiy poklikka va ma'naviy yetuklikka erishgan komil inson hisoblanadi. Uningcha, ilm-ma'rifat yoshlarni insoniylikka, saxovatlikka, hamdardlikka va mehr-muhabbatga olib keluvchi vositadir. Mutafakkir odob-axloq haqida gapirganda, insonda go'zal xulq, nafs zohir va vafsi botinni tarbiya qilmoqni nazarda tutib, shariat odobi, tariqat odobi, ma'rifat odobi, haqiqat odobini uzviy bog'liq holda olib qaraydi. Zero, mutasavvifning «Adabsizlik qilmag'il, osiy bo'lma tediyo» mazmundagi insoniy go'zal fazilatlarga da'vat etilgan hikmatlarini har kishi o'z hayotiga tatbiq qilishi lozim. Ayniqsa, hozirgi paytda jamiyatimizda ma'naviy va ruhiy tarbiya ishlariga alohida e'tibor berilayotgan bir davrda Boqirg'oniyning tarbiyaviy mazmundagi pand-nasihatlar diqqatga sazovordir. Mutafakkir asarlaridagi insonparvarlik, barkamollik, mehnatsevarlikka va sabr-toqatli, insofli, diyonatli bo'lishga undovchi, inson aql-zakovatiga bo'lgan ishonch, insonning ma'naviy kuchi va qobiliyati, ma'naviy-ruhiy pokligi xususidagi mulohazalari, inson «aqli komil»

va «ma'rifatli komil» bo'lish uchun «shariat ilmin bilib» so'ngra «ilm birla tariqat yo'lin tutish» to'g'risidagi ilg'or pedagogik g'oyalari hozirda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Sulaymon Boqirg'oni bu haqida shunday yozadi:

Ma'rifat daryosida g'avvos bo'lub,  
Muhabbat gavharlarin olg'um kelur.  
Tariqat maydoninda parvoz qilib,  
Ul tubo daraxtiga qo'ng'im kelur [5, 33-b.].

Alloma o'z hikmatlarida yassaviy tariqati qoidalarini asosida ta'lim va tarbiyaning uyg'unligini ta'kidlab, din va dunyo ilmlarini birday o'zlashtirish lozimligini bot bot takrorlaydi. U yoshlar tarbiyasida zarur bo'ladigan barcha fazilatlarni sharhlab, yanada chuqurlashtirib sodda, ravon uslubda yetkazgan. U o'z asarlarida ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarga shariat va tariqat qoidalarini chuqur o'rgatish lozimligini ta'kidlaydi [6]. O'sib kelayotgan yosh avlodni o'tkinchi hoyu havaslarga berilmaslikka va o'z nafsini quliga aylanishdan qaytargan hamda ularni ilmi bo'lishga bo'lishga da'vat etgan. Yuqoridagi baytlarda xuddi ana shu pedagogik g'oya ilgari surilgan desak, xato qilmagan bo'lamiz. Boqirg'oniyni fikricha, ta'lim bilan tarbiyaning uzviyligi shundaki, tolib ilm olish bilan birga o'z ustozidan namuna tarzida tarbiyani ham o'zlashtiradi. Bunda ustozning axloqi va tarbiyaliligi shogird kamolotiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shunday ekan, ustoz va shogird an'analarida muhim olibanob sifatlardan biri kechirimli bo'lishdir. Bu sifat keng qalbli, birovlarining adovati vaziyatiga chiday oladigan kishilarda bo'ladi. Shu bilan birga shogirdning tarbiyasida ustoz keng qalb va kechirimli bo'lmas ekan shogirdlar ta'lim olishda, tarbiya topishda mashaqqatlar yuzaga keladi [7].

Sulaymon Boqirg'oniyni hikmatlarida ustoz va shogirdlar muomalasi haqida ham juda ko'p bora ta'kidlar kelgan. Uningcha, muomala ustozning kimligini ko'rsatuvchi ko'zgudir. Komil insonni tarbiyalash g'oyasi insonlarning orzusi va uning hayotining uzviy bir bo'laki bo'lib kelgan. Barkamol inson haqidagi yuksak, umuminsoniy g'oyalar Sulaymon Boqirg'oniyni asarlarida, ayniqsa, uning hikmatlarida teran ifoda etilgan. Komil inson tarbiyasi masalasi Hakim ota qarashlarining o'zagi bo'libgina qolmay ham milliy, ham umumbashariy mohiyat va qadriyatga ega. Shuningdek, komil inson borasidagi tarbiyaviy ahamiyatga ega fikrlari har bir inson komillikni o'ziga shior qilib olishi zarurligini anglatadi. Bu fikrlarning barchasi tasavvuf ta'limotidan kelib chiqadi. Aniqrog'i, alloma o'z ustozlari Xo'ja Ahmad Yassaviy qarashlariga ergashib, uni rivojlantirgani ayni haqiqat. Mustaqillik sharofati bilan Shayx Najmiddin Kubro hazratlari kabi buyuk zotlarning qadriga yetish, ilmiy-ijodiy merosini o'rganish, tadqiqotlar olib borish, tavallud topgan kunlarini nishonlash kabi imkoniyatlarga ega bo'ldik. Hozirga qadar Naqshbandiya va Yassaviya suluklari bo'yicha mamlakatimizda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo Kubroviya tariqati tarixi va bu yo'nalishga mansub mutasavvuf faoliyati o'rganilishi haqida bunday xulosaga kelib bo'lmaydi. Sharq mashoyixlari orasida butun umrini Haq yo'lga tikish bilan birga xalqi, Vatani, umuman insoniyatni zulm va jaholatdan qutqarish uchun jonfidolar ko'p bo'lgan. Ana shunday mutafakkirlardan biri vatandoshimiz Najmiddin Kubrodir.

Najmiddin Kubro tasavvufning buyuk nazariyotchi va amaliyotchilaridan biridir. Najmiddin valiylik kamoloti, tariqat riyozati va o'zini o'zi poklash, ma'naviy yetuklikka intilishni urfga-an'ana aylantirdi. Najmiddin Kubro hazratlari tafsir, hadis, tasavvuf va boshqa masalalarga oid, shuningdek, ruboiylar meros qoldirgan. Biroq, zamona zayli bilan taniqli turk olimi Mohir Iz aytganidek, bu asarlardan o'ntachasi bizgacha yetib kelgan xolos. Ulardan asosiylari: «Favoih al-jamol va favotih al-jalol» («Jamol xushbo'yliklari va jalolning kashfi»), «Al-usul al-ashara» («O'nta usul»), «Risola at-turuq» («Tariqatlar risolasi»), «Risolat al-xoif al-hoim min lavm al-loim» («Malomatchining malomatidan hazar qiluvchi haqida risola») va boshqalar. Najmiddin Kubroning fors tilida yozgan «Fi odobus solikin» («Soliqlar odobi haqida») risolasi ham bor. Shayx Najmiddin Kubro xonaqohda murid tarbiyalashning o'ziga xos usullarini ishlab chiqadi, o'nta talab asosida tariqat manzillarini bosib o'tish va poklanib, ma'rifatga

erishish yo'llari borligini ko'rsatadi. «Risola at-turuq» («Tariqatlar risolasi»), «Al-usul al-ashara» («O'nta usul») nomli kitoblari ta'lim va tarbiyada quyidagi o'nta talabning muhimligi qayd etiladi: Tavba, Zuhd, Tavokkul, Qanoat, Uzlat, Tavajjuh, Sabr, Muroqaba, Zikr, Rizo. Najmiddin Kubro shariat, tariqat va haqiqatni bosqichlarini har bir o'quvchi qalbiga yetkazishga erishgan. Shu bois ham har asrda unga qayta-qayta murojaat etilgan. Buning yana bir dalilini hijriy VIII asrda (yoki undan ham oldin) yassaviya tariqati darvesh tomonidan yozilgan «Mir'ot ul-qulub» risolasida ko'rish mumkin. Asarning Shvetsiya Upsala universiteti kutubxonasidagi yagona nusxasini o'rgangan o'limi Nejdettin Tosun uning uch bo'limi – shariat, tariqat va haqiqat haqidagi bosqichlardan iboratligini ma'lum qiladi. Muallifning qayd qilishicha, «Mir'ot ul-qulub» Ahmad Yassaviyning tasavvufiy qarashlarini mujassamlashtirgan bir asar bo'lsa-da, unda Najmiddin Kubro va So'fi Muhammad Donishmandning qarashlari ham naql etilgandir» [8]. Najmiddin Kubroning «Al-usul al-ashara» risolasi teran falsafiy asar bo'lib, XIII asr falsafiy yo'nalishlariga kuchli ta'sir etgan, degan fikrlar bor. Najmiddin Kubro otashnafas shoir va ajoyib faylasuf ham edi. U ko'proq ruboiy janrida ijod etdi. Asarlarini fors tilida yozgan, u Xorazmshohlar davrida davlat tili edi. Ruboiylaridan ba'zilar maqbarasi gumbaziga yozilgan, shuningdek, «Riyoziyul-orifin», «Otashkada», «Majolisul-ushshoq», «Tarixguzida», «Tazkiratush-shuaro», «Mushtahobimirsadul-ibod» kabi tarixiy asarlar, lug'at hamda bayozlar orqali bizgacha yetib kelgan. Adib ruboiylarini Ye.S.Bertels turli qo'lyozma manbalardan jamlab olgan va o'zining so'fiylik haqidagi ishida ulardan foydalangan. 1965 yilda Moskvada chop etilgan «Tanlangan asarlar»ga ham kiritgan.

**Xulosa.** Shuningdek, u asos solgan Kubroviya tariqatining qoidalari o'nta bo'lib, ularda bu tariqat yo'lini tutgan shogirdning ichki ma'naviy dunyosi qanday bo'lishi ko'rsatilgan. Insonning sabr-toqatli bo'lishi, boylik va mol-mulkka mukkasidan ketmaslik, har qanday pastkashlik, riyo, makr va hiyla-nayrangga bormaslik, hayvoniy xususiyat ya'ni shahvoniy hirsirlarga berilmaslik g'oyalari ilgari suriladi.

#### Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Ўқитувчи ва мураббийлар куни»га бағишланган тантанали маросимдаги нутқи: [www.uza.uz](http://www.uza.uz).
2. Бертельс А.Е. Художественный образ в искусстве Ирана IX-XV веков (слово, изображение). - М.: Восточная литература РАН, 1997. - 424 с.
3. Муминов И. Танланган асарлар. - 1 жилд. - Т., 1969.
4. Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. - Т., 1970.
5. Сулаймон Боқирғоний. Боқирғоний китоби. - Т.: Ўзувчи, 1991.
6. Селезнев А.Г., Селезнева И.А., Белич И.В. Культ святых в сибирском исламе: специфика универсального. - М.: Изд. дом Марджани, 2009. - 211 с.
7. Тарикат Ясавийа и Крым. Сулейман Бакыргани: дастаны и хикматы. - М.: Государственный республиканский центр русского фольклора, 2015. - 208 с.
8. Tosun N. Yeseviligim ilk donemine aid bir nsale: mir'attil kuliib // ILAM Arastmna dergisi. - 1997. - C. II. - № 2 (Temmuz-Aralik). - S. 41-84.

## YUNOGOGIKA – PEDAGOGIKANING MUSTAQIL SOHASI SIFATIDA

**Tojiboyeva Xilolaxon Maxmutovna**, O'zPFITI direktor o'rinbosari,  
pedagogika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

**Rezume.** Ushbu maqolada pedagogikaning yoshlar ijtimoiy rivojlanishini pedagogik qo'llab-quvvatlashni o'rganadigan, yoshlarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning pedagogik texnologiyalari va usullarini ishlab chiqadigan sohasi – yunogogika haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, pedagogikaning ushbu sohasi o'smirlarga shaxsiy o'zini o'zi belgilash va uning ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurini shakllantirish, o'g'il va qizlarni ijtimoiylashtirish va tarbiyalash jarayonlariga xizmat qilishi bayon qilingan.

**Tayanch so'zlar:** yunogogika, pedagogika, andragogika, yoshlar, ijtimoiy qatlam, o'smirlilik, madaniy dunyoqarash, ijtimoiy rollar, faoliyat, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini ijtimoiy baholash.

## ЮНОГОГИКА КАК САМОСТОЯТЕЛЬНАЯ ОБЛАСТЬ ПЕДАГОГИКИ

**Тожибоева Хилолахан Махмудовна**, заместитель директора УзНИИПН,  
доктор педагогических наук (DSc), старший научный сотрудник

**Резюме.** В данной статье рассматривается область педагогики, изучающая педагогическое обеспечение социального развития молодежи, разрабатывающая педагогические технологии и методы педагогического воздействия на молодежь - юногогика. Кроме того, констатируется, что данное направление педагогики обслуживает процессы личностного самоопределения и формирования у них социально ориентированного мышления, социализации и воспитания юношей и девушек.

**Ключевые слова:** юногогика, педагогика, андрагогика, молодежь, социальный слой, подростковый возраст, культурное мировоззрение, социальные роли, активность, саморазвитие, самосоциальная оценка.

## UNIGOGY AS AN INDEPENDENT FIELD OF PEDAGOGICS

**Tojiboyeva Xilolaxan Makhmudovna**, Deputy director of the UzSRIPS,  
doctor of pedagogical sciences (DSc), senior researcher

**Abstract.** This article discusses the area of pedagogy that studies the pedagogical support for the social development of youth, develops pedagogical technologies and methods of pedagogical influence on young people - junogogy. It is also stated that this direction of pedagogy serves the processes of personal self-determination and the formation of his socially oriented thinking, socialization and education of boys and girls.

**Key words:** junogogy, pedagogy, andragogy, youth, social stratum, adolescence, cultural outlook, social roles, activity, self-development, self-social assessment.

**Kirish.** Jamiyatda o'z o'rini topishga intilish, o'z rollarini to'g'ri bajarishga harakat qilish, o'z oldiga aniq maqsadlar qo'yish, yoshlarning madaniy dunyoqarashi qay darajada shakllanganligiga bog'liq. Aniq madaniy dunyoqarashga ega bo'lgan, turli ijtimoiy xodisalarning ijobiy va salbiy oqibatlari haqida to'g'ri tasavvur hosil qila oladigan yoshlarga o'z hayot yo'llarini aniq belgilab olishga harakat qiladilar.

**Asosiy qism.** Yoshlarga nisbatan madaniy tajovuzlar ta'lim muassasasi, jamiyat va oilada ularning bajaradigan rollarini to'g'ri belgilab bermaslik natijasida vujudga keladi.

XX asming oxirgi yillarida andragogikaning rivojlanishi munosabati bilan bir qator nashrlarda «yunogogika» fanini yaratish g'oyasi bildirildi. Pedagogikaning ushbu sohasi o'smirlar davridagi shaxsga shaxsiy o'zini o'zi belgilash va uning ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurini shakllantirish jarayonida pedagogik ta'sirni o'rganish uchun mo'ljallangan, shuningdek, o'g'il va qizlarni ijtimoiylashtirish va tarbiyalash jarayonlariga xizmat qiladi. Shunday qilib, XX-asming oxirida pedagogikaning «yunogogika» deb nomlanishi mumkin bo'lgan yangi sohasini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar paydo bo'ldi. Yoshlarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish XXI asrning boshida respublikasizning bir qator oliy o'quv yurtlarida «Yoshlar bilan ishlashni tashkil etish» ixtisosligi bo'yicha talabalar tayyorlana boshlaganida alohida ahamiyat kasb etdi.

Yunogogika – pedagogikaning yoshlar ijtimoiy rivojlanishini pedagogik qo'llab-quvvatlashni o'rganadigan, yoshlarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning pedagogik texnologiyalari va usullarini ishlab chiqadigan sohasi bo'lib, uning obyekti — yetarli ijtimoiy tajribasi va jismoniy rivojlanishi uchun yoshlarga maqsadli ta'sir qilish jarayonini o'rganishdan iborat. Yunogogika fanining obyekti ko'rib chiqish bilan bog'liq holda, yoshlarning yosh chegaralarini aniqlash zarurati tug'iladi. Umuman olganda, yoshlarni 14-15 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan odamlar deyishimiz mumkin. Shu bilan birga, bu yosh davri o'zgaruvchan bo'lib, olimlar tomonidan turli bosqichlarga bo'linadi [1]. Yunogogika yoshlar bilan maxsus tashkil etilgan ish jarayonida ularning ijtimoiy yetukligi davrida ularga pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalarini qidiradi. Ushbu faoliyatning subyektlari yoshlar bilan ishlashning professional va noprofessional tashkilotchilardir. Yunogogika fanining predmeti 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni munosib rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy pedagogik faoliyatdir. Yunogogikaning nazariy vazifasi quyidagi darajalarda amalga oshiriladi: yoshlar faoliyatini tashkil etish tajribasini o'rganish va yoshlar muhitidagi pedagogik jarayonlarning holati va natijalarini diagnostika qilish; yoshlar faoliyatining holati va tekshiruvni diagnostika qilish; yoshlarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini prognostik o'rganish [2].

Yunogogikaning texnologik funksiyalari quyidagilardan iborat: yoshlar mehnatini tashkil etish bo'yicha uslubiy materiallarni ishlab chiqish; pedagogika fanining yutuqlarini yoshlar bilan ishlash amaliyotiga joriy etish; ilmiy tadqiqot natijalarining yoshlar bilan ishlashni tashkil etishga ta'sirini baholash va nazariya va amaliyot o'rtasidagi o'zaro aloqani mos ravishda tuzatish.

Yunogogika yoshlar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy parametrlarini belgilaydi. Ushbu parametrlarning asoslari mazkur faoliyatni tashkil etish prinsiplari hisoblanadi. Prinsiplarning mazmuni ushbu jarayonga qo'yiladigan shakllantirilgan talablarda, shuningdek, ulardan kelib chiqadigan shartlar va qoidalarda o'z ifodasini topadi. Pedagogikaning bir tarmog'i sifatida yunogogika faniga oid paydo bo'layotgan ilmiy bilimlar yanada chuqur mulohaza yuritish va rivojlantirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, ushbu soha bilan akmeologiya, ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish pedagogikasi o'rtasidagi sezilarli bog'liqlikni ta'kidlash kerak.

Yoshlar – keng ma'noda, yosh xususiyatlari va ular bilan bog'liq asosiy faoliyatlar asosida shakllanadigan guruh jamoalarining keng majmui. Torroq sotsiologik ma'noda yoshlar ijtimoiy-demografik guruh bo'lib, yoshlarning ijtimoiy mavqeining yoshga bog'liq xususiyatlari, jamiyatning ijtimoiy tuzilishidagi o'rni va vazifalari, o'ziga xos manfaat va qadriyatlari asosida ajralib turadi. Yoshlar zamonaviy jamiyat tarkibida muhim o'rin tutadi (ikkinchisi elementlar o'rtasidagi aloqalar tizimi sifatida tushuniladi), chunki u jamiyatdagi muayyan maqom va rollarning tashuvchisi, uning hayotida faol ishtirok etadi. Biroq, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar mavjudligida namoyon bo'ladigan yosh va u bilan bog'liq «o'tish qobiliyati» ushbu ijtimoiy-demografik guruhning jamiyatdagi mavqeining murakkabligini aniqlaydi: birinchidan, ota-onalarga va kattalarga qaramlik yoshlarning katta qismi o'rtasida ishonchsizlik va muvaffaqiyatsizlik hissini keltirib chiqaradi; ikkinchidan, hayotiy qarorlar qabul qilishda mustaqillikning yo'qligi ko'pincha yoshlarning ichki noroziligini, tanlov va

o'z taqdirini o'zi belgilash masalalarida o'z xohishi bilan emas, balki boshqa birovning irodasi bilan cheklanishiga rozi bo'lmashini shakllantiradi, agar bu iroda yoshlarning ehtiyojlari va manfaatlariga mos kelmasa ham hisobga olishga majbur bo'ladilar; uchinchidan, jamiyat tomonidan tengsiz, ijtimoiy jihatdan etuk bo'lmagan, past guruh sifatida yoshlarga bo'lgan munosabat yoshlar ongida ijtimoiy adolatsizlik, huquqbuzarlik hissini kuchaytiradi, ularning past ijtimoiy mavqei belgilaydi.

Natijada, yosh avlod jamiyat oldida turgan muammolarni hal qilishdan chetda qoladi, bu muammolarni hal qilish uchun mustaqil faoliyat ko'nikmalariga ega emas. Shu bilan birga, aynan yoshlik davrida o'z-o'zini anglash zarurati, ayniqsa, aniq namoyon bo'ladi. Ushbu ehtiyoj va uni amalga oshirish imkoniyatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi, bu esa, o'z navbatida, bir qator boshqa qarama-qarshiliklarni belgilaydi: axloqiy ong va xatti-harakatlar, niyatlar, motivlar va yoshlarning harakatlari. Darhaqiqat, yoshlar - jamiyatning tub negizi, aholining ilg'or qatlami, kelajakning ishonchli vorislardir. Har bir davr yoshlarining bilim darajasi, dunyoqarashi, o'y-fikri, ma'naviy qiyofasiga qarab o'sha jamiyatning ertangi kunini tasavvur etish mumkin. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [3].

**Xulosa.** Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko'p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi [4] ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O'zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xalqaro terrorizm va ekstremizm shiddati bilan o'sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati - 2016-yil 14-sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun [5] ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yamidan ko'prog'i yoshlardan iborat bo'lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlarni yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, yurtida amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O'zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o'rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Тесленко А.Н. Юногика интегративное направление научно-педагогического осмысления феномена молодежи // Вестник АПН Казахстана. - А., 2016. - № 5. - С. 19-28.
2. Рожков М.И. Социально-педагогическое сопровождение личности в процессе самоорганизации детей и молодежи: <https://cyberleninka.ru>
3. <https://strategy.uz/index.php?news=615>
4. O'zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 19-sentyabrdagi 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. - AQSh, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni: <https://lex.uz>

## РАЗВИТИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ

**Абдуллаева Шахзода Абдуллаевна**, декан факультета языков ТГПУ, доктор педагогических наук, профессор

**Аннотация.** В статье научно обоснована сущность применения цифровых технологий при обучении русскому языку студентов педагогических вузов. В ней нашли своё отражение научно-теоретические основы развития образовательных компетенций студентов на основе цифровых технологий; обоснована значимость совершенствования методики преподавания русского языка.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, образование, развитие, методика обучения, компетенции, дидактика, парадигма.

## PEDAGOGIKA UNIVERSITETLARI TALABALARIDA TA'LIM KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

**Abdullayeva Shahzoda Abdullayevna**, TDPU tillar fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor

Qanchalik g'alati tuyulmasin, kitob o'qish tinglash qobiliyatini oshiradi, boshqalarni oson tushunishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, kitobni ovoz chiqarib o'qiganda yanada samarali bo'ladi.

20. Kitob o'qish yaxshi hikoyago'yga aylantiradi.

Inson kitobni qancha ko'p o'qisa, hikoya qilish qobiliyati shunchalik oshadi. Keraksiz gaplarni kamroq gapirib, keraklilarini yaxshiroq yetkazadigan bo'ladi.

21. Kitob o'qish yaxshilik qilishga undaydi.

Faol kitobxonlar xayriya ishlari bilan boshqalarga nisbatan uch marta ko'proq shug'ullanishadi. Kitob o'qish muhtoj insonlarga yordam qo'lini cho'zishga undaydi.

**Xulosa.** Shunday qilib, kitob o'qishning inson hayotida ahamiyati beqiyos ekanligini hisobga olib, o'quvchilarda kitob o'qishga qiziqishni shakllantirishimiz maqsadga muvofiq.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017.

2. Граник Г.Г., Бондаренко С.М., Концевая А.А. Книга для учителя. - 2-изд., доп. - М.: Педагогика, 1991. - 256 с.

3. Граник Г.Г., Концевая Л.А. Изучение читательской позиции школьников // Вопросы психологии. - М., 1994. - № 5. - С. 51-59.

4. [https://studopedia.ru/10\\_178234\\_rol-knigi-v-zhizni-cheloveka](https://studopedia.ru/10_178234_rol-knigi-v-zhizni-cheloveka).

---

## ЦИФРОВАЯ ШКОЛА – ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ТРАНСФОРМАЦИИ: ЧАСТЬ ПЕРВАЯ

**Махмудов Абдухалим Хамидович**, д.п.н., руководитель отдела  
«Точные науки и цифровые образовательные технологии» УзНИИПН

**Аннотация.** В данной статье сделан анализ процесса трансформации традиционной школы в цифровую с учетом сложившихся социально-экономических, организационно-структурных и управляющих состояний школьного образования. Раскрыто содержание, философия и методология процесса трансформации традиционного школьного образования в русле современных мировых тенденций.

**Ключевые слова:** цифровая трансформация, дидактика, воспитание, традиционное образование, школьное образование, педагог, электронные ресурсы.

### RAQAMLI MAKTAB ISTIQBOLLARI VA TRANSFORMATSIYA YO‘LLARI: BIRINCHI QISM

**Maxmudov Abduxalim Xamidovich**, O‘zPFITl «Aniq fanlar va raqamli ta’lim texnologiyalari» bo‘lim mudiri, p.f.d.

**Annotatsiya.** Ana’naviy maktabning raqamli transformatsiya jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-tuzilmaviy va boshqaruv nuqtai nazardan tahlil qilindi. Ana’anaviy maktabning falsafiy, metodologik mazmuni zamonaviy ta’lim tendensiyalari asosida ochib berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** raqamli transformatsiya, didaktika, ta’lim mazmuni, tarbiya, an’anaviy ta’lim, maktab ta’limi, pedagog, elektron resurslar.

### DIGITAL SCHOOL – PROSPECTS AND THE WAYS OF TRANSFORMATION: PART ONE

**Makhmudov Abdukhalim Hamidovich**, DSc, Head of the Department «Exact sciences and digital educational Technologies» of UzSRIPS

**Abstract.** The analysis of the process of transformation of a traditional school into a digital one is made, taking into account the prevailing socio-economic, organizational, structural and governing conditions of school education. The content, philosophy and methodology of the process of transformation of traditional school education in line with modern world trends are revealed.

**Key words:** digital transformation, didactics, upbringing, traditional education, school education, teacher, electronic resources.

**Введение.** Президент страны Ш.М.Мирзиёев в своих выступлениях неоднократно повторял, что будущее страны зависит от качества образования – «человеческого капитала». По инициативе президента начались реформы образования, которые затронули все виды непрерывного образования: дошкольное, школьное, вузовское, послевузовское, систему повышения квалификации и переподготовки кадров. При этом образовательные реформы затрагивают все аспекты этой сферы: финансовые, технологические, методические, методологические, технические, социальные и др. В этих условиях большое внимание уделяется школьному образованию, так как в этот период у обучающихся формируются социально-культурные, нравственные, интеллектуальные и психологические качества личности. Идет процесс социализации личности и, следовательно, от качества проводимых реформ зависит будущее страны. Одним из ключевых в этих реформах являются вопросы цифровизации школьного образования. Данная статья попытка анализа процесса трансформации традиционной школы в цифровую с учетом сложившихся



ся социально-экономических, организационно-управляющих и содержательно-структурных составляющих этой сферы.

**Основная часть.** Практика показывает, что цифровизация школы это не только внедрение информационно-коммуникационных технологий в учебный процесс, а комплекс подготовительных и сопровождающих мероприятий организационного, методологического и дидактического характера. Переход к цифровой школе происходит в цифровой среде, через которую образовательный процесс обеспечивается цифровыми учебно-методическими материалами, инструментами и сервисами [1, 2]. Сейчас становится явной, что цифровая трансформация традиционной школы должна охватывать все составляющие этой системы: содержание образования (учебный контент); формы методы и технологии обучения и учения; роль участников образовательного процесса; отношений педагога и ученика; управление школой; результаты образования и др. Взаимосвязь основных образовательных элементов школьного обучения представлена на рис. 1.



Рис. 1. Основные образовательные элементы школьного обучения

В первой части рассмотрим трансформацию содержания образования традиционной школы.

**Содержание образования.** Трансформация содержания образования складывается из следующих аспектов: оцифрованные учебные материалы (интернет-источники), нормативы образовательных достижений (интегративные учебные предметы), дифференциация образовательного результата (нормативный, высокий, продвинутый).

В традиционной школе содержание образования отождествляется с содержанием учебника, так как учебник является основным и единственным источником учебного материала. В настоящее время участникам образовательного процесса доступно множество достоверных источников оцифрованного учебного материала [3, 4]. Многие из них открытые и не требуют оплаты, доступны через мобильные и компьютерные технологии. Информации достаточно много и насчитывают сотни тысячами образовательных материалов, и их количество постоянно растет, в том числе, за счет разработок самих педагогов. В этих условиях создается возможность формирования индивидуальной траектории обучения, дифференцируя учебные материалы с учетом индивидуальных особенностей и потребностей учащихся, оптимизируя их учебную работу. Это, в свою очередь, создает возможность достижения высоких показателей успеваемости каждым учеником в соответствии с государственными образовательными стандартами.

Второй аспект трансформации содержания образования состоит в том, что содержания образования фиксируется в требованиях к образовательным результатам, норма-

тивы образовательных достижений [5]. На основе действующих государственных образовательных стандартов (модель личности выпускника школы) определяется и утверждается нормативы для каждого интегративного учебного предмета (предметной области). Нормативы образовательных достижений лежат в основе интегративного учебного предмета (ИУП). Каждый интегративный учебный предмет состоит из учебных модулей. Каждый модуль, в свою очередь, включает в себя несколько содержательных блоков. С каждым блоком связаны образовательные результаты, которые задаются операционально, согласно государственному образовательному стандарту. Каждому блоку соответствует набор учебных материалов и заданий для мониторинга учебного процесса. Контрольные задания разрабатываются для каждого учебного результата, зафиксированного в нормативах образовательных достижений. Учебная работа над каждым блоком завершается оценкой успешности достижения запланированных в нем учебных результатов. Это позволяет объективно фиксировать прогресс учебной работы каждого обучающегося и гарантировать достижение им запланированных учебных результатов. Нормативы образовательных достижений разрабатываются для каждой изучаемой темы по всем учебным интегративным предметам учебного плана.

Третий аспект трансформации содержания образования рассматривается с точки зрения дифференциации учебной работы школьников, каждый образовательный результат задается на нескольких уровнях: нормативном (обязательном для всех, требования государственного образовательного стандарта), высоком (углубленная подготовка, включая требования региональных интересов) и продвинутом (для специальной подготовки). Учащиеся могут осваивать материалы каждого модуля на нормативном, высоком и продвинутом уровне. Это позволяет учесть интересы каждого ученика и дифференцировать их учебную работу. Подобная траектория обучения не универсальна: в зависимости от интереса к тому или иному учебному интегративному предмету учащийся может освоить один модуль предмета на одном уровне, а другой - на другом. Например, ученик осваивает естественные интегративные предметы на нормативном уровне, а гуманитарные на продвинутом уровне.

Структура и содержание интегративного учебного предмета показана на рис. 2.



Рис. 2. Реализация интегративного учебного предмета в цифровой среде

Таким образом, в обязательном для всех интегративном предмете учащиеся осваивают один и тот же набор учебных блоков, но каждый учащийся может выбрать свой уровень их изучения. Совокупность всех ожидаемых образовательных результатов, которая привязана к интегративным предметам и образует систему нормативов образовательных достижений, определяет содержание учебной работы. Нормативы образовательных достижений фиксируют не только абсолютные результаты, но и относительные, то есть приращение по отношению к предыдущему результату. Нормативы образовательных достижений разрабатываются для каждой изучаемой темы по всем (обязательным и факультативным) интегративным предметам учебного плана, причем каждый результат фиксируется на нормативном, расширенном и продвинутом уровнях. С помощью нормативов образовательных достижений устанавливается прямая связь между требованиями Государственного образовательного стандарта, региональными и местными установками, планируемыми результатами обучения и необходимыми для этого учебными материалами. Все это определяет содержание обучения (осваиваемые знания, формируемые умения и навыки, а также компетенции). Основу для описанной выше структуризации содержания образования задают процедуры педагогического дизайна.

**Выводы.** Резюмируя сказанное выше отметим, что цифровизация школы это не только внедрение информационно-коммуникационных технологий в учебный процесс, а комплекс дидактических, методических, диагностических мероприятий в цифровой среде. Переход к цифровой школе происходит в цифровой среде, через которую образовательный процесс обеспечивается цифровыми учебно-методическими материалами, инструментами и сервисами. В данной статье мы рассмотрели трансформацию содержания образования в цифровой среде. Вопросам роли педагога, ученика и остальных участников образовательного процесса в цифровой среде будет отведена следующая часть статьи.

#### Литература:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/model-tsifrovoy-shkoly-i-tsifrovaya-transformatsiya-obrazovaniya>
2. Шумская О.А., Придворцева И.Г., Татарникова Е.Г. Цифровая трансформация в образовании: вызовы современного общества // Молодой ученый. - Ч., 2021. - № 7 (349). - С. 76-77.
3. Маниковская М. А. Цифровизация образования: вызовы традиционным нормам и принципам морали // Власть и управление на Востоке России. - М., 2019. - № 2 (87). - С. 100-106.
4. <https://iite.unesco.org/ru/publications/>
5. Махмудов А.Х., Анарбаева Ф.У. Рақамли таълимда педагогик технологияларни қўллаш имкониятлари // Development issues of innovative economy in the agricultural sector. - 2021. - С. 476.

---

**TALABA-YOSHLARDA EKOPEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISHNING AMALIY VA ILMIY-NAZARIY TAHLILLARI**

**Murtozayeva Maxfuza Murtozayevna**, *TDPU professori v.b.,  
pedagogika fanlari doktori*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ekologik ta'limning integratsiyalashuvi, uni rivojlantirishning ahamiyati, ekopedagogikaga oid materiallar, ilmiy xulosalarni o'rganish tufayli talaba-yoshlar, inson shaxsining faoliyati, hozirgi ekologik ahvolga bevosita bog'liqligini anglashi, bo'lajak pedagoglarning ichki dunyosi bilan ekologik mas'uliyatini oshirish uchun ijtimoiy jamiyatda muntazam harakatining zarurligi to'g'risida fikrlar yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** talaba yoshlar, ekologik ta'lim, integratsiyalashuv, rivojlantirish, ekopedagogika, ijtimoiy jamiyat.

**ПРАКТИЧЕСКИЙ И НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ  
РАЗВИТИЯ ЭКОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ  
У СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ**

**Муртозаева Махфуза Муртозаевна**, *и.о.профессор ТГПУ,  
доктор педагогических наук*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы интеграции экологического образования, важность его развития, приведены материалы по экопедагогике, осознание студенческой молодежью непосредственной связи деятельности личности с текущей экологической ситуацией, необходимость систематического движения будущих педагогов в социальном обществе с целью повышения их экологической ответственности перед своим внутренним миром благодаря изучению научных выводов.

**Ключевые слова:** студенческая молодежь, экологическое образование, интеграция, развитие, экопедагогика, социальное общество.

**DEVELOPMENT ECOPEDAGOGICAL COMPETENCE OF STUDENTS-YOUTHS  
AND PRACTICAL, SCIENTIFIC, THEORETICAL ANALYSIS**

**Murtozaeva Makhfuza Murtozaevna**, *associate professor of  
TSPU, doctor of pedagogical sciences*

**Abstract.** In this article, the integration of environmental education, the importance of its development, materials related to ecopedagogy, due to the study of scientific conclusions, students and young people, due to the study of the activities of the human person, are directly related to the current environmental situation, and the need for regular action in social society to increase the inner world of future pedagogues and their environmental responsibility.

**Key words:** student youth, ecological education, integration, development, ecopedagogy, social society.

**Kirish.** Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga, demokratik huquqiy davlatni barpo etishga qaratilgan. Ushbu jarayonda ekologik muammolarning yechimi va asosiy harakatlantiruvchi kuch yoshlarning ekologik tarbiyasi alohida o'rin egallaydi. Jamiyatning yangilanishi, fuqarolik jamiyatining, ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotning rivojlantirilishi, mamlakatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida muhim o'rin egallaydi. «Sharq donishmandlari

aytganidek, «... eng katta meros — bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik — bu bilimsizlikdir!» [1] Shu bois, zamonaviy, innovatsion bilimlarni o'zlashtirish, chin ma'noda ma'rifatli, yuksak darajadagi madaniyat egasi bo'lmoqlik barchamiz uchun ijtimoiy hayotiy zaruriyatga aylanishi lozim. Talaba-yoshlarning ekopedagogik kompetentligini rivojlantirishda ta'lim tizimidagi samarali ishlar, ommaviy axborot vositalarida televizion ko'rsatuvlarda, radio eshittirishlar, gazeta va jurnallarda ekologiyaga oid maqolalar mamlakatimizda atrof-muhit muhofazasi, mavjud ekologik vaziyatni saqlash, aholida ekologik madaniyatni rivojlantirish, tabiatga zarar etkazmaslik, jonli tabiatni asrash bo'yicha to'plangan tajribalarning namoyish etilishi, pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari talabalarida katta qiziqish uyg'otmoqda.

**Asosiy qism.** Ta'lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy o'quv yurtlari muhim o'rin egallamoqda. 2021 yilning yanvar holati bo'yicha O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari soni 130 taga yetdi. Jumladan, davlat oliy ta'lim muassasalari — 96 ta; nodavlat oliy ta'lim muassasalari - 9 ta; xorijiy OTMLar va ularning filiallari — 25 ta [6]. O'z yo'nalishida tayanch oliy o'quv yurti hisoblangan barcha etakchi universitet va institutlarning respublika bo'ylab filiallari tashkil etilgan [2]. Filiallar nafaqat viloyat markazlari va yirik shaharlarda, balki chekka tumanlarda ham ish boshlagan. Oliy ta'lim muassasalarida MDH va Evropaning qator nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikdagi double degree ta'lim dasturlari asosida o'qitish qamrovi kengaymoqda. Birgina 2019/2020 o'quv yilining o'zida AQSh, Germaniya, Fransiya Italiya, Finlyandiya, Niderlandiya, Turkiya, Indoneziya, Isroil va boshqa 22 ta davlatning 104 ta etakchi universitetlari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida bakalavriatning 83 ta ta'lim yo'nalishi va magistraturaning 64 ta mutaxassisligi bo'yicha qadarlar tayyorlash yo'lga qo'yildi [4]. Bugungi kunda yurtimizda AQSh, Buyuk Britaniya, Koreya Respublikasi, Rossiya, Hindiston, Singapur, Malayziya va boshqa davlatlar bilan hamkorlikda 22 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasi va filiallari faoliyat ko'rsatmoqda [6]. O'zbekistondagi xorijiy oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xalqaro huquq va munosabatlar, biznesni boshqarish, dasturlash va boshqa zamonaviy yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlanadi. Qator oliy ta'lim muassasalari huzurida tayyorlov kurslari faoliyati yo'lga qo'yilib, qulay shartlar va qator imtiyozlar asosida abituriyentlarni o'qishga tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Jumladan, Muhammad Muso Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida Belarus davlat informatika va radioelektronika universiteti bilan hamkorlikda tayyorlov kurslari tashkil etilgan. 2020/2021 o'quv yilidan boshlab yangi professional ta'lim tizimi tashkil etilib, ularda tahsil oluvchilarga ham qator imtiyozlar berildi. Misol uchun, texnikumlarda ikki yillik tahsildan so'ng fanlarni o'zlashtirishda alohida muvaffaqiyatlarga erishgan bitiruvchilar oliy ta'lim muassasasida o'qigan kasbi bo'yicha suhbat asosida o'qishga qabul qilinadi. Hozirda 339 ta kasb-hunar maktabi, 201 ta kollej, 185 ta texnikumlar mavjud [6].

Oliy pedagogik ta'limga jumladan, «Umumiy pedagogika», «Umumiy pedagogika va psixologiya», «Pedagogik aksiologiya», «Ijtimoiy pedagogika», «Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi», «Pedagogik texnologiya», «Qiyosiy pedagogika» kabi fanlarning o'quv dasturlariga ekologiyaga doir nazariy xulosalar, ilmiy qarashlar, mamlakatimizning hozirgi davrdagi taraqqiyotiga xos bo'lgan ekologik ma'lumotlar bilan to'ldirildi. Ushbu fanlarning ekologik ta'limdagi ahamiyati shundaki, ulardagi materiallar, ilmiy xulosalarni o'rganish tufayli talaba-yoshlar, inson shaxsining, faoliyatining hozirgi

ekologik ahvolga bevosita bog'liqligini anglaydi, jamiyatda har bir insonning ichki dunyosi bilan, ekologik mas'uliyatini oshirish uchun muntazam harakati lozimligi ta'kidlanadi. Talaba-yoshlar jamiyatimiz ijtimoiy, iqtisodiy yuksalishida muhim vazifani bajaradilar, ular ekologik jihatdan yuksak bilimga ega bo'lgan barkamol avlodning tarbiyasi uchun mas'uldirlar. Bunday talab ularning ekologik bilimlarni chuqur egallashlarini, oliy pedagogik ta'lim tizimidagi fanlarni, yangi innovatsion texnologiyalar asosida chuqur o'rganish, ushbu fanlarning bevosita mavjud ekologik vaziyat bilan aloqadorligini tushunib olishlarini, ekologik ma'lumotlar, xulosalar, qarashlar, ilmiy yo'nalishlar mazmunini bilishni talab qiladi. Talaba-yoshlarga o'quv amaliyoti va pedagogik amaliyot olib borish, umumta'lim maktablarida o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ham atrof-muhit muhofazasiga doir materiallar bilan ishlash, undan tarbiyaviy ishlarda samarali foydalanilmoqda. Oliy pedagogik ta'limda talabalarga ekologik vaziyatning mohiyatini tushuntirishda, O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan har yili ekolog jurnalistlar bilan hamkorlikda festival o'tkazilishi odat tusiga kirganligi va ushbu tadbir natijasida matbuotda e'lon qilingan ekologik mazmundagi materiallarni mustaqil o'rganish taklif qilinadi. Ushbu tanlovning asosiy maqsadi ekolog jurnalistlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashdir. Jamoatchilikni, jumladan, talaba yoshlarga tabiatni himoya qilish, undan unumli foydalanish bo'yicha olib borilayotgan samarali ishlar natijasini yaqindan tanishtirishga qaratilgandir. Talaba-yoshlar ekopedagogik kompetentligining rivojlanishiga nodavlat va notijorat tashkilotlari (NNT) ham o'z hissasini qo'shmoqda, ular davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda talaba yoshlar orasida tarbiyaviy ahamiyatga molik ekologik tadbirlarni o'tkazib kelishmoqda. Tarbiyaviy ekologik yo'nalishdagi samarali faoliyati bilan «Logos», «Ekosan», «Amudaryo va Orol himoyachilari ittifoqi», «Hayot», «Buloqcha» kabi nodavlat va notijorat tashkilotlari talaba yoshlar e'tiborini qozonmoqda.

Davlatimizning mustaqil rivojlanishi davrida talaba yoshlarimizni ekologik tarbiyasida muhim o'rin egallayotgan, ushbu masalada qator amaliy ishlarni bajarayotgan jamoat tashkilotlari vujudga keldi. Shular jumlasiga «O'zbekiston yoshlar ittifoqi» tashkilotiga yoshlar ijtimoiy harakati kiradi. O'zbekistonda 2017 yilda O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil qilingan [3]. Bugungi kunda esa, «O'zbekiston yoshlar ittifoqi» tarkibida 5,5 mln. yoshlarni birlashtirgan yirik yoshlar tashkilotidir. Ular orasida 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan a'zolar bor. Shuningdek, tashkilot tarkibiga 10-14 yoshli o'quvchilardan tashkil topgan «Kamalak» bolalar tashkiloti ham kiradi. Aholining 60% yoshlardan tashkil topgan O'zbekistonda yoshlar tashkilotining asosiy vazifasi bu mamlakat yoshlarini birlashtirish va ularning turli tashabbuslarini amalga oshirishda yordam berishdir [3]. Ushbu tashabbuslar orasida ilmiy ishlar, tadbirkorlik hamda ijodiy loyihalar va boshqa turli tashabbuslar ham bor. «O'zbekiston yoshlar ittifoqi» tashkiloti a'zolari tomonidan viloyatlar hududlaridagi ekologik vaziyat o'rganilib, uni yanada yaxshilash, ko'kalamzorlashtirish, hududlardagi mavjud tabiiy resurslarni avaylab-asrash, mavjud tabiiy resurslardan unumli foydalanish borasida amaliy ishlar bajarilmoqda. «O'zbekiston yoshlar ittifoqi» tashkilotining oliy o'quv yurtlaridagi boshlang'ich tashkilotlarining tashabbuslari bilan ekologik tarbiyaga qaratilgan qator ishlar yo'lga qo'yilgan. Mustaqilligimiz davrida vujudga kelgan ekologik harakat va xalqaro ekologik tashkilotlar faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri talaba yoshlar orasida ekologik tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish, ekopedagogik kompetentligini rivojlantirish hisoblanadi. 2009 yilda Ekologik harakat vakillaridan 15 nafarining mamlakatimiz Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga saylanganligi muhim ahamiyat kasb etadi [5]. «Bugungi kunda ekologik yo'nalishdagi 100 dan ortiq nodavlat

notijorat tashkilotlarni birlashtirgan O'zbekiston Ekologik harakatidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar oldida katta va mas'uliyatli vazifalar turibdi» [5]. Xalqaro ekologik tashkilotlar vazirlilar bilan hamkorlikda, maktablar, oliy o'quv yurtlari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari pedagog-xodimlari, talabalar hamda ularning muntazam ishtirokida «Ekologiya va salomatlik» kunlari o'tkazib kelinmoqda. O'tkazilayotgan tadbirlar natijasida har yili kuz va bahor oylarida ariq zovurlar tozalanadi, shaharlar va qishloqlarda vujudga kelgan chiqindilar yo'q qilinadi yoki belgilangan xavfsiz joylarga to'planadi, zararsizlantiriladi. Ekologik harakatning barcha viloyatlardagi ushbu tadbirlarning tashkilotchisi va ishtirokchisi talaba-yoshlardir. Ekologik tarbiyaga oid faoliyatda erishilgan natijalar millionlab maktab o'quvchilari, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, oliy o'quv yurtlari talabalarining faol ishtiroki tufaylidir. Ekologik harakatning tashabbusi va bevosita ishtirokida talaba-yoshlar orasida «Ekofestival»lar o'tkazish an'anaga aylangan. «Ekofestival» doirasida xalqaro ekologiya yer va suv kunlari, atrof-muhitni asrash tadbirlari o'tkaziladi. Shuningdek, «Mustaqillik kuni», «Navro'z» va boshqa milliy bayramlarimizga bag'ishlanib mahallalarda talabalar, tadbirkorlar, tadbirkor yoshlar ishtirokida ekologiya kunlari tashkil etiladi. Ekologik festivallar «O'zbekiston milliy parklari», «Ekoturizm va barqaror rivojlanish» hamda «Biz Orol bolalari» kabi mavzularda tashkil etilmoqda [6].

Talabalarda ekopedagogik kompetentlikni rivojlantirishda oliy o'quv yurtlari talabalar orasida ekologik muammolarga bag'ishlanib muntazam sur'atda tashkil etilayotgan, o'tkazilayotgan ko'rik tanlovlar, bolalar badiiy ijodiy namunalari, ko'rgazmalari, ekoturizm rivojlanishini targ'ib etuvchi tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ekologik harakatning mamlakatimiz yoshlarida ekopedagogik kompetentlikni rivojlantirish borasidagi amaliy va tarbiyaviy ishlardan yana biri aholi orasida «Eng yaxshi shahar», «Eng yaxshi tuman», «Eng yaxshi muassasa», «Eng yaxshi mahalla», «Toshkent ekologiyasi: yoshlar tashabbusi», «Mening shahrim – mening uyim» kabi ekologik, tarbiyaviy ahamiyatdagi tadbirlarni o'tkazayotganligi yoshlar orasida ekologik tushuncha, atrof-muhitni asrashga e'tibor, tabiat in'omlariga insoniy hurmat, ya'ni ekologik madaniyatning yangi jihatlarini vujudga keltirmoqda. Ekologik harakatlarning ta'siri bevosita mamlakatimiz yosh olimlari e'tiborini ushbu masalalar yechimiga ham qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining soha institutlari, universitetlarda faoliyat ko'rsatayotgan yosh tadqiqotchipedagoglari, doktorant va tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilarning ilmiy tadqiqotlarida ekologik muammolarning ma'lum qismlari bo'yicha yechim izlanmoqda. Yosh ilmiy tadqiqotchilarga xalqaro va respublikamiz darajasidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etish, ilmiy maqolalarini to'plamlarda chop etishga amaliy yordam etmoqda. Eng muhim natijalardan biri yosh olimlar ilmiy xulosalari, ilmiy ishlari va qo'lga kiritgan natijalari asosida berilgan takliflar ekologik tizimda amaliyotga kiritilishiga ham yordam bermoqda.

Mamlakatimiz qishloqlarida yashayotgan talaba-yoshlar orasida ekologik ma'rifat, tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi amaliy ishlar o'tkazilmoqda. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida va viloyatlardagi ekologik qiyinchiliklar vujudga kelgan tumanlarga toza ichimlik suv chiqaruvchi nasoslar etkazib berildi. Har yili «Ekosan» xalqaro ekologik tashkiloti tomonidan bolalar kasalxonalari, aholi yashash joylarida faoliyat yuritayotgan dehqon bozorlari hududlarida yuqumli kasalliklarning oldini olishga mo'ljallangan medikamentlar bilan ta'minlash yo'lga qo'yilgan. Shu maqsadda qishloq turmush madaniyati, ijtimoiy salomatlik va ekologiyaga oid loyihalarning hayotga tatbiq etilganligi

qishloqlarimizda istiqomat qilayotgan yoshlarning ekopedagogik kompetentligini rivojlantirish, ularning ekologik tarbiyalanishida muhim omillardan bo'lmoqda [7]. Talaba-yoshlarning ekologik tarbiyasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan bir qator ishlar vazirliklar tizimidagi muhim vazifalardan biri sanaladi. Oliy ta'limning qator muassasalarida yuqori malakali oliy ma'lumotli ekolog mutaxassislar tayyorlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan ekologik mavzudagi maxsus adabiyotlar nashr qilinishi yo'lga qo'yilgan.

**Xulosa.** O'zbekistonda uzluksiz ta'limning barcha jabhalaridagi islohotlar natijalari jahondagi etakchi mamlakatlar tomonidan e'tirof etilishi munosabati bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda yoshlarning ekologik tarbiyasi muhim o'rin egallaydi. Shu munosabat bilan uzluksiz ta'lim tizimi ekologik ta'limning takomillashuviga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Demokratik islohotlarning keng miqyosda olib borilishi va ijtimoiy fuqarolik jamiyatining rivojlantirilishi jarayonida, talabalar ekologik tarbiyasi masalalari yechimi uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida faol ishtirok etishni taqozo etadi. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish davrida oliy ma'lumotli pedagog mutaxassislar tayyorlash va ular ekopedagogik kompetentligini, ekologik tarbiyalanganlik darajasini rivojlantirish bo'yicha oliy ta'limdagi bir qator fanlar o'quv dasturlari, ma'ruzalar matnlari tizimi takomillashtirildi. Qayd etish lozimki, oliy ma'lumotga ega bo'lgan bakalavrlarning O'zbekiston ekologik harakatiga a'zo bo'lishlari, ular tomonidan ekologik masalalar yechimiga taklif va mulohazalar bildirishlari va ilmiy xulosalar taqdim etilayotganligi uzluksiz ta'limdagi samarali tarbiyaviy ishlar natijasidir.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi PF-5953-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.03.2020 y., 06/20/5975/0377-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi: <https://uza.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi PF-5106-sonli Farmoni // Xalq so'zi. - T., 2017. - 6 iyul.
4. Abibullaev D. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikning yangi bosqichi: <http://old.uza.uz>
5. Aliqulova M.M. Bo'lajak o'qituvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish (O'rta Osiyo allomalarining ekologiyaga oid qarashlari asosida): Monografiya. - T.: Fan, 2010. - 117 b.
6. Murtozayeva M.M. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglar ekologik kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: Ped. fanl. d-ri ... Dis. - T., 2022. - 255 b.
7. Qosimova N. Global iqlim o'zgarishi va jurnalistika: O'quv-amaliy qo'llanma. - T.: Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi, 2016. - 96 b.



## BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

*Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, TDPU professori*

**Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish muammolari va uning yechimlariga doir olib borilgan tadqiqot ishining mazmuni yoritilib, tadqiqot natijasidagi xulosa va tavsiyalar bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** o'qituvchi, tarbiya, faoliyat, tayyorgarlik, tizim, takomillashtirish, muammo, yechim, ilm, fan, tizim, innovatsiya, texnologiya, ta'lim, standart, samara, maxsus, uslubiy, natija, imkoniyat, tarbiyaviy faoliyat.

## ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Вохидова Норпошшахон Хабибуллаевна, профессор ТГПУ*

**Аннотация.** В статье освещаются проблемы совершенствования системы подготовки будущих учителей к воспитательной деятельности и содержание исследовательской работы, проведенной по их решению, а также излагаются выводы и рекомендации по результатам исследования.

**Ключевые слова:** учитель, воспитание, деятельность, подготовка, система, совершенствование, проблема, решение, наука, дисциплина, система, инновация, технология, образование, стандарт, эффект, специальный, методический, результат, возможность, воспитательная деятельность.

## PROBLEMS AND SOLUTIONS TO IMPROVE THE SYSTEM OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR EDUCATIONAL ACTIVITIES

*Vokhidova Norposhshakhon Habibullayevna, professor of TSPU*

**Abstract.** The article covers the problems of improving the system of preparing future teachers for educational activities and the content of the research work carried out on its solutions, and outlines the conclusions and recommendations in the result of the study.

**Key words:** teacher, upbringing, activity, preparation, system, improvement, problem, solution, science, science, system, innovation, technology, education, standard, effect, Special, methodological, result, opportunity, educational activity.

**Kirish.** Jahon ta'lim tizimida ta'limni axborotlashtirish sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ma'naviy-axloqiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, shaxsiy va kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirish texnologiyalari amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, Sarbon deklaratsiyasi (Sorbonne Declaration), ta'lim barcha uchun (Education For All (EFA)), yillik rivojlanish maqsadlari (Millennium Development Goals (MDGs)), Jahon ta'lim forumi (World Education Forum) va Lissabon Konventsiyalari doirasida hamda Bolonya jarayoni tarkibida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning innovatsion yo'nalishlarini belgilash tarbiya jarayonining interfaol shakllari variativligini ta'minlash, bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish borasida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

**Asosiy qism.** Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida shaxs tarbiyasini amalga oshirishning mazmunini va axborot-ta'lim muhitini shakllantirish, kasbiy-pedagogik

ijodkorlik muammolariga yechim topish (Benchmarking), ta'lim sifatini oshirishni kompleks boshqarish (Total quality management), yagona elektron tizim orqali ta'limni amalga oshirishning talaba-pedagog muloqoti, ta'lim berishning umumkasbiy va mutaxassislik kompetentsiyalariga asoslangan (Tuning) intellektuallashtirilgan tizimlari va zamonaviy didaktik vositalarni o'qitishning bosqichli modelini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim oluvchilarning kreativ kompetentligi (ijodiy fikrlash, tahlil qilish, sintezlash, mujassamlashtirish qobiliyatlari)ni innovatsion texnologiyalar vositasida rivojlantirishning zamonaviy metodlarini shakllantirish, ta'limning yangi paradigmalariga o'tish, talabalarning o'z-o'zini ijodiy rivojlantirishini ta'minlovchi innovatsion yondashuvlarning metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga ahamiyat berilmoqda. Respublikamizda so'nggi yillarda innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishning me'yoriy huquqiy asoslari yaratilmoqda. Mamlakatimizda «Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarligi» [1] masalasiga ustuvorlik berilmoqda. Bu, o'z navbatida, innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Muammoni Sharqning Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Kaykovus, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, A.Avloniy, A.Fitrat, M.Behbudilarning yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning tarbiyaviy mohiyati, A.Begmatov, M.Kahharova, T.Maxmutov, J.Tulenov, E.Yusupov, O.G'aybullaev kabi faylasuflar, Sh.Barotov, M.Davletshin, V.Karimova, Z.Nishonova, N.Safaev, R.Sunnatova, G'.Shodmonov, G'.Shoumarov, E.G'ozievlar bo'lajak mutaxassislar tarbiyasining falsafiy, psixologik xususiyatlari, pedagogik xususiyatlar O.Jamoldinova, G.Ibragimova, Sh.Q.Mardonov, N.A.Muslimov, O.Musurmonova, D.Ro'zieva, O'.Tolipov, N.Egamberdieva, M.Quronovlar tadqiq etganlar. MDH mamlakatlari L.A.Baykova, I.A.Zimnyaya, V.A.Slastenin, A.V.Xutorskoilar tomonidan bo'lajak mutaxassislarni faoliyatga tayyorlashning tashkiliy shart-sharoitlari va imkoniyatlari muayyan darajada o'rganilgan. M.W.Berkowitz, L.Botcheva, J.Shih, L.C.Huffman, E.Kiss, J.P.Euben, E.Durkheim, I.H.Fuchs kabi xorijiy davlatlar olimlarining tadqiqotlarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashga oid tarbiya jarayonini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan.

Tadqiqotning maqsadi innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, maqsadini amalga oshirishga qaratilgan vazifalar belgilanib, uning natijasida quyidagi natijalarga erishildi: bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish ijtimoiylashuv tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlikning muhim omili ekanligi hamda tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlikka intensiv ta'sir ko'rsatuvchi komponentlarga mos adekvatlik va validlikni aniqlash asosida takomillashtirilgan; bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tarkibiy tuzilmasi, bo'lajak o'qituvchilar o'zlashtirishlari zarur bo'lgan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan mazmunini loyihalash asosida takomillashtirilgan; bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik

imkoniyatlari ijodkorlik, raqamli savodxonlik, jamoaviylik, tarbiyaviy faoliyatga ma'sullikni loyihalash asosida takomillashtirilgan; bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishning didaktik ta'minoti axloqiy tanlov, kouch texnologiyalari, psixo-fiziologik, antropologik, autopsixologik xususiyatlariga muvofiq situativ ta'lim identivligini akmeologik faollikk uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya ishidagi bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga ilmiy-amaliy yondashuv va tavsiyalar oliy pedagogik ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash hamda «Umumiy pedagogika» fanining «Pedagogika nazariyasi va tarixi», «Oila pedagogikasi», «Ijtimoiy pedagogika»; «Tarbiyaviy ishlar metodikasi», «Umumta'lim maktablarida tarbiya fanini o'qitish metodikasi», «Pedagogik diagnostikasi», «Tarbiya diagnostikasi va korrektsiyasi» hamda «Milliy tarbiya asoslari» fanlari mazmunini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

«Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish» mavzusiga oid ilmiy tahlillar, taqdim etilgan metodik ishlanmalar va tavsiyalarni umumlashtirgan holda samaradorlik darajasini baholash orqali quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash strategiyasining nazariy va amaliy asoslari pedagogik ta'limning gumanistik paradigmasini tashkil etadi va uning g'oyaviy mazmuni, tub mohiyati hamda texnologiyalarini belgilaydi.

2. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga oid falsafiy, psixologik, pedagogik, huquqiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlikning kognitiv, hissiy va motivatsion hamda hulq-atvor komponentlarini aniqlash, mazkur faoliyatga qo'yiladigan vazifalar, axloqiy kompetentsiyalarning tuzilishi, mazmuni va mexanizmlarini takomillashtirishga zamin yaratadi.

3. Pedagogik turkum fanlarning barchasida (jumladan, pedagogik amaliyotda) innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash imkoniyatining tadqiqot muammosining yechimini topishda mazkur faoliyatga tayyorlash vazifalari, mazmuni, texnologiyalarini tartiblashtirish, tizimlashtirishni taqozo etadi.

4. Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda uzoq muddatli va situatsion tayyorgarlik bosqichlarini aniqlash tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishning zaruriy sharoitidir. Aks holda o'sha jarayonning konstruktiv xarakteri yo'qqa chiqadi.

5. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda ijtimoiylashuv muhim omil sifatida o'rganilib, shaxsning o'zini-o'zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy kompetentsiyalari mazmunining mazkur faoliyatga tayyorlashning maqsadli buyurtma, tarbiyaviy tadbirlar hamda kutilayotgan natijaga asoslangan tuzilmasi ishlab chiqildi.

6. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga doir shaxsga yo'naltirilgan, qadriyatlarga asoslangan, faoliyatli, madaniyatga yo'naltirilgan, tizimli, texnologik, integrativ va kompetent yondashuvlar mazmuni hamda bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalari bosqichlari takomillashtirildi.

7. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari, omillari uning namoyon bo'lish jihatlari, innovatsion yondashuvning kognitiv, emotsional-obrazli va motivatsion mezonlari, samarali printsiplarini takomillashtirishda

«O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida yoshlar bilan ishlash, ularda yuksak axloq, kasbga sadoqat kabi insoniy fazilatlarini shakllantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish Kontseptsiyasi»ga amal qilish global ahamiyat kasb etadi.

8. Innovatsion yondashuv asosida takomillashtirilgan bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning modeli o'zida shaxsga yo'naltirilgan, funktsional, ijtimoiy-madaniy hamda baholash tamoyillarini aks ettiradi. Shu bilan birga, auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar hamda pedagogik amaliyot jarayonida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning samarali texnologiyalari, metod va vositalari, shakl va uslublari majmuini tashkil etadi.

9. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha «Besh muhim tashabbus» va «Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontseptsiyasi» asosida tajriba-sinov ishlarining olib borilishi tadqiqot muammosining kasbiy pedagogik ta'lim taraqqiyotida istiqbolli ekanligidan dalolat beradi.

10. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash ularning nafaqat kasbiy takomilida, balki ma'naviy-axloqiy tarbiyasida, xususan, ona Vatanimiz, xalq va jamiyat oldidagi burchi va ma'suliyatini chuqur tushunadigan, milliy ongi uyg'oq, bunyodkorlik va tashabbuskorlik g'oyalarga sodiq, mamlakatimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shishdan manfaatdor vatanparvar shaxs tarbiyasida ham muhim o'rin tutadi.

**Xulosa.** Tarbiya metodikasi ta'lim jarayonidagi tadrijiy rivojlanish bosqichlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari tarbiya samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi an'analarning o'zaro munosabatlari majmuidir.

#### Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси» Фармони.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi NUP-6108 «O'zbekistonning yangi rivojlanish davrida ta'lim va tarbiya, ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-630 «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi Qonuni // Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 7 apreldagi qabul Qonuni. - T., 2020.

4. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. - T., 2015. - 208 b.

5. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь для студентов высших и средних педагогических учебных заведений. - М.: Академия, 2010.

## MAXSUS FANLARDAN O'QUVCHILARNI FAOLLASHTIRISH DARAJALARINI OSHIRISHDA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING AHAMIYATI

**Ashurova Sanobar Yuldashevna,**  
*Pedagogik innovatsiyalar instituti bo'lim boshlig'i*

**Annotatsiya.** Maqolada professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularni ijodiy faollashtirish, darajalarini oshirishda diqqat, tafakkur, fantaziya, xotira, idrok va kreativlikni rivojlantirish masalalari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim, pedagogika, texnologiya, xotira, psixologiya, diqqat, idrok, fantaziya.

## ЗНАЧЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ В ПОВЫШЕНИИ УРОВНЯ АКТИВАЦИИ ПО СПЕЦИАЛЬНЫМ ДИСЦИПЛИНАМ ОБУЧАЮЩИХСЯ

**Ашурова Санобар Юлдашевна,** *заведующая отделом  
института педагогических инноваций*

**Аннотация.** В статье освещены вопросы развития внимания, мышления, фантазии, памяти, восприятия и креативности при повышении уровня мотивации учащихся, их творческой активизации, активизации при преподавании специальных дисциплин в профессиональных образовательных учреждениях.

**Ключевые слова:** воспитание, педагогика, технология, память, психология, внимание, восприятие, фантазия.

## STUDENTS IN SPECIAL SUBJECTS THE IMPORTANCE OF INDIVIDUAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN INCREASING ACTIVATION LEVELS

**Ashurova Sanobar Yuldashevna,** *head of the Department, Institute of  
pedagogical innovation*

**Annotation.** The article covers the issues of motivation of students in teaching special subjects in professional educational institutions, their creative activation, development of attention, thinking, fantasy, memory, perception and creativity in increasing the levels of activation.

**Key words:** education, pedagogy, technology, memory, psychology, attention, perception, fantasy.

**Kirish.** Ta'lim oluvchilar o'quv materialini o'rganish muhimligini ongli ravishda tushunib yetishlari, shuningdek samarali o'zlashtirish uchun ularda xohish-istak, qiziqish va ishonch bo'lishi kerak. Faol ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan bilim egallangan ko'nikma va malakalar mazmunan tizimli va mantiqan tugallangan tarzda shakllantirilib turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga imkon beradi.

Ta'lim oluvchilarni faollashtirish ularning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Ba'zi tadqiqotlarda ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faoliyatining quyidagi darajalari keltirilgan:

1. Faollilik va mustaqillikning dastlabki darajasida o'qituvchi ta'lim oluvchilarga ilgari o'zlashtirilgan tayanch bilim, ko'nikmalar va shaxsiy fazilatlarni eslatadi. Yangi o'quv materialini tushuntiradi. Bu jarayonda ta'lim oluvchilarning o'rganishga xohish, qiziqishi emas, balki unga o'quv jarayonini tashkil etish shakllari, xonalar jihozlanishi nazariya bilan amaliyotning ta'minlanishi kabilar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

2. Kommunikativ faollik va mustaqillik darajasida ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilarining o'zaro fikr va tajriba almashishlari talab darajasida yo'lga qo'yilgan

bo'ladi. Bunda o'quv materiallarini barcha ta'lim oluvchilar deyarli bir xil darajada o'zlashtiradilar, ularning fanga bo'lgan qiziqishi doimiy va barqaror ijobiy emotsiyalar bilan mustahkamlanadi. Ta'lim oluvchilar mustaqil holda o'zlashtirilgan o'quv materialiga izohlar beradilar, amaliy harakat metodlarini bajarib ko'rsatadilar. O'qituvchi o'quv materialini ta'lim oluvchilar tomonidan yetarli darajada o'zlashtirilganligiga ishonch hosil qilganlaridan so'ng yangi o'quv materialini o'tishga kirishadilar.

3. Ijodiy faollik va mustaqillik darajasida o'qituvchi tayanch bilimlarni eslatmaydi, qayta takrorlamaydi, balki aksincha nisbatan muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirib, turli murakkab savollar va topshiriqlar berib, ularning mustaqil tarzda yangi yechimlarini topishga yo'naltiradi. Ta'lim oluvchilar o'quv materialini mustaqil o'rganishga yo'naltirilgan ijodiy izlanuvchi sifatida o'rganish faoliyatida ishtirok etadilar.

Aynan shu bosqichda zamonaviy ta'lim talablariga mos faoliyat amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarni faollashtirish uchun o'qituvchi:

- ta'lim oluvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasini aniqlashi;
- o'quv materialini muammoli vaziyatlar, o'quv muammolari yoki topshiriqlar shaklida ishlab chiqishi;
- muammoli vaziyatlar o'quv muammolari va topshiriqlarni turli darajalarga ajratishi;
- asosiy o'quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda tizimli bayon etilishini ta'minlashi;
- murakkab o'quv muammolari va topshiriqlarni ta'lim oluvchilarning bajarishlarida to'la imkoniyat yaratish uchun turli ta'lim metodlari va vositalarini qo'llashi;
- individul psixologik xususiyatlarni e'tiborga olishi kerak.

Ta'lim oluvchilar bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirish muhim vosita sifatida qabul qilinar ekan, u quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi:

a) ta'lim-tarbiya jarayonini erkinlashtirish, subyekt-subyekt munosabati asosida hamkorlikda o'qishni yo'lga qo'yish va ta'lim oluvchilar qobiliyatini aniqlash orqali o'qishga moyillik hamda qiziqishni faollashtirish;

b) ta'lim-tarbiya mazmunini integratsiyalash orqali o'qitish maqsadi, vazifasi, mazmuni, metodi, shakli va vositalarini o'zaro aloqadorligi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash;

v) ta'lim-tarbiya jarayonida eng qulay faol metodlarni qo'llash;

g) ta'lim va tarbiya jarayoniga texnologik yondoshuv asosida, ta'lim oluvchilarda bilim olish va o'rganish faolligini ta'minlovchi muammoli-vaziyatlar, muammoli-topshiriqlarni va o'yinli texnologiyalarni keng qo'llashga erishish;

j) muammoli va o'yinli texnologiyalarini, o'quv-texnologik kompleksni tashkil etish va undan maqsadli foydalanishni yo'lga qo'yish.

Yuqorida qayd etilgan talablar ta'lim oluvchilar faoliyatlarini faollashtirish orqali ularning ijodkorligini, o'quv topshiriqlarni bajarish uchun farazlarni ilgari surishni va shu asosda yechimlarni topishga intilishga keng yo'l ochadi. Shuni ta'kidlash joizki, ta'lim berish jarayoni-ikki yoqlama jarayon bo'lib o'qituvchi ham, o'quvchi ham faol ishtiroki talab etiladi, o'qituvchi ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishga intilsa, u albatta, o'quvchilarni faollashtirish va rag'batlantirishni yo'lga qo'yish lozim.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim olish davrida shaxsning qiziqishlari rivojlanib va murakkablashib boradi. O'quvchining qiziqishlarini, professional ta'lim tizimidagi ta'lim-tarbiya va ijtimoiy sharoitlarga moslashishlarini individual o'rganish va ularning barqarorligiga to'la ishonch hosil qilish juda muhimdir. Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchi o'quvchilardagi faollik darajasining avvalgi xolati, hozirgi darajasi va

kelgusidagi rivojlanish darajasini tasavvur eta olishi darkor. Shu bois ta'lim jarayonida o'quvchining faollik darajasi uning boshqa individual psixologik sifatлари: qobiliyat, iste'dod, temperament va xarakter kabilar bilan bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Psixologlarning fikriga ko'ra, ta'lim olishda faollikni rivojlantirishda ta'lim oluvchining ijodiy faoliyati katta rol o'ynaydi. Ijodiy faoliyatda diqqat, kuzatuvchanlik, hissiyot, idrok, xotira, tafakkur, tasavvur, iroda va boshqa jarayonlar safarbar qilinadi. Bu ta'rifni psixologiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz.

Ta'lim jarayonida diqqatning tavsiflari masalalarida psixolog V.S.Kuzinning nuqtai nazari bizga yaqindir. «Diqqat atrof-borliqni bilishning muvaffaqiyatli muqarrar sharti hisoblanadi, u ko'z bilan ko'rib idrok qilishning to'liqligini, chuqurligini, fikrlashning faolligini, iroda kuchini u yoki bu obyektни o'rganishga to'plashni ta'minlaydi» [1].

Insonning borliq to'g'risidagi barcha bilimlarining boshlang'ich manbasi sifatida psixologlar sezish va idrok qilish jarayonlari deb hisoblashadi. Sezish predmetlarning yaqqol obrazidir. Badiiy ijodga o'rganish jarayoni uchun, ayniqsa, muhimi ko'rish orqali sezish hisoblanadi.

Idrokning takomillashuvi o'qituvchining bevosita rahbarligida amalga oshadi. Idrokning rivojlantiradigan muhim vositalaridan biri narsa va hodisalarning o'xshash va farqli alomatlarini ajratish uquvini tarkib toptirishdir.

O'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyatida ayrim predmetlarning fazoviy xossalarini anglash alohida muhimdir. Ko'rish va ushlab bilish natijasida idrok qilish jarayonida predmetlarning shakli, tuzilishi, kattaligi, hajmi va boshqa xossalarini bilib olish hisobiga predmetlarning yaxlit obrazi shakllanadi. Predmetlarning shaklini, kattaligini, nisbatlarini, yo'nalishini, shaklining chegaralarini idrok qilish uchun muhim omil kontur chiziqlari yo'nalishlarini aniqlash va ularning kattaligi bo'yicha nisbati hisoblanadi. Bu ma'lum bir predmetlarni to'g'ri to'rtburchak sifatida, boshqalarini dumaloq sifatida va h.k. idrok qilishga imkon beradi. Kuzatuvchi, avvalo, o'z diqqatini tekshirilayotgan obyektning chegaralari chiziqlarida to'playdi, shuning uchun kontur yoki shaklni qamrab olgan chiziq predmet to'g'risidagi axborotning muhim eltuvchisi hisoblanadi.

Faoliyat jarayonida inson miyasining boshqa funksiyalari orasida asosiy o'rin xotiraga ajratiladi.

Nazariy va amaliy materialni sifatli va ongli ravishda eslab qolish uchun, shuningdek, u yoki bu faoliyatni bajarish jarayonining qoidalari va ketma-ketligini eslab qolishni yengillashtirish uchun turli xil metodik usullar, masalan, o'quv materialini ma'nosiga qarab guruhlash qo'llaniladi. Material ishning eng asosiy va muhim bosqichlari bo'limlarga ajratiladi, keyin bo'limlar birgalikda birlashtiriladi [2]. Materialning bunday bo'linishi o'quvchilarga bilimlarni mustahkam egallashga va fikrni eslab qolishning barcha bosqichlarida faol ishlashni qo'llab-quvvatlashga imkon beradi. Har qanday materialni eslab qolishning mustahkamligi uni takrorlashning vaqt bo'yicha qanday taqsimlanganiga bog'liq. Topshiriqlarning oddiydan murakkabga borishi va har xil bo'lishi oldindan ma'lum asoslar hamda qoidalarni albatta takrorlash bilan birga qo'shib olib borilishi kerak. Shunday qilib, xotira mexanizmini tadqiq etish masalalari bo'yicha o'quvchilarda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini shakllantirishning zaruriy sharti sifatida xotirani rivojlantirish lozimligi to'g'risida xulosa qilishga asos bo'ldi.

Obyektiv dunyoning chuqurligini va mohiyatini bilishga, uning qonunlarini anglashga, amaliy faoliyatini rivojlantirishga kasbiy faoliyatda ijodga imkon yaratishga tafakkur (fikrlash) yordam beradi. S.L.Rubinshteyn tafakkurni «obyektiv reallikning aloqalarini, munosabat-

larini ochib berishga va umumlashgan holda bilishga asoslangan sifatida tavsiflaydi. Tafakkur bilishga oid nazariy faoliyat sifatida harakat bilan juda yaqin bog'langan. Tafakkur mehnat faoliyatida amaliy operatsiya sifatida paydo bo'ldi va faqat shundan keyingina nisbatan mustaqil nazariy faoliyatga ajraldi» [3].

O'quvchining fikrlash faoliyatini o'ziga xos jihati obrazlar bilan fikrlash ko'nikmasidan iborat. Obrazlar orqali tafakkur o'quvchilarni tahlil va sintez bo'yicha faol fikrlash faoliyatiga majbur qiladi. Shaxsning fikrlash faoliyatida individual farqlar mavjud bo'lib, ularning eng asosiylari aqlning kengligi, chuqurligi, mustaqilligi, tanqidiyligi, moslashuvchanligi va tezligi hisoblanadi. Bu sifatlarni fikrlashga oid masalalarni yechish jarayonida, o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyati davomida rivojlantirish mumkin. Bu har bir o'quvchining fikrlash jarayoni uning hayotiy tajribasi, kuzatishlari, dunyoqarashi, fantaziyasi, didi, tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, fikrlash faoliyatini tahlillar, biz bilish faoliyatining eng yuqori va mukammal bosqichi sifatidagi tafakkurni sub'ektning amaliy faoliyati (mazkur holda, badiiy-ijodiy) bilan uzluksiz aloqasi to'g'risida xulosa chiqarishga asos bo'ldi. O'quvchilarning tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, umumlashtirish, abstraksiyalash, aniqlashtirish ko'nikmalari ta'lim jarayonining asosiy masalasi va o'quvchilarning kasbiy malakalari muvaffaqiyatli shakllanishining kafolati bo'lib hisoblanadi.

Tasavvur qilish jarayoni o'quvchining ijodi uchun juda muhimdir. Ijodiy obyektni yaratish jarayoni avvalgi tajribaning boyligi va turli-tumanligi bilan belgilanadi, uni kengaytirish – o'qitish jarayonining birinchi darajali maqsadidir. «O'quv faoliyati jarayonida bilimlar, ko'nikmalar va malakalar miqdoriy to'planadi va ma'lum onda yanada yuqori va sifatli darajaga o'tadi».

Insonlarning amaliy faoliyatida xayol (fantaziya) katta ahamiyatga egadir. Odamlar xayol obrazlari orqali tabiatdagi narsa va hodisalarni, ijtimoiy hayot sirlarini bilib oladilar, tabiat va jamiyat qonunlarini ochadilar va ulardan o'z hayotiy manfaatlarini jarayonida amaliy foydalanadilar.

Fantaziya uchun yetarli tajriba, aniq tasavvur va ma'lum bilimga ega bo'lmoq zarur [4].

Fantaziya obyektiv voqealikni inson ongidagi o'ziga xos in'ikosi, real yoki noreal hodisalar haqidagi o'y, fikr, farazga asoslangan tasavvurlar majmuasidir.

Yangilik yaratishga intilgan har qanday shaxsni ijodiy farazsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yangilik yaratish yo'llari faraz qilish jarayonida vujudga keladi. Ijodiy izlanish shaxsning psixologik tavsifi uchun katta ahamiyatga ega. Shaxsning xayol surish, faraz qilish, tasavvur qilish qobiliyatiga qarab uning ma'naviy dunyosi to'g'risida muayyan darajada aniq fikrga kelish mumkin.

**Xulosa.** O'quv-bilish faoliyati davomida shaxsning psixologik jarayonlarini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi ijodiy faoliyatini faollashtirishning usullarini tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldik: o'quvchilarga zarur bilimlarni berishda ularning ijodiy faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish muhit hisoblanadi; o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish, o'qitish jarayonida tanlab olingan maqbul metodikalar qo'llanilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega; sezgi va idrok intellektual jihatdan bilimlarning darajasi va mazmuniga, o'quvchining umumiy yo'naltirilganligi va avvalgi tajribalariga bevosita bog'liq; o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyatining borishi to'g'risidagi tasavvurlari tartibga solingan mashqlar va ularni amalga oshirish jarayonida ijodiy vaziyatning mavjudligini o'z ichiga oluvchi o'quv jarayonini tashkil etish natijasida shakllanadi. Ta'limni faollashtirish uchun quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratish lozim:



---

- o'quv muammolarini yechishga qaratilgan faol metodlarni qo'llash;
- maqsadli va amaliy o'yinlar o'tkazish;
- davra suhbatlari va ochiq munozaralar tashkil etish;
- namunali noa'naviy yoki munozara darsi, tarbiyaviy tadbir muhokamasini o'tkazish;
- ta'lim jarayonida zamonaviy va axborot pedagogik texnologiyalardan foydalana olish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Кузин В.С. Психология. -М.: АГАР, 2009. -304 с.
2. Сорокина Т.М. Развитие профессиональной компетенции будущего учителя средствами интегрированного учебного содержания / Т.М. Сорокина // Начальная школа. - 2004. - №2. - С. 110-114.
- 3.Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - М.: Питер, 1999. - 720 с.
- 4.Boymurodov N. Amaliy psixologiya. -T.: Yangi asr avlodi, 2009. - 315 b.
- 5.Коджаспирова Г.М. Педагогика. Текст: учебник для студ. высш. учеб.заведений / Г.М. Коджаспирова. - М.: Гардарики, 2004. - 528 с.
- 6.Mannonov J. A. Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi / Toshkent-2020.

---

## O'QUVCHIDA TANQIDIY TAFAKKURNING RIVOJLANISHI – IJTIMOIIY MUNOSABATLARGA TAYYORLIK KAFOLATI

**Akramova Gulbahor Renatovna**, *BuxDU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi*

**Annotatsiya.** Maqolada o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish asosida ularni ijtimoiy munosabatlar tayyorlashning muhim jihatlari, tanqidiy tafakkurning mazmun-mohiyati, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish yo'llari va usullari keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** *o'quvchi, tanqidiy tafakkur, ijtimoiy munosabat, muammo, ijodkorlik, rag'bat.*

## РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ШКОЛЬНИКА – ГАРАНТИЯ ГОТОВНОСТИ К СОЦИАЛЬНЫМ ОТНОШЕНИЯМ

**Акрамова Гульбахор Ренатовна**, *доцент БухГУ,  
кандидат педагогических наук*

**Аннотация.** В статье представлены важные аспекты подготовки учащихся к социальным отношениям на основе развития критического мышления, сущность критического мышления, способы и методы развития критического мышления.

**Ключевые слова:** *ученик, критическое мышление, социальная позиция, проблема, творчество, мотивация.*

## THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING IN SCHOOLCHILDREN IS A GUARANTEE OF READINESS FOR SOCIAL RELATIONSHIPS

**Akramova Gulbahor Renatovna**, *associate professor of BukhSU, candidate of pedagogical sciences*

**Abstract.** The article presents important aspects of preparing students for social relations on the basis of critical thinking, the essence of critical thinking, methods and techniques for critical thinking development.

**Key words:** *pupil, critical thinking, social position, problem, creativity, motivation.*

**Kirish.** Tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish o'quvchilarning muvaffaqiyatli va bilimli shaxs bo'lishlari uchun juda muhimdir. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarga ma'lumotni tahlil qilish, dalillarni baholash, noto'g'ri va taxminlarni aniqlash, mantiqiy mulohaza yuritish va xulosalar chiqarish imkonini beradi.

**Asosiy qism.** O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning zaruriy ahamiyat kasb etishi quyidagilar bilan izohlanadi: 1) Muammoni hal qilish ko'nikmalarini yaxshilaydi: tanqidiy fikrlash ko'nikmalari o'quvchilarga muammolarni aniqlash, dalillarni baholash va echimlarni ishlab chiqarishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlashni qo'llash orqali o'quvchilar muqobil echimlarni aniqlashlari va baholashlari va eng mosini tanlashlari mumkin. 2) Ijodkorlikni rag'batlantiradi: tanqidiy fikrlash o'quvchilarni qutidan tashqarida o'ylashga va muqobil istiqbollarni ko'rib chiqishga undaydi, ijodiy echimlar va g'oyalarga olib keladi. 3) Qaror qabul qilishda yordam beradi: tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o'quvchilar qaror qabul qilishdan oldin bir nechta variantlarni baholashlari va ijobiy va salbiy tomonlarini tortishlari mumkin. Bu ularga dalillar va mulohazalarga asoslangan ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. 4) Muloqot ko'nikmalarini oshiradi: tanqidiy fikrlash o'quvchilarga o'z fikrlari va g'oyalarini yanada aniqroq va samarali ifodalashga yordam beradi, muloqot ko'nikmalarini oshiradi. 5) O'quvchilarni kelajakka tayyorlaydi: o'quvchilar ta'lim jarayonida va kasbiy hayotlarida o'sib borishi bilan ular tanqidiy fikrlash

qobiliyatlarini talab qiladigan tobora murakkab muammolarga duch kelishadi. Ushbu ko'nikmalarni erta rivojlantirish ularni kelajakdagi ishlarida muvaffaqiyatga tayyorlaydi. Demak, o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, kelajakda ularning har tomonlama rivojlangan, bilimli va muvaffaqiyatli shaxs bo'lish hamda ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladigan, hayotda o'z o'rnini topishlari uchun ham muhimligini asoslaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tanqidiy tafakkur turli tomonlama o'rganilgan va ta'riflangan. Chunonchi, tanqidiy tafakkur – kuzatish, tajriba, fikrlash, fikrlash yoki muloqot natijasida to'plangan yoki yaratilgan ma'lumotlarni faol va mohirona kontseptsiyalash, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish yoki baholashning intellektual intizomli jarayonidir. Amerika falsafiy assotsiatsiyasi tanqidiy tafakkurni «daliliy, kontseptual, uslubiy, kriteriologik yoki kontekstual mulohazalarni izohlash, tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish va tushuntirish kabi kognitiv vositalardan foydalanadigan maqsadli, o'z-o'zini tartibga soluvchi mulohazalar jarayoni» deb ta'riflaydi». Oksford inglizcha lug'ati tanqidiy tafakkurni «mulohazalarni shakllantirish uchun muammo yoki vaziyatni obyektiv tahlil qilish va baholash» deb ta'riflaydi. Tanqidiy fikrlash bo'yicha milliy kengash tanqidiy tafakkurni «javob yoki xulosaga kelish uchun ma'lumotni faol va mohirona kontseptsiyalash, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholashning intellektual intizomli jarayoni» deb ta'riflaydi. Bildirilgan ta'riflarni javlash orqali o'zimizni mualliflik ta'rifimizni keltiramiz. Bizningcha, tanqidiy tafakkur – bu asosli mulohazalar va qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash, sintez qilish va qo'llashni o'z ichiga olgan tafakkurga intizomli va tizimli yondashuv. Tanqidiy fikrlash asosli mulohazani shakllantirish uchun axborotni obyektiv tahlil qilish, baholash va sintez qilish jarayonini anglatadi. Bu taxminlarni so'roq qilish, noto'g'ri fikrlarni aniqlash va asosli xulosalarga kelish uchun dalillarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularda bir qator kognitiv qobiliyatlar rivojlantiriladi. Jumladan, tahlil: ma'lumotni yaxshiroq tushunish uchun uni kichikroq qismlarga bo'lish. Baholash: ma'lumotlarning ishonchligi, dolzarbligi va to'g'riligini baholash. Xulosa: mantiqiy xulosalar chiqarish va dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish. Axborotning mazmuni va ahamiyatini tushunish. Tushuntirish: fikr va xulosalarni aniq va samarali bayon etish. Tanqidiy fikrlash muammoni hal qilish, qaror qabul qilish va samarali muloqotning asosiy tarkibiy qismidir. Bu akademik va professional kontekstda muvaffaqiyatga erishish, shuningdek, shaxsiy osish va rivojlanish uchun zarurdir. Ta'kidlash kerakki, o'quv jarayonida o'quvchida yuqorida keltirilgan kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish orqali ularning ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli tayyorgarligini ta'minlaydi. Tanqidiy tafakkur ma'lumotni baholash, dalillarni izlash va asosli xulosalar chiqarish imkonini beradigan fikrlashning qat'iy va tizimli yondashuvini o'z ichiga oladi. Bularning barchasi o'quvchini ijtimoiy hayotda o'z o'rnini egallashi va jamiyatga foydil shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi. O'quvchida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish ularning ijtimoiy muloqotga kirishishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyor bo'lishlarida bir qator qobiliyatlarni rivojlantirishga e'tibor qaratish muhim. Kommunikativ qobiliyat. Tanqidiy tafakkur fikrlarni aniq va samarali ifoda etish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Chunki o'quvchi o'z fikrini atrofdagilarga yetkazishda muloqotchanlik qobiliyatidan foydalanadi. Tanqidiy tafakkur o'quvchining o'z fikr va g'oyalarini boshqalarga muloqot orqali yetkazishsh, ularning ijtimoiy muloqotda ishtirok etish qobiliyatini yaxshilaydi. Empatiya. Tanqidiy tafakkur bir nechta nuqtai nazarini ko'rib chiqish va dalillarni obyektiv baholashni o'z ichiga oladi. Bu empatiyaning kuchayishiga va boshqa odamlarning nuqtai nazarini tushunishga olib kelishi mumkin, bu esa, o'quvchilarning ijobiy ijtimoiy o'zaro munosabatlarga kirishish ehtimolini oshiradi.

Kengaytirilgan muammolarni hal qilish ko'nikmalari: tanqidiy fikrlash ma'lumotni tahlil qilish, dalillarni baholash va echimlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradigan o'quvchilar ijtimoiy vaziyatlarda harakat qilish va yuzaga keladigan

muammolarni hal qilish uchun yaxshi jihozlangan bo'lib, ko'proq ijobiy ijtimoiy munosabatlarga olib keladi. Yaxshilangan qaror qabul qilish: tanqidiy fikrlash imkoniyatlarni baholash va asosli qarorlar qabul qilish uchun dalillarni tortishni o'z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradigan o'quvchilar ijtimoiy vaziyatlarda qaror qabul qilish uchun yaxshi jihozlangan bo'lib, ijobiy natijalar va o'zaro munosabatlarga olib keladi.

O'z-o'zini anglashni oshirish: tanqidiy fikrlash o'z fikrlash jarayonlari va noto'g'ri fikrlarini aks ettirishni o'z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradigan o'quvchilar o'zlarining qarashlari va noto'g'ri qarashlarini yaxshiroq tushunishadi, bu esa, o'z-o'zini anglash va ijobiy ijtimoiy o'zaro munosabatlarga olib keladi. Tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish muloqot ko'nikmalarini oshirish, empatiyani oshirish, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirish, qaror qabul qilishni yaxshilash va o'z-o'zini anglashni oshirish orqali o'quvchilarning ijtimoiy o'zaro munosabatga kirishuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish asosida ularni ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashning bir qator metodlarini keltirib o'tamiz. So'rovni rag'batlantirish. O'quvchilarni savol berishga, yangi g'oyalarni o'rganishga va ma'lumot izlashga undash. O'quvchilarga qiziqarli mavzularni o'rganish imkoniyatini yaratish va ularni ochiq savollar berishga undash.

Fikrlash ko'nikmalarini o'rgatish: o'quvchilarga dalillarni baholash, taxminlarni aniqlash va mantiqiy xulosalar chiqarishni o'rgatish. Ularni o'z dalillari va fikrlarini tasdiqlash uchun dalillarga asoslangan dalillardan foydalanishga undash. Mulohaza yuritish imkoniyatini yarating: o'quvchilarni o'zlarining fikrlash jarayonlari, noto'g'ri va taxminlari haqida fikr yuritishga undash. Ularga o'z-o'zini anglash va tanqidiy tafakkur qobiliyatlarini yaxshilash mumkin bo'lgan sohalarini aniqlashga yordam bering. Muammoni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish: o'quvchilarga haqiqiy dunyo sharoitida muammoni hal qilish ko'nikmalarini mashq qilish imkoniyatini bering. Ularni muammolarni aniqlashga, dalillarni baholashga va yechimlarni ishlab chiqishga undash. Ochiq savollardan foydalanish ham ijobiy natija beradi. Bunda o'quvchilardan tanqidiy fikr yuritishni va javoblarini qo'llab-quvvatlash uchun asoslashni talab qiladigan ochiq savollardan foydalaniladi. Ularni o'z fikrlarini tushuntirishga va muqobil istiqbollarni ko'rib chiqishga undash. Hamkorlikni rag'batlantirish. Bunda muammolarni hal qilish va murakkab masalalarni muhokama qilish uchun o'quvchilarni guruhlarda birgalikda ishlashga undash. Bu fikr va istiqbollarni almashish orqali ularning tanqidiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Fikr-mulohaza bildiring: o'quvchilarning fikrlash jarayonlari haqida fikr yuritishga va ularning tanqidiy tafakkur qobiliyatlarini yaxshilash sohalarini aniqlashga undaydigan konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim eting.

Sokratik so'rov: o'quvchilarni mavzu bo'yicha tanqidiy tafakkurga undash uchun Sokratik so'rovdan foydalaning. Bu o'quvchini mavzuni chuqurroq tushunishga, dalillar va mulohazalarni tanqidiy tafakkurga olib keladigan qator savollarni berishni o'z ichiga oladi.

Case studies: o'quvchilarga tanqidiy tafakkurni talab qiladigan real misollar bilan ta'minlash uchun amaliy tadqiqotlardan foydalaning. Ulardan ishini tahlil qilishlari, asosiy muammolarni aniqlashlari va dalillar va dalillarga asoslangan yechimlarni taklif qilishlari kerak.

Munozara va munozaralar: o'quvchilarni tanqidiy tafakkurni talab qiladigan bahs va munozaralarga jalb qiling. Ularni dalillarni baholashga, muqobil istiqbollarni ko'rib chiqishga va dalillarga asoslangan dalillar bilan dalillarni qo'llab-quvvatlashga undash.

Aql xaritalari: o'quvchilarga fikrlarini tartibga solish va turli tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rishga yordam berish uchun aql xaritalaridan foydalaning. Bu ularga tanqidiy tafakkurni talab qiladigan naqshlar, aloqalar va munosabatlarni aniqlashga yordam beradi.

Muammoli ta'lim: o'quvchilarga hal qilish uchun tanqidiy tafakkurni talab qiladigan haqiqiy muammolarni taqdim etish uchun muammoli ta'limdan foydalaning. Bu ularga mazmunli va haqiqiy kontekstda muammolarni hal qilish va tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini

rivojlantirishga yordam beradi.

Rol o'ynash: o'quvchilarga boshqa nuqtai nazarni taqdim etish va ularning taxminlariga qarshi chiqish uchun rol o'ynashdan foydalaning. Bu ularga empatiyani rivojlantirishga va muqobil istiqbollarni ko'rib chiqishga yordam beradi.

Reflektiv yozish: o'quvchilarni o'z fikrlash jarayonlari haqida fikr yuritishga undash va ularning tanqidiy tafakkur qobiliyatlarini oshirish mumkin bo'lgan sohalarni aniqlash uchun aks ettiruvchi yozuvdan foydalaning. Bu ularga o'z-o'zini anglash va tanqidiy tafakkur qobiliyatlarini vaqt o'tishi bilan yaxshilashga yordam beradi.

O'quvchilarda tanqidiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishning ko'plab usullari mavjud. Sokratik savol-javob, amaliy tadqiqotlar, bahs va munozaralar, aql xaritalari, muammoli o'rganish, rolli o'yinlar va aks ettiruvchi yozish usullaridan foydalangan holda o'qituvchilar o'quvchilarga o'zlarining akademik va kasbiy hayotida muvaffaqiyat qozonishlari uchun kerak bo'lgan tanqidiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ta'kidlash joizki, tanqidiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish uzviy va izchil harakatni talab qiladi. O'qituvchilar so'rov o'tkazish, mulohaza yuritish va muammoni yechish ko'nikmalarini o'rgatish, mulohaza yuritishni rag'batlantirish, ochiq savollardan foydalanish, hamkorlikni rivojlantirish va fikr-mulohazalarni bildirish orqali o'quvchilarga o'z ilmiy va kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarur bo'lgan tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. O'quvchilarda tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish bir necha sabablarga ko'ra muhimdir: yaxshiroq qaror qabul qilish: tanqidiy fikrlash ko'nikmalari o'quvchilarga ma'lumotni xolisona baholash, uni tahlil qilish va dalillar va mulohazalar asosida asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu o'quvchilarga akademik, shaxsiy va kasbiy hayotlarida yaxshiroq qaror qabul qilishga yordam beradi. Muammolarni yechish malakalarini oshirish: tanqidiy fikrlash ko'nikmalari o'quvchilarga muammolarni aniqlash, dalillarni to'plash va baholash hamda samarali yechimlarni ishlab chiqishda yordam beradi. Bu muammolarni hal qilish ko'nikmalarini yaxshilashga va keng doiradagi kontekstlarda yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. Kengaytirilgan ijodkorlik: tanqidiy fikrlash ko'nikmalari o'quvchilarga innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va qutidan tashqarida fikr yuritish imkonini beradi. Bu ijodkorlikni oshirishga va badiiy, ilmiy va ishbilarmonlik ishlarida katta muvaffaqiyatlarga olib kelishi mumkin. Muloqot ko'nikmalari yaxshilanadi: tanqidiy fikrlash ko'nikmalari o'quvchilarga o'z g'oyalari va fikrlarini aniq va samarali ifoda etishga yordam beradi. Bu muloqot qobiliyatlarini yaxshilashga va shaxsiy va professional munosabatlarda katta muvaffaqiyatlarga olib kelishi mumkin. Yaxshiroq akademik natijalar: tanqidiy tafakkur qobiliyatlari akademik muvaffaqiyat uchun zarurdir. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradigan o'quvchilar murakkab matnlarni tahlil qilish, dalillarni baholash va tushunchalarni real vaziyatlarda qo'llash uchun yaxshi jihozlangan. Kattaroq empatiya va tushunish: tanqidiy fikrlash qobiliyatlari o'quvchilardan bir nechta nuqtai nazarni ko'rib chiqishni va dalillarni xolisona baholashni talab qiladi. Bu shaxsiy va professional munosabatlarda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan boshqalarga nisbatan ko'proq empatiya va tushunishga olib kelishi mumkin. O'quvchilarda tanqidiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish akademik, shaxsiy va professional kontekstlarda muvaffaqiyatga erishish uchun juda muhimdir. Bu yaxshiroq qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini yaxshilash, ijodkorlikni oshirish, muloqot qilish qobiliyatini yaxshilash, akademik natijalarni yaxshilash va boshqalarga nisbatan hamdardlik va tushunishga olib kelishi mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. <https://internationalconference.ru/images/PDF/2020/60/motivatsiya-kak-faktor.pdf>
2. <http://psychologyandeducation.net/pae/index.php/pae/article/view/2886>

---

## OILADA O'SMIRLAR TARBIYASINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY VA NAZARIY ASOSLARI

**Norqulov Husniddin Do'sbekovich**, «Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i, p.f.n., dotsent

**Annotatsiya.** Maqolada oilaviy an'analar, urf-odatlar, marosimlar o'smirning huquqiy, ma'naviy-axloqiy shakllanishini ta'minlaydigan asosiy manba sifatida xizmat qilishi, hozirgi davrda o'smirlarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari va imkoniyatlari, ularning xatti-harakatlari ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari hamda soha olimlarining pedagogik-psixologik qarashlari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** oila, ota-ona, farzand, tarbiya, o'smirlar, huquqiy tarbiya, oilaviy qadriyatlar, barkamol avlod tarbiyasi, oilada o'smirlar tarbiyasi, tamaddun, konvergensiya, ommaviy madaniyat.

## ПРАВОВЫЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ВОСПИТАНИЯ ПОДРОСТКОВ В СЕМЬЕ

**Норкулов Хусниддин Дусбекович**, руководитель отдела НИИ «Семьи и женщин», к.п.н., доцент

**Аннотация.** В статье рассматриваются семейные традиции, обычаи, обряды служащие основным источником, обеспечивающим правовое и духовно-нравственное становление подростка, рассматриваются специфические особенности, закономерности и возможности воспитания подростков в современный период, сложные механизмы поведения, психологические взгляды ученых педагогов.

**Ключевые слова:** семья, родители, ребенок, воспитание, подростки, правовое воспитание, семейные ценности, воспитание гармоничного поколения, воспитание подростков в семье, цивилизация, конвергенция, массовая культура.

## ORGANIZE TEENAGE EDUCATION IN THE FAMILY LEGAL AND THEORETICAL BASIS

**Norkulov Husniddin Do'sbekovich**,  
head of department of the «Family and Women» research institute, candidate of pedagogical sciences, associate professor

**Abstract.** In the article, while family traditions, customs, rituals serve as the main source that ensures the legal, spiritual and moral formation of a teenager, the specific features, laws and possibilities of educating teenagers in the current period, the complex mechanisms of the expression and emergence of behavior and the pedagogical scientists of the field - psychological views are highlighted.

**Key words:** family, parents, child, education, teenagers, legal education, family values, education of mature generation, education of teenagers in the family, civilization, convergence, popular culture.

**Kirish.** Ayni paytda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari barchamizga yangi vazifalar yuklamoqda. Shunday vazifalardan biri – o'smirlarni vatanparvarlik, insonparvarlik kabi hislatlar bilan birga yuksak ma'naviyat egasi bo'lish hamda o'zga millatlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'ladigan, insoniy qadr-qimmatni va milliy urf-odatlarni e'zozlaydigan shaxslar qilib tarbiyalashdir. Tamaddunlar konvergensiya davrida «ommaviy madaniyat»ning shiddat bilan transformatsiyalashayotganligi natijasida dunyo o'smirlari ichkilikbozlik, giyohvandlikka keskin ruju qo'yayotganligi va shu kabi turli salbiy illatlariga muhtalo bo'layotganligi, ma'naviyatimizga yot bo'lgan turli oqimlarning girdobiga tushib

qolayotganligi hamda o'smir-yoshlar ongini zaharlashga urinayotganligi hammamiz uchun ta'lim-tarbiya masalalari bundanda dolzarblashganligidan dalolat beradi. Bu ham davr muammosi hisoblanadi. Demak, oilada o'smirlar tarbiyasiga har bir mutassaddi vijdonan yondashishi talab etiladi. Oiladagi sog'lom muhit ma'naviy, ruhiy va axloqiy tamoyil hamda me'yorlar asosida shakllanadi, ijtimoiy rivojlanish jarayonida yangi mazmun-mohiyat kasb etadi. Oila barcha yo'nalishlar bo'yicha qanchalik takomillashib borgan sari zamonaviy va namunali oilalarning safi kengayib boraveradi.

**Asosiy qism.** Turg'unlik yillaridagi so'z bilan ishning nomuvofiqligi, axloq tarbiyasidagi qo'pol xatolar o'smirlarning ruhiy dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Tarbiyani insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda o'smirlar taqdiri masalasi ham g'oyat jiddiy tus oldi. Zardushtiylik ta'limotida bolalarning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor berilganligining guvohi bo'lamiz: «Ey Mazda! tarbiya qilguvchilarning uchun atalgan poyonsiz mehr-muhabbatingni ato ayta. Sening o'git pandlaring, hidoyat va ma'rifating qayerda?» yoki «Tarbiya hayotning eng muhim tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u, avvalo, yaxshi xulq-odobni, yaxshi o'qishni, so'ngra esa, yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin» [1]. O'smirlar tarbiyasi, avvalo, oiladan boshlanadi, chunki oilada oilaviy an'analar, urf-odatlar, marosimlar o'smirlarning ma'naviy-axloqiy shakllanishini ta'minlaydigan asosiy mezon sifatida xizmat qiladi. Hozirgi davrda o'smirlarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Jamiyat ma'naviy hayotini rivojlantirish, inson omiliga diqqat-e'tiborni qaratish asosiy masala sifatida qaralmoqda. Demak, bu vazifalarni bajarishga kirishish oqilona yondashishning yaqqol ko'rinishidir. Sivilizatsiya jarayonlari kengayib va jiddiy tus olayotgan bir paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida butun dunyodagi 2 milliarddan ortiq yosh avlod vakillarining insoniyat taraqqiyotida tutgan o'rnini va ahamiyatiga alohida to'xtalib, ya'ni «Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq... Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu-tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir» [2], – degan fikrlari esa, BMT yig'ilishida ishtirok etganlarning diqqatini o'ziga tortgani barchamiz uchun ham ahamiyatlidir. Demak, o'smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to'la hisobga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo'llash, shaxslararo munosabatlarning psixologik iqlimini yaratadi. Bu borada bir savol tug'iladi. Nima uchun o'smirlar tarbiyaviy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda juda ko'p qiyinchiliklar yuz beradi? Pedagogik va psixologik bilimlarga tayangan holda yondashadigan bo'lsak, amaldagi shakl va usluban tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish nima uchun kutilgan natijani bermaydi? O'smirlar nima uchun tartib-qoidalarga amal qilmaydi yoki ataylab o'zi buzadi? Bosharti, bu kabi dolzarb savollarga javob topilgandagina to'g'ri yo'nalishni tanlab olish va ta'sir ko'rsatishning eng samarali usullarini ishlab chiqish va ulardan to'g'ri foydalanish mumkin. Ma'lumki, inson ruhiyati g'oyat murakkab va o'zaro ta'sirlashib turadigan psixologik jarayondir. Bu xarakterli xususiyatlarning barchasi o'smirlarning xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga, faoliyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. O'smirlarning xarakterlaridagi bu xatti-harakatlarni keltirib chiqaradigan sabablarni topib, so'ngra o'sha nuqsonlarni bartaraf etish va koreksiyalash zarurligi masalaning naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Oilada o'smirlar tarbiyasini tashkil etishning dolzarb masalalari bo'yicha turli soha olim va tadqiqotchilari o'z mulohaza hamda qarashlarini bildirgan. Oilada o'smirlar tarbiyasining huquqiy, nazariy metodologiyasi yaratilishida Sharq allomalari va mashhur pedagoglarning amalga oshirgan ishlari diqqatga sazovordir. Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Abu

Rayhon Beruniy, Rudakiy, Firdavsiy, Alisher Navoiy, Voiz Koshifiy, chex olimi Yan Amos Komenskiy, shveysariyalik pedagog logann Genrix Pestalotssi, nemis pedagogi Adolf Disterverg, rus pedagogi K.D.Ushinskiy kabilar o'z ijodiyotlarida pedagogikaning metodologik asosini yaratdilar. Oilada ota-ona, maktabda o'qituvchi va shu kabi mas'ullar o'smirlarni tarbiyalash orqali ijtimoiylashtirish masalasiga barcha e'tiborlarini qaratishlari kerak. Jumladan, professor V.Karimova «Oilaviy hayot psixologiyasi» kitobida shunday yozadi: «Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundaki, uning ta'sirida, birinchidan, shaxs mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, o'ziga yarasha sifat va fazilatlarini shakllantirib boradi, ikkinchidan, har tomonlama yetuk, barkamol, aqlli, sog' va salomat shaxs bo'lib yetishish imkoniyatiga ega bo'ladi, oila va uning sog'lom ma'naviy muhiti bolani jamiyatda yashashga, o'ziga o'xshash shaxslar bilan murosar qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo'lish, muomalada axloq-odob mi'yorlariga bo'ysunishga o'rgatadi, psixologik jihatdan tayyorlaydi» [3].

O'smirlar oilada, eng avvalo, o'zligini anglashi, tushunishi va atrofdagilar bilan munosabatini to'g'ri yo'lga qo'yishi, bu boradagi masalaning muhimligini ko'rsatadi. Pedagogika fanlari doktori, professor J.G'.Yo'ldoshev bu borada: «Bunda shaxsning «Men – Konsepsiyasi» (o'zi haqidagi tasavvurlar to'plami ularga muvofiq tarzda inson hayot faoliyatini yuzaga keltiradi) bir vaqtning o'zida ham «ideal men»ini – (ya'ni, inson uning fikricha, qanday bo'lishi kerak), ham dinamik «meni»ni (ya'ni, odam qanday bo'lishni istar edi, agar buning imkoni bo'lsa) mujassamlashtira olish muhim hisoblanadi» [4] – deb keltirgan. Bundan ko'rinadiki, o'smirlarning oilada o'zligini anglashi o'z navbatida, ota-onalardan juda ko'p bilim, ko'nikma va malakalarni ham talab qiladi. Masalaning asl mohiyati o'smirlar tarbiyasi ekan, oilada va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida bunga ham huquqiy, ham nazariy, ham ma'naviy-axloqiy tomondan yangicha yondashuv va qarashlar zarur bo'ladi. Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'smirlarga hukumat tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy, Konstitutsiyaviy va shu kabi hujjatlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish hamda ular ongiga shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyatini singdirib borish lozim. Shuningdek, o'smirlarda huquqiy ong va madaniyat orqali huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish talab etiladi.

O'smirlar tarbiyasi bo'yicha xorijiy tajribalarga tayanadigan bo'lsak, Afina tarbiyasi – mil. avvalgi VII-V-asrlarda qadimgi Afinada bolalar va o'smirlar (qullardan tashqari) tarbiyasi tizimi bo'lgan. 7 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalar grammatika maktabi (o'qish, yozish va hisoblashni o'rgatish), kifarachchi (adabiyot va musiqiy bilimlarni o'rgatish)lar va palestra (jismoniy mashqlarni o'rgatish) maktabida o'qitilgan. O'ziga to'q oilalarning farzandlari mashg'ulotlarni 18 yoshgacha gimnaziyada davom ettirganlar. 18-20 yoshdagi o'smirlar tarbiyasi Efebiyada shug'ullanish bilan yakunlangan. Ma'naviy tarbiya gimnastik tarbiya bilan qo'shib olib borilgan. Jismoniy mehnat bilan shug'ullanishga yo'l qo'yilmagan [5] – deyiladi manbalarda. Demak, o'smirlar tarbiyasi umumbashariy masala ekanligini ko'rish mumkin. Oilada o'smirlar tarbiyasi borasidagi munosabatlarni tartibga solishda huquqiy asoslarni mustahkamlash zarur. Bu esa, o'smirlarni oilaviy turmushga tayyorlash, o'z kasblari bo'yicha olgan bilimlarini hayotga implementatsiya (inglizcha – «amalga oshirish, amaliy tatbiq etish») qilish ko'nikmalarini hosil qilish, oila qonunchiligi haqidagi bilimlarini mustahkamlash, qonunning tamoyillarini o'rgatish hamda oilaviy va huquqiy munosabatlar doirasida kelib chiqadigan muammolarni yechishda olingan bilimlardan unumli foydalanish ko'nikmalariga o'rgatishdir. Demak, oilada sog'lom muhitni shakllantirish, ajdodlarimizning oilada o'smirlar tarbiyasi masalasidagi qadriyatlarini targ'ib qilish va huquqiy tarbiyani singdirish maqsadida mamlakatimizda yoshlar ta'lim-tarbiyasi,



ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashiga e'tibor qaratilib, kelajakda yetuk kadr bo'lishi, bo'sh vaqtini foydali ishlarga safrlashi kabi ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

«Bizning kelajagimiz, eng katta ishonchimiz, madad tayanchimiz – bu o'sib kelayotgan yosh avlodidir. Men o'zim taqdirimni ham, mamlakatimiz va mustaqilligimiz taqdiri va kelajagini ham ana shu yoshlar qiyofasida, ularning pok qalbi, erkin tafakkuri, mustahkam irodasi va dunyoqarashida ko'raman» [6], – degan fikrlar alohida diqqatga sazovordir. «Oila mustahkamligi, birinchi navbatda, oila muhitiga bog'liq. Oila muhiti asosini uning yadrosi bo'lmish er-xotin munosabatlari tashkil etadi» [7]. Bundan ko'rinadiki, o'smirlar tarbiyasining to'g'ri tashkil etilishi ota-onalarning nazariy, huquqiy va ma'naviy-axloqiy bilimlariga va ularni amaliyotda qanday qo'llashlariga bog'liqdir. Vatandoshimiz Abdurauf Fitrat yozganidek, «Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tarbiyaga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi» [8]. Jamiyatning mag'zi hisoblangan inson, avvalo, oilada shakllanadi. Oila qanday kishini tarbiyalashi jamiyat uchun juda muhimdir. Oilaviy huquqiy munosabatlarga to'xtalar ekanmiz, avvalo, oila a'zolari o'rtasida bo'ladigan va oilaviy-huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Oila huquqi oila a'zolari o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Shaxsiy nomulkiy munosabatlarga er-xotinning familiyasi, bolalar tarbiyasi, oila turmushi masalalarini hal qilish, mashg'ulot turi, kasb va turar joy tanlash huquqlari kiradi. O'smirlar muammosini bartaraf etish choralarini kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat: fan va texnika rivojlanishi natijasida oilaviy ijtimoiy hayotning barcha shart-sharoitlari o'zgarayotganligi; internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot ko'lamining kengayishi natijasida o'smirlar ongilligi darajasining o'sayotganligi; o'smirlarning jismoniy va aqliy kamoloti jadallashgani; o'smirlar bilan ishlashda ularning g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida ehtiyojning paydo bo'layotganligi; oshkoralik, ijtimoiy adolat va demokratik tamoyillarning ijtimoiy hayotga chuqur singib borayotganligi; o'smirlar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani va h.k.

Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar oila huquqi normalari bilan tartibga solingan bo'lib, ular oilaviy-huquqiy munosabatlar deb ataladi. Oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy qonuniy hujjatlarga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi va oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlar kiradi. Oila huquqi sohasidagi xalqaro shartnomalar va xalqaro huquq normalari ham oila qonunchiligining manbai hisoblanadi. Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasining oila qonunchiligida nazarda tutilgan huquqlari, erkinliklari, manfaatlari va albatta majburiyatlari quyidagilar asosida tartibga solinadi: er-xotinning (shaxsiy va mulkiy) huquqlari va majburiyatlari; ota-onaning (shaxsiy va mulkiy) huquqlari va majburiyatlari; nikoh tuzishga teng huquqlari; voyaga yetmagan bolalarning (shaxsiy va mulkiy) huquq va majburiyatlari; ota-onalar va bolalar, er-xotin va sobiq er-xotin, qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari; nikohning tugatilish asoslari; er-xotinning umumiy mol-mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf etish huquqlari; nikoh shartnomasini tuzishda er-xotinning huquqlari va majburiyatlari; farzandlikka olish tartibi; bolaning huquqi va manfaatini himoya qilish bo'yicha ota-onaning huquq va majburiyatlari; ota-onaning bolani tarbiyalash hamda unga ta'lim berishga doir huquq va majburiyatlari; ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslari va tartibi; vasiylik va homiylikka murojaat etish huquqi va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasiga, asosan, «Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi» [9] – deyilgan. Hozirda ham o'smirlar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli ezgu ishlar izchil davom etmoqda.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilganlarga tayangan holda, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar axloq-odob va huquqiy qoidalar bilan tartibga solinsa, ajrim, bolalar ota-onasiz qolishining oldi olingan bo'ladi. Demak, oila huquqi nikoh, qon-qarindoshlik, bolalarning nasl-nasabini belgilash, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning muammolarini hal etish borasida kelib chiqadigan munosabatlarni huquqiy tartibga soladi. Masalan, agar ota-ona o'smir farzandlariga tarbiyani to'g'ri singdira olmasa, ta'lim-tarbiya berishda qonuniy yuklatilgan vazifalarni amalga oshirmasa, ota-onalik huquqlarini suiste'mol qilsa, demak, o'z-o'zidan ma'lumki, bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan deb hisoblanadi. Oila kodeksining 65-moddasida [10] belgilanganidek, bolaning yashash va tarbiyalanish huquqi, avvalo, bola o'z ota-onasi bilan birga yashashi mumkinligini anglatadi. Oila kodeksining 67-moddasiga [11] binoan, bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o'mini bosuvchi shaxslar), amaldagi qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, vasiylik va homiylik organi, prokuratura va sud tomonidan amalga oshiriladi. Oilada o'smir yoshida bolalarda huquqiy bilimlarning yetishmasligi juda ko'p salbiy holatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, mas'uliyatni his qilmaslik, ijtimoiy hayotda qonun ustuvorligini tushunmaslik yoki qonunlardan faqat o'z manfaati yo'lida foydalanish kabilardir. Buning asosiy sababi oilada ota-onaning huquqiy bilimlari yetishmasligi bo'lsa, maktabda o'qituvchilar tomonidan huquqiy-meyoriy tushunchalarni o'quvchilar ongiga singdirish talab darajasida emasligidan dalolat beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Авесто: Тарихий-адабий ёдгорлик / А.Маҳкам таржимаси. - Т.: Шарқ, 2001.
2. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеяси 72-сессиясида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи. - 2017. - 20 сентябрь.
3. Каримова В. Оилавий ҳаёт психологияси: Ўқув қўлланма. - Т.: Fan va texnologiya, 2007. - 142 б.
4. Йўлдошев Ж.Ф. Малака оширишнинг назарий ва методологик асослари (Ёхуд ўқитувчи бўлиш осонми?). - Т.: Ўқитувчи, 1998. - 208 б.
5. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. - Т., 2006.
6. Каримов И. А. Миллат қудрати – ҳамжиҳатликда // Халқ сўзи. - 1999. - 27 март.
7. Бўриева М. Оила ва унинг вазифалари. - Т., 1998.
8. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. - Т., 2000.
9. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. - Т.: Ўзбекистон, 2023.
10. Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси. - Т., 2021.

## MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA PEDAGOG KADRLAR KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Nosirov Bunyodjon G'offorali o'g'li,**

*Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Masofaviy ta'lim xalqaro ta'lim tizimining asosiy turlaridan biri bo'lib, mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, salohiyatli kadrlar tayyorlash, ularning raqobatbardoshligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu maqolada masofaviy ta'lim orqali o'qish va malaka oshirishning ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlariga oid fikrlar yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** masofaviy ta'lim, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, e-learning, professional rivojlanish, uzluksiz ta'lim, iSpiring Learn, kredit modul.

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕДАГОГОВ В ДИСТАНЦИОННОМ ОБРАЗОВАНИИ

**Носиров Бунёджон Гоффорали угли,** докторант Института педагогических инноваций, переподготовки и повышения квалификации руководящих и педагогических кадров профессионального образования

**Аннотация.** Дистанционное образование как один из основных видов международной системы образования, реформирование системы образования в нашей стране, подготовка потенциальных кадров, повышение их конкурентоспособности являются одним из актуальных вопросов современности. В данной научной статье рассматриваются важность и особенности дистанционного обучения и повышения квалификации.

**Ключевые слова:** дистанционное образование, компетентность, профессиональная компетентность, электронное обучение, повышение квалификации, непрерывное образование, iSpiring Learn, кредитный модуль.

## THE ROLE AND IMPORTANCE OF IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS IN DISTANCE EDUCATION

**Nosirov Bunyodjon Gofforali ugli,** PhD student of the Institute of pedagogical innovations, professional education management and retraining and advanced training of pedagogical personnel

**Abstract.** Distance education is one of the main types of the international education system; reforms in the education system in our country, training of potential personnel, increasing their competitiveness are one of the urgent issues of today. This research paper discusses the importance and specific features of distance learning and professional development.

**Key words:** distance education, competence, professional competence, e-learning, professional development, continuous education, iSpiring Learn, credit module.

**Kirish.** Muntazam rivojlanish bosqichlarini bosib o'tayotgan ta'lim tizimi va unda pedagoglarning kasbiy kompetentligini xalqaro talablar asosida shakllantirish va baholash, ularni raqobatbardosh kadrlar sifatida mehnat bozoriga tayyorlash kun sayin dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – bugungi kun o'quvchisining bilim, ko'nikma va malakaga bo'lgan ehtiyojini to'la ta'minlashdan iboratdir. Mazkur jarayonda kasbiy kompetentlik tushunchasi haqida umumiy tushunchalar asosiy obyekt vazifasini bajaradi. Kompetentlik haqida olimlarning turlicha fikr-mulohazalari mavjud bo'lib, ular orasida quyidagi izoh har tomonlama mukammal darajada deya olamiz.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan bo'lib, psixologik nuqtai nazardan biz kompetentlikni "noan'anaviy qadriyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini tutishi, muloqotga kirishishi, vaziyatdan to'g'ri foydalana olishi, raqiblar bilan munosabatlarda yangicha usullardan foydalanishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatli munosabatlarda yetarli harakat strategiyasi mavjudligi hamda ularni izchil rivojlanib yoki murakkablashib borishi tushuniladi [1].

**Asosiy qism.** Darhaqiqat, globallashuv davrida zamonaviy, odatdagidan ko'proq ilmiy, texnik, kasbiy talablarga ega yoshlar bilan munosabatda yetarlicha mulohaza qilish va ular bilan murosas yo'lini tutish hamda ularni kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish pedagoglardan yuksak bilim va mahorat talab etadi. Shundan kelib chiqib, avvalo, pedagogning o'zida yetarli darajada kasbiy kompetentlik rivojlangan bo'lmog'i lozim. «Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi» deb ta'rif beriladi [1]. Bundan kelib chiqadiki, pedagog o'zida barcha ilmiy, shaxsiy hamda kasbiy fazilatlarini shakllantirish bilan birga ularni amaliyotda qo'llashi va doimiy ravishda ushbu kompetensiyalarini takomillashtirib borishi zarur. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-dekabrda «Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [2] 1026-son qaroriga ko'ra mamlakatimizda pedagoglar malakasini oshirish markazlari tashkil etilgan bo'lib, ushbu qarorda har yili pedagoglarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning huquqiy, tuzilmaviy asosi hamda birlashtirilgan tashkilotlarning funksional vazifalari keltirib o'tilgan [3].

Kasbiy rivojlanish jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish va professional rivojlanishni baholash, avvalo, har bir pedagog faoliyatining ajralmas qismi bo'lishi lozim. Ushbu davriy jarayon professional rivojlanish imkoniyatlari amaliyotchilarning ehtiyojlariga javob berishini ta'minlashga yordam beradi va tajriba va keyingi faoliyatni loyihalash va rejalashtirishda rahbarlik qiladi [4]. Hozirgi vaqtda o'qituvchilar ko'pincha o'zgarishlarni ularning ehtiyojlari va muammolaridan uzoqda bo'lgan ma'muriyat tomonidan talab qilinishini kutishadi. Ushbu me'yordan voz kechish oldinga katta qadam bo'ladi. Hozirgi belgilangan tartiblarda asosiy malaka oshirish jarayonlari an'anaviy tarzda pedagoglarning respublika markazlari yoki viloyat markazlariga borib malaka oshirishlarini nazarda tutadi. Bu esa, pedagoglarga bir muncha vaqt, ish, moliyaviy va boshqa qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvarda «Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida»gi [5] 25-sonli qarori qabul qilinib [6], unda malaka oshirish jarayonlarini masofaviy tarzda tashkil etishning me'yoriy-huquqiy jihatlari, masofaviy malaka oshirish platformalarini ishga tushirish asosiy vazifa sifatida belgilab berilgan.

**Asosiy qism.** Raqamli texnologiyalar rivojlanishining zamonaviy davrida axborot ijtimoiy jarayonlar faoliyatining asosiy manbalaridan biri bo'lib, ularning o'zaro bog'liqligi axborot almashinuvi orqali ta'minlanadi. Internet global axborot makonining eng muhim ramzi va asosiy bog'lovchi vositasi bo'lib, geografik va siyosiy chegaralarni yengib o'tish imkonini beruvchi, inson hayotining barcha sohalarini «virtuallashtirish» imkonini beradi. Axborot oqimlarining tarqalish tezligi ijtimoiy jarayonlarni to'liq raqamlashtirish holatiga olib keladi [3]. Raqamlashtirish ijtimoiy hodisa sifatida XX-asrning 60-70-yillarida keng tarqaldi. I.L.Sergeyeva ushbu hodisaning uchta asosiy xususiyatini qayd etadi: 1. Kontentning barcha turlari raqamli mobil va shaxsiy bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, shaxs o'zining shaxsiy tarkibini nazorat qilish, ma'lumot so'rovlarini yuborish imkoniyatiga ega bo'ladi. 2. Oddiy boshqariladigan aloqa texnologiyalariga o'tish mavjud. 3. Aloqalar heterojen bo'ladi: vertikal, iyerarxik aloqa o'z ahamiyatini yo'qotadi, aloqaning tarmoq tuzilishiga o'tish sodir bo'ladi [4]. Ta'lim sohasida yangi texnologiyalardan foydalanish tegishli fanlarni o'rganish jarayoniga sezilarli qo'shimcha bo'ldi va jarayonning o'zi foydalaniladigan raqamli dasturlar va mobil ilovalarni texnik qo'llab-quvvatlash bilan birga, maqsadli talabalar uchun o'quv jarayonida samarali natijalarga erishishda eng samarali va jozibador hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim texnologiyasi o'qituvchilar uchun ko'p jihatdan foydalidir. An'anaviy ta'lim va qog'ozga asoslangan materiallar bilan birga yangi texnologiyalar asosida tashkil etiladigan darslar mazmunan ancha mazmunli va faolroq bo'lishi mumkinligini isbotladi. Zamonaviy ta'lim tizimi kompyuterlashtirish va axborot-lashtirishning faol bosqichidan o'tdi. Axborot jamiyatida zamonaviy innovatsion universitetning ta'lim muhitini rivojlantirish faqat sinfda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bilan cheklanib qolishi mumkin emas, u universitet faoliyatining barcha sohalariga singib ketishi, ushbu faoliyatni sifat jihatidan yangi, yuqori darajaga olib chiqishi kerak. Ta'limni raqamlashtirish professor-o'qituvchilardan yangi kompetensiyalarni talab qiladi va butun ta'lim tizimini qayta tashkil etadi. Axborot texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy natijasi o'qituvchilarning malakasi va maqomining jiddiy o'zgarishi bo'lishi kerak. O'qituvchilar keng ma'lumotga ega bo'lishi, loyihaga yo'naltirilgan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi, muhokamalarni tashkil eta olishi va murabbiy sifatida ishlay olishi kerak. O'quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o'qituvchiga materialdan foydalanish uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi va jarayonga turli darajadagi tayyorgarlik va til kompetensiyasiga ega talabalarni jalb qiladi.

Raqamli texnologiyalar o'quv jarayonida quyidagi afzalliklarga ega:

Talabalarni rag'batlantirish. Raqamli texnologiyalarni sinfda ham, sinfdan tashqarida ham qo'llash o'quvchilarga fandan egallashi zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni mashq qilishlari mumkin bo'lgan qurilmalar (dasturlar yoki mobil ilovalar) yordamida o'zlarini ko'proq rag'batlantirishga imkon beradi (interaktiv multimedia mashqlari asosida o'rgatish texnologiyasi o'quvchilarni passiv ma'lumot oluvchilarga aylantiradi).

Talabalar bilimlarini boshqarish va nazorat qilishda qulaylik. Bu funktsiya talabalar guruhlarini ro'yxatini yaratish va yuritish, kurslarni boshqarish, test va imtihonlar orqali talabalarni baholash va ma'muriy xarakterga ega bo'lgan boshqa ko'plab vazifalarni o'z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda o'qituvchining yuqorida aytib o'tilgan vazifalari ta'lim muassasalarining ehtiyojlariga moslashtirilgan son-sanoqsiz funktsiyalarni taklif qiluvchi onlayn ta'lim platformalari tufayli amalga oshirilmoqda. Ular nafaqat ta'lim muassasalariga talabalar hisoblarini faollashtirish, guruhlar yaratish, xabarlar va avtomatik bildirishnomalar yuborish kabi faoliyatlar ustidan samarali nazoratni taklif qilish bilan birga, maxsus dasturiy ta'minot orqali talabalarning muvaffaqiyatini kuzatish kabi muhim

vazifalarni ham bajaradilar. Misol uchun, Dexway o'qituvchilarga ma'lumotlar bazasidagi savollar menyusidan yoki o'z mazmunidan foydalangan holda o'zlarining test materiallarini loyihalash imkonini beruvchi «Test yaratish» variantini ishlab chiqdi. Testni tugatgandan so'ng, talabalar DexwayAnalytics opsiyasi orqali har bir kurs yoki dars natijalari haqida real vaqt rejimida hisobot olishlari mumkin. Shunday qilib, sinfga bajarish uchun tegishli topshiriqlarni taklif qilish uchun quyidagi belgilangan maqsadlarga erishilganligini ko'rish mumkin: o'qituvchilar va talabalar uchun noyob tajriba yaratish; Interfaol multimedia kontenti darslarni ijodiy jarayonga «aylantiradi» va imkon qadar butun auditoriyani qamrab oladi; o'quv jarayonida interaktivlik va hamkorlik raqamli ta'lim texnologiyalari o'quvchilarga darslarga yaxshiroq tayyorgarlik ko'rish imkonini beradi va o'qituvchilarga o'quvchilarning kasbiy kompetensiyasining turli darajalarini hisobga olgan holda qiziqarli va boy manbalardan foydalanish imkoniyatini beradi [5]. An'anaviy o'qitish bilan bir qatorda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o'qituvchi o'quvchilar shaxsining individual xususiyatlarini yaxshiroq hisobga olishi va har bir talabaning fanga oid kasbiy malakasi darajasidan kelib chiqqan holda o'quv jarayonini tashkil qilishi mumkin. Bugungi kunda axborot texnologiyalarining ta'lim maqsadlari uchun ahamiyati butun zamonaviy dunyoda keng e'tirof etilmoqda. Axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi odamlarning muloqoti va idrokida o'ziga xos yangi davrga aylandi va axborotni (yangilik, matn va boshqalar) idrok etish dinamikasiga ham ta'sir ko'rsatdi. Shubhasiz, axborot texnologiyalari odamlarning jamiyatda qanday munosabatda bo'lishiga, kerakli ma'lumotlarga kirishiga va ma'lumot almashishiga ta'sir qiladi.

**Xulosa.** Shunday qilib, oliy kasbiy ta'lim paradigmasi katta ma'lumotlar oqimi bilan ishlashga, muammoli vaziyatlarni dinamik ravishda hal qilishga, konstruktiv muloqotlarga tayyor bo'lishga va o'z pozitsiyasini himoya qilishga qodir bo'lgan raqobatbardosh va talabga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Kasbiy faoliyatga oid kompetensiya va raqamli savodxonlik talabalarga xalqaro ta'lim loyihalarida ishtirok etish, hamkorlar/hamkasblar bilan samarali hamkorlik qilish, vazifalarni muvaffaqiyatli qilish va axborotni tanqidiy baholash imkonini beradi. Talabaning raqamli vositalardan foydalanish qobiliyati unga qabul qilingan ma'lumotlarni baholash va tanqidiy tahlil qilish uchun (masalan, media matnlarini tahlil qilish) o'qituvchining ba'zan ortiqcha nazoratini tark etish imkoniyatini beradi. Darhaqiqat, internet-resurslar turli darajadagi murakkablikdagi o'quv materiallarining keng doirasiga kirishni ta'minlovchi xorijiy tildagi haqiqiy kontent manbai hisoblanadi. Shu munosabat bilan, o'qituvchilar o'zlarining raqamli mahsulotlarini (materiallarini) yaratish uchun qidiruv tizimlari bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari va bilim olishlari kerakligi tavsiya qilinadi.

### Adabiyotlar:

1. Ушакова Е.В. Системная философия и системно-философская научная картина мира на рубеже третьего тысячелетия. - Барнаул: АГУ, 1998. - Ч. 1. - 264 с.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son «Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.
3. Гнатышина Е.В., Саламатов А.А. Цифровизация и формирование цифровой культуры: социальные и образовательные аспекты // Вестник Челябинского государственного педагогического университета. - Ч., 2017. - № 8. - С. 19-24.
4. Сергеева И.Л. Трансформация массовой культуры в цифровой среде // Культура и цивилизация. - 2016. - Т. 6. - № 6А. - С. 55-65.
5. Benefits of using new technology in Language Learning: <https://www.cae.net/5-benefits-using-new-technology-language-learning/>

---

**TURKISTONDA MAKTAB TA'LIMI TIZIMINING RIVOJLANISH TARIXI  
VA PEDAGOGIK O'ZIGA XOSLIGI (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)**

*Nazarov Alisher Abdusamadovich, O'zDJTU doktoranti*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada Turkiston o'lkasining chor Rossiyasi boshqaruvi davrida xalq ta'limidagi islohotlarning tarixiy tahlili va chor Rossiyasining ta'lim tizimi «modernizatsiyasi» siyosati etnik deformatsiya omili sifatida belgilanish jarayoni yoritiladi. Shuningdek, Turkiston an'anaviy ta'lim tizimini mustamlakachilik ta'lim tizimi bilan almashtirilishi mexanizmlari va oqibatlari, mazkur jarayonning ko'p millatli mahalliy aholining hamda ko'chirib keltirilgan rus millatiga mansub aholining savodxonlik darajasiga ta'siri o'rganiladi.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim, Turkiston o'lkasi, jadidchilik, mustamlakachilik siyosati, manfaatlar to'qnashuvi, mahalliy aholi, chor ma'muriyati.

**ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ  
(вторая половина XIX - начало XX века)**

*Nazarov Alisher Abdusamadovich, докторант УзГУМЯ*

**Аннотация.** В статье приводится исторический анализ реформ школьного образования в Туркестане в период правления царской России. Определение модернизационной образовательной политики царской России классифицируется как фактор этнической деформации. Также изучаются механизмы и последствия замены традиционной системы образования Туркестана колониальной системой образования и влияние этого процесса на уровень грамотности многонационального местного населения и переселенного русского населения.

**Ключевые слова:** образование, колониализм, колониальная политика, конфликт интересов, местное население, царская администрация.

**HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF PUBLIC EDUCATION IN TURKISTAN  
AND ITS PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS  
(the second half of the XIX century is the early XX th century)**

*Nazarov Alisher Abdusamadovich, PhD student of UzSWLU*

**Abstract.** The article covers the historical analysis of the reforms in public education during the rule of Tsarist Russia of the Turkestan region. The definition of modernization education policy of Tsarist Russia is classified as a factor of ethnic deformation. Also, the mechanisms and consequences of the replacement of the traditional education system of Turkestan with the colonial education system, the impact of this process on the literacy level of the multi-ethnic local population and the resettled Russian population are studied.

**Key words:** education, Turkestan country, colonialism, colonial policy, conflict of interests, local population, tsarist administration.

**Kirish.** Chor Rossiyasining Turkistondagi mustamlakachilik tarixi masalasi sobiq ittifoq tarixshunosligida bir tomonlama o'rganildi. Jumladan, bu tadqiqotlar marksistik usullarga asoslanganligi sababli mustamlakachi hokimiyatlarning mintaqadagi islohotchilik harakatlariga bir tomonlama baho berildi. Chor Rossiyasi ko'p millatli Turkiston xalqlari uchun ilg'or madaniyat olib kelgan yetakchi omil deb e'lon qilindi. Bu muammo mamlakatning asrlar davomida shakllangan, maqsadli inkor qilingan ta'lim tizimi mustamlakachilik ta'lim tizimi bilan almashtirilganligi bilan bevosita bog'liqdir. Ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, chor Rossiyasining Turkiston xalq ta'limiga nisbatan

harakatlari pedagogik nuqtai nazardan mustamlakachilik xarakteriga egaligi namoyon bo'ladi. Xuddi shunday izlanishlarga asoslanib, mustamlakachilik sharoitida birinchi o'zbek ma'rifatparvarlari qarashlarida rus madaniyati orqali jahon sivilizatsiyasiga erishish g'oyasini amalga oshirishning imkoni yo'qligi isbotlangan [1, 94-b.].

**Asosiy qism.** Mustaqillik yillarida tarixda qayd etilgan pedagogik qarashlar chor Rossiyasi tomonidan amalga oshirilgan xalq ta'limini modernizatsiya qilish siyosatiga yangicha nuqtai nazardan baho berish imkoniyatini yaratdi. Chor Rossiyasi xalq ta'limining mustamlakachilik muammosini yangicha yondashuv asosida – Turkiston xalqlarining etnik deformatsiyasi omili sifatida ko'rib chiqdilar. Turkiston o'zining ulkan hududi bilan chor Rossiyasi uchun boshqaruv, qonunchilik, chegarani mustahkamlash, rus muhojirlarini ish va mulk bilan ta'minlash, paxtachilikni yo'lga qo'yish, yangi o'lkalarni bosib olish, qo'zg'olonlarning oldini olish bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqardi. Albatta, ulkan Turkiston o'lkasi xalq ta'limi muammosi ham chor Rossiyasining asosiy muammolaridan biri edi. Chor ma'muriyati aholisi shariat va Qur'onga zid bo'lgan me'yor va qoidalarni har ikki tomon manfaatlarini hisobga olgan holda qat'iyat bilan qabul qilmayotgan bunday muayyan mintaqada xalq ta'limi tarmog'ini qanday tashkil etishni hal qilishi kerak edi. Ushbu sabab chor hukumati Turkistonda maorif muammosi «nihoyatda ulkan va qiyin» ekanini boshidanoq anglab yetgan edi. Qiyinchilik, eng avvalo, milliy ta'lim tizimining asrlar davomida ishlab chiqilganligi, chuqur ildiz otganligi va o'z davrida yaxshi samaralar ko'rsatganligi bilan ajralib turardi. Boshqa tomondan, an'anaviy jamiyatni ruslashtirmasdan va aholini umumiy imperiya makoniga integratsiya qilmasdan turib, bosib olingan hududlarni saqlab qolishning iloji yo'qligini hisobga olgan chor ma'muriyati rus-mahalliy (rus-tuzem) maktablarini yaratishni o'z zimmasiga oladi. Ammo chor ma'muriyati hukumat uchun eski tuzumdan ko'ra xavfliroq bo'lgan milliy tarixiy tajriba va Yevropa ilmiy yutuqlaridan xabardor ziyolilarning yangi avlodi, yoshlar aynan o'lkaning zabt etilishi tufayli dunyoni ko'rib, qiyoslash imkoniyatiga ega bo'lishlarini, xalq ta'limining yangi yarim islomiy, yarim yevropacha tizimini ishlab chiqishlarini kutmagan edi.

Turkiston xalq ta'limining tashkil etilishi va boshqarilishi jarayoni rasman harbiy vazir boshqaruvida qolsa ham, joylarda o'quv jarayonini tashkil etish Xalq maorifi vazirligiga bo'ysundirilishi taklif etilgan edi. So'ng dasturni Imperiya maorif vaziri ko'rib chiqdi. Ko'p bahslardan so'ng 1875-yilning 17-(25) mayida dastur loyihasi Rossiya Imperator tomonidan tasdiqlanib, 1876-yil 1-yanvardan «Turkiston o'lkasi o'quv ishlari boshqarmasi» o'z faoliyatini boshlashi belgilab qo'yildi. Turkiston o'lkasi O'quv ishlari boshqarmasi huquqiy asosga ega bo'lgach, 1876-yildan o'lkadagi mavjud ta'lim muassasalari o'z faoliyatini rasman chor Rossiyasi Xalq maorifi vazirligi Nizomlari asosida olib borishi belgilab qo'yildi. Shu bilan birga, o'lkada yangi xalq ta'limi muassasalari ham Xalq maorifi vazirligi Nizomlari asosida ochilishi lozimligi qayd etildi. Bir so'z bilan aytganda, Turkiston o'lkasida xalq ta'limini tashkil etish va boshqarishda qayd etilgan asosiy Nizom huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Bunga qadar esa, o'lkadagi xalq ta'limi muassasalari rasman xonliklar davrida ta'sis etilgan tartib asosida, mustamlakachilar nazorati ostida faoliyat olib borar, o'lka general-gubernatorining xalq ta'limini tashkil etishga oid topshiriqlari huquqiy asos vazifasini bajarar edi. 1891-1892 yillarda Rossiyadagi ocharchilikdan so'ng Turkiston o'lkasiga muhojirlar to'liqini yanada kuchayadi. Faqat 1904-1914 yillarda Semirech'yega 20 mingga yaqin rus muhojirlari ko'chib keladi. Rus aholisi 1897-yilda 67 ming kishidan 1907-yilda 107 ming, 1911-yilda esa, 154 ming, 1914-yilda 255 ming kishiga o'sadi. Mustamlakachilarning qariyb 66 ming nafari Sirdaryo viloyatida, qolganlari esa, boshqa

viloyatlarga joylashadilar. Professor Marko Buttini Turkistonga betartib ko'chib kelgan rus dehqonlarining soni haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: 1901-yilda – 16 ming oila, 1905-yilda – 23-ming va 1908-yilda – 30 ming oila [2, 500-b.]. 1907 yildan boshlab chorizmning immigratsiya siyosati yangi hududlarni ko'paytirishga yo'naltirilgan edi. Yangi hududlar chor Rossiya hukumati mustamlaka chekkalarida tayanch bo'ladigan hududlarda dehqonlarning mustahkam qatlamini yaratishga intilishi bilan bog'liq bo'lib, ko'plab muhojirlar uchun ta'lim tizimini shakllantirishi kerak edi. XIX asrning 60-yillaridan boshlab turli shaharlarda General-gubernatorlik rus bolalari uchun yangi ta'lim muassasalari ocha boshladilar. Sirdaryo viloyatida birinchi rus maktablari 1-son Fort va Perovskda ochildi [3, 241-b.]. Shuningdek, chor ma'muriyati Turkiston o'lkasidagi ruslar uchun maxsus kasbiy ta'lim muassasalarini ochishni boshladilar. 1894-yilda Toshkent maktabi, 1905-yilda Toshkent va Samarqandda savdo maktablari, 1904-yilda O'rta Osiyo temir yo'l liniyasida texnologik temir yo'l bilim yurti, Toshkent boshlang'ich xo'jalik maktabi va boshqalar ochiladi [4, 53-b.]. Turkiston xalq maorifining muhim elementi o'qituvchilar tayyorlash bo'yicha o'quv yurtlari edi. 1879-yilda Toshkentda o'qituvchilar seminariyasi ochilib, o'n yil davomida O'rta Osiyoda yagona pedagogika bilim yurti bo'lib qoldi. Xalq ta'limi tashkilotchisi, dinshunoslik fanlari magistri, Qozon dinshunoslik akademiyasi dosenti N.P.Ostroumov 1917-yilgacha ba'zi tanaffuslar bilan unga rahbarlik qildi. Toshkent o'qituvchilar seminariyasining asosiy vazifasi bitiruvchilarni «rus bo'lmagan» maktablarga tayyorlash edi. Biroq, talab yuqori bo'lganligi sabab ko'plab bitiruvchilar davlat organlariga ishga yuborilar edi. Maktab ta'limi masalalarini hal qilishda muhim tarkibiy qismga ega rus-mahalliy maktablari zamonasining ixtirosi edi. Albatta, davlat hokimiyatining dastlabki yillarida shahar va viloyat muassasalarida, ayniqsa, sud tizimida kadrlarning yetishmasligi sharoitida chor ma'muriyati katta qiyinchiliklarga duch keldi. 1884-yil 19-dekabrda Toshkentda birinchi rus mahalliy maktabining ochilishi marosimida «Bu hudud bir vaqtlar bo'ysundirilgan va u bepoyon ona yurtimizning muhim qismiga aylanadi. Ammo bunga qanday erishishimiz mumkin? Eng muhim shartlardan biri, ehtimol, rus tilining keng tarqalishidir. Mahalliy aholi rus tilida bimalol gapiradigan bo'lsa, mintaqadagi rus hukmronligi o'matilgan deb hisoblash mumkin» [5]. Chor ma'muriyati o'lkada ko'proq global maqsadlarni ko'zlatdi. Ular uchun rus-mahalliy maktablari aholini ruslashtirishning bir usuli edi, bu podshoh davlat amaldorining yuqoridagi nutqidan ko'rinib turibdi. Mahalliy rus maktablarida rus tili, matematika, tarix, rus geografiyasi, tabiatshunoslik, «mahalliy o'qish va yozish» hamda islom dini asoslari o'rgatilgan. O'quv dasturining cheklanganligi esa, hokimiyatga ziyolilar faqat byurokratiya va aholi o'rtasidagi bo'g'in sifatida kerak, degan fikrni uyg'otadi.

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida an'anaviy maktablar butunlay parokandalikka yuz tutdi. Mahalliy maktab va madrasalar bo'yicha nazorat komissiyasi raisi V.P.Nalivkinning 1901-yil Toshkent shahridagi eski maktablarning holati haqidagi ma'lumotlariga ko'ra, eski shahar qismidagi 142 ta maktabdan 109 tasi masjidlarda, 27 tasi domlarning uylarida, 5 tasi mozorlar qoshida joylashgan. Umumiy olib qaraganda, barcha mavjud maktablar domla va imomlarning xonadonlarida, qorixonalarda joylashgan bo'lib, faqat bittagina maxsus qurilgan maktab mavjud edi. Ularning birortasi gigiyenik talablarga javob bermas edi. Bu maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayoni bir xilda va rejali tashkil etilmagan bo'lib tarqoq holda faoliyat olib borardi. O'quvchilarni ta'limning keyingi bosqichiga maqsadli tayyorlash, ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzluksizlikning ta'minlanishiga mutlaqo amal qilinmagan. Rus-mahalliy maktablarining tashkil etilishi, avvalambor, mustamlakachilarning o'lkadagi hukmronligini mustahkamlash yo'lidagi



amaliy harakatlaridan biri bo'ldi. Boshqaruvining dastlabki yillarida chor amaldorlari o'lkani boshqarishda tarjimonlarga katta ehtiyoj sezidilar. Xususan, me'yoriy hujjatlarning rasmiylashtirilishida, vaqf mulklarining o'rganilishi, qozixonalarga bo'lgan murojaatlarning tahlil qilinishida tarjimonlarga bo'lgan ehtiyoj o'ta sezilarli bo'ldi. Shu bilan birga, chor Rossiyasi «rus-mahalliy» maktablarini tashkil qilish orqasida uzoqni ko'zlagan, Turkiston o'lkasini ruslashtirish rejasini amalga oshirishni mo'ljal qildilar [6, 328-b.]. Chorak asrdan ortiq vaqt ichida darsliksiz saboq berilgan rus-mahalliy maktablarining o'zbek sinflarida taxminan 1902-1903 o'quv yillaridan Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval» (1902-1917), keyinroq Munavvar Qorining «Adibi avval» (1907-1917) tovush usulida tuzilgan alifbe darsligidan foydalanildi. Xuddi, shuningdek, rus guruhlar uchun S.Grameniskiyning «Pervaya kniga dlya chteniya», «Vtoraya kniga dlya chteniya», «Tret'ya kniga dlya chteniya» darsliklari 25 yildan keyingina yaratildi. Asli toshkentlik bo'lib, fors, arab, turk, rus va ingliz tillarini yaxshi bilgan, 1906-1917-yillar davomida rus-mahalliy maktabida hisobdan saboq bergan Majid Qodiriy (1886-1938) Munavvar Qori, Shokirjon Muhammad Rasul, Abdulla Avloniy kabi taraqqiyparvar jadidlar bilan bir safda turib, rus-mahalliy va jadid maktablari uchun o'zbek tilida ilk arifmetika (Majid Qori. Hisob matematikadan boshlang'ich ta'lim asoslari. - T., 1910 (1913 va 1915 yillarda «Turkiston kutubxonasi» nashriyoti tomonidan qayta nashr qilingan), geografiya (Majid Qori. Jug'rofiya. - T., 1911) va chig'atoy-turkiy (o'zbek) tildagi grammatika darsliklarini yaratgan metodist olimlardan edi. U Munavvar qori va Abdulla Avloniy tomonidan 1909 yilda ta'sis qilingan «Jamiyati xayriya» jamiyatining ilk xayriya jamg'armasi asoschilaridan bo'lib, maktablarni metodik adabiyotlar bilan ta'minlashga katta hissa qo'shgan.

XIX asrda Turkiston rus-mahalliy maktab va bilim yurtlarida o'qitish uslubi aniq tizimga ega bo'lmasdan ta'lim jarayoni asosan ikki yo'nalishda tashkil etildi: 1-yo'nalish - Ilminskiy tizimga asosan tavsiya etilgan usul bo'lib, bunda o'qituvchi dars jarayonida tinglovchilarning ona tilidan keng foydalandi; 2-yo'nalish - o'g'il bolalar gimnaziyalarida qadimiy tillarni o'qitish uslubiga taqlid sifatida, o'qituvchilar jonli tovushni chetlab, asosan, matnlarni tarjima qilish bilan shug'ullanishdi.

XX asr boshlariga kelib avval Sirdaryo viloyati, keyinchalik esa, butun Turkiston o'lkasi rus-mahalliy maktab va bilim yurtlarida Grameniskiyning rus tilini o'qitish metodikasiga asoslanildi. Rus-mahalliy maktablarida rus va mahalliy aholi farzandlarining aralash o'qitilishi o'lkada rus tili va madaniyatini targ'ib etishda muhim rol o'ynadi. Ilk alifbe darsligini yaratgan va rus-mahalliy maktablarida qo'llagan Saidrasul Saidaziziy, «Hisob» darsligini tuzib, ushbu darslik asosida rus-mahalliy maktabida arifmetikadan dars bergan Majid Qodiriy, qator boshlang'ich sinf darsliklari mualliflari Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Mimuhsin Shermuhamedov kabi ma'rifatparvar pedagoglar, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va Botu kabi o'zbek adabiyotida yorqin ijodi bilan o'chmas iz qoldirgan yozuvchi va shoirlar, Ubaydulla Xo'jayev kabi tanikli davlat arboblari rus-mahalliy maktablarida ham tahsil olishdi. Mamlakatda kuchli madaniy-ma'rifiy harakat - jadidchilik chor Rossiyasi tomonidan amalga oshirilgan xalq ta'limiga muqobilik sifatida vujudga kelganligi tarixan isbotlangan. Biroq sovet tarixshunosligidagi bu tarixiy voqelik ham ataylab buzib ko'rsatilib, «pan-islomizm», «pan-turkizm» kabi siyosiy tamg'alarga ega bo'ldi. Mustamlakachi hokimiyat tomonidan boshlangan jadidchilik g'oyasiga qarshi siyosiy repressiya sovet totalitar tuzumida ham davom ettirilib, qat'iy mafkuraviy tus oldi. Jadidlarning ta'lim-tarbiyani yangilash haqidagi milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda vujudga kelgan pedagogik qarashlari sovet hokimiyati tomonidan mutlaqo qabul qilinmadi va tan olinmadi.

Ayrim ziyolilar mustamlakachilik tuzumida o'z xalqining milliy va diniy tuyg'ularini toptalishini ko'rib, Yaqin Sharqdagi turli islom davlatlari – Afg'oniston, Eron, Turkiyaga ko'chib ketishdi. Yana bir guruhi esa, Rossiya imperiyasining o'rnatilgan hukmronligi vaqtinchalik deb hisoblardi. Ularning bir qismi mustamlakachilarning hukmronlik jarayonini tezlashtirishga, Turkiston o'lkasi mustaqilligini tiklashga umid qilib, o'sha davrdagi barcha milliy-ozodlik qo'zg'olonlarida faol ishtirok etdi. Ammo an'anaviy jamiyatni xalq ta'limi orqali bosqichma-bosqich isloh qilish yo'li orqali qudratli Rossiya imperiyasi bilan harbiy to'qnashuvsiz mamlakatni tark etganlar ham bor edi. Eng muhimi, an'anaviy alifbo usuliga nisbatan mustahkam ta'lim tizimiga ega yangi jadid maktablari ta'lim muddatini sezilarli darajada qisqartirish imkonini berdi. Bundan tashqari, o'zgarishlar yangi fanlar va adabiyotlar bilan to'ldirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqdilar. Jadidlar ta'lim tizimining bir qismi sifatida tabiat va ijtimoiy fanlarning keng doirasini o'qitish va o'rganishda qat'iyatli bo'lib, ular tomonidan «aqliy fanlar» kabi umumiy tushunchalarni kiritdilar. Jadidlarning ta'lim-tarbiya bilan bog'liq faol faoliyati sezilarli samaralar berdi. XIX asr oxirida Turkistonda yangi usullarga asoslangan maktablar juda kam bo'lgan bo'lsa, 1911-yilga kelib ularning soni 63 taga, umumiy kontingenti esa, 4106 taga yetdi. Maorif sohasidagi ijobiy tendensiyadan dalolat beruvchi bunday haqiqatlar chor hukumatini tashvishga solardi, ular Turkiston general-gubernatorligining yangi ta'lim usullariga asoslangan maktablarini hamisha nazoratsiz qoldirmaslikka harakat qildilar, chunki bu maktablar o'z faoliyatida rivojlanishga intilishlarini ko'rdilar. «Yangilanish» deganda, ular hukumatga qarshi fikrlarni nazarda tutdilar. Hukumatning yangi maktablarga salbiy munosabati mintaqadagi mahalliy xalqlarning milliy o'ziga xosligini rivojlantirishdan qo'rqish bilan bog'liq edi. Shuning uchun ham jadid maktablarining rivojlanishi va tarqalishiga har qanday yo'l bilan to'sqinlik qildilar. Yuqorida qayd etilgan sabablarga ko'ra, viloyat ma'muriyati «qadimchilar» (konservativ ruhoniylar) to'liq nazorati ostidagi konfessiyaviy ko'rinishdagi siyosiy jihatdan ishonchli, ammo samaradorligi past bo'lgan, ma'nau eskirgan maktablarni afzal ko'rdi, chunki ular ta'lim tizimi imkoniyatlarini kengaytirishdan mutlaqo manfaatdor emas edi» [7, 15-b.]. N.Ostroumov fikricha, musulmon maktablarini maqsadli e'tiborsizlikda qoldirish xalq ta'limida yangi harakatning shakllanishiga sabab bo'ldi, lekin bu o'zgarish boshqa usulda va aniq alohida tendensiyada – davlat hokimiyatidan mustaqil bo'lib chiqishiga turtki bo'ldi. Xuddi shu mazmundagi chiqishlar hokimiyatni harakatga keltirdi. 1908-yilda Turkiston general-gubernatori va Xalq ta'limi vazirligi ko'rib chiqishi uchun yangi ta'lim usullariga asoslangan maktablar tashkil etish to'g'risida «Turkiston o'lkasining musulmon ixtisoslashtirilgan maktablari to'g'risidagi qoidalar»ning yangi loyihasini (birinchisi 1906-yilda qabul qilingan) taqdim etdilar. Xalq ta'limi vazirligi bo'limlarida uch yillik tuzatishlardan so'ng 1912-yil 25-yanvarda Turkiston general-gubernatori A.I.Samsonov ushbu hujjatning asosiy bandlarini tasdiqladi. Yangi ta'lim usullariga asoslangan maktablar ochishga Turkiston general-gubernatorligining davlat ixtisoslashtirilgan maktablarini tekshirgandan so'ng ruxsat berishi kerak, dedilar. Maktablarni ochish uchun ruxsat faqat o'quvchilarning millatiga mansub mahalliy bo'lgan shaxsga berilishi ta'kidlandi. Masalan, tatar millatiga mansub muallimga o'qituvchi sifatida yangi ta'lim usullariga asoslangan maktablarda ishlashga ruxsat berilmadi [8].

**Xulosa.** Umuman olganda, chor Rossiyasi nafaqat Turkiston hududida, balki boshqa milliy mintaqalarda ham xalq ta'limi muammolarini hal qilishda bir qancha mustamlakachilik siyosatini mustahkamlashga yo'naltirilgan usullardan keng foydalandi. Buning asosiy sabablari imperiya siyosatining mustamlakachilik manfaatlari bo'lsa, bu manfaatlarning

asosiy maqsadi mustamlaka qilingan xalqlarni madaniy ruslashtirish edi. Chor Rossiyasining o'lkadagi ma'muriyati o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishish uchun XIX asrda mahalliy ta'lim tizimini butunlay yo'q qilish uchun faoliyat olib bordi va milliy ta'lim tizimini umuman e'tibordan chetda qoldirdi. Xalq ta'limining mustamlakachilik modeliga muqobil sifatida shakllangan madaniy-ma'rifiy harakat – jadidchilik milliy ozodlik harakatining shakllangan mafkurasiga ega bo'lgan holda mustamlakachilik bosimiga qarshi dalillarni asoslab bera oldi va siyosiy kurashga turtki berdi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Djurayev D.U. Turkiston xalq ta'limining tashkil etilishi va boshqarilishi nazariy asoslari (XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlari): Ped. fanl. d-ri DSc) ... Dis. - T., 2019.
2. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924 г.). - М.: АПН, 1961.
3. Buttini M. Revolution on the contrary. Central Asia between the fall of the tsarist empire and the formation of the USSR. Zveniya. - Moscow, 2007.
4. Abdurakhimova N.A. The main directions of Russian-Central Asian relations in the field of education in the second half of the nineteenth and early twentieth centuries / / History: the problem of objectivity and morality: Materials of the scientific conference. - T: Fan, 2003.
5. Turkestan News. - 1895. - January 8. - No. 1.
6. O'zbekistonda ta'limning rivojlanish tarixi va tarixshunosligi // Tafakkur qanoti / Mas'ul muharrir t.f.d., prof. D.A.Alimova. - T., 2015.
7. Худойкулов А.М. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX - начало XX вв.): Автор. дис. ... канд. ист. наук. - T., 1995.
8. Djurayev D.U. Value of new-method maktab in the Historical Formation Turkestan national Education (end of XIX - early XX century) // Eastern European Scientific Journal. - Germaniya, 2016. - № 4. - P. 100-104.

---

**INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARDA MADANIYAT  
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM YO'NALISHLARI**

*Usmanova Feruza Saidaxmedovna, SamDU doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaxsning komilik erishuvni ta'minlashda jamiyatdagi madaniyat kompetentligini rivojlantirish, siyosiy ongliligini oshirish, axloqiy va estetik nafosatini tarbiyalash masalalari, shuningdek, madaniyatning tarkibiy qismlari, yoshlarda madaniyat kompetentligini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari to'g'risida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** oliy ta'lim, madaniyat kompetentligi, dunyoqarash, siyosiy madaniyat, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya.

**ВАЖНЕЙШИЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОЙ  
КОМПЕТЕНТНОСТИ МОЛОДЕЖИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА**

*Усманова Феруза Саидрахмедовна, докторант СамГУ*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы развития культурной компетентности в обществе, повышения политической осведомленности, воспитания моральной и эстетической утонченности личности в обеспечении комических достижений, а также компоненты культуры, важные направления развития культурной компетентности у молодежи.

**Ключевые слова:** высшее образование, культурная компетентность, мировоззрение, политическая культура, духовность, образование.

**IMPORTANT DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CULTURAL  
COMPETENCE IN YOUNG PEOPLE BASED ON THE INNOVATIVE APPROACH**

*Usmanova Feruza Saidakhmedovna, doktoral of SaMSu*

**Abstract.** This article discusses the development of cultural competence in society, raising political awareness, educating moral and aesthetic sophistication of the individual in ensuring comic achievements, as well as cultural components, important areas of development of cultural competence among young people.

**Key words:** higher education, cultural competence, worldview, political culture, spirituality, education.

**Kirish.** Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, yuksak madaniyatli, yaratuvchanlikka intiluvchi shijoatkor kadrlar yetishtirishga katta e'tibor berilmoqda. Ma'lumki, barcha davrlarda ham o'qitish mazmuni, ta'lim tizimi ijtimoiy taraqqiyot bilan o'zaro muvofiqlikda rivojlanib kelgan. Bu masalani bugungi kunda qanchalik dolzarb ekanligini Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari ham tasdiqlamoqda: «Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda» [1, 25-b.].

**Asosiy qism.** Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi va talabalarni ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish, madaniyatli va mustaqil fikrlashga o'rgatish asosiy o'ringa ko'tarilishi zamon talabidir. Darhaqiqat, yoshlarning ilm dargohlarida o'z madaniyati, aql-zakovati, yurish-turishi, qanday xislatlarga ega ekanligi oilada olgan tarbiyasining ifodasidir. Ta'lim tizimi esa, ana shu fazilatlar takomiliga ko'mak beradi. So'nggi yillarda respublikamizda olib borilayotgang keng ko'lami islohotlarning asosiy negizlaridan biri – bu ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'lib, bunda aholimiz, ayniqsa, yosh avlodning har

tomonlarga yetuk va barkamol inson bo'lib yetishishini ta'minlashdan iborat. Albatta, kelajagimiz poydevori bo'lgan bugungi davr yoshlarining har tomonlarga bilimli, kasbiy mahorati yuksak, intellektual salohiyati yuqori bo'lishida barcha sohalar qatori barobarida ta'lim muassasalari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim – bu har qanday mamlakatning eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimi – bu mamlakatga kadrlar tayyorlashning ildizi hisoblandi. Hozirgi kunda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish eng, birinchi navbatda, chuqur bilimli, yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashga bo'g'liq hisoblanadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda bugungi kunda ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda. OTMlarda malakali, bilimli va har tomonlarga yetuk mutaxassislar yetishtirish va ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan ishlar jadal amalga oshirilmoqda. Shaxs bilan jamiyatning o'zaro munosabatlari turli tarixiy davrlarda turlicha bo'lib, shaxs madaniyati jamiyat madaniyatini belgilaydi va shaxs madaniyati ham, o'z navbatida, muayyan bir jamiyat madaniyatida shakllanadi. Har bir jamiyat shaxs madaniyatini kamol toptirishda o'zining meyoriy qadriyatlarini belgilaydi va shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlaydi. Jamiyat bilan shaxsning o'zaro munosabati, shaxsning erkinligi, uning huquq va burchlari, insoniy qadriyatlar haqidagi muammo barcha tarixiy davrlardagi muhim masala hisoblangan. Inson tabiatning oliy mahsuli bo'lib, uning mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar yig'indisi bilan belgilanadi. Inson ayni paytda ham tarixiy taraqqiyotning mahsuli, ham uning subyektidir. Ijtimoiy munosabatlar insonni ijtimoiy vujudga aylantiradi, dunyoqarashini shakllantiradi. Inson ishlab chiqarish jarayonida faqat narsalar yaratib qolmay, o'zini, o'z shaxsiyatini ham qayta yaratadi. Bu jarayonda inson takror ijod qiladi va shu jihatdan u ijtimoiy mavjudotdir. Odamlarning ijtimoiy mohiyati shaxsda mujassamlashgan holda o'z ifodasini topadi. Shaxs odamning ijtimoiy mohiyati va ijtimoiy faoliyatining ifodalanishidir. Odam ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish natijasida shaxsga aylanadi. Inson ijtimoiy munosabatlar yig'indisi sifatida muayyan huquq va burchlarga egadir. Bu uning shaxs erkinligini ifodalaydi. Individ shaxsga aylanishi uchun bir qancha huquq va erkinliklarga ega bo'lishi lozim. Shaxs deyilganda, umuman insonni emas, balki tipik va erkinliklarga ega bo'lgan odam tushuniladi. U ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'lgan odamdur. «Madaniyat – jamiyatning, odamning ijodiy kuchlari va qobiliyatlarini rivojlantirish tarixiy ma'lum darajasi bo'lib, mazkur daraja odamlarning turmushni va faoliyatni tashkil qilish turlari va shakllarida, ularning o'zaro munosabatlarida, shuningdek, ular tomonidan yaratiladigan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda ifodalangan bo'ladi» [2]. «Madaniyat – bu insonlarni yaratadigan, shakllantiradigan va shu bilan birga uning yordamida odamlar ijtimoiy faol, kasbiy yetilgan va maqsadga intiluvchan odamlar bo'ladigan hodisa» [3]. V.M.Mejuev [4] madaniyatni «borliqni o'zgartirishga, insoniyat tarixi boyligini shaxsning ichki boyligiga o'zgartirishga, odamning turmush kuchlarini har tomonlarga ochishga va rivojlantirishga, uning o'zini rivojlantirishga qaratilgan insoniyatning turmush va ong barcha jabhalarida ijtimoiy-progressiv ijodiy faoliyati» deb tavsiflaydi. «Madaniyat» tushunchasi tavsiflaridan ko'rib turganimizdek, u odam hayot faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirish o'ziga xos usuli bo'lib, o'z ichiga odam hayotining turli jihatlarini, odamning atrof-muhit va boshqa odamlar bilan ko'p qirrali bog'liqliklari va munosabatlarini oladi. Bizlar «madaniyat» fenomeniga tavsif berishni maqsad qilib qo'ymadik, biroq bizning tadqiqotimiz uchun muhim bo'lgan va mazkur hodisaning axborot, interaktiv va lingvistik jihatlarini aks ettiradigan definitsiyani ajratib ko'rsatdik: «madaniyat - odamlarning birgalikdagi hayoti davomida faoliyat va muloqoti ma'lum strukturalarini ushlab turish uchun ishlab chiqadigan ular yashayotgan muhit bilan o'zaro ta'sirlashishi vositalari, usullari, shakllari, qiyofalari va oriyentirlarining o'ziga xos, genetik nasldan-naslga o'tmaydigan yig'indisi bo'lib hisoblanadi» [2]. Madaniyatlilik deganda, kamtarlik, halollik, rostgo'ylik, saxovatpeshalik, insonparvarlik, yaxshilik, saxiylik kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lish, axloqiy qoidalarga to'la amal qilish, o'z millati hamda boshqa xalqlarni hurmat qilish xislatlari anglashiladi.

Ziyolilik aqliy kamolat egasi bo'lish, nazariy masalalarini anglashga, ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga tayyor bo'lishdir. «Ziyolilik» yuksak darajada kamol topgan intelligentni, keng bilimli, yuksak madaniyatlilikni anglatadi, «Ziyoli» kishilarni tabaqalari orasidagi ijtimoiy qatlamni anglatadiki, bu qatlam yuqori malakali aqliy mehnat bilan mashg'uldir. Yetarli bilimga ega bo'lmagan holda dunyodagi barcha narsalar to'g'risida fikr bildiruvchi kishi diletantdir. Diletantlik madaniyat kamligining belgisi bo'lib, chinakam madaniyat va ziyolilikka aloqasi yo'qdir. Tarbiyalilik ziyolilikning asosiy belgisi bo'lib, uning umumiy madaniy saviyasi ko'pincha nutq madaniyatiga aks etadi. Madaniy nutq, avvalo, to'g'ri nutq demakdir. Madaniyatli kishi obrazli, ifodali va chiroyli nutq orqali o'z fikrini bayon qiladi. Ziyolining estetik didi baland bo'ladi, ya'ni san'at asarlarining go'zalligi to'g'risidagina emas, balki kishilarning, tabiatning va jamiyatning go'zalligi haqida fikr yuritishga, qo'pollik va adolatsizlikka qarshilik ko'rsatib uni bartaraf qilishga qodir bo'ladi. Ziyolilik bilim, ilm va tarbiya bilan kamol topadi. Ziyolilik tushunchasiga umumiy madaniyatdan tashqari qalb nozikligi, umuman, hayotga munosabatda yuksak ong, ijtimoiy faollik ham kiradi. Demak, «ziyolilik» tushunchasi faqat aqliy mehnat kishisiga taalluqli emas. Ziyoli deb chuqur intelligentga, intuitiv oliyanoblikka ega bo'lgan, ma'naviy ehtiyojlari keng har bir kishini atash mumkin. Madaniyatshunoslikni o'rganishdan maqsad ziyolilikni tarbiyalashdir. Ziyoli-intellektual shaxs, uni madaniyatli kishidan farqi, jamiyat va millat taqdiriga ma'naviy javobgar bo'lgan shaxsligidir. Intellektual shaxs individual holatlarda o'z fikridan qanoatlanmaydigan, o'ziga-o'zi qarshi boruvchi, o'zini-o'zi inkor qiluvchi ichki xususiyatlarga ega bo'lgan ziyolidir. Ziyolining shu xususiyatlarida komillik belgilari namoyon bo'ladi. Shaxsning komillik erishuvni ta'minlashda jamiyatdagi mehnat madaniyatini rivojlantirish, siyosiy ongilligini oshirish, axloqiy va estetik nafosatini tarbiyalashda madaniyatning tarkibiy qismlari, sohaları katta vazifani bajaradi. Shaxsni sotsial jihatdan farqlanishga ko'ra insonning mehnat madaniyat, munosabat madaniyati, axloq madaniyati, badiiy-tafakkur madaniyati, dunyoqarashi ruhiy olami haqida gapirish mumkin. Madaniyat ijtimoiy tuzilma sifatida ilmiy bilimlarni, tafakkurni, axloqiy-estetik qadriyatlarini, axloqiy-huquqiy nizomlarni, urf-odat va an'analarini qamrab oladi. Shaxs madaniyatining shakllanishida jamiyat madaniyatining quyidagi tizimlari ahamiyatlidir: siyosiy madaniyat – kishilarning siyosiy ongi, manfaatlarini, e'tiqodlarini, maqsadlarini ifodalovchi siyosiy-huquqiy g'oyalar majmui bo'lib, ma'naviy qadriyatlarining maxsus tizimini tashkil qiladi. Bu madaniyat tarixiy taraqqiyot bosqichlarida jamiyatning ijtimoiy tabaqalari manfaatlarini bilan bog'liq holda vujudga kelib, jamiyat siyosiy faoliyatiga uzviy bog'liq. Siyosiy madaniyat, siyosiy faoliyat sifatida, ya'ni insonlar faoliyatidagi tabiatni qayta yaratish va o'zlarini tarbiyalash jarayonlarini qamram olib, «siyosiy ishlab chiqarishni» aks ettiradi. Bunda siyosiy faoliyat amaliy jihatdan ijtimoiy guruhlar (sotsium)ning siyosiy hokimiyat uchun bo'lgan harakatlarini ifodaydi. Ma'naviy-nazariy jihatdan esa, ijtimoiy munosabatlarni tabaqaviy dunyoqarash ruhida anglash, muayyan siyosiy g'oyalar, dasturlar ishlab chiqish va targ'ib qilishni nazarda tutadi. Umuman, siyosiy madaniyat kishilar faoliyatining manfatli va tabaqaviy jihatdan o'ziga xos shakli bo'lib, siyosiy munosabatlarni tabaqalar, shaxs tomonidan faol o'zlashtirish jarayonini bildiradi. Siyosiy madaniyat tarkibiga: mafkura, siyosiy tajriba va an'analar, siyosiy tashkilotlar, siyosiy faoliyat usullari kiradi.

Siyosiy madaniyatning mavjudlik usuli: jamiyatning siyosiy-madaniy boyligi; amaliy madaniyatdan iboratdir. Jamiyatning siyosiy-madaniy boyligi – davlat boshqaruvining tarixiy tajribasi, siyosiy faoliyat vositalari, usullari, siyosiy bilimlar majmuidir. Amaliy siyosiy madaniyat esa, jamiyat, guruh, shaxs siyosiy hayotidagi mavjud madaniyatdir. Siyosiy - madaniyat sotsial namoyon bo'lish shakli jihatidan jamiyat siyosiy madaniyatini sotsial guruhlar va shaxs siyosiy madaniyatiga ajratish mumkin. Jamiyat siyosiy madaniyati taraqqiyotning ma'lum bir bosqichidagi siyosiy-ijtimoiy qadriyatlar, siyosiy tuzilmalar, siyosiy faoliyat usullarining majmuidir. Shaxs siyosiy madaniyati esa, individ tomonidan jamiyatning siyosiy, mafkuraviy va ijtimoiy-ruhiy qadriyatlarini va usullarni o'zlashtirishi hamda amalga oshirishi tizimidir. Shaxs siyosiy faoliyatida siyosiy madaniyatini bilish va amaliy faoliyatda o'qllash darajasining o'zaro bog'liqligi, yaxlit birligidan siyosiy madaniyat tarkib topadi.

Yuqorida aytib o'tilganlar xulosa qilish imkonini beradiki, madaniyat – bu o'zining strukturasini, mazmuni, maqsad va vazifalariga ega murakkab, ko'p qirrali hodisadir. Mazkur fenomenning mohiyatini bitta tadqiqot doirasida ochib ko'rsatish imkonini mavjud emas. Shuning uchun madaniyatning barcha turlari orasida bizlar kommunikativ, odamlarning boshqalar bilan munosabatlarni qurish madaniyatini ajratib ko'rsatamiz, chunki u, bizning fikrimizcha, ishlab chiqarish bo'lajak rahbarlari zaruriy sifatlarini shakllantirish uchun asosiy turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ular o'zlarining fikrlarini himoya qilishi, ishonitirishi, dalillar keltirishi, vaziyatni tahlil qilishi, zaruriy axborotni ajratib olishi, muzokarani to'g'ri olib borishi zarur bo'ladi. Ta'lim-tarbiya jarayoni kontekstida madaniyatni ko'rib chiqishda ta'kidlab o'tish lozimki, uning uzatilishi asosiy vositasi bo'lib o'qituvchining madaniyat tashuvchisi va o'quvchining shakllanayotgan unikal shaxsi bilan shaxslararo o'zaro munosabati subyekt sifatida takrorlanmas individualligi hisoblanadi. Ma'lumki, ta'limning shaxsning shakllantirilishi bilan bog'liq yangi konsepsiyasi asosiga yagona umuminsoniy madaniyat kontekstida bilimlarning olinishi, qobiliyat va ko'nikmalarning o'zlashtirilishi tamoyili qo'yilgan. Shaxsning hayotda o'zini topishi, o'z-o'zini rivojlantirishi va o'z-o'zini amalga oshirishi madaniyati ko'rinishida yangi ta'lim siyosatining natijasini namoyon qilish shaxs madaniyatini shakllantirish vazifasini dolzarb qilib qo'yadi.

**Xulosa.** Demak, bizlar aniqlab oldikki, madaniyat – ko'p hadli ta'limdir. U moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, intellektual, estetik turlarga ajratiladi. Shuningdek, o'z ichiga odam o'zining jismoniy mukammallashishi bilan bog'liq madaniyatni – mehnat, fikrlash, atvor, kommunikativ madaniyatlarini oladi. Shunday qilib ta'kidlash lozimki, bizlar madaniyatni turli tomondan odam umumiy madaniyati bir qismi sifatida ko'rib chiqdik. Bu bizlarga xorijiy tilni o'rganishda uning mohiyatini aniqroq, to'liqroq va to'g'riroq ochib berish imkonini beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Куронов М. Миллий тарбия. - Т.: Маънавият, 2007.
3. Самиева Ш., Шодмонова М., Рахматова Г. Инновацион таълим муҳитида бўлажак мутахассислар ижодкорлик ва лойиҳалаш кўникмаларини шакллантиришнинг муҳим йўналишлари // Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. - М., 2022. - № 1. - С. 154-162.
4. Мухсиева А. Оилада миллий тарбияни ташкил этишнинг методик асослари: Пед. фанл. номз. ... Дис. - Т., 2005.
5. Ачилдиев А.С. Диалектика национального самосознания и национальной культуры. - Т.: Университет, 1997.
6. Эгамбердиева Н.М. Маданий инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ҳамда касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти (педагогика олий таълим муассасалари мисолида): Пед. фанл. д-ри ... дис. Автореф. - Т., 2010.
7. Самиева С. Этапы развития педагогического творческого мастерства преподавателей высшей школы // Центр научных публикаций. - Б., 2023. - Т. 31. - № 31.

---

## O'QUVCHILARDA CHET TILLARNI O'RGATISHDA IJTIMOILASHTIRUV VOSITALARI

*Urazbayeva Dilnoza Ruzimbayevna, Samarqand davlat chet tillar instituti  
tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilarda chet tillarni o'rgatishda ijtimoiylasuv jarayonlari, ijtimoiylasuv bosqichlarining nazariy ma'lumotlari keltirilgan, «ijtimoiylasuv» hodisasiga qiyosiy ta'riflar keltirib o'tilgan. Zamonaviy chet tili darsida ijtimoiylashtiruv omillari, vositalari taklif qilingan.

**Tayanch so'zlar:** «ijtimoiylasuv» jarayoni, ijtimoiylasuv vositalari, chet tili aloqa tamoyili, rolli o'yinlar, ijtimoiy xususiyatlar.

## СРЕДСТВА СОЦИАЛИЗАЦИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ УЧАЩИХСЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

*Уразбаева Дильноза Рuzимбаевна, базовый докторант  
Самаркандского государственного института иностранных языков*

**Аннотация.** В данной статье представлены теоретические сведения о процессах социализации, этапах социализации при обучении студентов иностранным языкам, а также сравнительные определения феномена «социализация». Предложены факторы и средства социализации на уроке современного иностранного языка.

**Ключевые слова:** процесс «социализации», средства социализации, принцип иноязычного общения, ролевые игры, социальные характеристики.

## THE TOOLS OF SOCIALIZATION IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO LEARNERS

*Urazbaeva Dilnoza Ruzimbaevna, basic doctoral student  
of Samarkand state institute foreign languages*

**Abstract.** This article presents theoretical information on socialization processes, stages of socialization in teaching foreign languages to students, and comparative definitions of the phenomenon of «socialization». Socialization factors and tools are proposed in the modern foreign language class.

**Key words:** the process of «socialization», means of socialization, the principle of foreign language communication, role-playing games, social characteristics.

**Kirish.** Xorijiy tillarni o'qitish sohasidagi zamonaviy talablar sharoitida har bir o'qituvchi dars davomida nafaqat bolalarni yangi grammatik hodisalar yoki lug'at o'qitishga harakat qiladi, balki qaysi xorijiy tilni o'rganilayotgan bo'lsa o'sha mamlakat madaniyati, jamiyatining urf-odatlarini, qadriyatlarini va boshqa xususiyatlarini tanishtirish, tushuntirishga intiladi. Xalqaro va madaniyatlararo aloqalarni o'rnatish, rivojlantirish va bugungi kunda jahon hamjamiyati ijtimoiy hayotining eng dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, chet tili darsida biz tilni nafaqat hodisa sifatida o'rgatamiz, balki har bir o'quvchining shaxsiyatini unga ma'lum qadriyatlarni singdirish, yordam berish, o'rganilayotgan til xalqlarining ijtimoiy-madaniy me'yorlarini o'rgatish orqali rivojlantiramiz. Hozirgi kunda jadal rivojlanayotgan mamlakatimiz va jahon iqtisodiyotining global integratsiyalashuv jarayoni madaniyatlararo hamkorlikni kengaytirish, hayotning turli



sohalarida xalqaro aloqalar, eng so'nggi axborot almashish texnologiyalari, shuningdek, global muammolarning paydo bo'lishi va o'sishi kabi masalalar xalqaro hamkorlik doirasidagina hal qilinishi mumkin. Bu esa, o'z o'rnida yosh avlodni zamonaviy keng ko'lamli fikrlay oladigan va kommunikativ faol ish olib bora oladigan, turli sohalarida professional muloqot darajasida chet tilini puxta egallagan mutaxassislarini tayyorlashni talab qiladi. Shunday ekan, chet tili ta'lim jarayoning madaniyatlararo muloqot vositasi, millatlararo muloqotga tayyor shaxsni tarbiyalashda, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlaydigan va rivojlantiradigan fanlar qatorida roli muhim ahamiyatga ega.

**Asosiy qism.** Birinchi marta «ijtimoiylashuv» atamasi shaxsga nisbatan amerikalik sotsiolog F.Giddings tomonidan ishlatilgan. U «Ijtimoiylashtirish nazariyasi» (1887) ilmiy ishida bu jarayonning «individning ijtimoiy tabiati yoki xarakterining rivojlanishi, inson omilini ijtimoiy hayotga tayyorlash» mohiyatini aniqladi. Ushbu atama amerikalik sotsiolog tomonidan ilmiy foydalanishga kiritilganiga qaramay, qadimdan shaxsning shakllanishi ilmiy munozaralar markazida bo'lib kelgan. Bugungi kunga kelib, «ijtimoiylashuv» masalasi va uning ayrim jihatlari faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va boshqa soha vakillari tomonidan o'rganilmoqda. Yuqoridagi aytib o'tilgan sohalarida «ijtimoiylashuv» tushunchasining qiyosiy tahlilida sezilarli farq aniqlanmagan. Falsafada ijtimoiylashtiruv tushunchasi ta'lim va tarbiya asosida inson shaxsiyati shakllanish jarayoni, uning o'zlashtiriladigan ijtimoiy rollari, shaxsiy va ijtimoiy tajribasi orqali jamiyat a'zosiga aylanishi tushuniladi. Psixologiyada ijtimoiylashuv tushunchasini insoning ijtimoiy tajribaga ega bo'lish jarayoni, birinchi navbatda, ijtimoiy rollar tizimi, shaxsning shakllanishi, shakllanishlar (shaxs va o'z-o'zini anglash), yoki assimilyatsiya jarayoni va natijasi sifatida ko'rib chiqiladi. Sotsiologiyada ijtimoiylashuv insonlarning ijtimoiy normalar va qoidalarga amal qilishni o'rganish jarayoni deb qaraydilar. Ijtimoiylashuv tushunchasining kengroq ta'riflarini qarab o'tadigan bo'lsak, F.Giddings tomonidan ijtimoiy fanlar ichida ijtimoiylashuv tushunchasini ijtimoiy jarayonlar kabi talqin qiladi. Ijtimoiylashtirish ko'rib chiqayotganda F.Giddings ijtimoiy hayotda yuzaga keladigan to'rtta asosiy jarayonni ko'rsatadi: 1) «Baholash» (appreciation); 2) «Foydalanish» (utilization); 3) «Xarakterlash» (characterization); 4) «Ijtimoiylashtirish» (socialization).

F.Giddings ijtimoiylashuvning xususiyatlarini ochib berishda «baholash»ga tavsif berishda, birinchi navbatda, inson o'zi yashayotgan dunyoga ko'nikishi kerak deydi. Inson tug'ilganidan umrining oxirigacha tashqi dunyoni baholash jarayoni ketadi. Undan keyin F.Giddingsning so'zlariga ko'ra asosiy ijtimoiy jarayon «foydalanish» tashqi dunyoga moslashishga urinishdir. Muallif agar bola qadrlashni o'rgansa, u bunga ma'lum bir qoniqishni berishini kashf etadi. «Xarakterizatsiya» yoki uchinchi asosiy ijtimoiy jarayon F.Giddings tashqi dunyoga moslashishga harakat qilayotgan shaxs sifatida talqin qiladi. Bu deyarli «baholash»ga qarama-qarshi jarayondir. Nihoyat, F.Giddings «ijtimoiylashuv» jarayonini «bir-biriga moslashishga urinish» deb ta'riflaydi. Inson dunyoga ko'nikishni boshlagan paytda, atrofidagi insonlar va o'z o'zi bilan tanishishni boshlaydi. Shunday qilib, F.Giddings «ijtimoiylashuv» jarayonini mavhum kategoriya sifatida «insonning ijtimoiy tabiati rivojlanish jarayoni» deb tushungan deyishimiz mumkin. Insonning rivojlanish jarayoni o'zgaruvchan tashqi olam bilan o'zaro munosabatiga bog'liq. Insonning rivojlanish jarayoni uning atrofidagi dunyo bilan munosabatlari «ijtimoiylashuv» deb nomlagan. Fransuz ijtimoiy psixologi, G'arb sotsiologiyasida ijtimoiy-psixologik yo'nalish asoschilaridan biri G.Tard ham «ijtimoiylashuv» jarayoniga batafsil tavsif berishga harakat qildi. U «Taqlid qonunlari» (1892) asarida «ijtimoiylashuv bu shaxsning jamiyat qismlari bo'lgan boshqa shaxslar bilan til, ta'lim,

tarbiya va boshqa o'xshashliklari orqali shaxsni millat (xalq) tarkibiga qo'shishga erishishdir» degan fikr bildiradi. G.Tardning fikricha, taqlid qilish tamoyili ijtimoiylashuv jarayoni negizida yotadi. U odamlarning fiziologik ehtiyojlari va istaklari va ijtimoiy omillarga (obro', itoatkorlik va amaliy foyda) asoslanadi. G.Tard ijtimoiylashuv tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'liq, ya'ni tabiiyachining tarbiyalanuvchida kerakli sifatlarni shakllantirishiga maqsadli yo'naltirilgan e'tiboriga bog'liq degan fikrni keltiradi [2].

Ijtimoiylashuv jarayon sifatida o'z bosqichlariga ega va turli olimlar turlicha talqin qiladilar. Pedagogikada bu jarayon ayniqsa muhimdir, shuning uchun qaysi bosqichda qanday bo'lishi kerakligi va inson hayotidagi roli haqida turli xil fikrlari mavjud. Yuqoridagi nazariy talqinlardan kelib chiqadiki, maktab ijtimoiylashuvning birlamchi insitutlaridan hisoblanadi va chet tili darsi ijtimoiylashuv jarayonining ajralmas qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda chet tilini o'qitishning asosiy strategiyasi aloqa tamoyiliga asoslanadi. Shu munosabat bilan B.D.Bim-Bad chet tili darsining quyidagi qator xususiyatlarini ta'kidlaydi: 1) Darsning amaliy yo'naltirilganligi. Chet tili darsida o'qituvchi o'quvchilarda chet tili aloqa vositasi sifatida ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Bilim zarur, ammo yordamchi vosita sifatida deb tan olinadi. Bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirish yanada samaraliroq bo'lishi uchun yetkaziladi. 2) Muloqot muhiti. Zamonaviy chet tili darsining yetakchi xususiyatlaridan biri muloqot muhiti hisoblanadi. Bunday muhitni yaratish o'rganishning maqsad va qoidalaridan kelib chiqadigan talabidir. Muloqot mashg'ulotlari faqat o'qituvchi va o'quvchi nutqiy sherik bo'lganidagina muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. 3) Maqsadning birligi. Chet tili darsi bir vaqtning o'zida bir butun maqsadlar to'plamini hal qilishi kerak. Darsda tilning turli xil aspektlari (fonetika, grammatika, lug'at) va nutq faoliyatining rivojlanishining har xil turlari (tinglash, o'qish, gapirish, yozish) bilan ish olib boriladi. Biroq darsni rejalashtirishda asosiy maqsad ajratib olinadi. Boshqa maqsadlar vazifa sifatida belgilanadi va ularni bajarish orqali asosiy maqsadga erishiladi [1]. Asosiy maqsadga qo'shimcha ravishda rivojlantiruvchi, ta'lim va tarbiyaviy maqsadlar shakllantiriladi. Shuningdek, B.M.Bim-Bad ta'lim maqsadi umumiy madaniyatni oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, o'rganilayotgan til mamlakati haqidagi bilimlarga ega bo'lish uchun tildan foydalanishni o'z ichiga oladi deb ta'kidlaydi. Ushbu maqsadga erishish uchun darsda foydalaniladigan matnlarni tahlil qilish jarayoni, suhbatlar, muhokamalar dolzarb muammolar va boshqalardan foydalaniladi. Shuningdek, ta'lim maqsadiga erishish o'quvchilar tomonidan lingvistik, o'lkashunoslik bilimlarini egallashni ko'rib chiqadi. Tarbiyaviy maqsadi darsda foydalaniladigan materiallar bilan belgilanadi. Ushbu maqsad munosabatlar orqali amalga oshiriladi va quyidagi vazifalarning shakllanishini ta'minlaydi: o'rganilayotgan til so'zlovchilariga hurmat bilan munosabatda bo'lish; axloqiy qadriyatlar tizimi; chet tilini o'rganishning ahamiyatini tushunish; adolat tuyg'ulari. Tarbiyaviy maqsad shakllariga quyidagilar misol bo'lishi mumkin: «Sinfdo'shlar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish», «O'z nuqtai nazarinigizni himoya qilish qobiliyatini rivojlantirish», «Hayvonlarga mehr uyg'otish» va boshqalar.

Rivojlanish maqsadini amalga oshirish psixik funksiyalarning (xotira, fikrlash, diqqat, tasavvur), hissiy rivojlanishi, shuningdek, shaxslararo munosabatlar, ko'nikmalarni shakllantirish bilan bog'liq. Rivojlanish maqsadining taxminiy formulalari quyidagicha ko'rinishi mumkin: «Lingvistik taxmin mexanizmini ishlab chiqish», «Chet tilida muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantirish», «Fikrlarni mantiqiy ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish»: 1) Mashqlarning dars maqsadiga muvofiqligi. Darsning maqsadi mashqlarni tanlashni belgilaydi. Maqsad vositalarni belgilaydi. Shuning uchun mashqlar (o'rganish vositasi)

maqsadga muvofiq bo'lishi kerak. 2) Mashqlar ketma-ketligi. Mashqlarni shunday joylashtirish lozimki, har bir bajarilgan mashq keyingisi uchun tayanch bo'lib xizmat qilsin. Darsda oddiy mashqlardan boshlab murakkab mashqlarga o'tish muhim hisoblanadi. 3) Darsning murakkabligi. Chet tili darsi kompleks xarakterga ega. Bu shuni anglatadiki, nutq materialining har bir dozasi nutq faoliyatining to'rtta asosiy turi orqali, ya'ni xuddi shu materialni o'quvchilar quloq bilan idrok etadilar, nutqda foydalanadilar, o'qiydilar va yozib oladilar. Shunday qilib kompleks bu – nutq faoliyatining barcha turlari galma gal asosiy rolda almashinib turishi bilan ifodaladigan o'zaro aloqasi va o'zaro bogliqligidir. 4) Chet tilidagi nutq darsda o'qitishning maqsadi va vositasidir. Nutq faoliyatining har bir turi maqsadli ko'nikma sifatida ishlaydi, masalan monolog uchun tayanch sifatida o'qish uchun foydalaniladigan matn qo'llanilishi mumkin. Bunday holatda matn gapirish ko'nikmasi vositasi sifatida ishlashi mumkin. Shuni ham ta'kidlash kerakki, dars chet tilida olib borilishi va o'qituvchi nutqi jami dars vaqtining 10% dan oshmasligi lozim: chet tili darsining mantiqiyli. Dars mantiqiy rejalashtirilgan bo'lishi lozim; darsning barcha bosqichlarini asosiy maqsad bilan bog'lash; darsning barcha bosqichlarining nisbati va ularning asosiy maqsadiga bajarilish vaqti bo'yicha bo'ysunishi; nutq materialini o'zlashtirishda izchillik va bosqichma-bosqichlik; nutq materiali bilan ta'minlanishi mumkin bo'lgan darsning bog'lanishi (leksik birliklar barcha mashqlarda mavjud), mavzu mazmuni (darsning barcha tarkibiy qismlari umumiy mavzu, umumiy fikr (dars munozara) bilan birlashtirilgan). Bundan tashqari, ta'kidlash kerakki, bizning tadqiqot mavzusi yuqori sinf o'quvchilarida chet tilini o'rgatishda ijtimoiylashtiruv vositalaridir. «Yuqori sinf davri bu – qadriyatlar yo'nalishini, shaxsning barqaror dunyoqarashi shakllantirishiga hissa qo'shadigan va bolaning atrofda haqiqatga munosabati shakllanadigan yoshdir». Bu yosh o'z-o'zini anglashning shaxsiy, shaxslararo, professional, ijtimoiy faol rivojlanish davri. Bu xususiyatlarning yaxshi rivojlanishi uchun hozirgi kundan mamnunlik va kelajakka intilish kabi bir necha kriteriyalar mavjud. Shuning uchun ham darslarda ijtimoiylashuv jarayoniga e'tibor berish muhim, bundan tashqari, bizning fikrimizcha, u o'zini yuqorida keltirilgan sabablarga ko'ra yuqori sinflarda to'liq namoyon bo'ladi. Ushbu muammoni o'rganishda olimlarning nazariy nazariy ishlariga tayangan holda, o'quvchilar chet tili orqali o'zlari va atrof-muhitni o'rganadilar. Bunga salmoqli ravishda rolli va faoliyatga doir o'yinlar hissa qo'shadilar. Ular davomida o'quvchilar: muayyan ijtimoiy rollarda harakat qiladilar; qarorlar zanjirini ishlab chiqadilar; natijaga yaqinlashish, maqsadga olib boruvchi to'g'ri yechimni topadilar; hayotda keng tarqalgan muayyan ijtimoiy muammoni hal qiladilar. Bularning barchasi o'quvchilarning atrofda jamiyatga moslashishiga yordam beradi. Shunday qilib, o'qituvchi ijtimoiy o'yinlar orqali oilaparvar, uy bekasi, biznes sherik kabi muloqot tajribasini egallashni rag'batlantirishga harakat qiladi. Har bir ijtimoiy rol ko'plab madaniy me'yorlar, ko'rinmas ijtimoiy mavzular bo'lgan xatti-harakatlar qoidalari va stereotiplari – huquqlar, majburiyatlar, munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bunda eng muhim jihat – shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri, jarayonda ishtirok etishidir. Sinfda o'quvchilar o'quv faoliyatida ishtirok etadilar: rolli va faoliyatga doir o'yinlar boshqa turdagi ijtimoiy faoliyat turlariga taqlid qilish o'quvchilarni xulq-atvor normalari, ularni shaxsiy va ijtimoiy rollarni bajarishga o'rgatadi. Chet tili darsida rolli o'yinlar muhim hisoblanadi. Ular o'quvchilar nutq va real hayotga yaqin vaziyatlarda o'zini tutish qobiliyatlarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Bugungi kungagacha rolli o'yinlar bo'yicha yetarlicha tajriba to'plangan bo'lib, ayrim turlarini ko'rib chiqamiz.

R.P.Milrud tomonidan ijtimoiylashuv vositasi sifatida quyidagi rolli o'yinlar turlari taklif

qilingan: Nazorat qilinuvchi rolli o'yinlar. Bu eng oddiy o'yin turi bo'lib unda o'quvchilar kerakli izohlarni oladilar va bir-birini diqqat bilan tinglagan holda, barcha izohlarni o'yin matniga birlashtiradilar. O'rtacha nazorat ostidagi rolli o'yin. Oldingidan murakkabroq bo'lgan o'yin turi bo'lib, bunda o'quvchilar rollarining umumiy tavsifini oladilar, ammo rol xulq-atvor xususiyatlari faqat ijrochining o'ziga ma'lum va qolgan ishtirokchilar u qanday xatti-harakatlar qilishiga qarab taxminiy yechim berishlari kerak bo'ladi. Erkin rolli o'yin - o'quvchilarga faqat vaziyat haqida gapiriladi. Uzoq muddatli rolli o'yin. Bunda uzoq muddat davomida faoliyatdagi bir qator epizodlar o'ynaladi. Epizodli rolli o'yin. Bu o'yinda alohida epizod o'ynaladi [3]. Ushbu talkif qilingan rolli o'yinlar orqali o'quvchilarda quyidagi xususiyatlar paydo bo'lishi mumkin: o'quv faoliyati uchun keng motivatsion asos, shu jumladan, ijtimoiy, tarbiyaviy va kognitiv va tashqi motivlar; yangi o'quv materialiga qiziqish va yangi muammoni hal qilish usullari; fuqarolik o'ziga xosligi, etnikligi asoslari; oila a'zosi sifatida «men»ni anglash; asosiy axloqiy me'yorlarni bilish va ularni amalga oshirishga e'tibor berish; axloqiy va an'anaviy me'yorlarni farqlash, rivojlantirish; axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish — uyat, aybdorlik, vijdon; empatiya — bu boshqa odamlarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga hamdardlik; o'qituvchi tomonidan ta'kidlangan yangi o'quv materiali yo'riqnomalarini o'qituvchi bilan hamkorlikda hisobga olish; o'qituvchilarning, ota-onasining, o'rtoqlarning takliflari va baholarini to'g'ri qabul qilish. Shunday qilib, taklif qilingan rolli o'yinlar o'quvchilarda nafaqat ijtimoiylashtiruv jarayoniga, balki umumiy o'quv faoliyatini o'zlashtirishga yo'naltirilganini ko'rishimiz mumkin.

**Xulosa.** Zamonaviy chet tili darsining o'ziga xos xususiyatlaridan biri — aloqa tamoyilidir.

Bu tamoyil har bir o'qituvchi tomonidan ayniqsa chet tili darslarida ijtimoiylashtiruv jarayoni haqida gap ketganda hisobga olinishi zarur. Chet tili darsida ijtimoiylashtiruv jarayoniga, ayniqsa, rolli o'yinlar orqali ta'sir qilishimiz mumkin. Shuningdek, rolli o'yin nutq faolligini rag'batlantiradi, chunki o'quvchilar biror narsaga bo'lgan ehtiyoj bo'lgani uchun o'zini namoyon qiladigan vaziyatga tushib qolishadi: so'rash, isbotlash, aytish va bilib olish kabi. O'yin bolalarning bir biri va o'qituvchi bilan aloqa qilish xohishini faollashtiradi, o'ziga ishonchi past bolalarning gapirishga bo'lgan to'sig'ini yengib o'tishga imkon yaratib beradi. O'quvchilarda suhbat, uni qo'llab-quvvatlash, suhbatdoshni o'z vaqtida to'xtatish kabi aloqa elementlarini shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilarda chet tili darsida ijtimoiylashtiruv vositasi sifatida taklif qilingan rolli o'yinlar o'quvchilarda xorijiy tillarni o'rganisha bo'lgan kognitiv qiziqishlarini rivojlantiradi va ongli rivojlanishga hissa qo'shadi, o'quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik kabi tuyg'ularni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### Adabiyotlar:

1. Бим-Бад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. - М.: Большая Российская энциклопедия, 2008.
2. Дашкина А.А. Педагогические условия социализации иностранных студентов в поликультурной среде вуза: Магистерская диссертация. - Пенза, 2021.
3. Матис В.И. Педагогическая социология. - Барнаул, 2010.
4. Мильруд Р.П. Методика преподавания английского языка. - М., 2005.

---

**UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUV-TARBIYA JARAYONIDA  
TARIXIY-MADANIY MILLIY MEROSDAN FOYDALANISH MODEL**

*Hoshimov Ilhom, O'zPFITl doktoranti*

**Annotatsiya.** Maqolada tarixiy-madaniy milliy merosning moddiy obyektlari, vazifalari va tarixiy-madaniy milliy meros darajalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif tarixiy-madaniy milliy merosning eng muhim vazifasi o'tmish an'analar, an'ananing qadr-qimmatini shakllantirishning muhim asoslarini aytib o'tgan.

**Tayanch so'zlar:** tarixiy-madaniy milliy meros, moddiy obyektlar, o'tmish an'analar, global o'zgarishlar, badiiy muzeylarning roli, artefakt, moddiy va ma'naviy, konservativ.

**МОДЕЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОГО  
НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ  
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ**

*Хошимов Ильхом, докторант УзНИИПН*

**Аннотация.** В статье рассматриваются материальные объекты, функции историко-культурного национального наследия и уровни историко-культурного национального наследия. Также автор упомянул о важнейшей задаче сохранения историко-культурного национального наследия - важных основах формирования достоинства традиций прошлого, предания.

**Ключевые слова:** историко-культурное национальное наследие, материальные объекты, традиции прошлого, глобальные изменения, роль художественных музеев, артефактология, материальное и духовное, консервативное.

**THE MODEL OF THE USE OF HISTORICAL AND CULTURAL NATIONAL  
HERITAGE IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF SECONDARY SCHOOLS**

*Hashimov Ilkhom, doctoral student of UzSRIPS*

**Abstract.** The article reflects on the material objects, functions of the historical-cultural national heritage and the levels of historical-cultural national heritage. Also, the author mentioned the most important task of the historical-cultural national heritage-the important foundations of the formation of the dignity of the past traditions, tradition.

**Key words:** historical-cultural national heritage, material objects, past traditions, global changes, the role of art museums, artifact, material and spiritual, conservative.

**Kirish.** Global o'zgarishlar davrida tarixiy-madaniy milliy merosni saqlash muammosi tobora keskinlashib bormoqda. Shaharlarning tez o'zgaruvchan ko'rinishi va inson tomonidan rivojlangan yer nafaqat yangi obyektlarning paydo bo'lishiga olib keladi, balki o'tmishni yo'q qilishiga sabab bo'ladi. Eski binolar va ko'chalar qulaylik jihatidan yangilari bilan raqobatlasha olmaydi, asta-sekin o'z obro'sini va avvalgi yorqinligini yo'qotadi. Shu bilan birga, hatto zamonaviy asrda ham har qanday joyning ruhi madaniy markaz bo'lib qolmoqda, u yoki bu tarzda an'analar ombori, ajdodlar va avlodlarning tarixdagi aloqasi sifatida ishlaydi. Bu aloqa eng muhim madaniy va tarixiy obyektlarda – muzeylarda, galereyalarda, hatto o'tgan avlodlar hayoti ularni almashtirganlar xotirasida o'z izini qoldirganligini ko'rsatadigan alohida artefaktlarda ham yashashi mumkin. Shu munosabat bilan tarixiy va badiiy muzeylarning rolini kamsitib bo'lmaydi. Madaniyat markazi shahar

uchun muhim bo'lganidek, tarixiy-madaniy an'analar ham ma'naviy hayotning zamonaviy shakllarini rivojlantirish uchun asosdir.

**Asosiy qism.** Milliy meros va an'analar bir-biri bilan qanday bog'liq? Bu tushunchalar sinonimmi yoki ular o'rtasida boshqacha munosabat bormi? Avvalo, shuni ta'kidlaymizki, tarixiy-madaniy milliy meros, asosan, an'analarning timsoli sifatida belgilanadi, uning uzatilishi o'tmish va hozirgi kunga ma'no berishga yordam beradi. «Meros» tushunchasining o'zi qadim zamonlardan beri ko'proq moddiy soha bilan bog'liq. Agar tarixiy-ma'naviy narsalar tarixiy-madaniy milliy merosga moddiy narsalar bilan teng ravishda kiritilgan bo'lsa va an'analarni saqlash madaniyatning eng muhim ekzistensial, ma'no-hayotiy funksiyasi sifatida mazmunli bo'lsa, bu qarama-qarshilikni hal qilish mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun tarixiy-madaniy milliy meros modelini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda an'analarning rolini tahlil qilish kerak.

Tarixiy-madaniy milliy meros fenomenini tahlil qilish uning shakllanishiga olib keladi. Birinchi tur – bu quyidagi turlarni o'z ichiga olgan moddiy tarixiy-madaniy milliy meros: birinchidan, bu kundalik ijod chegarasidan chiqib ketgan va jahon durdonalari darajasiga ko'tarilgan badiiy jihatdan qimmatli buyumlar, san'at asarlari. Bunday asarga ega bo'lish uning atrofidagi joyning maqomini keskin oshiradi. Agar viloyatda kamida bitta jahon darajasidagi asar saqlansa, u shaharning o'ziga ta'sir qiladigan va uni o'xshashlar qatoriga ko'taradigan xazinaga aylanadi. Misol uchun muzeylarimizda saqlanadigan Toshkent shahrining qadimiy fotosuratlari shaharda qimmatli madaniy boyliklardan biriga aylangan. Jahon darajasidagi san'at obyekti uning egasining maqomiga mos kelishi kerak, garchi ko'p jihatdan viloyatlar bunday qadriyatlarning tashuvchisi bo'lish huquqiga ega emasligi achinarli, albatta. Tarixiy-madaniy milliy merosning yana bir muhim turi – tarixiy noyob narsalar. Badiiy ahamiyatga ega bo'lmagan, ammo tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan narsalar. Shu munosabat bilan, ular yaratilgan mahorat darajasi emas, balki ularning qadimiyligi darajasi muhim ahamiyatga ega. Bunday obyektlar xotira joylari yoki obyektlari sifatida qimmatlidir. Ba'zan ular o'zlarining mifologiyasi, afsonalari bilan to'lib-toshib, tarixiy faktlardan uzoqlashadilar, ammo bu holatlarda ham ular unutish, parchalanish, beqiyos vaqt bilan kurashadigan va tarixni zamonaviy avlod uchun qiziqarli qiladigan narsa sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoladilar. Tarixiy-madaniy milliy merosning moddiy obyektlarining uchinchi turi – bu an'anaviy hunarmandchilik, kasblar, ma'lum bir joyning faxriga aylangan kasbiy sohadagi noyob yutuqlar (bu zargarlik buyumlari, zarb qilish, qurol-aslaha ishlab chiqarish texnologiyasi va boshqalar), shuningdek, an'anaviy kasblar natijalari (ham san'at asarlari, ham uy-ro'zg'or buyumlari) bo'lishi mumkin. Moddiy obyektlarning to'rtinchi turi – eng kattasi me'moriy tuzilmalar. U alohida binolarni ham, umuman, shaharlar va aholi punktlarini ham o'z ichiga oladi. Aholi punkti ichidagi uylar va inshootlarning dizayni va tarkibi ham an'anaviy ahamiyatga ega bo'lgan o'ziga xos xususiyatdir. Shuning uchun nafaqat shaharning (qishloqning) alohida qismlarini, balki iloji bo'lsa, zamon va an'analarni bog'lashga imkon beradigan eski shaharning ko'rinishini saqlab qolish muhimdir.

Ikkinchi tur – ma'naviy meros bo'lib, u ham, o'z navbatida, har xil turlarga bo'linadi: folklor, xalq an'analari va urf-odatlar; diniy meros – o'tmishdagi ibodat joylari, masjidlar, tasvirlar, e'tiqodlar va amaliyotlar; intellektual meros – o'tmishdagi falsafiy, axloqiy, ilmiy an'analarni aks ettiruvchi og'zaki manbalar; estetik ma'naviy meros – nomoddiy san'at asarlari, shu jumladan, adabiyot, teatr, musiqa va boshqalar. Tarixiy-madaniy milliy meros subyekti. U butun insoniyatni, turli xil ijtimoiy guruhlarini (etnik guruhlar, xalqlar, alohida mulklar, qatlamlar, uyushmalar, jamoalar), shuningdek, tarixiy-madaniy milliy merosni

idrok etadigan, saqlaydigan va ba'zi hollarda rivojlantiradigan shaxslarni o'z ichiga olishi mumkin. Tarixiy-madaniy milliy merosni saqlash mexanizmlari. Ko'p jihatdan ular jamiyat turiga (sivilizatsiya xilma-xilligi) bog'liq, ammo umuman olganda, quyidagi variantlarni ajratish mumkin: ongsiz-ongli; marosim-muqaddas; normativ-huquqiy, axloqiy-aksiologik; ta'lim-tarbiyaviy; ilmiy-vorislik, badiiy, axborot-kod va boshqalar. Tarixiy-madaniy milliy merosni saqlash shakllari og'zaki va og'zaki bo'lmagan, moddiy va ma'naviy, konservativ va ijodiy, himoya yoki ta'qiqlovchi va boshqalar bo'lishi mumkin.

Tarixiy-madaniy milliy merosning vazifalariga, birinchi navbatda: reproduktiv (madaniyatni ko'paytirish); ijodiy (madaniy rivojlanish); aksiologik (tarixiy-madaniy hodisalar va inson mavjudligini qadriyatlar bilan to'ldirish); ekzistensial (madaniyatda inson mavjudligining ma'nosini to'ldirish, tabiatga begonalashishni yengish, o'lim qo'rquvi, vaqt ichida cheksizlik, yolg'izlik, erkinlikka erishish va h.k.); axloqiy (bag'rikenglikni shakllantirish, boshqasiga hurmat (makon va vaqtda) va boshqalar.

Tarixiy-madaniy milliy merosning chegaralari va darajalari. Tarixiy-madaniy milliy meros fazo-vaqt chegaralarida joylashgan bo'lib, ularning chegaralari mavzuga ma'lum bo'lgan artefaktlar yoki ma'naviy hodisalarga taalluqlidir (ular moddiy obyektlardan farqli o'laroq, makon va vaqtda emas, balki faqat vaqt ichida joylashgan). Tarixiy-madaniy milliy meros darajalari ularning mavzusi darajasi bilan bog'liq va quyidagilar bo'lishi mumkin: ommaviy va elita. Ushbu demarkatsiya madaniyat makonidagi ommaviy va elita chegaralari sezilarli darajada mos kelmasligi mumkinligi bilan bog'liq va ularni ko'rib chiqish ushbu hodisani belgilash uchun juda muhimdir. Shunday qilib, san'at hodisalari (moddiy va nomoddiy) tarixiy-madaniy milliy meros obyekti bo'lib, asosan, elita darajasida, yetarli ta'lim va didni shakllantirishni nazarda tutadi. Intellektual meros va tarixiy noyob narsalar, shuningdek, elitalarning tushunish va baholash imkoniyatlari bilan ko'proq bog'liqdir. Xalq hunarmandchiligi, an'anaviy kasblar va ularning asarlari, me'moriy binolar, shuningdek, ma'naviy sohada folklorga kelsak, ular ommaviy darajadagi obyektlar sifatida harakat qilishadi va ularning tashuvchilari (mavzusi) odamlar, etnoslar, professional jamoalar va boshqalar bo'lishi mumkin deb taxmin qilishadi. Tarixiy-madaniy milliy merosning eng muhim vazifasi o'tmish an'analari va xotirasini saqlashdir, bu mantiqiy-hayotiy, ekzistensial bo'ladi. Biroq an'ananing o'zi nimani anglatadi va bu yangilik davrida yashayotgan zamonaviy o'quvchi uchun ahamiyatlimi? Bu savolga javob berish uchun an'ana hodisasini aksiologik tahlil nuqtai nazaridan o'rganishga murojaat qilaylik. An'ananing qiymati asosan jamiyat hayoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, insoniyatning vaqtinchalik birligini, vaqt bilan cheklangan jamoaviy mavjudlikni anglatadi. Bir qarashda, an'analarning roli faqat insoniyat rivojlanishining dastlabki bosqichida ayniqsa muhimdir. Tarixiy jihatdan an'ana, ehtimol, uning birligi, tartiblilik va barqarorligini saqlashga intilayotgan jamiyatning dastlabki qadriyatlaridan biridir. An'anaga rioya qilish dastlab avlodlar tarixida ajdodlar hayotining omon qolishi va davom etishini anglatardi. Uning asosi genetik, energiya va ma'naviy ma'lumotlarni uzatish orqali amalga oshiriladigan vaqt ichida cheksiz yashashga intilishdir. An'ananing qiymati shu bilan vaqt ichida, ijtimoiy tarixda «ildiz otish»ga intilishni ifodalaydi. An'ananing qadr-qimmatini shakllantirishning muhim asosi — bu yangi, hech qachon avvalgisidan qo'rqishdir. Bu nafaqat instinktiv tabiiy qo'rquv, balki ekzistensial, metafizikdir.

An'analarning jamiyati — bu jamoaviy qarorlar va jamoaviy javobgarlik jamiyati. Bu shaxsni tanlov holatidan ozod qiladi, unga jamiyatga uyg'un ravishda qo'shilish imkonini beradi, faoliyatning maqsadlari va vositalarini o'zi belgilash zaruratidan «erkinlik» hissini beradi.

An'ana avlodlar va jamiyat a'zolari o'rtasidagi aloqani shakllantiradi. Bu, birinchi navbatda, o'z vaqtini, makonini, boshqalarning hayotini, xulq-atvori va qadriyatlarini uzaytirishga va mustahkamlashga intiladigan odamlar uchun zarurdir. Bu mutlaq va mistik kuchlarga murojaat qilmasdan abadiylikka erishish muammosini mustaqil ravishda hal qilishga urinishdir. Bu jihatdan an'analarning roli nihoyatda yuqori. An'anaga rioya qilish jarayoniga qo'shilish shaxsning individualligini ma'no va ahamiyat bilan to'ldiradi. Inson o'zini individual ravishda unga nisbatan muhimroq bir butunlikning bir qismi sifatida anglay boshlaydi, bu muqarrar ravishda uning o'ziga bo'lgan hurmatini oshirishga yordam beradi. Ko'pincha biz dunyoqarashning an'anaviy shakllarida shaxsiy, shaxsning ahamiyatsiz qiymatini ko'rishga moyilmiz. Boshqa tomondan, an'ana boshqasining hayotiga ma'lum bir qiymat berish uchun muhim ahamiyatga ega. Shaxs ota-bobolaridan kelib chiqqan an'anaga ahamiyat berganligi sababli, u hozir yashayotgan boshqalarni o'z ichiga olgan ma'lum bir yaxlitlikning bir qismini tushunadi (yoki his qiladi). Xuddi shu an'analarga amal qilganlar ko'rinmas, ammo nihoyatda barqaror aloqalar bilan bog'langan. An'ana jamoaviy hodisa sifatida boshqalar bilan birlikni anglash va tushunishning tug'ilishiga yordam beradi. Biroq bu bir an'ananing barcha izdoshlari bag'rikenglik va boshqasiga hurmat bilan ajralib turadi degani emas. An'ana boshqasini «men uchun zarur» deb qabul qilishga yordam beradi (ma'naviy yoki amaliy ma'noda).

**Xulosa.** An'ana, birinchidan, umumiy mulkka aylangan standart – kimdir tomonidan topilgan abadiy savollar va muammolarga oqilona javob. Ikkinchidan, bu hayotning ma'nosini topishning faqat insoniy usuli va ularning avlodlari hayoti va qadriyatlarida o'lmaslikka (yoki uzoq umr ko'rishga) erishishning haqiqiy variantidir va, uchinchidan, bu jamiyatdagi shaxslarning o'zaro aloqa usuli bo'lib, ularga boshqalarning borligi uchun qadr-qimmatini anglashga imkon beradi. An'analari ibtidoiy, an'anaviy yoki innovatsion jamiyat kabi ijtimoiy shakllarda turli ma'nolarga ega. Jamiyatning dastlabki, ibtidoiy shakllarida an'analari hayotni erishilgan sifatda saqlashga va avlodlar xotirasida davom ettirishga, jamiyat a'zolarining vaqt va makonda birligiga, munosabatlarning barcha turlarini tartibga solishga hissa qo'shishi tufayli eng yuqori ahamiyatga ega bo'lib chiqadi, uning a'zolari ma'naviy farovonlik asosi, qo'rquv va qabul o'z yechimlari xavfi bilan bog'liq emas. An'anaviy jamiyatda an'analari ma'naviy poydevor shaklida namoyon bo'ladi. An'ana ajdodlarning oliy obro'sini, qadimiy hujjatli manbalarni, pretsedent zarurligini, innovatsiyalarni rad etish va yangisini faqat takroriy tekshirilgandan keyin qabul qilishda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, avlodlarni ajdodlar bilan, shaxsni jamiyat bilan bog'laydigan o'ziga xos aloqa kanali sifatida ishlaydi. An'ana har kimga jamiyatda ma'lum bir o'rinni egallashga imkon beradi, bu yerda unga boshqalardan ma'lum munosabat kafolatlanadi. An'ana shaxsning jamiyatdagi mavqeining barqarorligiga hissa qo'shadigan omil bo'lib chiqadi, chunki u o'z ahamiyatini butun jamiyatning qadr-qimmatini bilan bog'laydi, ijtimoiy munosabatlarda ma'lum bir o'rinni egallashga, kafolatlangan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishga imkon beradi. Innovatsion jamiyatda an'analarning ahamiyati yangi sifatga o'tish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan vosita, manba bo'lib xizmat qiladi. An'analarni yengish istagi ushbu turdagi sivilizatsiyaning o'ziga xos xususiyatiga aylanadi, shuning uchun biz uning o'ziga xos tafakkurini tanqidiy deb ataymiz. Ammo bu yerda ham xuddi shu an'ana yangi bosqichga ko'tarilish qadamlari sifatida ishlaydi. Bu, ayniqsa, fan, falsafa va san'atda faoliyat yuritadigan uzluksizlik prinsipida yaqqol namoyon bo'ladi. An'ana insonni o'zidan ustun qo'ygan kuch sifatida harakat qiladi, ammo an'anaviy jamiyatdan farqli o'laroq, u o'zi yangi yo'nalishda oldinga siljish va rivojlanishga harakat



qiladi. Shunday qilib, an'ana inson va insoniyat o'tmishi haqidagi meros qilib olingan ma'lumot sifatida zamonning aloqasini anglab, tarixni shakllantiradigan (shaxsiy va ijtimoiy) mavjudlikning eng muhim qadriyat asosi bo'lib xizmat qiladi. Biroq u mo'rt, o'zi kabi osongina yo'qolishi, unutilishi mumkin. U o'tmishdagi turli hujjatlar, yodgorliklar va artefaktlarda, biz tarixiy-madaniy milliy meros deb tasniflagan narsalarda yashaydi. Shu sababli, ushbu merosni saqlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatning yagona organizm sifatida ishlashi, uning rivojlanishi va o'lmasligi uchun hayot, ma'naviy va amaliy rol o'ynaydi.

Adabiyotlar:

1. «Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида»ги Қонун: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 декабрдаги «Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» қарори: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. «Алоҳида муҳофаза қилинадиган тарихий-маданий ҳудудларни ташкил этиш ва уларни сақлаш тартиби тўғрисида» низом: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. Кучмаева И.К. Культурное наследие: современные проблемы. - М.: Наука, 1987. - 173 с.
5. Лебедев А.В. Музей как системообразующее предприятие (на примере Соловецкого архипелага) // 60 параллель. - М., 2005. - № 2. - С. 22.
6. Словарь музейных терминов. Новая музеология // Сектор Российской музейной энциклопедии. - М., 2002.
7. Стернз Э. Избранное: религия, культура, литература. - Книга света. - М.: РОССПЭН, 2004. - 57 с.

---

## TARBIYA JARAYONIDA TA'LIM MUASSASALARI HAMDA PEDAGOGLARNING O'RNI

**Boymurodova Zarnigor Xushvaqto'vna**, «Oila va xotin-qizlar» ilmiy tadqiqot  
instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarbiyani tashkil etishda ta'lim muassasalari, jumladan, maktab va oliy ta'lim muassasalarining o'rni, shuningdek, jarayonda pedagoglarning ishtiroki masalalari muhokama etiladi.

**Tayanch so'zlar:** tarbiya, ta'lim, maktab, oliy ta'lim muassasasi, metod, o'qituvchi.

## РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ И ПЕДАГОГОВ В ВОСПИТАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

**Боймуродова Зарнигор Хушвактовна**, базовый докторант  
научно-исследовательского института «Семьи и женщин»

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль образовательных учреждений, включая школы и высшие учебные заведения, в организации воспитания, а также вопросы участия педагогов в данном процессе.

**Ключевые слова:** воспитание, образование, школа, высшее учебное заведение, метод, учитель.

## THE ROLE OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND EDUCATORS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

**Boymurodova Zarnigor Khushvaktovna**, Tashkent city  
«Neighborhood and family» Scientific research institute

**Abstract.** This thesis discusses the role of educational institutions in the organization of education, including schools and higher education institutions, as well as the participation of educators in the process.

**Keys words:** upbringing, education, school, higher education institution, method, teacher.

**Kirish.** Tarbiya maskani, avvalo, oila bo'lsa, keying dargoh ta'lim muassasalaridir. Maktab va oliy ta'lim muassasalari bolalarga bilim berish bilan bir qatorda tarbiya berish jarayonini ham olib borishadi. O'quvchi o'quv dargohida butun hayotiy jarayonlarni o'zlashtirib boradi. Bu holatda o'qituvchining roli beqiyosdir. O'qituvchining o'rni va uning vazifalari o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi aniqlanadi. Mamlakatimizda uchinchi renessansni hayotga tatbiq etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishida jamiyat oldida javobgarligi yanada ortib boraveradi. Hozirgi sharoitda jamiyatning maktab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liqdir. O'qituvchi maktabning pedagogik jamoa a'zosi sifatida maktab hayoti faoliyatini uyushtirishda bevosita ishtirok etib, turli fan o'qituvchilari va sinf rahbarlarining metodik birlashmalarida ishlaydi, topshiriqlarni bajaradi. Har bir o'qituvchi o'quvchilarning ota-onalari va jamoatchilik oldida ma'ruzalar o'qib, suhbatlar olib borar ekan, demak, u pedagogik bilimlar tag'ribotchisi hamdir. Vazifalarning shu qadar ko'pligi uchun ham jamiyatning o'qituvchilar oldiga qo'yadigan talablari tushunarlidir.

**Asosiy qism.** Ma'lumki, pedagogik faoliyat – kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsiy va uning kasbiy xislatlariga qaratilgan.

O'qituvchining eng muhim xislatlari quyidagilardan iborat: o'qituvchining o'z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevish, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatining mustaqilligi g'oyasida yashashidan iboratdir; ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi; olijanoblighi, aqli, farosati, ma'naviy pokligi ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarni bolalarga singdirib borishi; o'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardam, matonatligidir. Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagilardir [3]: shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomonidan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boylklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatani tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati; keng bilimga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi; yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi; o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi; ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi; o'z ishiga ijodiy yondashishi; bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi; pedagogik texnika ( mantiq, nutq, ta'limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi; o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o'qituvchi ana shu talablarga to'la javob bera oladigan bo'lishiga intilishi shart. O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'z faoliyatida tevarak-atrofidagi kishilar maktab ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim. O'qituvchining o'z ishidan nimanidir kutayotganligining o'ziyoq muhim ahamiyatga egadir, psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha xalq ta'limi bo'limlari va maktab direktorlari o'qituvchining ayrim hislatlari naqadar muhimligini har xil baholaydilar. Jumladan, xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchidan, birinchi navbatda, o'z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o'zlashtirishni talab qilsalar, maktab direktorlari o'qituvchiga qo'yiladigan bunday talabalarni uchinchi o'ringa qo'yadilar. Shu bilan birga xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchilarning o'quvchilar va ota-onalar, maktab jamoasi bilan qanday muloqotda bo'lishni bilishini naqadar ahamiyatga ega ekanligiga unchalik e'tibor bermaydilar, maktab direktori esa, bunday hislatlarni o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar ichida birinchi o'ringa qo'yadilar. Ota-onalar o'qituvchidan uning ish staji va yoshi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, farzandlarini tarbiyalash va o'qitish mahoratini kutadilar. O'quvchilar esa, o'qituvchilarni uch xil xislatlari bo'yicha xarakterlab beradilar. Jumladan, birinchidan o'qituvchining odamgarchiligi, adolatligi, sof vijdonligi, bolalarni yaxshi ko'rish xislatlari; ikkinchidan – o'qituvchining sezgirliigi, talabchanligi bilan bog'liq tashqi xislatlari va hulq-atvoriga qarab; uchinchidan, o'qituvchining o'z fanini bilishi, uni tushuntira bilishi kabi ta'lim jarayoni bilan bog'liq xislatlariga qarab xarakterlab beradilar. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar bilan birga o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablar ham o'sib bormoqda. Shunisi muhimki, zamonaviy o'qituvchi uchun zarur bo'lgan shaxsiy xislatlarni batafsil ko'rib chiqish kerak. Bu qanday xislatlar ekan? Ko'pchilik psixologlar, shu bilan birga o'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan

tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Rossiya psixologlaridan N.V.Kuzmina, V.Slastenin, F.N.Gonobolin, o'zbekistonlik psixologlardan R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, A.Jabborov, M.Kaplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar o'qituvchilik kasbini atroflicha o'rganib, ancha batafsil ko'rsatib berish imkoniyatini yaratadi [5]. Biroq, zamonaviy o'qituvchiga umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi, maxsus bilimlar va malakalar – bolalarni kuzatish, ularning o'sishdagi muhim narsalarni aniqlay olish, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli o'zaro ta'sirini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo'ladi.

**Xulosa.** O'rinda aytish mumkinki, farzandlarimizning tarbiyasida ta'lim maskani va undagi pedagoglarning o'rni beqiyosdir. Ta'lim tizimini rivojlantirish nafaqat bilimli yoshlarni yetishtirishga, balki tarbiyasi go'zal o'g'il-qizlarni jamiyatga yetkazib berishga sabab bo'lishi shubhasiz.

#### Adabiyotlar:

1. Рахманова М.Қ. Таълим жараёнида ўқув мунозараларини ташкил этишда ўқитувчининг педагогик маҳорати, ижодкорлиги ва фаоллиги // *Oriental art and culture*. - Т., 2020. - № 4(4). - Р. 68-73.
2. Рахманова М.К. Талабаларда ижтимоий фаолликни ривожлантиришнинг назарий методологик асослари // *Халқ таълими*. - Т., 2019. - № 1. - Б. 24-29.
3. Рахманова М.К. (2019). Таълим технологиялари орқали касб танлашда онгли муносабатни шакллантириш: Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. - Т., 2019. - Б. 323- 326.
4. Rashidov D.N., Kadirova Sh.A., Karimova Z.A. Mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydiganlar, ayniqsa, nogironlarni xaxiralangan ish o'rinlariga ishga joylashtirish muammolari // *Academic research in educational sciences: Conference 2*. - T.: TSTU, 2022. - P. 281-285.
5. Рахмонов А.Р. Инновацион таълим кластери ўқув фаолиятига самарали усул сифатида // *Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар: Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари*. - Т., 2019. - С. 46.

---

**TEKNOLOGIYA DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH**

**Karabayeva Dilbar Isroilovna**, *TDPU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada «Texnologiya» darslarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish texnologiyalarining tavsifi yoritiladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarga ixtisoslashtirilgan Maxsus maktab o'quvchilar nutqini shakllantirishga yondashilgan texnologiyalar mazmuni tahlil etiladi.

**Taynch so'zlar:** *surdopedagog, dastur, mehnat tarbiyasi, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar, texnologiya, yasash, qirqish, kleylash, qog'oz, nutq, muloqot.*

**РАЗВИТИЕ РЕЧИ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЕМ СЛУХА  
В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ**

**Карабаева Дилбар Исраиловна**, *базовый докторант ТДПУ*

**Аннотация.** Данная статья посвящена описанию технологий развития речи детей с нарушением слуха на уроках технологии. Анализируется содержание технологий, используемых для формирования речи учащихся специальной школы для глухих и слабослышащих детей.

**Ключевые слова:** *сурдопедагог, программа, трудовое воспитание, слабослышащие ученики, технология, изготовление, вырезание, склеивание, бумага, речь, общение.*

**DEVELOPMENT OF SPEECH OF CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT  
IN PRIMARY SCHOOL CLASSES IN TECHNOLOGY CLASSES**

**Karabaeva Dilbar Israilovna**, *basic doctoral student of TDPU*

**Abstract.** This article covers the description of speech development technologies for children with hearing impairment in technology classes. The content of the technologies used to form the speech of students of the special school for deaf and hard of hearing children is analyzed.

**Key words:** *deaf pedagogue, program, labor education, students with hearing impairment, technology, making, cutting, gluing, paper, speech, communication.*

**Kirish.** Nutq – murakkab jarayon bo'lib, ma'lum qoidalar asosida yaratilgan til tuzilmalari orqali odamlar o'rtasidagi muloqotning tarixan shakllangan shakli. Nutqni o'zlashtirish qiyin, ko'p qirrali jarayon bo'lib, u bolaning yetakchi faoliyati (o'yin, o'quv-o'yin, o'quv-kognitiv) bilan bog'liqdir. Ma'lumki, kar va zaif eshituvchi bolalar atrofdagi narsa va hodisalar haqida o'ziga xos tasavvurga ega bo'lib, ularni amaliy egallaydilar. «Texnologiya» (Predmetli amaliy ta'lim – PAT) darsi orqali atrof-muhit haqidagi bilimlarni, hayotiy tajribalarni o'zlashtiradilar va nutqi shakllanadi. Tabiat va jamiyatda shunday tushunchalar mavjudki, ularni bevosita tushuntirishdan ko'ra, tayyor ko'rgazmali holatda o'quvchilarga yetkazish qulaydir. Shu qulaylik «Texnologiya» darslarida yaratiladi. «Texnologiya» (Predmetli amaliy ta'lim – PAT) o'quv fani kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining boshlang'ich sinflarida asosiy fanlardan biri bo'lib, unda ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning aqliy, nutqiy, jismoniy imkoniyatlaridan har tomonlama optimal foydalanish uchun sharoit yaratiladi. «Texnologiya» darsi o'z mazmunida ham tilga

o'rgatishning, ham mehnat fanining talablarini aks ettiradi. Shu bilan bog'liq holda ushbu darsda nutqiy muloqotning ustuvorligi mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ta'minlanadi.

**Asosiy qism.** Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning jamiyatga uyg'unlashuvida zamin bo'lib hisoblangan holda PAT darsi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: 1. Umumta'lim fanlarini egallashda muhim bo'lgan kundalik-maishiy tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish. O'zlashtirilgan lug'at zaxirasidan samarali foydalanish. 2. Tilni tafakkur quroli va muloqot vositasi sifatida egallashga o'rgatish. 3. Ta'limning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish. 4. O'quvchilarning kasbgacha tayyorgarligiga zamin yaratish. Bu, o'z navbatida, o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning aniq ko'rsatkichlarini ifoda etadi. Natijada o'quvchilarning ushbu fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini joriy, oraliq va yakuniy baholash uchun tayyor topshiriqlar mazmunidan foydalanishga erishiladi.

O'qituvchi va tarbiyachi har bir dars davomida egallanishi zarur bo'lgan majburiy va amaliy nutqiy materiallarni ko'rgazmali ravishda tayyorlashi talab etiladi. Chunki «Texnologiya» darsi umumta'lim fanlaridan «Texnologiya» va «Ona tili» fanlari hamda korreksion fanlardan biri sifatida tan olinadi. Demak, ushbu fanga oid kompetensiyalar o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda asosiy omillardandir. Shuning uchun ham umumta'lim maktablariga nisbatan ko'p soat ajratiladi. Umumta'lim maktablariga nisbatan ortiqcha ajratilgan soat aynan ushbu fanning til o'rganishga va korreksion yo'naltirilgan vazifalarini amalga oshirilishiga sarflanadi. Har bir mavzu bo'yicha ish turlari alohida ajratib berilgan bo'lib, ular ikki bosqichda amalga oshiriladi. 1-bosqich o'qituvchi tomonidan, 2-bosqich tarbiyachi tomonidan amalga oshiriladi. O'quv yili boshida o'qituvchi va tarbiyachi birgalikda har bir mavzuning tegishli qismini yillik rejasida belgilaydi. Tarbiyachi o'qituvchining ishini mantiqan va tizimli davom ettiradi. Tayyorlov va 4-sinfga qadar o'quvchilarda o'lchash, qirqish, chizish, bezash, biriktirish, bo'yash, ulash va boshqa mehnat malakalari shakllantiriladi. «Texnologiya» darslari bolalar hayotida zarur malaka, ko'nikmalarni shakllantirish va konstruktorga ijodiyoti, qobiliyatini rivojlantirish uchun keng imkon yaratadi. Dars jarayonida o'qituvchi bolalarni muloqotga undaydi (Tarqat! Ol! Taxla! Joylashtir!) Agar sinf brigada yoki guruhlariga bo'lingan bo'lsa, buyruqni sardorlar, navbatchi, kichik o'qituvchi beradi. Mehnat faoliyati jarayonida o'quvchilar amalga oshirayotgan xarakatlari va yasagan buyumlari borasida hisobot beradilar. Mehnat darslarida jamoa bo'lib ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, «Bizning maktab» maketini tayyorlashda qanday material, ish qurollari va bolalarning vazifasi aniqlanib olinishi kerak. Jamoa ishini tashkil etishda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish darkor. Maket tayyorlash jarayoniga har bir o'quvchini jalb etish, dars yakunida har bir o'quvchi o'zini bajargan ishi bo'yicha hisobot berishi kerak. O'qituvchi bolalar suhbatini boshqarib, hatolarni tuzatib boradi, ularni mehnati natijasini baholaydi.

Darsning har bosqichining nutq, tafakkur va eshitishni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Qog'oz va karton bilan ishlash o'quvchilarda rang, shakl, maza sezgisini rivojlantiradi, hayot va tabiat go'zalligini his etishga yordam beradi. Gazmol bilan ishlab o'quvchilar tikish, to'qish, bichish, kashta tikish, to'qish malakalariga ega bo'ladilar. O'z-o'ziga xizmatning bu turlari sinfdan tashqari ishlarda nutqni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy materiallar bilan ishlash bolalar ijodiy tasavvurini rivojlantiradi. Texnik modellash tirish ishlab-chiqarish ma'lumotlari, inson hayotida texnika roli bilan tanishtiradi. Mehnat darslarida yasalgan buyumlar o'qish, ona tili, matematika, nutq

o'stirish darslarida foydalanish mumkin. Qishloq ho'jaligi mehnati tabiatga muhabbatni tarbiyalaydi. Mehnat obyektlarini xilma-xilligi bolalarni mehnat faoliyatiga befarqligi bartaraf etadi, o'z navbatida, ularning nutqi va bilish faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

«Texnologiya» darslari bolalarni ijodiy qobiliyatini va konstruktorlik malakasini rivojlantirish uchun keng imloniyatlar yaratadi. Dars jarayonida o'qituvchi, guruh rahbari, kichik o'qituvchi, navbatchi bolalarni muloqotga undaydi. Masalan, o'quv-sinfda qog'oz, plastilin, gazmol va maktab uchastkasida mehnat faoliyati kabi ish turlari amalga oshadi. Turli faoliyat jarayonida bolalar ma'lum lug'at boyligini: mehnat qurollari va buyumlar nomini bilishlari, «Menga qizil ipni berib turing. Men gul naqshini tikmoqchiman» tipida murojat etishlari talab etiladi.

Zaif eshituvchi bolalar nutqni yaxshi egallashlari uchun lug'at materialini doska va plakatlar, jadvallarda ifodalanadi. Zaif eshituvchi bolalar yangi tushunchalar bilan tanish darajasiga ko'ra maxsus daftarlarga qayd etib boradilar. «Texnologiya» darslarini boshqa o'quv fanlari bilan bog'lab o'tish maqsadga muvofiq. Chunki, «Texnologiya»da zaif eshituvchi bolalar matematika, tabiatshunoslik, ona tili, o'qish fanlarida, kundalik hayotdagi so'zlashuv muloqatida olgan bilim va malakalarini qo'llaydilar, mustaxkamlaydilar. Shuningdek, mehnat darslarida olingan bilimlar boshqa o'quv fanlariga jalb etiladi, yasalgan buyumlar ko'rgazmali qurol sifatida foydalaniladi.

Texnologiya ta'limining yangi tizimida o'quvchilar faoliyatning nafaqat mehnat va texnik, balki iqtisodiy va ekologik jihatlariga, ularning axborot va yuqori texnologiyalar, ishni sifatli bajarish va o'z-o'ziga ta'limga tayyorligiga ham e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ijtimoiy jihat – oila an'analari, milliy va mintaqaviy an'analarni, umuminsoniy qadriyatlarni tiklash va saqlashga ham e'tibor beriladi.

«Texnologiya» ta'lim sohasini joriy etishning boshlang'ich bosqichini tahlil qilib, qator qiyinchiliklarni ajratib ko'rsatish mumkin: «Texnologiya»ni o'qitish metodikasini o'qituvchiga o'quvchilarga konkret tavsiya va ko'rsatmalar berish bo'yicha tavsiyalarga tenglashtirilishi; «Texnologiya» predmetini bir necha o'qituvchi o'rtasida taqsimlashda dasturda mutaxassislar ishining uzviyligi nazarda tutilmaganligi; asl mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish metodikasi u yoki bu mehnat quroli to'g'risida tarixiy ma'lumot bilan almashtirilishi; o'quvchilar faoliyati, qobiliyatlari strukturasini shakllantirishga yagona talablar, bilim, malaka va ko'nikmalarni baholashning yagona parametrlari belgilanmaganligi.

Mehnatni insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ijtimoiy foydali mahsulot yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyat sifatida tushunishdan kelib chiqib, ta'limga yondashuvlarimizni asoslash uchun shu faoliyatga tayyorlikning tobora ahamiyatli komponentlarini ajratdik. Bolaning o'rganuvchanligi uning fikrlash xususiyatlari bilan belgilanadi. Har qanday fikrlash jarayoni qator aqliy operatsiyalardan (tahlil, sintez, mavhumlashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, tasniflash, tizimlashtirish) iborat. Ta'kidlanadiki, ularning ko'pchiligi bolalar tomonidan anglashilmaydi, ba'zan ular to'g'risida o'ylab ham ko'rilmaydi. Fikrlash operatsiyalari – o'ziga xos harakatlar, ular avtomatlashtirilgan va yaxlit tizimlarga muvofiqlashtirilgan. Shunday qilib, mehnat jarayonining tashqi izchilligi (ketma-ketligi)ni qurib, uni algoritmallashtirib, uni interiorizatsiyalash, ichki planga tarqalishiga erishish mumkin.

Qo'l mehnati nafaqat ta'limiy ahamiyat kasb etadi, balki o'quvchining shaxsining tarbiyalashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. U qiyinchiliklarni bartaraf etishga majbur etadi (buyumlarni yasash jarayonida), bu iroda va qat'iyatlilikni tarbiyalashga sabab bo'ladi. O'quvchilarda jamoa faoliyati, o'rtoqlik o'zaro yordami va intizomlilik malakalarini

tarbiyalaydi. Bunga bog'liq holda, o'quvchi ish jarayonida «men»ni emas, balki «biz»ni ko'ra olishini ko'zda tutuvchi brigada bilan ishlash, juft bo'lib ishlash ish turlarini qo'llash lozim. Qo'l mehnati darslari uchun alohida xona ajratilishi maqsadga muvofiq. Mazkur xona mavjud bo'lmasa, o'quvchilar partalarda osma doskalar va ish qurollari saqlanadigan qutilar bo'lishi kerak. «Texnologiya» darsi tashkiliy bosqichdan boshlanadi. Keyin o'quvchilar o'qituvchining turli vazifalarini bajaradi («Plastilinni yumshat», «Doirani oq qog'ozga yopishtir»). O'tilgan mavzuni takrorlashga yo'naltirilgan mazkur vazifalarni bajargandan so'ng, o'qituvchi darsda o'quvchilar nima band bo'lishini e'lon qiladi. Dastlab u ish qurollari va materiallarni mustaqil yoki o'qituvchi yordamida tanlashni so'raydi. So'ng buyumni yasash jarayonini o'z xarakatlari bilan ko'rsatadi, o'quvchilar uning xarakatlarini takrorlaydilar. Ishni bajarish ketma-ketligi doskadagi yozuvda, 2 sinfdan o'quvchilar daftarlarida o'z aksini topishi kerak. Bu ta'limning keyingi yillarda o'quvchilarga ko'rsatma kartalari bo'yicha oson ishlash imkonini beradi. Qo'l mehnati o'quvchilar umumtexnik ta'limi asoslanadigan elementar bilim, malaka va ko'nikmalarni beradi.

**Xulosa.** Hususan, «Texnologiya» darslarida kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. «Texnologiya» darslarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish qulay shart-sharoit – darsni to'g'ri tashkil etishdir. Dastur talablari asosidagi mavzu hamda tayyorlanishi ko'zda tutilayotgan buyum nomi aniqlanib olinishi lozim.

#### **Adabiyotlar:**

1. Karabaeva D.I. (2022). Ideas and approaches which have been important in the formation and development of correction-pedagogical assistance // European International Journal of multidisciplinary research and management studies, 2(04). - P. 359-365.
2. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=aMbx-WsAAAAJ&citation\\_for\\_view=aMbx-WsAAAAJ:u5HHmVD\\_uO8C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=aMbx-WsAAAAJ&citation_for_view=aMbx-WsAAAAJ:u5HHmVD_uO8C)



---

## PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARINING O'QUVCHILARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

**Raxmatullayev Dilmurod Roxatullaevich**, *Pedagogik innovatsiyalar instituti  
mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchi-yoshlarni axborot xurujlaridan saqlash, o'quvchilarning axborot madaniyati mazmuni, axborotlashgan jamiyat talablari, ta'lim jarayonida axborot madaniyatini o'rni va ahamiyati, axborot madaniyatini shakllantirish usullari yoritib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** *internet, axborot, axborot madaniyati, axborot maydoni, axborot oqimi, glaballashuv, reklama.*

## ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

**Рахматуллаев Дилмурод Рохатуллаевич**, *соискатель института  
педагогических инноваций*

**Аннотация.** В данной статье освещается защита учащейся молодежи от информационных атак, приведено содержание информационной культуры учащихся, требования информированного общества, показана роль и значение информационной культуры в образовательном процессе, раскрыты методы формирования информационной культуры.

**Ключевые слова:** *интернет, информация, информационная культура, информационное поле, информационный поток, глобализация, реклама.*

## FORMATION OF INFORMATION CULTURE IN STUDENTS OF PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

**Raxmatullayev Dilmurod Roxatullaevich**, *Institute of pedagogical innovation,  
independent researcher*

**Abstract.** This article covers the protection of readers and young people from information attacks, the content of the information culture of readers, the requirements of an information society, the role and importance of information culture in the educational process, methods of forming an Information culture.

**Key words:** *internet, Information, information culture, information space, information flow, globalization, advertising.*

**Kirish.** XXI-asr axborotlar asri bo'lishi bilan birga inson ongi va tafakkurini o'zga g'oyalar bilan zabt etish ming yilligi ekanligi aniq bo'ldi. Ma'lumki, axborot xurujining asosiy nishoni, obyekt yoshlar bo'lib qolmoqda. Ularning ko'lamlari esa, yildan-yilga sezilarli darajada oshib borishi mutaxassislar tomonidan ko'p e'tirof etilayotir. Axborot xurujini tashkil etuvchi va tarqatuvchi asosiy maydon – bu internet tarmog'i ekanligi bugun hech kimga sir emas. Tabiiyki, yoshlar katta avlodga nisbatan internet tarmog'ining eng ko'p foydalanuvchi qatlamidir. Zamonaviy jamiyatda esa, asosiy soha hisoblangan ushbu vositadan voz kechish yoki uni umuman inkor etish mumkin emas. Axborot oqimlarining rivojlanishi har bir o'quvchining o'rab turgan dunyoni bilishda, ijodiy faoliyati, kasbi haqidagi bilimlarni egallashda ijobiy va salbiy fikrlarga ega bo'lishda, intellektual salohiyatni

oshirishda, o'quvchi hayotining qiziqarli va mazmunli, jo'shqin bo'lishida, global muammolarni hal etishda, uning ijtimoiy faolligini iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy yo'nalishlarning uzviyligini va natijalarini sifatli bo'lishida, ishlab chiqarish sifatini yaxshilashda, kasb mohiyatini tushunishda, ulardan samarali foydalanishda qobiliyatiga ega bo'lish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bugungi yoshlar turli reklamalar va, ayniqsa, birlariga bevosiga ta'sir o'tkazish natijasida internet tarmog'ida berilayotgan kundalik axborotlarga katta ehtiyoj sezmoqdalar. Kutubxona va kitob qiroatxonligiga nisbatan bir necha marta arzon va qulay bo'lgan Internet tarmog'i ular uchun axborotlar bilan ishlashning eng yaxshi makoni sanaladi. Ammo davomiy axborotlar bilan ishlash oqibatida, foydalanuvchi (xususan, yoshlar) o'zi sezmaganda holda axborot xuruj ta'siriga tushib boradi. Sababi oddiy, ya'ni axborot iste'molchisi bo'lgan har bir foydalanuvchida axborot bilan ishlash ko'nikmasi maxsus shakllantirilmagan. Bu esa, o'quvchilardan axborot madaniyatiga ega bo'lishni talab etadi.

**Asosiy qism.** Axborot madaniyati xabarlarini saralash, ularning ahamiyatli jihatlari belgilab olish, sohalarga ajratish, sofligiga e'tibor qaratib munosabat bildirish, g'oyaviy asoslarini aniqlash, xabar manbaini topishda namoyon bo'ladi. Axborot madaniyatining bir qator vazifalari mavjud. Ular: bilish vazifasi (axborot iste'molchilarining faoliyatini ta'minlash uchun tarixiy vorislikni saqlashga qaratilgan bilimlarni yetkazadi); tartibga solish vazifasi (real ideallar yordamida ijtimoiy, siyosiy, huquqiy me'yorlarning amalda ifodalanishini ta'minlaydi); tarbiyaviy vazifasi (shaxsning intellektual rivojiga yordam berib, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishga, qiziqishning yuzaga kelishiga, faoliyat uchun ma'lum ustanovka (yo'l-yo'riq)larni tarkib toptirishga ko'maklashadi); mafkuraviy vazifasi (dunyoning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotiga oid ma'lumotlarni biron-bir g'oya manfaati asosida yetkazadi); xabar berish vazifasi (subyektlarga dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisa hamda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar haqida ma'lumot yetkazadi); tashxis qo'yish vazifasi (joriy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy voqeliklarni baholaydi); prognostik vazifasi (ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning yo'nalishini oldindan belgilash, ularning yuzaga kelishi, kechish bosqichlariga oid ehtimoliy ma'lumot taqdim etadi) va boshq. [1, 2, 4]. N.B.Zinovievning fikricha, «Axborot madaniyati – ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan materiallarni o'zlashtirish asosida shaxs ichki dunyosining barkamolligidir». A.A.Gregixining axborot madaniyatini shakllantirish axborot faoliyati orqali amalga oshadi deb ta'kidlash bilan birga uni quyidagicha izohlaydi. «Axborot madaniyati – bu aksiologik xarakterdagi axborot faoliyati, ya'ni bir-biriga bo'lgan madaniy qadriyatlardir». Hozirgi vaqtda kompyuter programmlaridan foydalanishni biladigan o'smirlar soni ortib bormoqda. Shuningdek, kompyuter o'yinlariga qiziquvchilarni soni ham ko'payib bormoqda. Ushbu jarayonning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham namoyon bo'lmoqda. Ushbu holatning salbiy tomoni o'smirlarning ijtimoiy-psixologik sog'lig'ida muammolar kelib chiqishida ko'rinadi. Kompyuterga tobekli termi 90-yillarning o'rtalarida paydo bo'ldi. Psixologlar ushbu zararli odatni texnikaviy vositalar hisobiga hosil bo'lishini ta'kidlab, uni emotsional «narkomaniya» turlariga kiritib tasniflamodalar. G'arb mamlakatlarida «kompyuterdan patologik ravishda foydalanish» atamasi mavjud. Bu atama kompyuterdan haddan ziyod ko'p foydalanadigan insonlarga nisbatan qo'llaniladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda internet tarmog'ida maxsus yo'naltirilgan axborot vositalarini tarqatish hamda unda berilayotgan ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirib borish uchun maxsus internet provayder kompaniyalari hamda markazlari tashkil etilgan. Bu markazlar nafaqat davlat miqyosida,

balki ma'lum bir soha hamda ixtisosliklar doirasida maxsus ishlab chiqiladi. Internet tarmog'ida ketadigan ko'pgina axborot vositalari mashhur teleradiokompaniyalar yoki OAV nomi orqali tarqatiladi. Negaki, televidenie va gazeta-jurnallarda keng yoritish imkoniyati bo'lmagan turli ma'lumotlarni katta hajmdagi axborot sifatida internetda bemaolol va istagancha talqin qilish mumkin. Shu sababli ham bugun internet tarmog'ida BBS, CNN, Times kabi internet saytlari hammabop bo'lib qolganligini e'tirof etish mumkin. Chunki bu saytlarda mavjud axborotlar dunyoning barcha xalqlari tushunadigan asosiy tillarda deyarli har kuni, har soat va daqiqalarda tarqatiladi yoki yangilanib turiladi. Internetning kuniga 24 soat mobaynida to'xtovsiz ishlashi va uni to'liq nazorat ostiga olishning deyarli iloji yo'q ekanligini inobatga olib, bugungi kunda ko'plab davlatlar axborotlar bilan ishlashda belgilangan qonunchilik doirasida ko'nikmalar shakllantiruvchi o'quv markazlarini tashkil etmoqdalar [5]. Pedagogik-psixologik sohada amalga oshirilgan tadqiqotlarga tayangan holda, aytilish mumkinki, o'smir shaxsini shakllanishi – murakkab va ziddiyatli jarayon hisoblanadi. O'smir o'zini shakllanayotgan shaxs ekanligini anglab, ota-onasi va katta yoshlilarning qarshiligiga qaramay ko'pgina muammolarni mustaqil o'zi yechishga da'vogarlik qiladi. O'smiring jismoniy va psixologik rivojlanishi ko'pgina yangi ehtiyojlarni vujudga keltiradi. Hayotiy tajribaning kamligi o'zining ko'pgina xatti-harakatlarni obyektiv baholashga to'sqinlik qiladi. O'smirlarda guruhlariga bo'linish, o'z shaxsini guruh orqali tasdiqlash kuzatiladi, ammo ularning xatti-harakatlari butun guruhning ustanovkalariga bog'liq bo'ladi [6, 7]. O'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish faqat maxsus bilimlarigina emas, balki yangicha fikrlashni, pedagogik faoliyatda zarur bo'ladigan o'ziga xos malaka va ko'nikmalarni rivojlantiradi. O'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish ta'limning global muammolarini ham, shuningdek, o'qitish jarayonini yangiliklar bilan ta'minlashda va boshqarishda asosiy manba hisoblanadi. Chunki ushbu jarayonda turli ma'lumotlar qayta ishlanadi, takomillashtiriladi va buning uchun o'quvchilar axborot madaniyatini shakllantirish tizimini ishlab chiqishga to'g'ri keladi. O'quvchilarning axborot madaniyati va ijtimoiy faolligini, axborot savodxonligini oshirish uchun dasturlar, qo'llanmalar yaratish, axborot xizmatlarini media texnologiyalarga oid, majmuaviy chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish, jamiyat hayotidagi dolzarb muammolar, qonunlarning mazmun-mohiyatini ularga tushuntirishda ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan uchrashuvlar o'tkazish, davra suhbatlarini tashkil etish, ularning savollariga mutaxassislar tomonidan haqqoniy dalillar asosida javoblar berish, «Axborotlashgan jamiyat», «Axborot ta'lim muhiti» kabi ko'rik tanlovlar o'tkazish; «Axborot madaniyatii»ga oid mavzularni kasbiy fanlar mazmuniga singdirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, ushbu jarayonda o'quvchilarda izlanish, fanlarga oid topshiriqlarni bajarish, fikr yuritish, muloqotga kirishish, muammolarni mohirlik bilan hal qilish, ma'lumotlar to'plash, axborot resurslaridan foydalanish, nazariy bilimlarni oshirish, zamonaviy bilimlarni egallash kabi xususiyatlar rivojlanadi. O'quvchilarda axborot olish, katta hajmdagi va keng qamrovli ma'lumotlarni qayta ishlash madaniyatini rivojlantirish, ularni turli vaziyatlarda maqbul xatti-harakat qilish malakasini oshirish bilan birga dasturlashtirilgan ta'lim metodlarini amalga oshirishi, munozara, treninglar, rolli va ishbilarmon o'yinlarni tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Axborotlar oqimi amaliy jihatdan o'quvchilarning deyarli barcha faoliyat doiralarida, ishlarni amalga oshirishda qo'llaniladi.

**Xulosa.** Shaxsning axborot madaniyatining aniqlangan muhim tarkibiy qismlari uning ideal nazariy modelini axborot muhitida hayotiy faoliyatimizni ta'minlaydigan

xususiyatlarning murakkab tuzilishi sifatida yaratishga imkon beradi. Ammo shuni unutmasligimiz kerakki, har bir inson boshqalar bilan bog'liq uning axborot madaniyatining tuzilishini, darajasini, mazmunini belgilaydigan o'ziga xos ijtimoiy munosabatlar dunyosiga ega. Shaxsning jamiyat bilan o'zaro ta'sirining xususiyatiga va uning faoliyati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojiga qarab, turli xil axborot madaniyatining mazmuni ijtimoiy guruhlarining o'ziga xos farqlari bor. Shunday qilib (umumiy yondashuvlar bilan) siz axborot madaniyati modellarini yaratishingiz mumkin: kasbni egallash jarayoni; mutaxassis. Axborot madaniyatini shakllantirish yo'nalishlari, avvalambor, o'quv jarayoni talablari asosida belgilanadi. Ushbu talablarga muvofiq usullarning maxsus kompleks shakllanadi. Boshqacha qilib aytganda, axborotlar orqali ta'lim obyekti, ta'limiy tushunchalar qay darajada o'zlashtirilganligi tahlil etiladi, butun o'quv kursini, o'quv dasturlarini o'zlashtirish darajasi baholanadi. Axborotlar o'quv-tarbiya jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi, ta'limiy faoliyat natijasida uning samaradorligini belgilab beradi, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga yo'l ochadi. Pirovard natijada axborotlar ta'limning takomillashib borishiga ijobiy ta'sir qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Samarov R. Axborot-psixologik xavfsizlik // Muhofaza +. - T., 2009. - 9(59)-son.
2. Samarov R., Sadridinov S. Milliy taraqqiyot takomillashuvining ilmiy asoslari (Siyosiy tashxis misolida) // Muhofaza +. - T., 2011. - 11(85)-son.
3. Samarov R., Fayzullaev X. Terrorizmga qarshi kurashishning ba'zi jihatlari // Xalq ta'limi. - T., 2006. - 4-son.
4. Samarov R., Sattarov Yo. Axborot madaniyati va uni shakllantirishning nazariy-amaliy ahamiyati // Zamonaviy ta'lim. - T., 2014. - 1-son. - B. 13-17.
5. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari: Monografiya. - T.: Fan, 2007.
6. Мухина В.С. Возрастная психология. - М.: Академия, 2004.
7. Смирнова Т.П. Психологическая коррекция агрессивного поведения детей. - Ростов-на-Дону, Феникс, 2003.
8. Отамуродов С.С. Национальное самосознание социально активной части молодежи и его функционирование в условиях независимости Узбекистана (социологический анализ): Автореф. дис... канд. социол. наук. - T., 2000.

---

**TALABALARDA DINIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA DUNYOVIY HAMDA DINIY BILIMLAR INTEGRATSIYASINING AHAMIYATI**

*Atakulova Nargizaxon Alijonovna, AnDU doktoranti, PhD*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaxs dunyoqarashini sog'lomlashtirishda diniy hamda dunyoviy bilimlar integratsiyasi muhimligi, talabalarga yoshlikdan sog'lom diniy dunyoqarashni manbai bo'la oladigan bilimlarni taqdim etish alohida pedagogik ahamiyatga egaligi ochib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** shaxs, talaba, dunyoqarash, bilim, integratsiya, ta'lim tizimi, hadisshunoslik, diniy qadriyatlar, ong, tafakkur, ma'naviy mulk.

**ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕГРАЦИИ СВЕТСКИХ И РЕЛИГИОЗНЫХ ЗНАНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ РЕЛИГИОЗНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ У СТУДЕНТОВ**

*Атакулова Наргизахон Алижоновна, докторант АНГУ, PhD*

**Аннотация.** В данной статье раскрывается важность интеграции религиозных и светских знаний в оздоровлении мировоззрения личности, особое педагогическое значение имеет предоставление студентам знаний, которые с юных лет могут стать источником здорового религиозного мировоззрения.

**Ключевые слова:** личность, студент, мировоззрение, знание, интеграция, система образования, хадисоведение, религиозные ценности, сознание, мышление, духовная собственность.

**THE IMPORTANCE OF THE INTEGRATION OF SECULAR AND RELIGIOUS KNOWLEDGE IN THE FORMATION OF A RELIGIOUS WORLDVIEW IN STUDENTS**

*Atakulova Nargizakhan Alijonovna, doctoral of AnSU, PhD*

**Abstract.** This article reveals the importance of the integration of religious and secular knowledge in the healing of an individual's worldview, the special pedagogical importance of providing students with knowledge that can be a source of healthy religious satisfaction from youth.

**Key words:** personality, student, worldview, knowledge, integration, educational system, hadithology, religious values, consciousness, thinking, spiritual property.

**Kirish.** Shaxs dunyoqarashini sog'lomlashtirishda diniy hamda dunyoviy bilimlar integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Chunki mutafakkir ajdodlarimiz dunyoqarashida diniy hamda dunyoviy bilimlar uyg'un tarzda namoyon bo'lib, ularni bunyodkorlik va ezgulikka da'vat etgan. Shuning uchun ham ular diniy va dunyoviy ilmlar taraqqiyotiga birday hissa qo'shganlar. Ular eng katta najotni ilmda ko'rganlar.

**Asosiy qism.** Ilm xoh diniy, xoh dunyoviy bo'lmasin u shaxs kamolotiga xizmat qilib, uning dunyoqarashini boyitgan va sog'lomlashtirgan. Shuning uchun ham buyuk hadisshunos ajdodimiz Imom al-Buxoriy ilm haqida quyidagi hikmatni ilgari surgan «Ilmdan boshqa najot yo'q va hech qachon bo'lmaydi» [1]. Talabalarga yoshlikdan sog'lom diniy dunyoqarashni manbai bo'la oladigan bilimlarni taqdim etish alohida pedagogik ahamiyatga ega. Chunki mazkur bilimlar talabalarning diniy dunyoqarashini boyitib, ma'naviyatini yuksaltiradi. Islom diniga oid manbalarda insoniyatni ilm olishga da'vat etilgan. Bugungi kunda ta'lim tizimidagi islohotlar tufayli talabalarda sog'lom diniy dunyoqarashni

shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zaruriyati kuchaydi. Talabalarga ilmiy asoslarga tayanilgan holda diniy qadriyatlar taqdim etilmoqda. Mazkur bilimlar va qadriyatlar yoshlarni Allohni tanishga undamoqda. Shuning uchun ham ushbu meros o'zbek xalqining ma'naviy mulki hisoblanadi. Islom diniga oid ta'limotlar bizning Vatanimizda rivojlantirildi va yangi mazmun mohiyat kasb etdi. Islom ta'limotiga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid pedagogik yondashuvlarni ilgari surgan ajdodlarimizning merosi vositasida talabalarda sog'lom diniy dunyoqarashni shakllantirish jamiyat hayotini ma'naviy-madaniy jihatdan rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda yoshlar savob bilan gunoh, xarom bilan halol, ezgulik bilan qabihlikni bir biridan farqlash uchun sog'lom diniy dunyoqarashga ega bo'lishlari lozim. Chunki diniy bilimlarsiz yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash mumkin emas. Milliy tarbiyaning asoslari islom dini negizida vujudga kelgan. Tarbiya jarayonlari diniy ta'limotlarni o'zida mujassamlashtirgan pedagogik vositalar asosida tashkil etilishi lozim. Busiz yoshlar tarbiyasida muvaffaqiyatga erishish imkonsiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yildagi PF-5416-sonli «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida islom dini negizida ilm-ma'rifat sirlarini egallash zarurligi ta'kidlangan. Jumladan, farmonda quyidagilar muhimligi ta'kidlab o'tilgan: «jaholatga qarshi ma'rifat» ulug'vor g'oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohada diniy-ma'rifiy faoliyatni jadal tashkil etish; islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish; dinni zo'ravonlikva qon to'kish bilan bir qatarga qo'yadigan buzg'unchiyot g'oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa, yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish; jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish; diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirish, diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini yaratish kabilar [2]. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda oliy pedagogik ta'lim mazmunida talabalarda sog'lom diniy dunyoqarashni rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik vositalar, usul va metodlarni singdirish taqozo qilinmoqda. Chunki islom dinining insonparvarlik, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlarini shakllantirish manbai ekanligini talaba yoshlar ongiga singdirish talab qilinmoqda. Bu sohada ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho didaktik merosni talaba yoshlarni ongu-tafakkuriga singdirish, O'zbekiston jamiyatida tolerantlik, shaxslararo barqaror munosabatlar, o'zaro hurmat va ishonch, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga erishiladi. Chunki «ommaviy madaniy» hurujlari tobora rivojlanayotgan hozirgi sharoitda ijtimoiy, madaniy, ma'naviy muhitning barqarorligiga eshitish har qachongidan ham muhim hisoblanadi. Buning uchun talaba-yoshlar ongida mavjud bo'lgan noto'g'ri, sog'lom diniy e'tiqodga zid bo'lgan qarashlarni o'z vaqtida aniqlash, ularni profilaktika qilish choralarni ishlab chiqish, axborotlar hurujlariga qarshi immunitetni shakllantirish, bunda diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish zaruriyati mavjud. Talaba-yoshlarda ilm-fan sirlarini egallashga intilish o'zbek xalqining ko'p asrlik tajribasini ijodiy o'zlashtirish motivlarini hosil qilish har qachongidan ham dolzarblashmoqda. Buning uchun talabalarga dunyoviy hamda kasbiy bilimlar bilan bir qatorda diniy bilimlarni ham tizimli tarzda taqdim etish lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida xalqimizning ko'p asrlik diniy qadriyatlarni talabalar ongiga yetkazish, mutafakkir ajdodlarimizning umrboqiy ta'limotlari mohiyatini ularga anglatish,

bu jarayonda ham diniy, ham dunyoviy bilimlarni integrativ tarzda taqdim etish orqali talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli barkamol shaxs sifatida shakllantirish, milliy va diniy osoyishtalikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mutafakkir ajdodlarimizning ilmiy dunyoqarashi, asosan, diniy bilimlar negizida shakllangan. Diniy bilimlar yoshlarni ruhiy barkamollikka undaydi. Bugungi kunda yosh avlodni ma'naviy yetuk, yuksak madaniyatli shaxs sifatida kamol toptirishda dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda diniy bilimlar ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat ma'naviy hayotining asosini ajdodlarimizning diniy, falsafiy, pedagogik ta'limotlari tashkil etadi. Chunki jamiyatdagi ijtimoiy madaniy muhit va uning barqarorligini ta'minlashda mutafakkir ajdodlarimizning ta'limotlarida ilgari surilgan xurfiylilik, negbinlik g'oyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki islomiy falsafaning asosini negbinlik va hurfiylilik tashkil etadi. O'zbekiston jamiyatining barqarorligi diniy qarashlar asosida shakllangan axloqiy meyorlarga bevosita bog'liq. Bunday axloqiy meyorlar yoshlar ongiga san'at va adabiyot yordamida singdiriladi. Chunki din va san'atning asosiy g'oyasi yoshlarda yuksak axloq va tolerantlik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Din, san'at, adabiyotning yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantiruvchi, takomillashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo'lishi hurfiyl insoniyat tafakkurining noyob kashfiyoti hisoblanadi. Ajdodlarimiz tafakkurida shakllangan tasavvufga oid ilmiy qarashlar, g'oyalar, axloqiy yuksaklikka undovchi ta'limotlar negizini diniy dunyoqarashni shakllantiruvchi bilimlar tashkil etadi. Diniy axloqiy qarashlar yordamida milliy ma'naviyatimizga xos bo'lgan sifatlar shakllanadi. Mazkur sifatlar yoshlarni bunyodkorlikka undovchi vazifalarning vujudga kelishini ta'minlaydi. Talaba-yoshlarni jamiyatda qaror topgan qonunlar o'zlashtirish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatishga alohida e'tibor qaratiladi. Talaba-yoshlarda sog'lom diniy e'tiqod va dunyoqarashni shakllantirish orqali halollik, poklik, vijdonlilik, tolerantlik kabi bir qator oliyanob sifatlar tarkib toptiriladi, ular islomiy qadriyatlarni asosini tashkil etadi. Ushbu qadriyatlarni talabalarda tizimli tarzda shakllantirish uchun dastlab ularda sog'lom diniy dunyoqarashni tarkib toptirish talab qilinadi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda yashovchi turli millatlar va din vakillari orasida tinchlik, totuvlik, madaniy muloqot, bir-birini anglash muhitini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Ajdodlarimiz, birinchi navbatda, tazkira, tarix, fiqh ilmining yetuk namoyondalari bo'lishgan. Ular falsafiy mushohada yordamida vujudga kelgan vaziyatlarni tahlil qilganlar va umulashtirganlar. Ajdodlarimiz o'zlari va atrofdagilarning holatlarini refleksiylash asosida aniq xulosalar chifarganlar. Ular voqeikka ratsional yondashishga muvaffaq bo'lganlar.

Madaniy globallashtirish jarayonida boshqa barcha yondashuvlar bilan bir qatorda muammolarga ratsional yondashish tajribasini ommalashtirish zaruriyati kuchaymoqda. Mazkur yondashuvning talabalarda diniy dunyoqarashni shakllantirishdagi ahamiyatini kengroq ochish uchun irratsional yondashuvdan ham samarali foydalanish zaruriyati kuchaymoqda. Bu jarayonda bevosita mutafakkir ajdodlarimiz merosiga murojaat qilinadi. Ajdodlarimizning diniy axloqiy ta'limotlari bugungi kunda yangicha tafakkur nuqtai nazardan yondashgan holda tahlil va talqin qilinib yoshlar ongiga yetkaziladi. Bunda tasavvuf ta'limoti namoyondalarining qarashlariga ustuvor o'rin ajratiladi. Islom dini g'oyalari va ushbu g'oyalarning targ'ibotchilari bo'lgan tasavvuf ta'limoti namoyondalari tomonidan yaratilgan asarlar har tomonlama o'rganilishi maqsadga muvofiq. Diniy ta'limotlar yordamida talaba-yoshlar ruhiy quvvatga ega bo'lib, milliy tarbiya asoslarini o'zlashtiradilar. Chunki tasavvuf ta'limoti namoyondalari odam va olam orasidagi munosabatlarni ilmiy

asosda yoritib berganlar. Islom ta'limotida ma'rifatparvar g'oyalari orqali irratsional ilmlar targ'ib qilingan. Bunday bilimlar talabalarning bilish imkoniyatlarini kengaytirib diniy dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi. Tasavvuf: taxliya – insonning qalbini poklab ma'naviy yuksaklikka undovchi ilm yoki ta'limotdir; ruhni ag'yor, ya'ni begonadan tozalovchi yondashuvlar majmui; huzu', ya'ni nafsni jilovlash, xoksorlik va jonsiporlik namunasini ko'rsatuchi ilm sifatida ham baholangan. Shuning uchun ham birinchi va ikkinchi Renessans davrida yashab o'tgan mutafakkirlar, shoir va yozuvchilar o'zlarining pandnoma asarlarini tasavvuf ta'limoti negizida yaratganlar. Mazkur asarlarda insonning ruhiy quvvati o'zining yaqqol ifodasini topgan.

**Xulosa.** Bugungi kunda talabalarda sog'lom diniy dunyoqarashni shakllantirishda o'zida diniy hamda dunyoviy bilimlarni mujassamlashtirgan tasavvuf ta'limotini o'zida aks ettirgan manbalar asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ал-Бухорий, Абу Абдуллох Муҳаммад ибн Исмоил. Саҳиҳи Бухорий: Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ. 1-2 китоб. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 896 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йилдаги ПФ-5416-сонли «Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги» фармони.
3. Комилов Н. Тасаввуф.- Т.: Моваруоннахр, 2009. - 448 б.
4. Сафарова Р. ва бошқ. Ўқувчи ёшларда «оммавий маданият»га қарши курашчанлик кўникмаларини шакллантиришнинг педагогик-психологик механизмлари. - Т.: Тафаккур қаноти, 2018. - 191 б.
5. Педагогика: энциклопедия. III жилд / Тузувчилар: жамоа. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. - 424 б.



---

**RAQAMLI IQTISODIYOTNING FAN VA TA'LIM INTEGRATSIYASI  
RIVOJLANISHIDA TALABALAR KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

*Maxmudova Feruza Xaliljanovna, TDIU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'limda integrativ yondashuvning ta'lim jarayonidagi zaruriyati, uni amalga oshirishdagi vazifalar bayon etilgan.

**Таянч so'zlar:** ta'lim, integrativ yondashuv, integrativ ta'lim, boshqaruv, boshqaruv modeli.

**ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ  
ПРИ РАЗВИТИИ ИНТЕГРАЦИИ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ  
В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ**

*Махмудова Феруза Халилжановна, базовый докторант ТГЭУ*

**Аннотация.** В данной статье описана необходимость комплексного подхода к образованию в образовательном процессе, задачи при его реализации.

**Ключевые слова:** образование, интегративный подход, интегративное образование, управление, модель управления.

**FORMATION OF PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS  
IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATIONAL INTEGRATION  
OF THE DIGITAL ECONOMY**

*Mahmudova Feruza Xaliljanovna, basic doctoral student of TSUE*

**Abstract.** This article describes the need for an integrated approach to education in the educational process, the tasks in its implementation.

**Key words:** education, integrative approach, integrative education, management, management model.

**Kirish.** Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida, yurtimizda 2023 yilga «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim», deb nom berildi va O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev 20.12.2022 yil Oliy Majlisga Murojaatnomasida [1] mamlakatimizdagi tub o'zgarishlar, yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishni kun tartibiga qo'yayotgani va yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholash bo'yicha yagona ko'rsatkichlar ishlab chiqish, yoshlar siyosatini baholash milliy indeksini joriy etish kerakligini ko'rsatib berdi.

**Asosiy qism.** Jahonda talabalarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish, integrativ ta'lim muhitini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga integrativ yondashuv asosida talabalarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning komponentlarini oliy ta'lim mazmuniga keng tatbiq etish, bo'lajak mutaxassislarni samarali mehnat faoliyatiga tayyorlash tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyot dasturini ishlab

chiqishda raqamli ta'limni amalga oshirishga urg'u berish mazkur dastur amalga oshirilayotgan ko'pgina rivojlangan davlatlar tajribasida kuzatilmoqda. Xususan, Rossiya Federatsiyasida ham shu jihat alohida e'tibordadir. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida ta'limni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish kelajakda o'z samarasini berishini, albatta, hisobga olish taqozo qilinadi. Mutaxassislar ta'kidlayotganidek, talabalar kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli texnologiyalarni tatbiq qilishni jadallashtirish uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan rejalarning ro'yobga chiqish sur'atini oshiradi. Biroq, ma'rifatning, taraqqiyotning muxoliflari bo'lgani, har qanday yangilikni joriy qilishda qarshiliklar, ziddiyatlarga duch kelingani kabi raqamli texnologiyalarni ta'limga olib kirishda ham bir-birini istisno qilayotgan holatlar ko'zga tashlanadi. Jumladan, raqamli ta'limni joriy qilishda bu yaqqol namoyon bo'lmoqda: 1. Raqamli texnologiyalarni ta'limning quyi bo'g'inlaridan boshlab, tatbiq qilishga ta'lim muassasalari, xususan, ta'lim muassasalarining moddiy ta'minoti javob bera olmasligi. 2. Fan o'qituvchilarining raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirishdan ko'ra, an'anaviylikni qulay va oson, deb hisoblashi. 3. Umumta'lim fanlaridan elektron adabiyotlarning etarli emasligi. 4. Kompyuter va turli gajetlarning inson salomatligi, ruhiyatiga salbiy ta'siri, o'quvchilarning mediadaniyati, «televlod» tushunchasi kabilar [2]. Shu o'rinda, professor-o'qituvchilar va talabalarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olgan holda, quyida uni ko'rib chiqamiz.

Dunyoda integrativ ta'lim (Blended Learning) asosida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish masalasiga doir ilmiy munozaralar va forumlarni tashkil etishga alohida e'tibor berilmoqda. Shuningdek, ta'limning integrativ modelini takomillashtirish, talabalarda kasbiy ko'nikmani shakllantirish jarayonida akmeologik yondashuvning o'ziga xosliklarini aniqlashtirish, integrativ hamkorlikni tashkil etishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish hamda samarali foydalanish, oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, bo'lajak mutaxassislarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish, integrativ-fasilitatsion ta'lim muhitini yaratish orqali kasbiy faoliyatga yo'nalganlikni tarkib toptirish modelini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda xorijiy davlatlar ta'lim tizimida boshqaruv masalalari ta'lim muammolarini tadqiq qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida shakllangan va ushbu yo'nalishida tadqiqotlar olib borilishining boshlang'ich urinishlari XX asrning boshlariga borib taqaladi. Ta'lim boshqaruvi masalalari, undagi muammolar echimi va uni takomillashtirish mexanizm va modellari turli fan sohalarida negizida olib borilganligini ko'rish mumkin. Hozirda ta'lim boshqaruvi muammolari iqtisodiyot, siyosatshunoslik, sotsiologiya, kibernetika, pedagogik nazariya, psixologiya kabi fan sohalarining tadqiqot obyektiga aylangan.

A.Fayol, «ma'muriy boshqaruv» maktabi asoschisi, 1917 yilda e'lon qilgan «Administration industrielle et generale» asari bilan ta'lim boshqaruvi muammolari echimiga o'zining jiddiy ta'sirini o'tkazdi. Keyingi yillarda ta'limni boshqarishda ilmiy boshqaruv tamoyillaridan foydalanish asosan AQSh, Kanada, Angliya, Shvesiya, Fransiya, Germaniya kabi davlarda keng yo'lga qo'yildi. Lekin, ularning ichida Shvesiya ta'lim tizimi boshqaruvida davlatning aralashuvi darajasi o'ta yuqoriligi bilan ajralib turdi.

Mamlakat Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning kelajagimiz bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashdagi xizmatlarini anglar ekanmiz, Vatanimizda ta'lim va tarbiyani rivojlantirishga nechog'lik katta e'tibor, ahamiyat berilayotganligini tushunish mumkin. Ajdodlarimiz orzusi muqaddas ona yurtimizda ma'naviyatni yuksaltirishga intilganlar. Mavjud muammolarni

hal etish uchun qilinayotgan amaliy ishlar katta ahamiyatga ega bo'lib, bu borada rivojlangan xorijiy mamlakat olimlarining amaliy tajribalaridan foydalanish muhimdir. Hozirda Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Malayziya, Germaniya, Koreya va ko'pgina boshqa xorijiy davlatlarning ta'lim tizimini o'rgangan holda, ya'ni xorijiy ta'lim tizimi tahlil etilib, ularning ijobiy holatlari inobatga olingan holda O'zbekiston milliy modeliga mos ta'lim tizimini yaratish hamda uni kelajakda jahondagi eng takomillashgan ta'lim tizimiga ko'tarish uchun puxta asoslar yaratilmoqda. Mamlakatimizda zamon talablari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, jumladan, oliy ta'lim tizimi va professional ta'lim uzviyligini ta'minlash, ta'lim mazmunini integratsiyalash, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish» muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa, talabalarni kasbiy faoliyatiga tayyorlash metodikasini yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirish orqali ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishni taqozo etadi. Ammo, ta'lim jarayonini integrativ yondashuv asosida tashkil etish muammosi bo'yicha bir qator vazifalar turibdiki, ularning hal etilishi talabalarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini yaratadi. Xususan, falsafiy, ilmiy va pedagogik tadqiqotlar asosida talabalarning kasbiy tayyorlashning axboriy-didaktik ta'minotini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirish; ta'limni integrativ yondashuv nuqtai nazaridan talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda virtual metodik birlashmalarining o'zaro hamkorlik rolini konseptual tahlil qilish va uslubiy ta'minotini takomillashtirish; «OTM – professional ta'lim» integratsiyalashgan axborot-ta'lim muhitida talabalarni kasbiy tayyorlash metodikasini takomillashtirish; talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi sifat ko'rsatkichlari va baholash mezonlarini aniqlash va boshqalar.

**Xulosa.** Mazkur vazifalarning hal etilishi talabalarda integrativ yondashuv asosida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Mamarajabov S. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsiyalar va xorijiy tajribalar // Архив научных исследований. - T., 2021.
2. Hakimova M. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari // Архив научных исследований. - T., 2020. - № 32.
3. Mamarajabov Sh. Harakatlar strategiyasi: ta'lim va iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish modeli sifatida // Архив научных исследований. - T., 2021.
4. Hakimova M. Professional pedagogy. Tutorial. - T.: TSEU, 2007.
5. Musakhanov G. Independent work of students – as a condition for the development of professional self-development // Archive of scientific research. 2020. - № 1 (22).
6. <https://masterjournals.com/index.php/crjp>
7. Kayumova M. Bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda korporativ madaniyat va g'oyaviy immunitetni shakllantirish // Архив научных исследований. - 2021. - T. 2. - № 1.
8. Kayumova M. Uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash omillari // Архив научных исследований. - T., 2021. - T. 2. - № 1.

---

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA COMMUNICATIVLIK LAYOQATINI STEAM TECHNOLOGYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

*Suvonova Lobar Islom qizi, NavDPI doktoranti*

**Annotatsiya.** Maqolada STEAM texnologiyasining ahamiyati, bo'lajak pedagogik kommunikativ layoqatini STEAM texnologiyalari erdamida ta'yotqizishning mohiyati bayon etilgan.

**Таянч so'zlar:** STEAM, pedagogic, amaliy konstruktiv malakalar, tashkilotchilik malaka malakalari, STEAM texnologiyalari bilan ishlash malakalari, nutq, til madaniyati, til ustalari.

**ПОВЫШЕНИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ STEAM-ТЕХНОЛОГИЙ**

*Сувонова Лобар Ислом кизи, докторант НавДПИ*

**Аннотация.** В статье описывается значение STEAM-технологий, сущность совершенствования коммуникативных навыков будущих учителей с помощью STEAM-технологий.

**Ключевые слова:** STEAM, педагогические навыки, практические конструктивные навыки, организаторские способности, навыки работы с STEAM-технологиями, речь, языковая культура, языковые средства.

**IMPROVING THE COMPETENCE OF COMMUNICATIVENESS IN FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF STEAM TECHNOLOGIES**

*Suvonova Lobar Islom daughter, doctoral of NavSPI*


**Abstract.** The article describes the importance of STEAM technologies, the essence of improving the communication skills of future teachers with the help of STEAM technologies.

**Key words:** STEAM, pedagogical skills, practical constructive skills, organizational skills, skills for working with STEAM technologies, speech, language culture, language tools.

**Kirish.** So'nggi yillarda shiddat bilan o'zgarayotgan texnologik oqimdagagi yangi ixtirolar insoniyatning ijtimoiy hayotini ijobiy o'zgartirishi bilan birga, ilgari duch kelmagan ko'plab yangi muammolarni ham keltirib chiqardi. Bu esa, ayrim ish turlari va kasb sohalarining zamonadan ortda qolayotganligini belgilab berdi va bularning zamirida o'qitilayotgan fanlar va o'qituvchilar bilim va mahoratlari vaqt talablariga javob bera oladimi, – degan savolga javob topishga undadi. Agar, an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi – ta'lim subyekti bo'lmish tahsil oluvchiga bilimlarni o'rgatish va ulardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanishga imkon yaratadi deb aytsak, unda STEAM yondashuvi egallangan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu esa, bitiruvchilarga nafaqat fanlardan bilim egallash, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi.


**Asosiy qism.** Bugungi kunda respublikamizning umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham STEAM ta'limi tashkil qilinmoqda. Ayniqsa, Prezident maktablari, turli ijodiy maktablarda ushbu texnologiyadan samarali foydalanilmoqda. Ushbu texnologiyani qo'llash orqali tahsil oluvchilarda turli sohalaridagi: matematika va boshqa aniq fanlar, muhandislik, dizayn, raqamli qurilmalar va texnologiyalarga oid bilimlardan foydalanishga zamin yaratiladi. Biroq, oliy ta'limda mazkur texnologiyadan foydalanish bo'yicha hamda pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llarini o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar

va mustaqil ishlarda aks ettiruvchi tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligicha qolmoqda. STEAM – bu zamonaviy ta’lim trendlaridan biri bo’lib, aralash o’quv muhitida fan va san’at yo’nalishlarini kundalik hayotda uyg’un tarzda qo’llashni ko’rsatadi va harakatlari, modifikatsiyalar ro’yxati ko’rinishidagi muammolarni hal qilish texnologiyasi sifatida xizmat qiladi.



Pedagog texnikaga ega bo’lgan o’qituvchi faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, karakteri, talabalar bilan muomalasiga ham ko’p jihatdan bog’liq bo’ladi. Odatda bulaming ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Lekin, tajribali pedagog o’zining xatti-harakati talabalarga qanday ta’sir ko’rsatganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Demak, pedagogik mahorat tushunchasi bir-biri bilan bog’liq bo’lgan bir necha qismlardan tashkil topar ekan. Bunday holda pedagogik mahorat «pedagogik tizim» sifatida tasavvur qilinadi va u quyidagicha ta’riflanadi: «Pedagogik mahorat – o’qituvchi tomonidan o’z kasbiy-pedagogik faoliyatini mustaqil ravishda yuqori saviyada tashkil etishi, talaba shaxsiga insonparvarlik pedagogikasi asosida yondashish hislatlarining mavjudligi, yuqori darajadagi ma’naviy-axloqiy sifatlarga egaligi bilan tavsiflanadi va pedagogning o’z faoliyati mohirligining eng baland cho’qqisiga erishganligini bildiradi». Bundan ko’rinib turibdiki, pedagogik texnika pedagogik faoliyatning barcha turlarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ulami shaxs kamoloti va har tomonlama rivojlantirish maqsadlariga yo’naltirish, talabalarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda ijtimoiy zarur mehnatga moyillik uyg’otishdir. Shu jihatdan olganda, biz tadqiqot maqsadidan kelib, STEAM texnologiyasi mohiyatini taqiq qilishga kirishdik. STEAM texnologiyalari mohiyati va ularni oliy ta’limda qo’llashning o’ziga xos jihatlari mavjudligini inobatga olib, biz bugungi globallashuv davrida bo’ljak o’qituvchilarda quyidagi hislatlarni tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etishini aniqladik: nutq texnikasini boshqarish, jamoaga va shaxsga ta’sir ko’rsatish qobiliyatlarini takomillashtirish; insonparvarlik hislatlarini rivojlantirish; kommunikativ (muloqotga moyillik) malakalarini shakllantirish; kasbiy mustaqillik, ishchanlik, hissiy barqarorlik, o’z ishiga ijodiy yonda-shish hislatlarini tarkib toptirish; pedagogik nazokat va pedagogik texnikadan oqilona foydalanishni shakllantirish; zamonaviy fan va ishlab chiqarishdagi muammolar, pedagogik, axborot va yuqori darajadagi texnologiyalardan xabardor bo’lish hamda ulardan zarurlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish va boshqalar. Shuningdek bitiruvchi talabalarda pedagogik malakalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik malaka – egallagan bilim va ko'nikmalarni, faoliyatning ma'lum turini egallab olish, yaxshi bajara olish qobiliyatidir. STEAM texnologiyalarini oliy ta'limda qo'llashda o'qituvchidan bir qator malakalarga ega bo'lish talab etiladi.



Shunday qilib, pedagogik faoliyatning asosiy tarkibiy qismlaridan biri – pedagogik texnika oʻz xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi: maqsad, obyekt, subyekt va vositalardan tashkil topadi. Bular: birinchidan, pedagogik texnika oʻqituvchi faoliyatining maqsadiga aloqador boʻlib, yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yoʻnaltirilgan boʻlishi zarur. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy oʻzviyligini (ketma-ketligini) taʼminlasa, pedagogik texnika yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yoʻllaydi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni roʻyobga chiqaradi; ikkinchidan, pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bogʻliq. Bunda pedagogik maqsad talaba maqsadiga aylanishi muhimdir. Unga erishish uchun pedagog oʻz faoliyati maqsadini va unga erishish yoʻllarini aniq tasavvur qilishi, pedagogik texnika asosida hayotiy tajribasidan foydalanishi lozim; uchinchidan, pedagogik (taʼlim, tarbiya) jarayonida talaba faoliyatini boshqarish shu sababdan ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo talaba kelajagi tomon yoʻnaltirilgan boʻladi. Bu maqsadni talabadan koʻra pedagog yaqqolroq tasavvur qiladi. Tahsil oluvchi koʻp hollarda, hayotiy tajribasi yetishmasligi sababli hozirgi hayot, shu bugunning tashvishlari bilan yashaydi, kelajakni esa, toʻla tasavvur qila olmaydi. Shuni alohida taʼkidlab oʻtish joizki, bitiruvchilarning kommunikativlik loyqatini takomillashtirishda pedagogik texnikani rivojlantirish determinantalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Determinantalar shaxsning rivojlanishi bilan bogʻliq boʻlgan shartlar, sabablar, omillardir. Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarda determinantlarga shaxsning ijtimoiy-madaniy muhitda oʻzaro faoliyat va muloqot jarayonida egallagan alohida sifati, – deb baho beriladi. Bitiruvchilarda pedagogik texnikani rivojlantirish determinantalarining yetakchisi – nutqdır. Oʻqituvchining nutqi aniq, jonli, emotsional-obrazli, talaffuzi jihatidan erkin ifodali, his-hayajonli boʻlib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi

lozim. Bir maromdagi cho'ziq, zeriktiradigan nutq talabalarni tez charchatadi, ularni lanj, loqayd qilib, fanga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi. Talaba uzatilayotgan axborotni yaxshi qabul qilishi uchun o'rtacha, jonli nutq samarali natija beradi. Haddan tashqari keskin va baland tovushdagi nutq talabalar asabiga tegadi, ularni toliqtiradi. O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirayotgan, talabalar javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan paytda ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turishi lozim. Bitiruvchilarda pedagogik texnikani rivojlantirish determinantalarining yana bir yetakchisi – til madaniyatidir. Til va nutq bir-biriga bog'liq hodisalar. Ularni bir-biridan ajratib qarash asossiz. Til nutq uchun moddiy material. Shu material asosida nutq tashkil topadi. «Tildagi hamma narsa til jamoasi uchun umumiy bo'ladi. Tilda ruhiy va moddiy material mavjud. So'z, morfema, fonemalarning kishi xotirasidagi obrazlari ruhiy material hisoblanadi. Nutq yaratish jarayonida ma'lum tovush majmuasi (kompleksi)da namoyon bo'ladigan so'z shakllari, morfemalar, tovushlar moddiy material. Bundan til, bir tomondan, moddiy hodisa bo'lsa, ikkinchi tomondan, ruhiy hodisa, degan xulosa kelib chiqadi. Tilning ruhiy hodisaligini uning ongda saqlanishi ko'rsatadi. Uning moddiyligini esa, nutq jarayonida yuzaga keluvchi mavjud tovushlar belgilaydi». Demak, bitiruvchilar tili madaniyatining so'z boyligi, sintaksisning taraqqiyoti va boyish darajasi, so'z ma'nolarining o'tkirligi, nutqiy ohangning rang-barangligida ifodalanishi muqarrar. Bitiruvchilarda pedagogik texnikani rivojlantirishda nutq madaniyati, uning aloqaviy fazilatlari yig'indisi va tizimi tushunilib, til faoliyatida matnning mazmuniy vazifasi va imkoniyati kabi har xil sharoitlarga bog'liq. Talabalarda hissiy-ekspressiv, og'zaki va yozma nutqni shakllantirishda til madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Til madaniyati til vositalarining boyligi va rang-barangligidan iborat bo'lib, shu tildan foydalanuvchilarning ongida yashaydi. Lekin bu boylukning o'zlashtirilgan darajasi jamoa a'zolarining har birida har xil bo'ladi. Qaysi shaxs til madaniyatiga tegishli vositalarni o'zlashtirgan va ularni o'z nutqni jarayoniga aylantirgan bo'lsa, o'sha shaxsning nutqi ham shu darajada madaniyatli bo'ladi. Modomiki, nutq yakka shaxs ijodi ekan, uning madaniyati ham shaxsning til imkoniyatlarini qanchalik o'zlashtirganligiga va ulardan nutq sharoitiga mos mohirona foydalana olishga bog'liq.

Bitiruvchilarda pedagogik texnikani rivojlantirish determinantalarining yana bir yetakchisi – til vositalarini bilishdan iborat. Bu nutqni tinglaganda, unda ishlatilgan til vositalarining ma'nosi va vazifasini anglashda ko'rinadi. Ya'ni, bitiruvchi talaba tinglagan va o'qigan narsalarini tushunadi, til tizimi taqdim etgan imkoniyatlarning katta qismini chuqur o'zlashtirib, ularni nutq tezkorligiga aylantirib oladi. Bunga erishgan talabaning nutqi ravon, boy, obrazi o'rinli bo'ladi. Birinchi bosqichda anglab olingan nutq vositalari ustida doimiy mashq qilish, ularni xotirada saqlashga doimo e'tibor berish, bu imkoniyatlarni nutqiy tezkorlikka aylantiradi. Bitiruvchilarda pedagogik texnikani rivojlantirish determinantalarining yana bir yetakchisi – badiiy metoddan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Badiiy metod nutqning boshqa metodlaridan dastlab o'zining obrazlilik va estetik ta'sir etish vazifasi bilan ajralib turadi. Badiiy nutqda til leksikasining hamma qatlamlari ishtirok etadi. Badiiy metod inson faoliyatining barcha qirralarini o'zida aks ettiradi, hammaga taalluqli bo'ladi. O'nda turli kasb-kor, fan-texnika, xalqning maishiy hayotiga tegishli rang-barang so'zlar qo'llaniladi, til vositalari orqali idrok etish obrazlari va manzaralarini yaratadi, nutq tinglovchilariga estetik oziq berish uchun xizmat qiladi. Bitiruvchilarda pedagogik texnikani rivojlantirish determinantalari ta'lim jarayonida nutq shakllarini faollashtirishga, taqdim qilingan mavzularda og'zaki chiqishlarga tayyorlanish

va o'zligini namoyish etish, mustaqil ravishda o'z fikrlarini saralab, umumlashtirib yetkazish, mulohazasini aytish, yozma ifodalash, insho yozish ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. O'quv materiallari vositasida bitiruvchilarda pedagogik texnikani rivojlantirish yo'llari quyidagi rasmda o'z aksini topgan.

**Xulosa.** STEAM texnologiyasi asosida egallangan ilmiy psixologik va pedagogik bilimlar tizimining mavjudligi o'qituvchiga talabalarning bilim o'zlashtirish bosqichlarini to'g'ri tushunishnigina emas, balki ularning fe'l-atvorlarini tushunishni, ular jamoasi va har bir a'zosining rivojlanish istiqbolini ham belgilash imkonini beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 5-октябрдаги ПФ-6079-сон «Рақамли Ўзбекистон – 2030» фармони: <https://lex.uz/docs/5030957>

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги фармони / Маърифат. - Т., 2019. - 64-сон. - Б. 26.

3. Абдуллаева Ш.А. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. - СПб., 2019. - С. 4-10.

4. Абдуллаева Ш.А., Тахирова М. Инновационная организация образовательного процесса по совершенствованию речевых компетенций по русскому языку у будущих специалистов // Тил ва адабиёт таълими. - Т., 2021. - 1-сон. - Б. 72-74.



---

## OILALARDA O'SMIR YOSHLARNI IJTIMOYIY-MA'NAVYI TAYYORLASHDA TARG'IBOT MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

**Xusanov Bahtiyor**, «Oila va xotin-qizlar» ilmiy tadqiqot instituti  
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalaydigan, milliy qadriyat va urf-odatlarini saqlaydigan, uni kelgusi avlodlarga yetkazadigan, yurt tinchligi va osoyishtaligini asraydigan mo'jazzgina bir jamiyat – bu oila hisoblanishi haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** targ'ibot mexanizmlarini takomillashtirish, madaniy-ma'rifiy, milliy qadriyat, bebaho, ma'naviy meros, samarali foydalanish, tarbiyaviy ish.

## НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ПРОПАГАНДЫ СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ ПОДРОСТКОВ В СЕМЬЯХ

**Хусанов Бахтиёр**, самостоятельный исследователь  
научно-исследовательского института «Семья и женщины»

**Аннотация.** В статье речь идёт о том, что общество, которое воспитывает подрастающее поколение как духовно-нравственных, культурно-образовательно зрелых людей, сохраняет национальные ценности и традиции, передает их следующим поколениям, а также поддерживает мир и спокойствие на земле, называется семьей.

**Ключевые слова:** совершенствование механизмов пропаганды, культурно-просветительская, национальная ценность, бесценность, духовное наследие, эффективное использование, воспитательная работа.

## SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE MECHANISMS OF PROPAGANDA OF SOCIO-SPIRITUAL EDUCATION OF ADOLESCENT YOUTH IN FAMILIES

**Khusanov Bakhtiar**, Independent researcher of the research institute «Family and women»

**Abstract.** The article covers a set of implemented measures for the formation of a healthy generation in the country. It was also thought that a wonderful society that will educate the younger generation as spiritually-morally, culturally-educationally mature people, preserve national values and traditions, convey it to the next generations, preserve the peace and tranquility of the land, is considered a family.

**Key words:** improvement of propaganda mechanisms, cultural and educational, national value, invaluable, spiritual heritage, effective use, educational work.

**Kirish.** Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aynan ana shu maqsadga erishish uchun Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev rahnamoligida yangi davrda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan ma'nan yuksak yoshlar Uchinchi

Renessans bunyodkorlarini tarbiyalab yetkazish maqsadimizdir. Ma'lumki, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosini jamiyat, oila va ta'lim muassasasi – bola yashaydigan, uning shakllanishi va rivojlanishi sodir bo'ladigan muhit ma'naviy madaniyati tashkil etadi.

**Asosiy qism.** O'smir yoshlarni ma'naviy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalash ishi, birinchi navbatda, oiladan boshlanadi. Bu borada barkamol avlodni tarbiyalashda ota-ona, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ushbu hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish o'smirlar orasida qarovsizlik, tartibbuzarlik, jinoyatchilik va shunga o'xshash maishiy buzuvchiliklar bilan shug'ullanishning oldini olishda muhim tarbiya vositasidir. Farzandning qanday inson bo'lib voyaga yetishi ota-ona tarbiyasi va atrof-muhit ta'siriga bog'liq. Bola tarbiyasida ularning yosh jihatiga, ruhiyat va tushunchasiga, fe'l-atvoriga alohida ahamiyat berish, shu bilan birga, Prezident Sh.Mirziyoyev 2017-yil 11-oktabrda bo'lib o'tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi sammitidagi chiqishida globallashuv jarayoni sharoitida dolzarb masalalar qatorida oilalarni mustahkamlash, bunda, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etishiga alohida to'xtalib o'tdi. Ushbu sohadagi ishlar yuzasidan tajriba almashish maqsadida kelgusida O'zbekistonda «Oilalarni mustahkamlash va o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda o'zini-o'zi boshqarish organlarining roli» mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazish taklif etildi [1]. E'tiborli jihat, sammit yakunida Oila instituti va an'anaviy oilaviy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bayonot ham qabul qilindi. Dunyo miqyosida bunday ezgu maqsadlar ko'zlangan taklifning berilishi katta tarixiy voqelik edi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligi hisoblanadi. Endilikda yoshlar millati, xalqi, qolaversa, o'zi va oilasi manfaatlar uchun erkin mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunday muhim ijtimoiy o'zgarishlar mustaqil davlat O'zbekiston Konstitutsiyasida, «O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi va boshqa tegishli qonunlarda umuminsoniy qadriyatlarga muvofiq ravishda mustahkamlab qo'yilgan. Bularning barchasi yoshlarda yangicha tafakkurni, milliy, ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shunday ekan, yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanadigan, oilada – ota-onalar, mahallada – qo'ni-qo'shni va keng jamoatchilik, ta'lim muassasasida – o'qituvchi va murabbiylar kelgusi avlod barkamolligi hamda o'g'il-qizlarimizning ulug' ajdodlarimizga xos oqil va dono, tarbiyali va zukko bo'lishlari uchun mas'uldirlar. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi «Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 175-sonli qarori qabul qilingan bo'lib, Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi «Oila-mahalla-ta'lim muassasasi» hamkorligi Jamoat kengashi faoliyatiga asos solindi. Mazkur qaror bilan, 4 yo'nalishdan iborat «Oila-mahalla-ta'lim muassasasi» hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi, Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi «Oila-mahalla-ta'lim muassasasi» hamkorligi hududiy jamoat kengashlarining namunaviy tarkiblari, shuningdek, Jamoat kengashining dastlabki, yig'ilishi qarori bilan Jamoat kengashining Nizomi tasdiqlandi.

Ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonun – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan. Boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishlariga bog'liq ekanligi barchaga ayon. Bu boradagi ishlarni kuchaytirish, barkamol avlodni tarbiyalashda ota-ona, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligini yanada mustahkamlash Jamoat kengashiga a'zo bo'lgan tashkilotlar, idoralar va keng jamoatchilikning ishidir. Shunday ekan, joylarda «Oila-mahalla-ta'lim muassasasi» hamkorlik mexanizmini kuchaytirish, Jamoat kengashining Nizomi asosida hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish, hududiy Jamoat kengashlari tarkibini to'g'ri shakllantirish kengashlar faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat

kasb etadi. Jamoat kengashlari faoliyatini samarali tashkil etish, hamkorlik ishlarini yanada kuchaytirish maqsadida, Jamoat kengashlari tarkibi shakllantirilishiga asosiy e'tibor qaratilayotgani ham bejiz emas. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan farzandlarga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi, tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'ladi. Ana shularni hisobga olganda, bu masalalarning o'rganilishi muhim ahamiyatga ega. Hamisha va har qanday vaziyatda ham millatning o'ziga xos jihatlarni ko'rsatadigan, obro'-e'tiborini yuksaltirishga qodir, beqiyos ta'sir kuchiga ega bo'lgan oilaning o'mi katta, shu bilan birga oilaning asosiy tayanch nuqtasi bo'lgan ayolning o'mi bo'lakcha. Ana shu muqaddas dargoh mustahkamligi va unda oilaviy baxtga erishish uchun ayol oila ustuni bo'lib xizmat qiladi. Bu boradagi qarashlariga ko'ra: insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Darhaqiqat, oila – jamiyatning negizi. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, oila mustahkam bo'lmaydi. Oilaning eng birlamchi va muqaddas vazifasi – insoniyatning zanjirini sog'lom va iqtidorli avlodlar bilan ulab borishdan iborat! Bu – hamma millat, hamma davlat va barcha xalqlar zimmasidagi sharaflil vazifa hisoblanadi. Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblangan. O'zbek oilalarining serildizlik, serfarzandlik xususiyatlari qadim-qadimdan va hozirda ham boshqa millat kishilarida ham hayrat, ham hurmat, ham qiziqish uyg'otgan xususiyatdir. Oila muqaddas va buyuk ne'mat hisoblangani uchun ham juda ko'p donishmandlar oilani tuzishni mamlakatni tashkil qilish kabi muhim deb biladilar. Oilaning barqarorligi va baxtli hayoti – shu mamlakatning yuzi, obro'yi deb qaraladi. Butun insoniyat jamiyatining daxlsizligi ham oilaning jipsligiga bog'liq. Oilaning insoniyat jamiyati bilan uzviy bog'liqligi va eng qutlug' vazifa ekanligi – hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlashda yaqqol ko'rinadi. Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarini o'zida sinovdan o'tkazadi. Yaxshilarini o'z bag'rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Islom manbalarida bola dunyoga kelmay turib uning kelajagi to'g'risida qayg'urish kerakligi haqida ko'rsatmalar bor. Oilaning zimmasidagi muqaddas burchlarning yana biri – ulkan tarbiya o'chog'i ekani shunda namoyon bo'ladi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga ijtimoiy yo'nalish beradi. O'z farzandlarini katta oqimga - jamiyatga qo'shish bilan esa, oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Millatlar sharaflini yuqori martabaga ko'taradigan narsa – bu oila. Sog'lom oilada sog'lom farzandlar dunyoga keladi va jamiyatga, yurtga kerakli kadrlar va yurtning ravnaqiga o'z munosib hissasini qo'shadigan vatanparvar yoshlar, fidoiy kelajak avlodlari tarbiyalanadi, ulg'ayadi. Oila dastlab ikki kishining bir-birlariga bo'lgan mehr-muhabbatidan barpo bo'ladi. Oilada shirin-shirin orzular og'ushida qalblarga quvonch olib farzand dunyoga keladi. O'g'ildir, qizdir Alloh bergan ulug' ne'matdir. Qiz bola ulg'ayar ekan, uning ilk o'ynaydigan o'yinchog'i ovunchog'i qo'g'irchoqdir. Bolalar birga o'ynashar ekan, ularning biri ota, biri esa, ona, o'yinchoqlar esa, farzandlari bo'lib o'ynashadi. Balki, shundandir, oila to'g'risidagi tushuncha bolaligimizdan qon-qonimizga singib ketgan. O'zbek xalqi shuning uchun ham oilani muqaddas deb biladi. Haqiqatdan ham, boshqa xalq turmush tarzini kuzatar ekanmiz, bizdagi oilaga bo'lgan mehr-muhabbat, fidoyilik, oilaning muqaddasligini his qilish, farzandlar tarbiyasiga bo'lgan mas'uliyat va munosabat, oiladagi totuvlik, sabr-toqat qanoatlilik, insof-diyonat, sofdillik kabi ijobiy fazilatlar faqatgina o'zbek xalqiga, o'zbek oilalariga mosdek tuyuladi kishiga. Ha, oila jamiyatning bir bo'lagidir. Mustahkam oila – mustahkam jamiyatdir. Oilani bir ulkan daraxtga o'xshatsak, uning baquvvat tanasi va ildizi ota va onadir. Shunday daraxtning shoxlari ham sog'lom va ko'rkam bo'ladi. Otabobolarimiz azal-azaldan farzandlarning go'zal xulqli, odobli bo'lishiga katta ahamiyat berganlar. Binobarin, islom dinida ham axloq imon qatoriga qo'yiladi. Farzandlar tarbiyasida

odatda o'g'il bolalar tarbiyasi bilan ko'proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa, ona shug'ullanadi. Albatta, tarbiya jarayonida farzandning saviyasini inobatga olish muhim. Bolani biror-bir yutuqqa erishishida, natijani ko'rishga shoshmaslik muhim. Masalan, ikki yoshgacha faqat shirin so'z bilan erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni o'rganadi, asosiy va tayanch ma'lumotni shu yosh oralig'ida egallaydi. Bu davrda biz ota-onalar ko'proq amaliy jihatdan namuna bo'lishga urinishimiz, sog'lom oilaviy muhitni yaratishimiz zarur va juda muhim hisoblanadi.

So'nggi yillarda iqtisodiy-ijtimoiy omillar tufayli demografik jarayonlardan, xususan, aholi o'rtasida tug'ilish, o'lim darajalari pasayishi, tabiiy harakat ko'rsatkichlarining kamayishiga olib kelmoqda. Ammo viloyatlarda umumiy aholi soni faqat tabiiy ko'payish hisobiga yildan-yilga o'sib bormoqda. Sababi, aholining mexanik ko'payishi mamlakat aholisi soni dinamikasi uchun allaqachon salbiy xususiyat kasb etgan. Ayollarning jamiyatda tutgan o'mi, bandligi, aholining savodxonligi, ma'daniy darajasi, sog'liqni-saqlash tizimining holati va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar faolligi oshganligi munosabati bilan respublikada tug'ilish, tabiiy ko'payish umumiy koeffitsiyenti 1,4 punktga kamaydi. Bunday holat qishloq joylarda yaqqolroq seziladi. Mustaqillik yillarida «sog'lom ona – sog'lom bola» tamoyili asosida mamlakatdagi barcha mutasaddi institutlar, davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatining sog'lom avlod g'oyasi asosida birlashtirilishi va yo'naltirilishi millat genofondini asrashga qaratilgan umummilliy harakatning vujudga kelishiga olib keldi. Mamlakatda sog'lom avlodni shakllantirish borasidagi amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui quyidagi yo'nalishlarda mujassam etildi: sog'lom oilani shakllantirish; davlat, jamiyat va oilaning sog'lom avlod tug'ilishiga e'tiborini kuchaytirish; bolalar salomatligini mustahkamlash; xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy maqomini oshirish; aholi va yoshlar uchun ota-onalik majburiyatlari va sog'lom avlod tarbiyalash borasidagi yalpi bilim berish tizimini yaratish va rivojlantirish; jamiyatda sog'lom avlod tarbiyasi uchun mas'ullik psixologiyasini shakllantirish kabilar.

**Xulosa.** Xalqimizning misqollab yiqqan bebaho ma'naviy merosini tiklash va xalqqa yetkazish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Endilikda bu boyliklarni yuzaga chiqarish, XXI asr kishisini kamol toptirishda undan samarali foydalanish tarbiyaviy ishimizning muhim yo'nalishini tashkil etishi lozim. Ma'naviy meros deganda, o'tmishda avlodlar tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlar, g'oyalar, bilimlar, qarashlar, xalq madaniyati, ijodi singari moddiy va ma'naviy boyliklar majmuini tushunish mumkin. Ma'naviy meros kishilarning bilim va tafakkurini, axloqiy, madaniy, diniy saviyasini kengaytirishga xizmat qiladigan bitmas-tuganmas manbadir. Har bir xalqning o'ziga xos ma'naviy merosi bor. Bu meros, bir tomondan, keng xalq ommasi tomonidan yaratilgan madaniyat durdonalari, qadriyatlar, osori atiqalar bo'lsa, ikkinchi tomondan olimlar, faylasuflar, mutafakkir adiblarning ijodi namunalari, asarlaridan iborat bo'ladi. Meros keyingi avlodlarga qoldiriladigan bebaho, shuning bilan birgalikda betakror mulkdir. Chunki har qanday ma'naviy mulk keyingi davrga qanday bo'lsa, shundayligicha ko'chmaydi, balki avlodlar tomonidan o'zlashtiriladi, qayta ishlanadi, boyitiladi va h.k. Shuning uchun ma'naviy merosning rivojlanishi tadriijiy shaklda bo'lib, uning asosida vorislik qonuniyati yotadi.

#### Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг МДХ Давлат раҳбарлари кенгаши мажлисидаги нутқи. 2017 йил 11 октябрь.
2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021.
3. Мусурмонова О., Куронов М., Абдужаббаровва М. Маҳалла – ҳаёт кўзгуси. - Т.: YOSHLAR MEDIAPRINT, 2021.
4. Давлетшин М.Г ва бошқ. Ёш даврлари ва педагогик психология. - Т., 2004.
5. Нишоновва З.Т., Алимова Г. Болалар психологияси ва уни ўқитиш методикаси. - Т., 2003.

---

## ЦЕННОСТНАЯ ОРИЕНТАЦИЯ МАЛОЙ ПРОЗЫ Ю. БУЙДЫ

**Пирматова Мадина**, магистрантка 2 курса УзГУМЯ, направление  
литературоведение (русская литература)

**Аннотация.** В статье рассматривается на примере прозы Ю.Буйды тема любви, ее проявления в различных ситуациях жизни. Показаны ценностные составляющие героев. Также прослеживаются параллели с другими произведениями.

**Ключевые слова:** любовь, романтика, личность, интертекстуальность.

## Y. BUYDA QISQA NASRINING QADRIYAT YO'NALISHI

**Pirmatova Madina**, O'zDJTU 2-kurs magistranti, yo'nalishi adabiy tanqid  
(rus adabiyoti)

**Annotatsiya.** Maqolada ishq mavzusi, uning hayotning turli holatlarida namoyon bo'lishi Y.Buyda nasri misolida ko'rib chiqiladi. Belgilarning qiymat komponentlari ko'rsatilgan. Boshqa asarlar bilan o'xshashliklar ham mavjud.

**Tayanch so'zlar:** sevgi, romantika, shaxsiyat, intertekstuallik.

## VALUE ORIENTATION OF Y. BUYDA'S SHORT PROSE

**Pirmatova Madina**, 2nd year master student of UzSUWL, direction  
literary criticism (Russian literature)

**Abstract.** The article deals with the theme of love, its manifestations in various situations of life, using the example of Y. Buida's prose. The value components of the characters are shown. There are also parallels with other works.

**Key words:** love, romance, personality, intertextuality.

**Введение.** Эмоциональная сторона человеческой жизни как наиболее важная при анализе внутреннего мира героев предполагает рассмотрение такой ценности как чувства. Понятие категории чувств является вечной в искусстве, музыке, литературе. Во все эпохи и времена данному чувству посвящали множество различных творческих работ, которые стали неподражаемыми шедеврами. Данная тема остается весьма актуальной и в наши дни.

**Основная часть.** Особенно актуальна в литературных произведениях - тема любви. Ведь любовь – это самое чистое и прекрасное чувство, которое воспевалось литераторами ещё с древнейших времён.

Лирическая сторона произведений, это первое что привлекает внимание большинства читателей. Именно любовь окрыляет, вдохновляет и вызывает ряд эмоций, которые иногда бывают весьма противоречивыми.

Все великие поэты и писатели вне зависимости от стиля написания, тематики, времени жизни посвятили немало своих произведений дамам своего сердца. Они вложили свои эмоции и переживания, свои наблюдения и прошлый опыт. Лирические произведения всегда полны нежности и красоты, яркими эпитетами и фантастическими метафорами.

Герои произведений совершают подвиги ради любимых, рискуют, воюют, мечтают. И порой наблюдая за такими персонажами, проникаешься теми же переживаниями и чувствами литературных героев. Не является исключением и произведение, относящиеся к современному литературному процессу.

Множество современных писателей смогло запечатлеть свои мысли о любви в своих произведениях. Так, например, Юрий Буйда, дал миру целый ряд своих работ, которые вдохновляют на подвиги и риск во имя любви. Его рассказы необычны, романтичны и реалистичны одновременно, наполнены нежностью, роскошными эпитетами и метафорами.

Объединяющей чертой художественных методов Ю.Буйды можно назвать гармонию. Впечатление гармоничности и в то же время уникальности исходит от всех прозаических творений Буйды. Выразительные средства его малой прозы необыкновенно разнообразны. В них много унаследовано от всей классической русской традиции, но внесено немало абсолютно нового.

Буйда также проявляет свою оригинальность и в разнообразии новых образов, внесенных им в прозу, и в новизне трактовки традиционных сюжетов. Он использовал в своих произведениях сюжеты из жизни, наполняя их своим видением ценностей. Поэтому, рассматривая категорию любви в произведениях современных писателей как одну из вечных ценностей, нельзя не оценить вклад Буйды в прозу данной тематики.

Тема любви занимает едва ли не главное место в его творчестве. В этой теме писатель имеет возможность соотнести то, что происходит в душе у человека, с явлениями внешней жизни, с требованиями общества, которое основывается больше на материальных ценностях, нежели чем на духовных.

В таких произведениях, как «Одноногая жизнь одного мужчины», «Через фэ», «Бешеная собака любви», «Вангда Банда» все события на редкость просты, краткие и значительные.

Образная система рассказов писателя разнообразна – его героев можно отнести к романтическим персонажам, оказавшимся в реалистической действительности. Его герои уникальны не только внешностью, манерами, но и судьбами, жизненными ценностями. Мировоззрение, образ жизни героев малой прозы писателя отличается их от всего остального общества, одновременно возвышая их над обычными людьми.

Рассмотрим ценностную составляющую героев одного из рассказов Буйды, «Одноногая жизнь одного мужчины». В данном рассказе настолько гармонично сосуществование реальности и нереальности, что поначалу читатель может и не обращать внимания на некоторые события фантастического характера.[1, 240].

События и детали из мира ирреального направлены на то, чтобы подчеркнуть необычность, еще большее несходство главного героя с остальными героями рассказа. Иван Алексеевич Соломенцев уже родился одноногим, то есть уже поначалу не предполагалось, что он будет иметь человекообразное телосложение. Из мира может не фантастики, а скорее тайна некая, скрытая за амнезией героя, такой диагноз был поставлен Ивану доктором.

Следующая из ряда вон выходящая деталь – это сердце размером с легкое, то есть оно довольно-таки большое, что является материальным выражением фразы «человек с большим сердцем» в прямом его значении. Станным кажется и то, что возможное превращение героя в человека полноценного, то есть с двумя ногами, может убить его, поэтому Маша молится, чтобы он остался одноногим, потом, все-таки добавив, что неважно, со сколькими ногами, но главное, чтобы жил. Изменяются жизненные интересы героини после встречи с одноногим мужчиной. Маша Геббельс, кастелянша, по мнению ее знакомых, всегда ругалась, за что и была прозвана Говноротой (хотя на самом деле таковой была скорее Люба).

Можно сказать, что это Маша скорее нуждалась в Иване Алексеевиче, чем он в ней. После знакомства с ним она приобщилась к искусству (стала читать книги, записалась для этого в библиотеку, потому что именно в книжках в школьные годы она вычитала слово любовь и вспомнила его после знакомства с Иваном Соломен-

цевым). Она смирилась, что не сможет гордо гулять с ним на зависть своих подруг, потому что он был другой, для него любовь, стыд, отношения с любимой женщиной, как и башмаки, должны были быть не на виду у всех, напоказ, а подальше от глаз, потому что это их, личное, свое, родное).

Слово любовь для героини Маши было позабыто. Читала она о существовании этого чувства в школьном учебнике, повзрослев, она забыла. Только встреча с Иваном Алексеевичем освежило в ее памяти такое чувство и ею оно интерпретировалось как «состояние теплого одиночества на двоих».

Своеобразная трактовка говорит о том, что, будучи цельными личностями, Маша и Иван смогли дополнить друг друга, не повредив при этом ни себя, ни партнера. Они взаимно обогатили друг друга (в конце Иван говорит, что от Маши пахнет им; также фразу, которая Маша говорит об Иване в начале рассказа – «Боже ж ты мой, ты мой Боже» – повторяет Иван уже в конце рассказа тоже по отношению к ней).

В раскрытии характера героя важную функцию выполняют «стальные башмаки». Стальные башмаки – это символ внутреннего Соломенцева, предметное воплощение его, возможно, желания соответствовать своей любимой, хотя само слово и определение человека как двуногого (следовательно, носящего башмаки), не нравилось ему (врут только двуногие). Башмаки можно сравнить с лягушачьей шкурой из фольклорной сказки "Царевна-лягушка": башмаки выполняют функцию кожи лягушки, внутренне связаны и образы Одноногого и Василисы, Ивана и Маши. Однако Маша поступает мудрее, чем сказочный Иван, она берет с собой башмаки своего любимого, молится перед ними, то есть всячески оберегает и охраняет частицу своего мужа. Поэтому Одноногий выживет, будущее у них есть (подтверждение - слова доктор: «Мы от смерти спасаем, а от жизни лекарств не придумано»).

Данный рассказ «Одноногая жизнь одноногого мужчины» входит в цикл «Рассказов о любви» наряду с еще одним рассказом, который называется «Через Фэ». В обоих рассказах герои открывают для себя понятие любви, главных героев Машу и Таню связывает то, что, будучи достаточно опытными в любовных делах, они по-настоящему смогли почувствовать это чувство только с людьми, которые не похожи на людей (внешне, конечно же), это одноногий человек (рассказ «Одноногая жизнь одноногого мужчины») и коротышка-горбун (рассказ «Через Фэ»). Прошлое обоих практически одинаково (оба из детдома, только жизнь Ивана Ивановича Голубефа (рассказ «Через Фэ») описана более подробно, потому что, делаясь своими воспоминаниями, он и выражал свою любовь к Тане (после рассказа о своем прошлом он спрашивает ее, верит ли она теперь, что он ее любит).

Оба рассказа имеют довольно-таки положительный финал. В первом рассказе они будут жить вместе и дальше. Во втором рассказе герой связан с двумя мирами, настоящим и потусторонним, загробным, так скажем (он работает в море). Таким образом, смерть его любимой не будет являться препятствием в их чувствах.

В рассказе «Химич» мы можем наблюдать прямую связь с рассказом известного русского классика А.П. Чехова «Человек в футляре». С самого начала рассказа писатель «ведет диалог» с Чеховым. Однако герой Чехова Беликов и герой Буйды Химич – это абсолютно два разных человека, два абсолютно разных типа. Беликов – это тип «маленького человека».

Традиционно сложилось, что понятие «маленький человек» обозначало людей низших сословий. Данный термин был введен отечественным критиком В.Г. Белинским в статье «Горе от ума» (1840) и обозначал «простого человека». Со временем образ «маленького человека» стал развиваться и психологически углубляться.

Литературный тип «маленького человека» имеет отличительные черты: персонаж занимал в обществе низкое положение, он был беден. «Маленький человек»

оказывался незащищенным. «Маленький человек» не имел способности. То есть, исходя из сказанного выше, «маленький человек» – это социальная метка для человека, то, как видят его окружающие люди. Друзья и знакомые Химича сразу «навесили» такой ярлык на своего коллегу, наблюдая за его жизнью. Однако Химич совсем не такой, как кажется со стороны.

Мы видим Химича с двух сторон: первая позиция – это авторская, внешняя, то, каким видят Сергея Сергеевича Химича все люди; вторая позиция – это позиция читателя, то, каким читательского видит настоящим, то есть «внутренний Химич».

Внешне все действия Химича можно трактовать как действия «маленького человека», а конкретнее чеховского Беликова, который отгородился от общества и закрылся в своем «футляре». Химич же внутренний – это жизнерадостный человек, не человек в футляре, он не боится принимать решения, живет в свое удовольствие, очень ответственный. Ю.Буйда в своем рассказе более глубоко раскрыл образ «маленького человека», «человека не в футляре» показал его внутренний мир, то, который мы не увидели у чеховского Беликова.

Автора интересует человек, которого можно обозначить как «герой-замысел»: читателю предлагается внимательно следить за сюжетом длиною в жизнь (который умещается буквально на двух страницах рассказа), за судьбой, которая обладает завершенностью, которая прожила полноценную, счастливую жизнь, в отличие от чеховского героя.

Буйда показал, что люди видят человека не таким, каким он является на самом деле. Многие черты одного человека окружающие интерпретируют так, как им нравится. Если чеховский герой односторонний, показан только глазами общества, то герой Буйды имеет свой внутренний мир.

Внешний Химич – это типичный Беликов, это оценка общества его жизни, она поверхностная. Читатель же видит, что Химич совсем не похож на Беликова, он видит настоящего, «внутреннего» Химича, хотя автор все время сравнивает его с героем чеховского рассказа, тем самым получается обратный эффект – понимание и осознание в полной противоположности двух героев.

Отсылка к чеховскому герою помогает наиболее полно и ёмко раскрыть образ Химича, если бы Буйда не использовал образ Беликова, Химич Сергей Сергеевич так не «зацепил бы», не запал бы в душу. Благодаря сравнению мы понимаем, что Химич намного сложнее для анализа образа, чем Беликов, который с появлением образа Химича стал каким-то односторонним, ненастоящим, гиперболизированным. При этом Химич намного реалистичнее, лучше и многостороннее.

Рассказ «Тоннель» имеет явные переклички с романом японского модернистского писателя Кобо Абэ «Женщина в песках» и произведением французского писателя А. Камю «Миф о Сизифе».

В рассказе Ю.Буйды, как и в двух выше перечисленных произведениях изображена проблема самоидентификации человека и обретение им смысла жизни. Однако, если основная тема творчества японского романиста – одиночество человека, его часто бесплодные поиски смысла жизни и выхода из тупика, то герои Буйды получают удовольствие от выполнения своей работы: «Нам понравилось это дело - копать и носить, копать и носить. За смену мы успеваем пройти до десяти метров. Быстрее всех работает Бушлат, осторожнее - я. Напильнику больше нравится таскать землю: он романтик.»

Герой же рассказа «Живем всего два раза» является романтическим героем, который живет не настоящим, а будущим, надеясь, что нынешняя его жизнь это всего лишь как «проба», а вторая, которая наступит, и является настоящей. Здесь можно отметить характерный для романтического направления в литературе прин-



цип «двоемирия», когда исключительный герой, не находя смысла в настоящем, стремится в другие альтернативные миры.

Данный «побег» героев от окружающей действительности назван в литературе специальным термином Эскапизм (с английского «уходить», «сбегать») – явление, которое характеризуется временным или постоянным уходом от насущных забот и проблем. Это бегство от действительности и избегание всего скучного и неприятного в жизни.

**Вывод.** Таким образом, мы рассмотрели аксиологическую составляющую современного литературного процесса на примере малой прозы Юрия Буйды. Мы пришли к выводу, что творчество писателя имеет ценностно-эстетическую направленность, при этом трактовка данных ценностей у авторов различаются.

#### **Литература:**

1. Гарипова Г.Т. Художественная феноменология воображаемых миров в литературном тексте // XIV Виноградовские чтения: Сборник научных трудов Международной научно-практической конференции. 16 мая 2018 года. - Ташкент-Екатеринбург, 2018. - 321 с.

2. Гладкова З.В. Виды коммуникаций в современной науке // Научный вестник МГТУ ГА. - М., 2009. - № 142. - С. 1-3.

**MEHNAT HUQUQI FANIDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISH**

**Omarova Gavhar Sadikovna**, *BuxDU mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Mehnat huquqi fanida ta'limni tabaqalashtirish uslubidan foydalanib, o'rganish usuliga muvofiq taqdim etish to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Ta'lim uslublari odatda talabalarning ma'lumotlarni qanday to'plashi, saralashi, sharhlashi, tartibga solishi, ular haqida xulosa chiqarishi va keyin foydalanish uchun «saqlash»ini tasvirlash uchun keng qo'llaniladi. Mazkur maqolada huquqiy fanlarni o'qitishda differensial yondashuvning ilmiy asoslari yoritiladi.

**Tayanch so'zlar:** *ta'limni tabaqalashtirish, differensial yondashuv, ta'lim usullari, vizual, eshitish, o'qish-yozish, kinestetik uslublar, mehnat huquqi.*

**КЛАССИФИКАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ ПО ТРУДОВОМУ ПРАВУ**

**Омарова Гавхар Садиковна**, *самостоятельный соискатель БухГУ*

**Аннотация.** В дисциплине трудового права приводятся сведения о представлении образования по методу дифференциации и по методу обучения. Стили обучения обычно используются для описания того, как студенты собирают, сортируют, интерпретируют, систематизируют, делают выводы и «хранят» информацию для последующего использования. В данной статье описаны научные основы дифференцированного подхода в обучении юридическим дисциплинам.

**Ключевые слова:** *дифференциация обучения, дифференциальный подход, методы обучения, визуальные, слуховые, чтение и письмо, кинестетические методы, трудовое право.*

**CLASSIFICATION OF EDUCATION IN LABOR LAW**

**Omarova Gavhar Sadikovna**, *independent researcher of BukhSU*

**Abstract.** In the science of labor law, information is provided on the provision of education in accordance with the method of learning, using the method of differentiation. Learning styles are generally used to describe how students collect, sort, interpret, organize, draw conclusions about, and «store» information for later use. This article describes the scientific basis of the differential approach in teaching legal subjects.

**Key words:** *educational differentiation, differential approach, educational methods, visual, auditory, reading and writing, kinesthetic methods, labor law.*

**Kirish.** Har qanday ilmiy muammo o'ziga xos kategoriya va konsepsiyasi mavzusida bo'lib, nafaqat mohiyati, obyekti, mazmunini hosil qiladi, g'oyani ifodalaydi balki tadqiqot muammosini shakllantirishi va uni hal qilishi eng samarali usullarni tanlash imkoniyatini beradi.

**Asosiy qism.** «Ta'limni tabaqalashtirish» tushunchasiga ta'rif berganda uni individuallashtirish «individual yondashuv», «differentsiya», «differentsiallashgan yondashuv», «shaxsga yonaltirilgan yondashuv va boshqa kabi atamalar bilan birgalikda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'limni tabaqallashtirishda ma'lumot o'rganish usuliga muvofiq taqdim etish nazarda tutiladi. Bugungi kunda o'nlab o'rganish uslublari mavjud bo'lib, eng ko'p tarqalgan uslub VARK, ya'ni vizual, eshiritish, o'qish-yozish, kinestetik uslublar hisoblanadi. Ta'lim uslublari odatda talabalarning ma'lumotlarni qanday to'plashi, saralashi,

sharhlashi, tartibga solishi, ular haqida xulosa chiqarishi va keyin foydalanish uchun «saqlash»ini tasvirlash uchun keng qo'llaniladi. VARKda (eng mashhur o'rganish uslublar inventarlaridan biridir) ta'kidlanganidek, bu uslublar ko'pincha sensorli yondashuvlar bo'yicha tasniflanadi. Bunda talabalar ma'lumotni qayta ishlash va tartibga solish bo'yicha kontinuum tavsiflovchilar mavjud: faol-reflektiv, sezgi-intuitiv, og'zaki-vizual va ketma-ket-global. Etmishdan ortiq turli xil ta'lim uslublari jadvallari mavjud (Koffild), ularning aksariyati «o'quv uslublari bo'yicha testlar va qo'llanmalarning nashr etishga bag'ishlangan rivojlanayotgan sanoat» va «o'qituvchilar uchun kasbiy mahoratni oshirish seminarlari» (Rashler) tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Kategoriyalarning xilma-xilligiga qaramay, ta'lim uslublarining asosiy g'oyasi bir xil bo'lib, har birimiz o'ziga xos o'rganish uslubiga egamiz va biz ushbu uslubda ma'lumot taqdim etilganda yaxshiroq o'rganamiz. Misol uchun, vizual o'quvchilar har qanday mavzuni grafik yoki boshqa turdagi vizual tasvirlar orqali yaxshiroq o'rganadilar, kinestetik o'quvchilar o'quv jarayoniga tana harakatlarini jalb qilsalar, yanada samaraliroq o'rganadilar. «Optimal o'qitish talabalarning o'rganish uslublarini diagnostika qilish va shunga mos ravishda o'qitishni moslashtirishni talab qiladi» (Pashler).

VARK kabi o'rganish uslublari va inventarlarining mashhurligiga qaramasdan, mashg'ulotlarni o'rganish uslubiga moslashtirish o'rganishni yaxshilaydi degan fikrni tasdiqlovchi dalillar yo'qligini bilish muhimdir. Bu shunchaki «dalilning yo'qligi yo'qligining dalili degani emas» degan masala emas. Aksincha, yillar davomida tadqiqotchilar yuzlab tadqiqotlar orqali bu aloqalarni o'rganishga harakat qiladi.

O'rganish uslublaridan oliy ta'limning nomutaxassis yo'nalishlari o'zlashtiradigan «Mehnat huquqi» fani misolida tadqiq qilishga harakat qilamiz. Masalan, mehnat huquqi tushunchasini quyidagi tartibda tasniflaydigan bo'lsak bu vizual (fazoviy) ta'lim uslubidan foydalangan bo'lamiz. Vizual (fazoviy) uslubda: siz rasmlar, tasvirlar va fazoviy tushunishdan foydalanishni afzal ko'rasiz. Bu holatni tibbiy jihatdan asoslaydigan bo'lsak, «vizual»: miyaning orqa qismidagi oksipal loblar vizual tuyg'uni boshqaradi. Oksipal va perietal loblar fazoviy yo'nalishni boshqaradi. Mehnat huquqi tushunchasini oddiy qoida sifatida taqdim etilgan holati ham mukammaldir, ammo eslab qolish yuzasidan qaraganda, vizual uslubdan foydalanish ancha yuqori natijalarni ko'rsatadi.

Vizual va aural uslublardan foydalanilgan bo'lib, «Aural» (eshitish-musika): bunda siz ovoz va musiqadan foydalanishni afzal ko'rasiz. Bunda ma'lumot ham ko'rsatiladi va ham ovozli o'qiladi. Aural (eshitish): temporal loblar eshitish tarkibini boshqaradi. Temporal loblar musika uchun, ayniqsa, muhim bo'lib, miyaning o'rtadan pastki qismida joylashgan. Mehnat huquqi uslubini tasniflashda amaliy ko'rinishini gavdalandirish maqsadida mehnat jamoasini shakllantirib, ta'limning kinestetik uslubidan foydalanish mumkin. Bunda kinitestetik (jismoniy): tanangiz, qo'lingiz va teginish hissidan foydalanishni afzal ko'rasiz. Masalan, mehnat munosabatlarini tartibga solishda shartnomaviy, imperativ va tavsiyaviy uslubdan foydalanamiz. Buni kinestetik ta'lim uslubida tasniflash jarayonida didaktik va rolli o'yinlarda gavdalandiriladi.

Mehnat munosabatlarini tartibga solishda shartnomaviy, tavsiyaviy va imperativ usullarning qo'shib olib borilishini mantiqiy (matematik) uslubda tasniflashga harakat qilamiz: bunda talaba mantiq, fikrlash va tizimlardan foydalanishni afzal ko'radi. Mantiqiy (matematik uslub) miyaning Pariyetal loblar qismida joylangan bo'lib, ayniqsa, chap tomon, bizning mantiqiy fikrlashni boshqaradi.

Mehnat huquqi obyekti – mehnat huquqi subyektlari fuqarolar o'rtasidagi munosabati

tufayli fuqarolik huquqi bilan; qishloq xo'jaligi huquqi uzviy mehnat munosabati bilan; mehnat munosabatidagi boshqarish faoliyati ma'muriy huquq bilan; ish haqi, mukofotlar to'lashga qaratilganligi bilan moliya huquqi; mehnat natijalariga ko'ra rag'batlantirilish ijtimoiy ta'minot huquqi sohalari bilan bog'liqligi har tomonlama umumiy xususiyatlarga ega va uzviy bog'liq hisoblanadi.

Mehnat huquqi fani tamoyillaridan biri bo'lmish insonparvarlik tamoyili tasniflashda biz ijtimoiy (shaxslararo) uslubidan foydalanishga harakat qildik. Bunda talaba guruhlariga yoki boshqa odamlar bilan o'rganishni afzal ko'radi. Ijtimoiy uslubning rivojlanishi miyaning frontal va temporal loblar qismida joylashagan bo'lib, ijtimoiy faoliyatimizning ko'p qismini boshqaradi. Limbik tizim (gippokampusdan tashqari ko'rsatilmagan) ham ijtimoiy, ham yolg'izlik uslublariga ta'sir qiladi. Limbik tizim hissiyotlar, kayfiyat va tajovuzkorlik bilan bog'liq.

**Xulosa.** Quyidagi mehnat huquqining navbatdagi tamoyillarini tasniflashda biz yakka (intrapersonal) uslubdan qo'llashga harakat qilamiz. Bunda ma'lumotlarni yakka-tizimli shaklda tasvirlangan. Yakka (intrapersonal) uslubda talaba yolg'iz ishlashni va mustaqil o'rganishni afzal ko'radi. Miyada solitar soha bilan bog'liq bo'lib, frontal va pariyetal loblar va limbik tizim ham ushbu uslub bilan faol hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодекси. - Т., 2022.
2. Tursunov Y. Mehnat huquqi. Darslik. - T.: Moliya, 2002. - 279 b.
3. Usmanova M.A., Tursunov Y. Mehnat huquqi: Darslik. - T.: TDYUI, 2006.
4. Usmanova M., Tursunov Yu. Mehnat shartnomasi: O'quv qo'llanma. -T.: TDYUI, 2007.

---

**«STEAM-TA'LIM» YONDASHUVI ASOSIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Hazratkulova Gulyora Tojiboyevna, GulDU mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya.** Hozirda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini takomillashtirishni hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi.

**Tayanch so'zlar:** STEAM-ta'lim, konstruksiyalashtirish, ta'lim, integrativ, robototexnika, kompetensiya.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ ПОДХОДА «STEAM-EDUCATION»**

*Хазраткулова Гулёра Тожибоевна, соискатель ГулГУ*

**Аннотация.** Основной целью проводимых в настоящее время реформ в системе дошкольного образования является создание условий для всестороннего интеллектуального, нравственного, эстетического и физического развития детей дошкольного возраста, что требует совершенствования существующего порядка организации учебно-воспитательного процесса в дошкольных образовательных организациях и внедрения современных методов оказания дошкольных образовательных услуг.

**Ключевые слова:** STEAM-образование, конструирование, образование, интегративное, робототехника, компетенция.

**IMPROVING THE VISUAL PERFORMANCE OF PRESCHOOL OLDER CHILDREN ON THE BASIS OF THE «STEAM-EDUCATION» APPROACH**

*Bakirova Hilolaxon Botiraliyevna, GulSTU independent researcher*

**Abstract.** The main purpose of the reforms currently being implemented in the pre-school education system is to create conditions for the comprehensive development of preschool children in terms of social, moral, aesthetic and physical, which require the improvement of the existing order of the organization of the educational process in pre-school educational organizations, as well as the introduction of modern methods of provision

**Key words:** STEAM-education, design, education, integrative, robotics, competence.

**Kirish.** Dunyoda ta'limning axborotlashuvi davrida raqobatbardosh pedagogik kadrlarni tayyorlash, bo'lajak tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini ta'minlashning maqsadli modellari, mashg'ulotlarning pedagogik ssenariylari hamda multimediali elektron resurslari ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan.

**Asosiy qism.** Bo'lajak tarbiyachilarni tasviriy faoliyat fanini o'qitish jarayonida fan, texnika va texnologiya, muhandislik, dizayn elementlarini amaliyot bilan bog'lab o'rganishning «STEAM – ta'lim» (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – san'at, Mathematics – matematika) yondashuvi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [1]. Jahonda

bo'lajak tarbiyachilarini tasviriy faoliyat fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish, tasviriy faoliyat fani mazmunida kasblarga yo'naltirish, mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda tarbiyalanuvchilarning ijodkorligini tarbiyalash, ularning yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilariga robototexnika, modellash, konstruksiyalashtirish, programmalashtirish, 3D-loyihalashtirish, elektron ta'lim resurslari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishga alohida ahamiyat berilmoqda. Respublikamizda bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda tasviriy faoliyat o'rgatish nazariyasi va texnologiyalari fanini ta'lim jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish orqali takomillashtirish, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish, bo'lajak tarbiyachisining kasbiy metodik tayyorgarligi samaradorligini oshirishning me'yoriy asoslari yaratildi hamda moddiy texnika bazasi shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonida «STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berish, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan ta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish» [2] ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi. Natijada bo'lajak tarbiyachilarini tasviriy faoliyat fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish, shuningdek, ta'limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlashning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-sonli, 2018-yil 5-iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3775-sonli va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi «Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4199-sonli qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Buyuk donishmandlardan Arastu: tasviriy faoliyat, rasm chizish mashg'ulotlari, bolalarning har tomonlma rivojlanishiga turtki bo'ladi, deb aytgan. Bu g'oyani o'tmishning ilg'or pedagoglari Ya.A.Komeniskiy, I.G.Pestalossi, F.Frebel va boshqalar ham qo'llab quvvatlagan. Mehnat zavqi, mehnat rohati ulami, go'zallikning his qilmasdan etib bo'lmaydi. Lekin bu go'zallik faqat inson tomonidan idrok etiladigan go'zallik emas, balki u bunyod etilgan go'zallikdir. Umuman estetik tarbiyani soddalashtirilgan holda, bolalarga san'atdan saboq berish, deb tushunish xatodir. Estetik tarbiya, avvalo, sezgi organlarini va ijodiy qobiliyatini muntazam ravishda rivojlantirish demakdir. Bu qonuniyatga asoslangan har qanday faoliyat jonsiz va befoyda, chunki ijod qilish va zavqlanishdan iborat bo'lgan mehnat rohati shu mehnatning hamda fanning so'ngi maqsadini tashkil etadi. Tegishli adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga tasviriy faoliyatni o'rgatish amaliyoti dunyo miqyosida ma'lum tajribalarga ega. Shu nuqtai nazardan xorijlik olimlar N.P.Sakulina, T.S.Komarova, T.G.Kazakova, Z.S.Lishtvan, N.A.Kurochkina, L.A.Paramonova, T.N.Doronova, Z.A.Bogateyeva, N.B.Xolezova,

N.B.Kosterin, B.M.Morshak, V.A.Slivok, E.I.Vasilyeva, E.A.Flerina, R.M.Chumicheva, G.S.Shvayko, N.Ya.Shibanov va boshqalarning, o'zbekistonlik tadqiqotchilar E.A.Nanishvili, T.L.Chabrova, G.G.Kornevalarning ilmiy izlanishlari bizning tadqiqotimiz uchun muayyan qiziqish uyg'otdi. Ular o'z ilmiy tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli yosh guruhlardagi bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodlarini bolalar ijodiy qobilyatlarini rivojlantirish va unga rahbarlik qilish, qurish-yasash, rasm, qirqib-yelimlash, loy ishi mashg'ulotlarini rejalashtirish va olib borishning ilmiy metodik asoslarini ishlab chiqqanlar. Xususan, N.M.Zubaraeva bolalarni estetik tarbiyalashda tasviriy san'atning natryumort va peyzash janrlarining imkoniyatlarini ochib bergan. Ilmiy tadqiqot ishlarini va metodik adabiyotlarni o'rganish, ularni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hech bir tadqiqotchi ilmiy izlanishlari jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy san'at turlaridan saboq berish, ularni bir-biridan farqlashga o'rgatish, tasviriy savodxonlik elementlaridan foydalanishni o'rgatish, shuningdek, tasviriy savodxonlik elementlaridan foydalanishni o'rgatish, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga o'qishga tayyorlash bo'yicha tadqiqot ishlarini olib bormagan. Shuning uchun ham biz tanlagan mavzu mamlakatimiz pedagogika nazariyasining dolzarb muammolari sirasiga kiradi. Shuningdek, tadqiqotlar davomida yaratilgan qo'llanmalar bolalarning maktabga tayyorgarligini tekshirishda (tashxis qilishda) D.Cheypi, Kern-Yirasek, L.A.Venger kabi olimlar ishlab chiqqan va amalda qo'llanib kelinayotgan testlardan maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabga tayyorgarlik darasasini aniqlash jarayonidan muvaffaqiyatli o'tishlarida yordam beradi. Lekin bu texnologiyalardan bolalar tasviriy savodxonlik elementlarining shakllantirish jarayonida foydalanish o'ziga xos «moslashuvlar»ni taqdim etishni talab qiladi. Shuning uchun ham bu yo'nalish maxsus tadqiqotning ilmiy xulosalari asosiga qurilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maygi «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4312-sonli Qarorining 1-ilovasi 10-bandida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta'lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o'qitish asoslarini joriy etish ko'zda tutilgan [3]. Bu esa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari oldiga STEAM texnologiyasini bilish vazifasini qo'yadi. Ilk bor 2014-yilda Quddusda bo'lib o'tgan «STEAM forward» xalqaro konferensiyasida bolalarni STEAMga jalb qilish ta'limda maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarni bolalar bog'chalariga kiritish kerak g'oyasi ilgari surilgan [4]. Maktabgacha ta'limda STEAM o'qitish asoslari qanday tashkil etiladi?

STEAM ingliz tilida bu – S – science, T – technology, E – engineering, A – art va M – mathematics. Ingliz tilidan o'zbek tiliga o'g'irilganda, bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotganini anglab yetishimiz darkor. Shuning asosda bugungi kunda STEAM ta'lim tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek yuqoridagi 5 ta sohani yagona ta'lim tizimida integratsiyalashuviga asoslangan. STEAM yondashuvi o'quv samaradorligiga qanday ta'sir qiladi? Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Nafaqat guruh devorlaridagi o'zgarishlar balki, o'zgaruvchan dunyo bilan ham hamqadam bo'lishni talab etadi. STEAM yondashuvining boshqa ta'lim texnologiyalaridan asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini

ishlatishni amalga oshitishni nazardatutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar olgan bilimlarni o'zlari – uqib oladilar. STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzidir. Shu bilan birgalikda STEAM ta'lim quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi [5]: aniq soha va mavzular bo'yicha integratsion jarayonni rivojlantirish; bolalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni hal qilish; haqiqiy hayotda ilmiy va texnik bilimlarni qo'llash; bolalarda o'z kuch-qobiliyatlariga ishonchni shakllantirish; faol muloqot va jamoaviy ish olib borish; texnik fanlarga qiziqishni uyg'otish; yangi loyihalarga ijodiy va innovatsion yondashish; bolalarni hayotning zamonaviy texnologik bilimlarini boyitib, yangiliklar yaratishga tayyorlashdan iborat. Belgilangan vazifalar asosida STEAM ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar amalda bajargan faoliyatlarini ijodiy fikrlash orqali tushuntirib berishga harakat qiladilar. STEAM yondashuvi bizning ta'lim va ta'limga bo'lgan qarashimizni o'zgartirmoqda. Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, bolalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lim-tarbiya vazifasini tashkil etadi.

Bolaning rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan markazlar faoliyati nafaqat bolani mustaqil hayotga tayyorlaydi balki, bugungi kunni samarali o'tishi, o'sish va rivojlanish jarayoni tabiiy holda kechishi uchun zarur shar-sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi. Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish tamoyillari, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishga quyidagi talablar qo'yiladi: eng avvalo, markazlarda toza havo, toza joy, normal harorat va yorug' xonalarda tashkil etilishi lozim; har bir markaz bolani noxush, kutilmagan hodisalardan saqlaydigan xavfsiz joyda bo'lishini ta'minlash; markazlarda bolalarning harakat, tajriba, va kashf qilishlarini rag'batlantirish, buning uchun zarur shar-sharoitlar yaratish. Masalan: jihozlarning yetarli bo'lishi; markazlardagi barcha jihoz va qo'llanmalar bolaning bo'yi yetadigan balandlikda bo'lishi hamda bola ulardan bimalol foydalana oladigan bo'lishi kerak; markazlardagi faoliyat davomida bolalar o'rtasida hamkorlik va muloqotni rag'batlantirish. Bunda kichik guruhlar, juft bo'lib va o'yin o'ynashlariga sharoit yaratilgan bo'lishi kerak; bolalarda muassasaga tegishlilik, markazlarda jihozlarni o'z joyida turishi, mavzular bo'yicha taqsimlanishi zarur; markazlar mazmunli qismlarga bo'linishi va yerda bola uchun kerakli va qiziqarli ashyolar, jihozlar, o'yinchoqlar, tarqatmalar bo'lishi; markazga tegishli mebel bolaning jismoniy holatiga va erkin harakatlana olishiga to'siq bo'lmaydigan qilib joylashtirilgan bo'lishi, bola o'ziga tegishli jihozlarni bimalol harakatlantira olishi, nogironlarga mos mebel ham bo'lishi kerak; markazlardagi rivojlantiruvchi muhit tarbiyachilarga ham, bolalarga ham qulay bo'lishi kerak; bolaga erkin tanlash imkoniyatini berish va mustaqil qaror qabul qilishga undash muhim; bolaning o'z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishiga yordam berish zarur; markazlardagi bolalar faoliyati samarasi kundalik qilinadigan ishlarni biror jadvalda bola ko'ra oladigan va tushunadigan holatda ilib qo'yish [6, 71-b.]. «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari» va «Ilk qadam» o'quv dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Albatta, maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi innovatsiyalar o'tonalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari guruhlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, atrofda kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarida tashkil etiladigan STEAM yondoshuvining asosiy maqsadidir. Bunda bola rivojlanishining o'ziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi



faoliyat turlari, ya'ni ularning aqliy, ijtimoiy va ma'naviy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, markazda tashkil etilgan tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o'z g'oyalari tajribada sinab ko'rish hohish-istaklariga qaratilgan. Faoliyatni amalga oshirish jarayonida bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'zlari javob topishiga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Negaki, savolga javob izlash barobarida bolada qiziqish, dalillash va e'tibor berish avtomatik tarzda faollashadi. Bunda tarbiyachining roli savolni soddalashtirmasdan bolani qoniqtiradigan javob topish yo'llarini birgalashib qidirishdan iboratdir. Rivojlanish markazlaridagi ta'lim jarayonida bolalarning o'zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsada, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin.

Bo'lajak tarbiyachilarining tasviriy faoliyat fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning mazmuni aniqlangan, shakl, metod va vositalari ishlab chiqish; «STEAM-ta'lim» yondashuvi asosida tasviriy faoliyat fanidan metodik ta'minoti, shuningdek, Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv dasturlari va o'quv-metodik majmuasi ishlab chiqish; bo'lajak tarbiyachilarining tasviriy faoliyat fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar shakllantirilgan; bo'lajak tarbiyachilarining tasviriy faoliyat fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha darslik, elektron ta'lim resurslari yaratish.

**Xulosa.** Maktabgacha ta'limda ta'limning zamonaviy usullarini joriy etish bolalarni ta'limning keyingi bosqichiga sifatli tayyorlashning garovidir. O'zbekistonda «STEAM-ta'lim» muhitini shakllantirishga ehtiyoj boshqa mamlakatlardagi kabi dolzarb hisoblanadi. Hozirda investorlar, biznes-homiylar, yirik biznes vakillarining ilmiy-innovatsion loyihalarga qiziqishi ortib boryapti. Ilg'or ishlanmalarning paydo bo'lishi uchun, shubhasiz, STEAM-markazlar yaratilishi, robot texnikasi kabi fanlar kiritilishi, dasturlashtirish asoslarini informatika faniga integratsiyalash, mavjud tajribadan pedagoglarni mavzuviy hamjamiyatlarga birlashtirish yo'li bilan foydalanish zarur.

### Adabiyotlar:

1. <https://steameducation.eu/bookinginformation.html>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сонли «Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида»ги Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 29.04.2019 й. 06/19/5712/3034-сон.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maygi PQ-4312-sonli «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori.
4. <https://zen.yandex.ru>
5. Maxmutazimova Yu.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi (STEAM ta'lim texnologiyasi asosida). - T., 2021.
6. Ilk qadam: Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi / Tuzuvchilar: И.В.Грошева va boshq. - T.: BMT Bolalar jamg'armasi (YUNISEF), 2018.

---

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA O'QUVCHILARNING RIVOJLANISH DARAJALARINI TASHXISLASH-BAHOLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

*Raximova Shahodat Azadovna, TDIU*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko'nikmalarini shakllantirish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lish, bo'lajak o'qituvchining bilish mayllari, ehtiyojlari, faolligi, mustaqillik, tashabbuskorlik, nostandart tafakkur, improvizatsiya kabi shaxsiy-ijodiy kompetenligi masallari haqida fikr yuritiladi. Talabalarda ixtirochilik ijodkorligini amalga oshirishning fikrlash faoliyatini produktiv va reproduktiv xususiyatlar almashinuviga bog'liq bo'lgan pedagogik jarayon davrlari, yo'nalishlari, bosqichlari haqida ma'lumot berilgan. Ushbu maqoladan keng ilmiy jamoatchilik, tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar va talabalar metodik manba sifatida foydalanishlari mumkin.

**Tayanch so'zlar:** bo'lajak o'qituvchi, pedagogik jarayon, oliy pedagogik ta'lim, tashxislash-baholash, kasbiy rivojlanish, ijodkorlik, faollik, rivojlanish darajasi.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ВЫЯВЛЕНИЯ И ОЦЕНКИ УРОВНЕЙ РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

*Рахимова Шаодат Азадовна, ТГЭУ*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются такие примеры личностно-творческой компетентности будущего учителя, как формирование у будущих учителей навыков диагностики-оценки уровней развития учащихся, умения обосновывать и отстаивать свою точку зрения, познавательные наклонности, потребности, активность, самостоятельность, инициативность, нестандартное мышление, импровизация. Дана информация о периодах, направлениях, этапах педагогического процесса реализации изобретательского творчества у учащихся, связывающих мыслительную деятельность с обменом продуктивными и репродуктивными свойствами. Эта статья может быть использована в качестве методического ресурса широким научным сообществом, исследователями, преподавателями и студентами.

**Ключевые слова:** будущий учитель, педагогический процесс, высшее педагогическое образование, диагностика-оценка, профессиональное развитие, творчество, активность, уровень развития.

**PEDAGOGICAL CONDITIONS OF FORMING THE SKILLS OF IDENTIFYING AND ASSESSING STUDENTS' DEVELOPMENT LEVELS IN FUTURE TEACHERS**

*Rakhimova Shaodat Azadovna, TSEU*

**Abstract.** This article discusses such examples of personal and creative competence of a future teacher as the formation of diagnostic skills in future teachers-assessment of the levels of development of students, the ability to justify and defend their point of view, cognitive inclinations, needs, activity, independence, initiative, non-standard thinking, improvisation. Information is given about the periods, directions, stages of the pedagogical process of implementing inventive creativity in students, linking mental activity with the exchange of productive and reproductive properties. This article can be used as a methodological resource by a wide scientific community, researchers, teachers and students.

**Key words:** future teacher, pedagogical process, higher pedagogical education, diagnostics-assessment, professional development, creativity, activity, level of development

**Kirish.** Bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko'nikmalarini shakllantirish – shaxsning akmeologik darajadagi faoliyat bosqichi bo'lib, bu qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning

fikrlarini ijodiy qayta idrok etish, refleksiya, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lishga tayanadi.

**Asosiy qism.** Shaxs ijodiy faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini bilish mayllari, ehtiyojlari, faolligi, mustaqillik, tashabbuskorlik, nostandart tafakkur, improvizatsiya kabilar tashkil etib, ular bevosita shaxsning yo'nalganligi va ijodiy qobiliyatlari bilan uyg'unlashadi. Oliy ta'lim muassalaridagi ta'lim jarayonining asosiy vazifasi esa, shaxsning mana shu ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratish va samarali metodik ta'minotni vujudga keltirishdan iborat. Bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi: birinchidan, bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta'lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta'minlash. Ikkinchidan, bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g'oyalarni bag'rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag'batlantirish. Uchinchidan, o'quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish. To'rtinchidan, bo'lajak o'qituvchilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash. Beshinchidan, ijodiy faoliyatni rivojlantirishning asosi bo'lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg'ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etishdan iboratdir.

V.E.Alekseev hamda uning fikrlarini texnik ijodkorlik faoliyati bilan bog'lab yoritgan N.N.Alimovlarning ilmiy izlanishlarida o'quvchilardagi texnik ijodkorlikni shakllantirishning didaktik chizmasi uch bosqichda ifodalanadi. Bular tahliliy, yaratuvchilik va yakunlovchi bosqichlar bo'lib, ular maqsadni aniqlashdan maxsus buyum yaratish va uni sinovdan o'tkazishgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi.

Tadqiqotchi Sh.S.Sharipov talabalarda ixtirochilik ijodkorligini amalga oshirishning fikrlash faoliyatini produktiv va reproduktiv xususiyatlar almashinuviga bog'liq bo'lgan 4 davrni ajratadi: birinchi bosqichda talabalardagi fikrlash faoliyati mahsuldorlik xususiyatiga ega bo'ladi, bunda mavjud muammoni anglash, idrok qilish, yechimini topishga ehtiyoj sezish jarayoni amalga oshadi. Ixtirochining bilim va tajribasi qanchalik ko'p bo'lsa, bu jarayon shu qadar kam vaqt talab etib, reproduktiv xarakterga ega bo'lgan ikkinchi davr – muammo yechimini topishga o'tiladi. Uchinchi davrda hal qilinishi lozim bo'lgan muammo va tanlangan yechim o'zaro bog'lanadi va ixtiro kontseptsiyasi taklif etiladi. To'rtinchi bosqich – reproduktiv davrda taklif etilayotgan yechimni asoslash uchun hisoblash va tajriba-sinov ishlari bajarilib, ixtiro g'oyasi ishlab chiqishning uchinchi davrida amalga oshirilgan ishlarning natijasi nazariy va amaliy isbotlab beriladi. Keltirilgan ma'lumotlarda ifodalangan bosqichlar shaxs texnik ijodkorligini shakllantirish uchun xizmat qilsa-da, bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni ham aynan shu bosqichlar asosida kechadi. Faqat bunda pedagogik faoliyatning o'ziga

xos xususiyatlari va mantiqiy tuzilishi, pedagogik ijodkorlikning tatbiqi doirasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur fikrlardan kelib chiqqan holda, biz tadqiqot doirasida bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko'nikmalarini shakllantirish bosqichlarini quyidagicha ifodaladik: 1) Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy faoliyat, ijodiy faollik va ijodkorlikka bo'lgan moyillikni qaror toptirish, ta'limdagi innovasiyalarning mohiyatini anglash va yangi g'oyalarning tug'ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi. 2) Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Bo'lajak o'qituvchilardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko'nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi. 3) Novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llash, baholash, tahlil qilish, omalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo'naltirilgan strategik rejalarni tuzish bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Ko'rsatib o'tilgan bosqichlarda bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy masalalari bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar, ijodiy qobiliyatlarni, bilish mustaqilligi, yangicha dunyoqarash, yangiliklarni yaratish va ommalashtirish ko'nikmalarini shakllantirish vazifasiga alohida e'tibor qaratiladi. Darhaqiqat, bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko'nikmalarini shakllantirish shaxs ijodkorligini shakllantirishning asosi bo'lib, uzoq muddatli murakkab jarayon hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchi shaxsida o'quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko'nikmalarini shakllantirish uchun belgilangan maqsadga ko'ra, uning mazmunini o'zlashtirish imkonini beruvchi samarali shakl, metod va vositalarning tanlanilishini talab qiladi. Ana shunday metodik bazani yaratish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, bo'lajak o'qituvchilarda umumlashgan psixologik va uslubiy bilim, iqtidor va ko'nikmalarni shakllantirish, o'z tajribalarini ijodiy nuqtai nazardan yanada mustahkamlash, real haqiqiy amaliyotdagi sharoitda sinash va amaliy ko'nikmalarni yangi bilimlar bilan yanada boyitish maqsadida innovasion o'qitish jarayonidan foydalaniladi. Bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko'nikmalarini shakllantirishda innovasion o'qitish metodlari xususan, talabalar o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalari muhim ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, tadqiqot ishlari davomida bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan chora-tadbirlar yuqorida keltirilgan bosqichlar misolida quyidagi yo'nalishlarda ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi.

Birinchi yo'nalish, bo'lajak o'qituvchilarni «tashxislash», «ijodiy faollik», «pedagogik tashxislash» kabi tushunchalarning mazmuni, shuningdek, ta'limdagi innovasion islohotlarning mohiyati bilan tanishishi, ularni anglash, bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko'nikmalarini shakllantirishga bo'lgan moyillikni hosil qilishga xizmat qiladigan nazariy bilimlarni o'zlashtirish imkonini beradigan chora-tadbirlar.

Ikkinchi yo'nalish, talabalarda ijodiy-izlanish, tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan amaliy chora-tadbirlar.

Uchinchi yo'nalish, o'zlashtirilgan nazariy bilimlar va shakllangan ko'nikma, malakalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash

---

ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini tashxis qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi.

**Xulosa.** Ma'lumki, bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim jarayonida innovasion metodlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholashga oid bilimlarini boyitishda innovasion usullardan foydalanish talab etiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonnning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi «2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi»gi PF-134-sonli Farmoni.

3. Safarova R.G. Pedagogikada madaniyatshunoslik yondashuvining rivojlanish tendensiyalari // Zamonaviy uzluksiz ta'limni raqamlashtirish: pedagogika sohasidagi zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. - Andijon, 2022. - B. 20-23.

4. Борисова Н.В. Педагогические условия развития функции самореализации личности старшеклассников в учебно-деловой игре: Дис. ... канд. пед. наук. - Волгоград, 2001.

5. Ворошилов В.В. Организационные и педагогические условия освоения педагогами способов проектной работы: Дис. ... канд. пед. наук. - М., 2000. - 149 с.

---

## OLIV TA'LIM TIZIMIDA BOSHQARUV FAOLIYATI NAZORATINI MODERNIZATIONALASH

**Asatova Shahzodaxon Zabihillo qizi**, *TDIU mustakil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Bu makolada oliy ta'lim tizimida boshkaruv faoliyati nazoratini modernizing tugrisifa fikr yuritilgan.

**Tayanch suzlar:** *oliy ta'lim, boshkaruv faoliyat, modernizatsiya, globallashuv, talaba, o'qituvchi, nazarat.*

## МОДЕРНИЗАЦИЯ КОНТРОЛЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Асатова Шахзодахон Забихилло кизи**, *независимый исследователь ТГЭУ*

**Аннотация.** В данной статье рассмотрена модернизация управления деятельностью в системе высшего образования.

**Ключевые слова:** *высшее образование, управление деятельностью, модернизация, глобализация, студент, преподаватель, контроль.*

## MODERNIZATION OF CONTROL OVER MANAGEMENT ACTIVITIES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

**Asatova Shakhzodakhon Zabikhillo**, *independent researcher of TSEU*

**Abstract.** In this article, the focus is on modernizing the control of management activities in the higher education system.

**Key words:** *higher education, management activity, modernization, globalization, student, teacher, supervision.*

**Kirish.** Zamonaviy globallashuv sharoitida ta'lim japayoni mamlakat intellektual calohiyatini oshipishda muhim o'pin tutadi. Respublikamizda ushbu cohani pivojlantipish macalalapi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'picida»gi qonunida belgilab bepilgan.

**Asosiy qism.** Oliy ta'limning maqcadi pecpublikamizning ijtimoiy-iqticodiy va madaniy pivojini ta'minlashga, o'zi tanlagan mutaxaccilik bo'yicha bozop iqticodiyoti shapoitida muctaqil ishlashga layoqatli, yuqopi malakali, intellektual bilim va calohiyatga ega bo'lgan paqobatbapdosh kadplapni tayyoplashdan ibopat. Ta'lim bepish japayoni, uning acociy ishtipokchici o'quvchi va o'qituvchi canaladi. Shuningdek, ta'lim japayoni ma'lum tashkiliy shaklda (ta'lim muaccacacida) amalga oshipilganligi boic, uni amalga oshipish ma'mupiy faoliyat opqali olib bopiladi. Binobapin, o'quv japayonida muaccaca – boshqapuv opgani ham ishtipok etadi. Respublikamizda so'nggi yillarda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, tashkilotning faoliyatidan manfaatdor bo'lgan tomonlar muammolarini hal qilishga imkon beradigan dinamik muvozanatni o'rnatish, muhitni tahlil qilish, missiyalarni va maqsadlarni belgilash, strategiyanı tanlab olish va amalga oshirishning meyorıy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. «Mutaxassislikka oid nazariy va amaliy bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash va kengaytirish hamda ularni muayyan masalalar va muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qo'llash» ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu borada strategiyanı amalga oshirishning nazorat qilinishi va baholanishining dinamik jamlanmasini yanada takomillashtirish imkoniyati kengaytiriladi.

Hozirgi vaqtda jamiyat hayotining barcha sohalarida boshqaruvning ta'siri sezilarli holda o'sdi. Shuning uchun zamonaviy boshqaruv tamoyillari, shakllari va metodlari ilmfan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat muassasalarida faol ravishda qo'llanilib, bular haqida yaqin vaqtlargacha hatto tasavvur qilish ham murakkab edi. Boshqaruv (menejment) san'atini egallagan, kasbiy tayyorlangan kishilar sohasi bo'lib hisoblanishi haqidagi dalilning tan olinishi ro'y bermoqda. Bundan kelib chiqib, zamonaviy boshqaruvda eng muhim ahamiyatga odam, uning iqtidori, qobiliyatlari, bilimi va mahorati ega bo'lib bormoqda. Boshqaruv sifati ham faoliyat natijalarini, ham ularga erishish yo'llarini va vositalarini tanlab olishni belgilab beradi hamda tashkilot oldida turadigan vazifalarga samarali hal qilish uchun yaxshi tashkil etiladigan va o'zaro uyg'unlikdagi jamoa zarur bo'lib, bunda uning har bir a'zosi o'z ishini biladi va uni bajaradi, bir maromda, uzilishsiz ishlaydi, muammolarning ko'pchiligini nizolarsiz hal qiladi, yakuniy natijalardan manfaatdor bo'ladi. Oliy ta'limni davlat tomonidan boshqarishdagi yangi paradigma oliy ta'lim muassasalari orasida davlat tomonidan subsidiyalar berishda taqsimotning raqobatli mexanizmlarini yaratish, davlat oliy ta'lim muassasalarining ular maqomi va moliyalashtirish darajalari bo'yicha differensiallashtirilishini ko'zda tutadi. Bugungi kunda ma'lum bir darajada umid-ishonch oliy ta'lim muassasalari huzurida shakllantirilayotgan maqsadli kapital fondlariga berilib, ularning daromadlari hisobiga kelgusida oliy ta'lim muassasasini rivojlantirish rejalashtiriladi. Ta'lim japyayonini boshqapish tizimining acociy vazifaci buyupmachilap (jamiyat, kopxonalap va tuzilmalap) uchun yuqopi malakaga ega bo'lgan, hap tomonlama yetuk, bapkamol mutaxaccic kadplapni tayyoplab bepish hicoblanadi. Ushbu japyayonda tizimni tashkil etish quyidagi bocqichlapni o'z ichiga oladi: obyektning tizim ucti va tizim octi elementlapini aniqlash; obyektning bosh vazifacini aniqlash; tizim tapkibiy tuzilmacini shakllantipish. Ta'limda boshqapuv camapadopligi uning tapkibiy vazifalapi canalgan – pejalashtipish, tashkil etish, o'qitish, tapbiyalash, muvofiqlashtipish, taptiblashtipish, motivlashtipish, hicob va nazopat qilishlap camapali bo'lishining acoci canaladi. Bundan ko'pinib tupibdiki, ta'lim japyayonini boshqapishda an'anaviy vazifalapdan tashqapi, o'qitish va tapbiyalash kabi vazifalap ham muhim o'pin tutadi.

Ta'limda boshqapuv camapadopligini aniqlashda pedagogik shartlarning uch guruhi ajratiladi: tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik va didaktik.

Tashkiliy-pedagogik shartlar guruhiga OTM ta'lim jarayoni subyektlari va o'quv faoliyatining tashkiliy shakllari o'rtasidagi o'zaro ta'sir qilish usullari to'plami kiradi, ular zamonaviy boshqaruv vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun mazmuniy elementlarini maqsadli rejalashtirish natijasidir.

Psixologik-pedagogik shartlarga zamonaviy boshqaruv vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirishga ta'sir qilishning aniq pedagogik chora-tadbirlarini ta'minlashga va OTM ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga yordam berishga qaratilgan bir qator shartlarni olamiz. Shu bilan birga, ta'sir mustaqillik, fikrlashning tanqidiyligi va samaradorligi, harakatlarni haqiqatan ham baholash, umumlashtirish va yakuniy natijaga erishish kabi professional muhim shaxs xususiyatlariga ta'sir qiladi.

Didaktik shartlar guruhi – bu umumiy maqsadni amalga oshirishga (OTMda zamonaviy boshqaruv vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish) qaratilgan mazmun elementlarini, boshqarishning tashkiliy shakllari va usullarini tanlash, loyihalash, ulardan foydalanish natijasidir. Bu zamonaviy boshqaruv vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan va amaliy ishlar majmuini, muammoli-vaziyatli vazifalarni, baholash vositalarini o'z ichiga olgan integral amaliyotga yo'naltirilgan

texnologiyani amalga oshirishga yordam beradigan shart-sharoitlar alohida o'rin tutadi. O'zbekistonda tub o'zgapishlap strategiyaci nafaqat mahalliy qadpiyatlap, tajriba va an'analap, balki ilg'op xopij tajpibacidan foydalanishga acoclangan. O'zbekicton milliy ta'lim tizimini icloh qilish japayonida yuqopida qayd etilgan uchta ta'lim modeli, avvalambop, Ociyo ta'lim modelining elementlapi muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan boshqa mamlakatlap yutuqlapini hicobga olish va ijodiy foydalanishga intilmoqda. Oliy ta'lim muassasasi faoliyatini nafaqat baholashga, balki uni boshqa oliy o'quv yurtlari bilan taqqoslashga ham imkon beradigan eng birinchi qadamlardan biri bo'lib «Oliy ta'lim muassasalari reytingi» axborot-tahliliy tizimining yaratilishi sanaladi. Bu tizim mana shunday tizimlarni ishlab chiqish uchun tayanch sifatida tavsiya etilgan va oliy o'quv yurtlari amaliyotida foydalaniladi. Bu reyting qisman mutaxassislarni tayyorlashga davlat buyurtmasining hajmi va tuzilmasini aniqlash uchun qo'shimcha axborotlar manbai bo'lib ham xizmat qiladi. Reytingni aniqlash uchun ma'lumotlar har yili oliy ta'lim muassasalari tomonidan oliy ta'limni boshqarish organiga taqdim etiladi, u esa, o'z navbatida, rasmiy maqom bilan reyting natijalarini e'lon qiladi. Bunda barcha oliy ta'lim muassasalari o'z yo'nalishlari bo'yicha mos holdagi guruhlariga ajratiladi. Reytingni aniqlash metodikasi «Oliy o'quv yurtlarining reytingi haqida»gi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan. Mazkur metodika oliy ta'lim muassasasining o'qitish sifati va potensialini baholashga yo'naltirilgan hamda unda bir necha o'nlab ko'rsatkichlar va alohida belgilar mavjud bo'lib, ular bo'yicha professor-o'qituvchilar tarkibining sifatidan boshlab to talabalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tuzilmasi ko'rsatkichlarigacha mezonli qiymatlarni hisoblash amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasasining potensiali reytingi uchta – intellektual potensial, moddiy va ijtimoiy-madaniy asos kabi xususiy ko'rsatkichlar guruhi orqali hisoblanadi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasasi faoliyatini baholash ko'rsatkichlarining bir nechta asosiy metodikalari va tizimlari mavjud. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini baholash, asosan, oliy kasbiy ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga ko'maklashadi, olinadigan axborotlar esa, tashqi foydalanish uchun mo'ljallanadi. Oliy ta'lim muassasalarini baholash va ularni reytinglash tizimini tavsiflay turib, shuni ta'kidlab o'tish lozimki, oliy ta'lim muassasasi ish faoliyatining baholanishida hal qiluvchi omillar bo'lib uning bitiruvchilariga ish beruvchilar tomonidan talabning mavjudligi, ularning ish haqi va karyeraviy olg'a siljish imkoniyatlari hisoblanishi kerak. Bu talablar hozirda xorijiy oliy ta'lim muassasalarining reyting tizimlarida qo'llanib kelinmoqda. 2003 yilda Jahon banki dokladida ko'rsatib o'tilganidek, yaqin kelajakda an'anaviy ko'rsatkichlarni (o'quv-metodik ta'minot, o'quv-laboratoriya, moddiy-texnika baza hamda shu kabilar) baholashga asoslanadigan attestatsiyaga yondashuv qayta ko'rib chiqilishi kerak va bunda bitiruvchilarning malakasiga (kompetensiyalari) urg'u berish kuchaytiriladi. Oliy ta'lim muassasasi ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida quyidagi – yaxlitlik, maqsadni belgilash, ochiqlik, tuzilmaviylik, iyerarxiklik, tavsiflashning ko'pligi kabi xossalarga ega bo'ladi.

Xulosa. Boshqaruvga tizimli yondashuv oliy ta'lim muassasasining faoliyatini o'zaro bog'langan jarayonlar tizimi sifatida tushunishni ko'zda tutadi. Faoliyatni takomillashtirish bo'yicha o'tkaziladigan chora-tadbirlar tashkilotning strategik maqsadlari bilan bog'lanishi zarur. Tizimli yaxshilanishlarga yo'naltirilganlik tashkilotda hal qilinayotgan vazifalar ichida yetakchilik qilishi lozim bo'lib, bu lokal xususiyatdagi epizodik darajagacha tushib ketmaslikka imkon beradi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarining faoliyati samaradorligini baholashga yordam beradigan va ta'lim muassasasining



investitsion salohiyatidagi o'lchov tizimi bo'lib xizmat qila oladigan ko'rsatkichlarning yagona tizimi mavjud emas. Mana shunga bog'liq holda ta'lim xizmatlari bozorini tartibga solish tizimining shakllantirilishini yakuniga yetgan deb hisoblash mumkin emas.

#### **Adabiyotlar:**

1. 2020 йил 23 сентябрдаги Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 августдаги ПФ-5789-сонли «Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг услуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида»ги Фармони.

3. Зайнутдинов Ш.Н., Очиллов А.О. Олий таълим муассасаларини бошқариш самарадорлигини баҳолаш // Иқтисодиёт ва таълим. - Т., 2010. - 2-сон. - Б. 112-117.

4. Хакимова М.Ф. Кадрлар тайёрлашда услуксиз таълим, фан ва ишлаб чиқаришнинг ўзаро боғлиқлиги // Непрерывное образование в интересах устойчивого развития: новые вызовы: Материалы международной конференции. 21-24 мая 2019 года. - Чирчик, 2019. - С. 345-347.

5. Хакимов Ф.Қ. Олий таълим тизими фаолиятини ташкил этишда уни бошқариш самарадорлигини баҳолаш // Педагогик маҳорат. - Бухоро, 2021. - Б. 16-19.

6. Хакимов Ф.Қ. Олий таълим сифатини оширишда баҳолашнинг мукаммаллашган моделларни қўллашнинг ўрни // Тафаккур зиёси. - Ж.: ЖизД-ПУ, 2021. - 3-сон. - Б. 31-34.

7. Шамуратов Р.Ш. Олий таълим тизимидаги замонавий стратегик бошқарув: тушунчалар ва ёндашувлар // Таълим, фан ва инновация. - Т., 2019. - 4-сон. - Б. 100-102.

---

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARNING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA STEAM YONDASHUV**

**Tilavova Sayora Bekmurotovna**, *Chirchiq davlat pedagogika universiteti erkin izlanuvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarga ekologik ta'lim berish, STEAM ta'limi fanlararo va o'quvchilarni amaliyotga yo'naltirish fanlararo hamkorlik, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish, sinfdan tashqari mustaqil ta'lim orqali fanlararo ekologik madaniyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** *STEAM, ta'lim, texnologiya, didaktika, savodxonlik, amaliy, yondashuv, ta'lim dasturi, loyiha, integratsiya.*

**ПОВЫШЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ЧЕРЕЗ STEAM ПОДХОД**

**Тилавова Сайора Бекмуратовна**, *свободный соискатель Чирчикского государственного педагогического университета*

**Аннотация.** В данной статье рассматривается обеспечение студентов экологическим образованием, STEAM-образование междисциплинарное и ориентирование студентов на практику, междисциплинарное сотрудничество, творческие способности, формирование междисциплинарной экологической культуры посредством самостоятельного внеаудиторного обучения.

**Ключевые слова:** *STEAM, образование, технология, дидактика, грамотность, практика, подход, образовательная программа, проект, интеграция.*

**INCREASING THE ENVIRONMENTAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY EDUCATION STUDENTS THROUGH A STEAM APPROACH**

**Tilavova Sayora Bekmurotovna**, *freelance researcher of the Chirchik state pedagogical university*

**Abstract.** This article discusses the provision of schoolchildren with environmental education, interdisciplinary STEAM education and orientation of students to practice, interdisciplinary cooperation, creativity, the formation of an interdisciplinary environmental culture through independent extracurricular learning.

**Key words:** *STEAM, education, technology, didactics, literacy, practice, approach, educational program, project, integration.*

**Kirish.** STEAM birinchi marta 1990-yillarda Amerika Milliy Tashkiloti tomonidan kiritilgan. STEAM (fan, matematika, muhandislik va texnologiya)da tavsiya etilgan va joriy qilingan ta'lim AQSh xalq ta'limining asosiy qismi sifatida. Hozirgi vaqtda STEAM ta'limi Avstraliya, Kanada va Singapurda, keyinchalik Frantsiyada Buyuk Britaniya, Avstraliya, Isroil, Xitoy, Kanada va Turkiya. STEAM yondashuvining elementlari maktabgacha ta'lim va maktabda robototexnika yuqori texnologiyali sanoatini rivojlantirish joriy etildi. Mazkur ishda oliy ta'lim bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning ekologik kompetentligini STEAM yondashuv asosida takomillashtirish omillaridan foydalanishning mazmuni maksadi, vazifalari va tamoyillari o'rganildi. Tadkikot davomida tizimli yondashuv va tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

**Asosiy qisim.** Jahonda ta'limni modernizatsiya qilish va yangilash yo'llaridan biri bu STEAM ta'lim tizimini rivojlantirishdir. Uni amalga oshirishning asosiy maqsadi o'qituvchi va talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini hisobga olgan holda STEAM tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish asosida, texnik va tabiiy fanlar ta'limini rivojlantirish orqali bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilar imkoniyatlarini kengaytirishdir. Jumladan: oliy pedagogik ta'limning hozirgi rivojlanishi tadqiqotning fanlararo integratsiyalashuviga bog'liq. Fanlararo integratsiya tanqidiy fikrlashga ega bo'lgan va «fanlararo muammolarni, shuningdek, turli xarakterdagi muammolarni hal qilishga» qodir bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun asosdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi fanlararo integratsiya va pedagogik malakani baholash talablarini hisobga olgan holda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy tayyorlash metodikasini yangilash yo'llarini topishdan iborat.

Tahlil va natijalar, ilg'or fanlararo ta'lim texnologiyalarini tahliliy ko'rib chiqish STEAM ta'limiga e'tiborni qaratish imkonini berdi. Tadqiqot o'tkazilib, unda talabalarning tabiiy fanlar bo'yicha kompetensiyalari hamda tanqidiy fikrlash rivojlanishi baholandi. Tadqiqot jarayonida, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar davomida Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari tomonidan ham kasbiy, ham ilmiy va amaliy xarakterdagi fanlararo muammolar aniqlandi va yanada hal qilindi. Shu bilan birga, STEAM ta'limi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarni uchun o'quv jarayonini loyihalashning asosi bo'ldi. Ushbu ish natijalari quyidagilarni ko'rsatadi: o'quv fanlari tarkibi va mazmuniga fanlararo vazifalarning kiritilishi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga yordam beradi, chunki o'quv jarayoni amaliyotga yo'naltirilgan va ilmiy xususiyatga ega bo'ladi. Ilmiy-tadqiqot va amaliy yo'nalishning fanlararo vazifalari orqali amalga oshiriladigan universitet pedagogik ta'limi darajasidagi fanlararo integratsiya; bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning integratsiya tushunchasi bilan bog'liq manbalarni tahliliy ko'rib chiqish uning murakkab va o'zaro mustahkamlovchi xususiyatini ko'rsatadi. Har qanday o'ziga xos fanning rivojlanishi doirasida katta bloklar o'rtasidagi aloqani o'rnatadigan integratsiya mavjud. Ko'rinib turibdiki, bu aloqani ta'minlash doimo dolzarb bo'lib kelgan. Oliy pedagogik ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlashning yangi modeliga nisbatan fanlararo aloqalar g'oyasi kontseptual bo'ladi. Ilm-fan ham, ishlab chiqarish ham turli kasbiy sohalarida va fanlararo fan sohalarida bilimga ega bo'lgan mutaxassislarni qidiradi. Oliy pedagogik ta'limning zamonaviy makonida kadrlar tayyorlash alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirayotgan pedagogik ta'lim o'quv jarayonining tuzilishi va mazmunini shunday tashkil etadiki, yakuniy natija bitiruvchilar faoliyatining sifati, ularning kompetensiyasi bilan o'lchanadi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kompetensiyasini uchta komponent bilan belgilash mumkin: kasbiy pedagogik faoliyatda ifodalangan kompetensiya va o'qituvchi kasbining ajralmas o'zaro ta'siri. Mutaxassisning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish va an'anaviy fazilatlarini bilim, ko'nikma, tajriba rivojlantirish o'rtasidagi farqlar bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy sifati sifatida pedagogik kompetensiyaning integrativ tabiati bilan belgilanadi; amaliyotga yo'naltirilgan va loyihaga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning sifat holati – uning pedagogik kompetensiyasini strategik qadriyatlar bilan bog'lash mumkin, ularning rivojlanishi milliy miqyosdagi vazifani – yuqori malakali xalq ta'limi xodimlarini tayyorlashda pedagogik ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Muammoning dolzarbligi pedagogik kadrlar tayyorlashning tarkibi va mazmuni yangi oliy ta'lim davlat standartlarini joriy etish natijasida sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda.

O'quv rejadagi bloklari fanlari sonining ko'payishi fanlarni o'rganish uchun ajratilgan o'quv soatlari soniga ta'sir qilmadi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning tayyorlash mazmunini ratsionallashtirish echimlaridan biri fanlararo integratsiyani amalga oshirish ekanligini tushunish muhimdir.

Tadqiqotda kelajakdagi o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida fanlararo integratsiya masalasini o'rganishda ikkita asosiy muammo aniqlandi. Birinchidan, oliy ta'limda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarni tayyorlashda tabiiy va ilmiy, shuningdek, insoniy bilim sohalarini sintez qilishning ahamiyati ortib bormoqda. Ikkinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning butun davri davomida pedagogik texnologiyalar va integratsiyalashgan laboratoriya va amaliyotga asoslangan darslardan, shuningdek, ma'ruzalardan foydalanish bo'yicha yangilanishlar. Tadqiqot maqsadi fanlararo ilmiy va amaliy muammolarni hal qilishda kasbiy kompetensiyalarni qo'llashga qodir bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan o'quv jarayonida erishilgan natijalarga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi fanlararo integratsiya talablarini hisobga olgan holda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi usullarini yangilash yo'llarini topishdan iborat.

Muammoni hal qilish jarayoni – bu muammoning shartlarini o'zgartirish tizimi bo'lib, unda kerakli narsaga erishiladi. Darhaqiqat, ko'p hollarda muammoni hal qilish – bu qandaydir boshlang'ich vaziyatni qandaydir yakuniy (talab qilingan) holatga aylantirish jarayonidir. Analitik usul berilgan masalani bir qancha sodda masalalarga bo'lishdan iborat. Shunday qilib, yechim kerakli qiymatdan yoki muammoning savoliga javob beradigan naqshni izlashdan boshlanadi. Agar bu qonuniyatni ifodalovchi formulada izlanayotgan, hali noma'lum qiymatdan tashqari, shartdan ma'lum bo'lganlar bilan bog'laydigan yana bir qonuniyat topiladi. Bu kerakli qiymat ma'lum bo'lganlar nuqtai nazaridan to'liq ifodalanmaguncha amalga oshiriladi. Sintetik usul, masalaning shartida berilgan miqdorlar o'rtasidagi bog'liqlikni, kerakli miqdor tenglamaga bitta noma'lum bo'lib kirgunga qadar boshqalar bilan ketma-ket tushuntirishdan iborat. Shunday qilib, masalani sintetik usul bilan hal qilish, analitik usuldan farqli o'laroq, kerakli qiymatdan emas, balki mavjud ma'lumotlar va ular orasidagi munosabatlarni tahlil qilishdan boshlanadi. O'qitish amaliyotida har ikkala usuldan foydalanish qonuniydir, ammo didaktik nuqtai nazardan ular o'ziga xos xususiyatlarga ega. To'g'ri boshlang'ich formula topilgan taqdirda analitik

usuldan foydalanish o'quvchilarni darhol maqsad sari yetaklaydi, ularning diqqatini oraliq bosqichlarda kechiktirmaydi. Masalalarni yechishning sintetik usuli yechishning oraliq bosqichlarini, miqdorlarning miqdoriy xarakteristikalarini, ularning o'lchamlarini va nomlarini batafsil ko'rib chiqish imkonini beradi. Bu o'quvchilarning konkret shaklli fikrlashiga yaqinroqdir va shuning uchun muammoni hal qilishda talabalar beixtiyor unga murojaat qiladilar, shu bilan birga analitik usulni maxsus o'rgatish kerak, chunki bundan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasiga, ularning umumiy ta'lim va umumiy texnik tayyorgarligiga birmuncha yuqori talablarni qo'yadi. Fan bo'limlarini o'rganishning yakuniy bosqichida ushbu usuldan ustun foydalanish afzalroq deb hisoblanadi. Qoida tariqasida, ko'rib chiqilayotgan usullar o'qitish amaliyotida sof shaklda qo'llanilmaydi, odatda ikkalasi ham bir vaqtning o'zida qo'llaniladi, chunki fikrlash jarayonida tahlil va sintez ajralmasdir. Sintetik usulda tahlil elementlari majburiy ravishda, ba'zan esa, yashirin shaklda bo'ladi. Aksincha, sintezsiz bitta analitik usul muammoni hal qilishga olib kelmaydi.

**Xulosa.** Ekologik ta'limning asosiy maqsadi – ekologik madaniyatni shakllantirishga erishish uchun quyidagi pedagogik shartlarni ajratib ko'rsatish mumkin. O'quvchilarning ekologik ta'limini vertikal va gorizontal ravishda rivojlantirishning yaxlit dasturiga ega bo'lishi kerak. Barcha fanlar ekologik xususiyat kasb etishi kerak. Shu munosabat bilan doimiy ravishda ish dasturlarini yangilash va qayta ishlash zarur. Majburiy «Ekologiya» fanini, shuningdek, integratsiyalashgan ekologik kurslarni joriy etish. Universitetda o'quv jarayonini tashkil etishda talabalarning ekologik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863-son «2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. - T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
4. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
5. Avezov Sh. Ekologik ma'rifiy texnologiyalar va ularning mohiyati // Pedagogik va axborot texnologiya: yutuqlar va istiqbollar: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - T.: O'zPFITI, 2002. - B. 20-22.



---

## O'QUVCHILARNING DARSGA BO'LGAN MUNOSABATLARINI INNOVATSION KLASTER ASOSIDA O'RGANISH

**Musurmonova Mavluda**, *Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, K.Zamidova, Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi*

**Annjatsiya.** Maqolada o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatlarini innovatsion ta'lim klasteri asosida o'rganishning yo'l-yo'riqlari, shakl va vositalari to'g'risida fikr yuritilib, o'qituvchilarga tavsiyalar berilgan.

**Tayanch so'zlar:** o'quvchilar, dars, innovatsion klaster, yaxshi tarbiya topgan shaxs, inson barkamolligi, o'qituvchilarning qobiliyatlari, ta'lim-tarbiya jarayoni.

## ИННОВАЦИОННОЕ КЛАСТЕРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ОТНОШЕНИЯ УЧАЩИХСЯ К КЛАССНОЙ КОМНАТЕ

**Мавлуда Мусурмонова**, преподаватель Чирчикского государственного педагогического университета, **К.Замидова**, студентка факультета начального образования

**Аннотация.** В статье рассматриваются направления, формы и средства изучения отношения учащихся к уроку на основе инновационного образовательного кластера и даются рекомендации учителям.

**Ключевые слова:** ученики, урок, инновационный кластер, высокообразованный человек, личностное совершенство, способности учителей, образовательно-воспитательный процесс.

## INNOVATIVE CLUSTER STUDY OF STUDENTS' ATTITUDE TO THE CLASSROOM

**Musurmonova Mavluba**, teacher of Chirchik state pedagogical university, **K.Zamidova**, student of the Faculty of Primary education

**Abstract.** The article discusses the directions, forms and means of studying the attitude of students to the lesson on the basis of an innovative educational cluster and gives recommendations to teachers.

**Key words:** students, lesson, innovation cluster, well-educated person, human perfection, teachers' abilities, educational process.

**Kirish.** Inson barkamolligi uning ma'naviy dunyosining mukammalligi bilan belgilanadi. O'z vaqtida yaxshi tarbiya topgan shaxs butun umri davomida qadr-qimmat topadi va go'yoki o'zini qimmatbaho boylikka ega bo'lgandek his qiladi. Yurish-turish madaniyati kishilik jamiyati madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanib, uning asosini jamiyatda inson o'zini qanday tutishi kerakligini belgilab beruvchi hukmron axloq normalari tashkil qiladi. Inson hamma vaqt go'zallikka va tartibliikka intilgan, shuning uchun oddiy xalqda ham avloddan-avlodga o'tib kelgan va odatga aylanib qolgan udumlar hamda yurish-turish qoidalari paydo bo'lgan va ular xalqlar an'analariida ajoyib tarzda o'z ifodasini topgan. Yaxshilikka, go'zallikka intilish insonga xos xislatdir, shuning uchun insonlarning xushmuomala va odobli bo'lishga intilganligi taajublanarli hol emas.

**Asosiy qisim.** Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalarida ulkan ijobiy o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Shunday xayrli ishlardan biri mamlakatimizda ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiya, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib, yangilab borishni ko'zda tutadi. Innovatsion texnologiyalarning keng o'zgartirilishi, chet el sarmoyalari

qo'lamlarining kengayishi, tadbirkorlikning rivojlanishi, shuningdek, uzluksiz ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integrallashuvi, o'qituvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda ta'lim berishning innovatsion pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarning yaratilishi, o'quv-tarbiya jarayonining didaktik jihatdan ta'minlanishi ta'lim tizimini takomillashtirishga asos bo'lmoqda.

Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining asosiy tamoyillari va maqsadli vazifalaridan biri – umumiy o'rta ta'lim maktablari, birinchi navbatda, qishloq joylardagi maktablarni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ular tarkibi sifatini oshirish, o'qituvchilar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish amalga oshirilayotgan rivojlanish va o'zgartirishlarga asos bo'lmoqda. Shundan kelib chiqib, ta'lim tizimini rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar barcha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va fan va texnologiyalarning yutuqlariga asoslangan metodlardan foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirishda bilim, ko'nikma va malakalarni tizimli ravishda rivojlantirish, zamonaviy shaxsiy va kasbiy sifatlarini talab qiladi. Maktablarda eng asosiy va muhim ahamiyat kasb etuvchi funksiyalardan biri – bu ta'limning sifatli salohiyati va ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligida tarbiyaviy munosabatlardir.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirishda, o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro ma'lum bir belgilangan munosabatda bo'ladilar, bu munosabatlarni iqtisodiy, siyosiy va boshqa munosabatlardan farqli ravishda tarbiyaviy munosabatlar deb ataymiz. Ana shu tarbiyaga mas'ul bo'lgan bir qator shaxslar borki, ular faoliyatidagi jiddiy kamchilik va nuqsonlar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni davlat ta'lim standartlari darajasida egallashda, yangi O'zbekiston sharoitida barkamol shaxslarni tarbiyalashda muammo bo'lib qolmoqda. Olib borilgan ilmiy-metodik tadqiqotlarimiz samarasi o'laroq, ana shu kemtiklikni to'ldirish, ya'ni oila, ta'lim muassasasi, mahalla, yoshlar tashkilotlari, huquqni himoya qiluvchi organlarning hamkorlikdagi ishlari o'zining ijobiy natijasini berishi ilmiy-metodik jihatdan isbotlandi.

Darsga salbiy munosabatdagi bolalarning o'ziga xos xarakter va xususiyatlari o'rganib chiqilib, ta'lim-tarbiya jarayonida ularga tizimli ravishda ta'sir etishning yo'l-yo'riqlari shakllantirildi.

Muammo shundaki, tarbiyasi qiyin bo'lib qolish sabablari, balog'atga etishda o'smirlarning o'ziga xos psixologik holati, shaxsning fazilatlarini tarkib toptirishdagi asosiy nuqsonlar, o'smirlarning tipologik xususiyatlari, o'smirlarning «tarbiyasi qiyin» bo'lib qolish sabablari, ularni keltirib chiqaruvchi omillar va psixik holatidagi nuqsonlari, bilim olish faoliyatidagi kamchiliklari hamda bu muammolarni bartaraf etishda nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida tavsiyalar berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3152-sonli Qarori bilan Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti tashkil qilingan edi. Qaror bilan institutga viloyatdagi maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining tarbiyachilar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ayniqsa, aniq fanlar va chet tillari bo'yicha o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, tumanlar va qishloq joylaridagi ta'lim muassasalarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash hamda xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli pedagog kadrlar tayyorlash vazifasi yuklatilgan. Mazkur vazifalardan kelib chiqib bugungi kunda institut o'zining asosiy strategik yo'nalishlari va rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqdi.

Toshkent viloyati ta'lim tizimida mavjud kamchiliklarni o'rganish va ularning tahlili shuni ko'rsatdiki, pedagogik ta'lim yo'nalishlarini muvofiqlashtirish, istiqbolni rejalashtirish, ta'lim bosqichlari o'rtasidagi aloqa va integratsiyaning sustligi, ta'lim subyektlari faoliyatidagi tarqoqlik hududda pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojning qondirilmasligi va ta'lim sifatining

pasayishiga sabab bo'lgan. Shundan kelib chiqqan holda institut Toshkent viloyatida pedagogik ta'lim innovatsion klasterini yaratish bilan bog'liq yangi tizimni o'zining ustuvor strategik yo'nalishi sifatida belgilab olinib, institut professor-o'qituvchilari tomonidan shu tizim asosida muayyan ishlarni amalga oshirmoqda. Xususan, «Boshlang'ich ta'lim metodikasi» kafedrası professor-o'qituvchilari Chirchiq shahridagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi pedagogik jamoasi bilan ota-onalar, mahalla va boshqa jamoatchi tashkilotlar bilan hamkorlikda o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish, salbiy munosabatlarni oldini olish, tashxislash va korrektsiyalash yo'nalishida ishlamoqda.

Ma'lumki, pedagogik ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda fan va ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish tizimiga o'tkazish zaruratini taqozo etmoqda.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi – o'z tarkibiga kiruvchi ta'limiy-ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashishlar iboratdir. Bizning urinishlarimiz ham ana shu muammolarga yechim topish uchun qilingan sa'y harakatidir.

Muammoning yechimini hal qilish uchun tadqiqot ishimizni uchta dolzarb masalaga bo'lib o'rgandik, xususan:

Birinchi yo'nalishida, tarbiyasi qiyin bo'lishning ijtimoiy, pedagogik va psixologik sabablarini aniqlash va bartaraf etish yo'llarini izlash, pedagogik va metodologik asoslarini kuchaytirishga asoslangan.

Darsga salbiy munosabatdagi maktab o'quvchilariga pedagogik-psixologik yondashuvlar asosida maslahatlar ta'siri ostida munosabatlarni ijobiy tomonga burish, egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini faollashtirish orqali natijaga erishish.

Tadqiqotning ikkinchi yo'nalishida, psixologik xizmat va tarbiyasi qiyin yoshlarning o'ziga xos xususiyatlari va tarbiyasi qiyin yoshlarni tarbiyalash masalasi o'rganib chiqilgan.

Uchinchi yo'nalishida, darsga salbiy munosabatdagi bolalar bilan ishlash va ularning xatti-harakatlari qay darajada ekanligini aniqlash mumkinligi ko'rsatilgan. Shunga ko'ra, ular bilan qanday muomalada bo'lish kerakligi to'g'risida tavsiyalar yoritib berilgan. Bu ishlar odatda uyda ota-onaga, maktabda psixolog, o'qituvchilarga yuklatiladi. Psixolog bolani doimo nazorat qilib unga ibratli mashqlar orqali muntazam ravishda shug'ullanib borishi haqida metodik tavsiyalar berilgan.

**Xulosa.** «Maktab laboratoriyasi» sifatida olingan maktab pedagogik jamoasi bilan olib borilgan o'zaro hamkorlik (klaster – bir maqsad yo'lida tarmoqlarning birlashishi) o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

#### Adabiyotlar:

1. Muxamedov G'.I., Xo'jamqulov U.N. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: Ilmiy risola. - Chirchiq, 2019. - 90 b.
2. Musurmonov R., Musurmonova M. O'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatlarni klaster usulida o'rganish: O'quv-metodik qo'llanma. - T.: «MALIK PRINT CO», 2022. - 145 b.
3. To'raeva O. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. - T., 1994.

**XALQARO BAHOLASH DASTURLARI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA**

**Qarshiboyeva Xurinis Karimovna**, *Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada xalqaro baholash dasturlarining qisqacha tarixi, mazmun-mohiyati, maqsadi, mamlakatlarning ta'lim taraqqiyotidagi ahamiyati, yurtimizda ta'lim sohasidagi islohotlar haqida so'z boradi.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim mazmuni, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS xalqaro baholash.

**МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРОГРАММЫ ОЦЕНИВАНИЯ  
В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА**

**Каршибоева Хуриниса Каримовна**, *преподаватель Чирчикского государственного педагогического университета*

**Аннотация.** В данной статье идёт речь о краткой истории международных оценочных программ, их содержании, назначении, значении в образовательном развитии стран и реформах в сфере образования в нашей стране.

**Ключевые слова:** образовательный контент, PIRLS, TIMSS, PISA, международная оценка TALIS.

**INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS IN THE EDUCATION SYSTEM  
OF UZBEKISTAN**

**Karshibayeva Khorinis Karimovna**, *teacher of Chirchik state pedagogical university*

**Abstract.** This article describes a brief history of international assessment programs, their content, purpose, significance in the educational development of countries and reforms in the field of education in our country.

**Key words:** educational content, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS international assessment.

**Kirish.** Ta'lim tizimining mazmuni, mohiyati ijtimoiy hayotimizning, jamiyatimizning iqtisodiy, ma'naviy, madaniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi vosita hisoblanadi. Yurtimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar jamiyatimizning ma'naviy va madaniy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shmoqda. Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovich bu yilni «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili» deb nom berganlari ham butun diqqat-e'tibor ta'lim sohasiga qaratilganligining yaqqol isbotidir. Bu narsa xalq ta'limi fidokorlari oldiga ulkan vazifalarni ko'ndalang qo'yadi. Bugungi kunda yurtimizda ta'lim siyosati, ta'lim sifati, ta'lim sohasidagi xalqaro tajribalarga alohida diqqat qilinib, bevosita xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish jarayoni jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda.

**Asosiy qisim.** Hozirda butun dunyo bo'ylab ta'limning sifati, saviyasi va darajasini aniqlash va o'rganishga qaratilgan bir qator xalqaro baholash dasturlari mavjud bo'lib, ular ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifati yanada oshirish uchun katta ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti – (IHTT – yoki inglizcha Organization Economic Cooperation and Development OECD) Yevropadagi davlatlar birlashmasi hisoblanadi. Bu tashkilotlarga a'zo bo'lgan davlatlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash ko'zda tutilgan. IHTTning asosiy maqsadi: ishsizlik muammosini hal qilish uchun ish o'rinlarini yaratish; davlatlarning iqtisodiy hayot darajasini ko'tarish uchun mamlakatlarda iqtisodiy siyosat yurgizish; global ishlab chiqarish va savdo uchun chegaralarning ochilish jarayonida hukumatlarga iqtisodiy sifat tizimlarini yaratishda ko'maklashish; ta'lim orqali inson kapitali o'stirish.

Mazkur tashkilot hozirgi kunda turli xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilar

savodxonligini baholash, mamlakatlarning ta'lim sohasiga qancha mablag' sarflayotgani va uning qay darajada samara berayotganligi haqida ma'lumotlar to'plab, ularni tahlil qilish orqali mamlakatlar ta'lim tizimi taraqqiyotiga katta hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston ham IHTTga a'zo davlatlar ro'yhatiga kirgan mamlakat hisoblanadi. IHTT davlatlari 1950 yillardayoq turli ta'lim tizimlarini statistik tahlil qilib boshlagan. Bu tahlillardan maqsad davlatlarning ta'limini rejalashtirish asosida yetuk mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlarni hozir va kelajakda ta'minlashdan iborat bo'lgan. Ularning dastlabki yondashuvi miqdoriy xususiyatlarga qaratilgan bo'lib, mamlakatlarning ta'limga sarflayotgan mablag'lari, ya'ni ta'limni qanday moliyalashtirayotgani va moliyalashtirish resurslari qiyoslangan. 1992 yildan buyon ushbu statistik hisobotlar IHTT tomonidan «Education at a Glance» nomi bilan hisobot shaklida nashr etila boshlandi.

IHTTning ta'limni baholash mezonlari ta'limdan boshqa sohalarida, jumladan, iqtisodiyot va siyosat sohalarida ham qo'llanila boshlandi. Ta'lim sohasiga xalqaro baholash XX asming o'rtalarida kirib keldi. 1958 yilda AQSH va bir necha Yevropa davlatlari tashabbusi bilan IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement-Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi)ga asos solindi. Mazkur uyushma davlatga aloqador bo'lmagan tashkilot hisoblanadi. Bu uyushma tashkil topishidan oldin ham turli xil davlatlarda ta'limni tadqiq etuvchi olimlar, o'quv jarayoni, ijtimoiy-madaniy hamda iqtisodiy jihatdan tadqiq etib chiqishgan. 1960 yillarda xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi tomonidan birinchi xalqaro taqqoslash tadqiqoti o'tkazildi. 1964 yilda ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi tomonidan matematika fani bo'yicha baholashning ilk tadqiqoti – FIMS (The First International Mathematics Study) o'tkazildi. Bunda Germaniya xalqaro pedagogik tadqiqotlar institute (DIPF – Deutsche Institut für Internationale Pädagogische Forschung) asosiy tashkilotchilardan biri bo'ldi. Ushbu baholash tadqiqoti 7-sinflar uchun o'tkazildi. 1966-yildan 1973 yilgacha 21 ta davlat ishtirokida dunyoga ta'lim bo'yicha mashhur Y.B.Karoll singari olimlar tashabbusi bilan «Oltita fanlar bo'yicha tadqiqot» (Six Subjects Survey) o'tkazildi. Bu baholash dasturidagi 6 ta fan: tabiiy fanlar, adabiyot, o'qish ingliz tili, fransuz tillari chet tili sifatida, shuningdek, siyosiy ta'lim fanlari bo'yicha baholash tadqiqotlari o'tkazildi. 1990 yillar boshida esa, xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi - IEA tashkiloti tomonidan 9-14 yoshli o'quvchilarga mo'ljallangan savodxonlik tadqiqoti (Reading literacy Study) o'tkazila boshlandi. Keyinchalik bu PIRLS/IGLU baholash tadqiqotini o'tkazishga turtki bo'lgan. 1991 yildan 21 ta davlatni qamrab olgan xalqaro kattalar uchun mo'ljallangan savodxonlikni baholash tadqiqotlari (IALS – International Adult Literacy Survey) 16 yoshdan 65 yoshgacha bo'lganlar orasida o'tkazila boshlandi. 2010 yildan boshlab, Xalqaro katta yoshdagilarning kompetensiyalarini baholovchi xalqaro baholash tadqiqotlari (PLAAC – Programme for the International Assessment of Adult Competencies) o'tkazilmoqda. Bu tadqiqot kattalar uchun eng yirik tadqiqot so'rovnomasi hisoblanadi.

1995 yildan buyon Uchunchi xalqaro matematika va fan tadqiqotlari (TIMSS – Third International Mathematics and Science Study) har 4 yilda Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish tashkiloti IEA tomonidan o'tkazib kelinmoqda. Bu tadqiqot o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini tekshiradi. Uchunchi deb nomlanishuiga sabab oldin o'tkazilgan va yuqorida ta'kidlab o'tilgan baholash tadqiqotlari: FIMS (The First International Mathematics Study, 1964 yil, 12 ta davlat) va Ikkinchi Xalqaro Matematika tadqiqotlari SIMS (Second International Mathematics Study, 1980-1982 yillar) 20 ta davlatlar, shuningdek, Birinchi va Ikkinchi fan bo'yicha baholash tadqiqotlari (First and Second International Science Study, 1968-1972 yillar and 1982-1986 yillar) larning davomi sifatida o'tkazilgan. Hozirda mazkur xalqaro baholash dasturi TIMSS (Third International Mathematics and Science Study) Xalqaro matematika va tabiiy fanlar sifati deb yuritiladi.

Bugungi kunda IHTT va IEA kabi nufuzli xalqaro tashkilotlari ta'lim tizimida Bir qancha baholash dasturlarini o'tkazib kelmoqda. Ular o'quvchilar bilimlarini xalqaro ta'lim standartlari asosida baholash va tahlil qilishda muhim sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorida rivojlangan mamlakatlar tomonidan keng qo'llanilayotgan quyidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish vazifa qilib belgilandi.

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun;

Trends in International mathematics and Science Study (TIMSS) – 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun;

The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) - rahbar va pedagog kadrlarning umumiy umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun;

Ushbu qaror ijrosi yuzasidan mamlakatimizda xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish, ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha amaliy ishlar jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. 2002 yilda mamlakatimiz PISA – o'quvchilarni savodxonlik darajasini baholovchi ta'lim tadqiqotlarida birinchi marta ishtirok etdi. Endilikda TALIS xalqaro baholash dasturi tadqiqotlarida ishtirok etish uchun tashkiliy ishlar olib borilmoqda. 2024 yil bu tadqiqotda O'zbekiston ishtirok ham etishi ko'zda tutilgan.

**Xulosa.** Yuqoridagi fikrlarga asosanib xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish shunisi bilan diqqatga sazovorki, mamlakatimizdagi ta'lim darajasi xalqaro ta'lim standartlariga moslashuv jarayoni yuz beradi. Bu tadqiqotlar orqali ta'lim tizimidagi kamchiliklar aniqlanadi va ta'lim taraqqiyoti uchun kelajak ishlar rejalashtiriladi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 8 dekabrda 997-sonli «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori: <https://lex.uz>

2. Matkarimov A.M. «PISA» xalqaro o'quvchilarning savodxonligini baholash tadqiqotining rivojlanish bosqichlari, maqsadi va vazifalari // Zamonaviy ta'lim. - T., 2000. - 8(93)-son. - B. 51-54.

3. G'ulomova M.R. Xalqaro baholash dasturlari, etimologiyasi va afzalliklari: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7130248>

4. Ташпулатова Д.М. Халқаро таълим дастурлари асосида интеграцион ўқитиш механизмлари // Образование, наука и инновационные идеи в мире. - М., 2023. - № 18. - Вып. 3. - С. 53-63. ISSN 2181-3187.

5. Sayliyeva M.M. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi // Academic research in educational sciences. 2023.

6. Mirxalilova N.A. Boshlang'ich ta'limda funksional savodxonlik darajalarini oshirish. - T., 2022. - B. 174-177.

7. Mirxalilova N.A. TIMSS 2023 mathematics assessment scope // Scopus: Annals of forest research, 2022. - P. 5399-5404.

8. Mirxalilova N.A. Funksional savodxonlik tushunchasi // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari. - T., 2023. Falsafa. Social sciences. - ?. - B. 216-218. ISSN 2181-7324.

9. Mirxalilova N.A. TIMSS xalqaro tadqiqoti va uning ahamiyati // Mug'allim. - T., 2022. - 5-son. - B. 33-36.

---

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ILK PEDAGOGIK TUSHUNTIRISHLAR VA ASOSIY MUHIM JIHATLARI**

**Sultanov Turdali Muxtaraliyevich**, *Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Boshlang'ich maktabda o'qishni endi boshlayotgan o'quvchilar bilan ishlash, ularga ta'lim berish va xulq-atvorining rivojlanishiga erishish juda katta mas'uliyat talab etadi. Bunda, pedagogika muhim ahamiyatga ega, chunki u o'qituvchilarga sinfni tashkil qilish uchun eng yaxshi tajribalar haqida tushunchalar atroflicha tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari, pedagogika, sifatli ta'lim, bolalar bilan ishlash, boshlang'ich sinf, sinf muhiti, pedagogik maslahatlar.

**ПЕРВОНАЧАЛЬНЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОНЯТИЯ И ОСНОВНЫЕ ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

Султанов Турдали Мухтаралиевич, преподаватель Чирчикского государственного педагогического университета

**Аннотация.** Работа с учащимися, которые только начинают свое обучение в начальной школе, обучение их и достижение развития их поведения требует большой ответственности. В этом случае важна педагогика, поскольку она предоставляет учителям тщательный анализ концепций о наилучшем опыте организации класса.

Ключевые слова: учителя начальных классов, педагогика, качественное образование, работа с детьми, начальный класс, школьная среда, педагогический совет.

**THE FIRST PEDAGOGICAL EXPLANATIONS AND THE MAIN IMPORTANT ASPECTS IN PRIMARY EDUCATION**

Sultanov Turdali Mukhtaraliyevich, lecturer of Chirchik state pedagogical university

**Abstract.** Working with students who are just starting their education in elementary school, educating them and achieving the development of their behavior requires a lot of responsibility. In this case, pedagogy is important because it provides teachers with a thorough analysis of concepts about the best experience of classroom organization.

Key words: primary school teachers, pedagogy, quality education, work with children, primary grade, school environment, pedagogical council.

**Kirish.** Hozirgi vaqtda maktab ta'limining integratsiyasi haqida ko'p gapirilmoqda. Bu tushunarli – kichik maktab o'quvchisi atrofda dunyoni bir butun sifatida qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, musiqa va boshqa o'quv fanlarining nomi emas, balki atrofda yana bir tovush tumanligi, koinot obyektlari hajmi mavjud. Bolalarni kundalik hayotda tabiat va barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish, o'qituvchi idrok etadi, o'rganadi.

**Asosiy qisim.** «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da belgilab berilgan «mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish» vazifasi shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirishga, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga zamin yaratadi.

Ta'limni integratsiyalash g'oyasi tabaqalanish va individuallashtirish bilan birga xalq ta'limi sohasida muhokama qilina boshladi. Agar maktabgacha ta'limni tabaqalashtirish, kitoblar, darsliklar va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi va erta maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirish asosida turli fanlarni o'rganish obyekti bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin bo'lsa.

Fundamental fanlarni o'zlashtirishda va koinotda mavjud bo'lgan hamma narsaning qonuniyatlarini tushunishda obyektlar ichida va ular o'rtasida aloqalarni o'rnatish ta'limga integratsiyalashuvga yondashuvning metodologik asosidir. Bunga turli darslarga, tushunchalarga qayta-qayta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, bu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilishga va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan har qanday dars, shu jumladan, ushbu o'quv predmetiga tegishli tushunchalar guruhini integratsiya uchun asos qilib olish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga bo'lgan ehtiyoj ularning nazariy bilimlarni egallashiga olib keladi va o'quv harakatlarining motivlari 9-18 o'quv vazifalarini bajarishga qaratilgan tizimni egallashga olib keladi (vazifa harakatning maqsadi va uni egallash shartlarining birligi). O'quv vazifasi mazmunining muvofiqligi yordamida talabalar biron bir ajralmas obyekt bilan bog'liq bo'lgan «qism»ni aniqlash usullarini o'zlashtiradilar va ushbu «qism» orqali ko'rsatilgan obyektni aqliy ravishda tiklaydilar. Shunday qilib, talabalar nazariy bilimlarni olish usuli sifatida mavhumlikdan konkretlashtirishga o'tish mikrosiklini amalga oshiradilar.

Boshlang'ich maktabni endigina boshlayotgan o'quvchilar bilan ishlash, ularga bilim berish, xulq-atvorini shakllantirish katta mas'uliyatdir. Bu erda pedagogika muhim ahamiyatga ega, chunki u o'qituvchilarga sinf mashg'ulotlarini tashkil qilishda eng yaxshi tajribalarni taqdim etadi. Boshlang'ich maktabda pedagogikaning muhim jihatlari doimo hisobga olinishi kerak. Ushbu maqolada bunday jihatlari orasida muhokama qilinadi: tashkilot; umumiy maqsadlar aniqligi; talabalarga taqdim topshiriq; o'quv muhiti sharoitlari; xulq boshqarish; qo'shma o'rganish guruhi; aloqa tiniqligi ta'minlash; dialogik ta'lim; ta'lim baholash. Boshlang'ich maktab o'qituvchilari har doim yuqori tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Ularning resurslari oldindan tayyorlanishi, dars davomida to'g'ri ishlatilishi va, ayniqsa, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak. Ular dars vaqtidan unumli foydalanishlari, yaxshi sur'atni saqlashlari va darsning har bir soniyasi muhimligiga ishonch hosil qilishlari muhimdir. Ushbu turdagi tashkilot muvaffaqiyatli amalga oshirilganda, talabalar o'ziga ishonch va mustaqillikka erishishlari mumkin. Boshlang'ich maktab o'qituvchilarining o'quv jarayonini tashkil etishdagi kamchiliklari, ular, asosan, tartibsiz bo'lganligi va ularning resurslarining nomuvofiqligi amaliy emasligi, maktab vaqtining past mahsuldorligi, o'quvchi kutgan natijaning noaniqligi bilan namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining quyidagi muhim jihatlari ta'kidlash lozim.

Umumiy maqsadlarga erishishning aniqligi. Darsning sifatiga alohida e'tibor beradigan o'qituvchilar darsda keltirilgan tushuncha va g'oyalar barcha bolalar uchun tushunarli ekanligiga ishonch hosil qilishlari muhimdir. O'qituvchilar dars davomida qisman o'zgarishni talab qilsa ham, tushunish noaniq yoki to'liq bo'lmasa, darsning asosiy g'oyalarini tushunishlariga ishonch hosil qilish uchun bolalarning ta'lim jarayoniga aralashadilar. Aksariyat o'qituvchilar darsning o'quv maqsadlari aniq ekanligiga ishonch hosil qilishsa-



da, masalan, o'quv maqsadlarini doskaga yozib qo'yishsa-da, bolalar bu nimani anglatishini tushunishlari uchun o'qituvchilar, ayniqsa, sabrli bo'lishlari kerak. Albatta, bunday sinf o'quvchilari nimaga erishishlari va buning uchun qancha vaqt ajratilishi haqida juda aniq va tushunarli tasavvurga ega bo'lishlari mumkin. Aksincha, ba'zi malakasiz o'qituvchilar o'qitishning umumiy maqsadi, tushunchalari va g'oyalarini aniq va oson ko'rsatib bera olmaydilar. Bunday hollarda o'qituvchilar o'quvchilarning asosiy tushuncha va g'oyalarni tushunishlarini tekshirish va tuzatishda sustroq bo'lishadi, ya'ni ular o'z vaqtida tushuntirishlar bermaydilar yoki bolaning qanchalik tushunishi bilan qiziqmaydilar. Garchi ushbu sinflardagi bolalar o'zlarining ta'lim maqsadlaridan xabardor bo'lishsa-da, ularni to'liq anglashlari va ularga qanday erishish mumkinligi haqida aniq tasavvurga ega emaslar va bu maqsadlarga erishish uchun ularda kam e'tibor va motivatsiya mavjud.

Talabalarga uy vazifasi beriladi. Zo'r va yaxshi tashkil etilgan maktablarning o'qituvchilari uy vazifalarini yanada mazmunli qilishadi va ularni bolalar o'rganayotgan narsalar bilan aniqroq bog'lashadi. Ular, qoida tariqasida, bolalarning g'oyalarini kengaytirish va chuqurlashtirishga qaratilgan uy vazifalariga yanada moslashuvchan yondashuvga rioya qilishadi. Biroq, past sifatli maktablarda o'qituvchilar uy vazifasini faqat zarur bo'lganligi sababli berishadi va vazifaning o'zi bolalarning sinfda o'qishi bilan bevosita bog'liq emas. O'qituvchilar uy vazifasini sinfda rejalashtirilgan imkoniyatlardan tashqarida yuzaga keladigan imkoniyatlardan foydalangan holda aniqlaganlarida misollar yo'q. Bunda bolalar birinchi jamoaviy birlikni, tengdoshlariga hurmatni shakllantiradilar, ularga yordam beradilar va doimo qo'llab-quvvatlaydilar. Sog'lom sinf muhitida bolalar bir-birlari bilan sog'lom raqobat va do'stlikni rivojlantirishlari mumkin. Aksincha, ta'lim sifati past yoki malakasiz o'qituvchilar bo'lgan maktablarda ko'p hollarda bu yosh maktab o'quvchilari orasida nosog'lom, yoqimsiz qarashlarning shakllanishiga olib keladi. Talabalar bir-biriga dushmanlik va qarshilik tuyg'ularini namoyon etadilar va ular uchun bir-biriga yordam berish va jamoada yaxshi ishlash juda qiyin bo'ladi. Bu holat bolalar uchun katta noqulaylik va salbiy oqibatlarga olib keldi. Bunday nosog'lom muhit tajribasiga ko'ra, o'qituvchilar yiqilish, kasallik, yangi norozilik, tanbeh, ta'limni yo'qotishga munosabat bildiruvchi sabablarni keltirishi mumkin. Noxush va nosog'lom muhitda tarbiya, bolalarning muloqot qilish va birgalikda ishlash qobiliyati juda past.

Xulq-atvorni boshqarish. O'qituvchilar o'rtasidagi xulq-atvorni boshqarish masalasini ko'rib chiqishda uchta farqni ajratish mumkin. Yaxshi o'qituvchilardan saboq oladigan bolalar tilanchilik qilish ehtimoli kamroq va kamdan-kam hollarda boshqaruv intizomiga muhtoj. O'qituvchilar bolalarning xatti-harakatlarini to'g'rilashlari kerak bo'lgan joyda, ular hazil yordamida yoki uni qabul qilish uchun eslatma olishadi. Ammo malakasiz o'qituvchilar bilan o'qiydigan bolalarning umumiy intizom darajasi past. Bolalar ko'proq tartibsizlikda yashaydilar va o'qituvchilar ularni tez-tez jazolaydilar. Intizom ko'pincha ijtimoiy bo'lib qoladi va ba'zida tahdidlarga shaxsiy hujumlar, bolalarni sharmanda qilish yoki kamsitish kiradi. Bu «haddan tashqari nazorat» sinflaridagi notinchlik darajasidagi yuqori darajadagi o'qishlar – talabalar o'qituvchining asosiy nutqi yordamida bolalarning ehtiyojlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratadigan muhitni yaratish.

Biz birga o'qiymiz. Bir nechta montajchilar bilan sinf o'qituvchisi bolalar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shu narsa bolalarni jamoada ishlashga o'rgatadi, bu esa, bolalarning o'zlarining erkin hamkorligi sharoitida ishlashlari uchun sharoit yaratadi. Pedagogik bilim va tajribaga ega o'qituvchilar o'z o'quvchilarining o'quv jarayonini shaxsiylashtirishga tayyor bo'ladilar. Ular buni o'z sinflarida bolalarning shaxsiy ehtiyojlariga

moslashtirilgan hilmaga o'xshash o'quv materiallarini taqdim etish orqali amalga oshiriladi. Bularga talabalar o'z o'yinlarini yuklab olishlari, ularni stollarida ishlatishlari, fikr-mulohazalari, bolalarning xulq-atvori yoki ehtiyojlarini tushunishlari, shuningdek, talabalarning o'qishi uchun juda kam ijtimoiy yordam, ayniqsa, savodxonlikni oshirish kiradi. Haqiqiy pedagogik bilim va tajribaga ega o'qituvchilar bolalar ehtiyojlariga juda sezgir bo'lib, talabalar uchun maxsus va mo'ljallangan mukammal o'quv materiallarini taqdim etadilar. Ushbu sinflardagi bolalarning individual ehtiyojlari talabalarning do'stlariga, ularning yoshlariga, yuqori umidlarga, mos ravishda murakkab va tabaqalashtirilgan vazifalarga beriladi. Yuridik o'qituvchilar maktabdan tashqari aniq sohalarni yaxshiroq bilishadi.

Dialogik o'qish va bilish. Ilk boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar uchun dialogik ta'lim darajasi katta ahamiyatga ega. Talabalar va talaba qizlar yordamida o'qish va o'rganishdan foydalanishda yordamdan foydalanish va o'quvchilarning bilimlari va kuchini rivojlantiradigan munosabat, harakat va fikrlash kabi usullar orqali fan yoki mavzu haqida kengroq tushunchaga ega bo'lish mumkin. Haqiqatan ham pedagogik bolalar unga nafaqat o'rgatiladi, balki o'qish jarayoni va taraqqiyotini o'rganadi. Bunday holda, bolalarga taklif qilinadigan darslarni boshlash tavsiya etiladi va taraqqiyotni tekshirish o'rganish darajasini aniqlashning eng asosiy va eng oson usuli hisoblanadi. Ammo agar o'quvchilar olingan bilimlarni diqqat bilan ko'rib chiqsa va takrorlash uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi.

**Xulosa.** O'qituvchi buni tez-tez kichik yig'ilishlarda sinf o'quvchilari bilan muhokama qilishi, darsda ko'rib chiqilgan jarayonlarning ishi va rivojlanishi bilan shug'ullanishi mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T., O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T., O'zbekiston, 2016.
3. Abdullayeva B.S., Sadidova A.V., Toshpo'latova M.I. «Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining 5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish» bakalavr yo'nalishi o'quvchilari uchun mo'ljallangan darslik - T.: Innovatsiya-ziyo, 2018.
4. Burxonov S., Xudoyorov O., Norqulova Q., Ruzikulova N., Goibova L. Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. - T.: Sharq, 2019.
5. Давыдов В.В. Психическое развитие младшего школьника. - М., 1990.

---

**«YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI»DA BOSHLANG'ICH  
TA'LIMNING O'QUV FANLARINI INTEGRATSION O'QITISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH MASALASI**

*Tashpulatova Dilorom Mukimovna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi»da boshlang'ich ta'limning o'quv fanlarini integratsion o'qitishni takomillashtirish masalasi tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** O'zbekiston, ta'lim, boshlang'ich, integratsiya, o'quv, fan, strategiya, bilim, ko'nikma.

**ПРОБЛЕМА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОМПЛЕКСНОГО ПРЕПОДАВАНИЯ  
ПРЕДМЕТОВ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НОВОЙ СТРАТЕГИИ  
РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА**

*Ташпулатова Дилором Мукимовна, преподаватель Чирчикского  
государственного педагогического университета*

**Аннотация.** В статье проанализированы вопросы оптимизации интеграционное обучение предметов начального образование, которые освещены в «Стратегия развития Новый Узбекистан».

**Ключевые слова:** Узбекистан, образование, начальное, интеграция, обучение, предмет, стратегия, знание, навык.

**IN THE NEW DEVELOPMENT STRATEGY OF UZBEKISTAN THE PROBLEM  
OF IMPROVING INTEGRATED TEACHING OF PRIMARY EDUCATION  
SUBJECTS**

*Tashpulatova Dilorom Mukimovna, teacher of the Chirchik state pedagogical  
university*

**Abstract.** The article analyzes the issues of optimizing the integration training of primary education subjects, which are covered in the «Development Strategy of New Uzbekistan».

**Key words:** Uzbekistan, education, primary, integration, training, subject, strategy, knowledge, skills.

**Kirish.** 2022-2026 yillarga mo'ljallangan «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi»ning sakkizinchi bandida mamlakatda sifatli ta'limga erishish vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalar doirasida boshlang'ich ta'limning sifat ko'rsatkichlarini ta'minlash ham mavjud. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitishni «Taraqqiyot strategiyasi»da belgilangan vazifalar bilan bog'liq holda tashkil etish dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'rinda e'tiboringizni ana shu masalaning tahliliga tortamiz.

**Asosiy qisim.** Xalqaro ta'lim dasturlari asosida takomillashtirish boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasini belgilangan vazifalardan biri mazkur ta'lim bosqichiga xalqaro ta'lim dasturlari qoidalari va talablarini joriy etishdan iborat. Shu sababli mamlakatimizda TIMSS, PISA, PIRLS va STEAM xalqaro ta'lim dasturlari qoidalarini ta'lim jarayoniga tadbqiq etish ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur dasturlarning qoidalari va talablari boshlang'ich ta'limda o'quv fanlarini integratsion o'qitishni takomillashtirishning quyidagi imkoniyatlari mavjud ekanligini

ta'kidlab o'tish lozim: 1) tabiiy fanlarni TIMSS va STEAM xalqaro ta'lim dasturi qoidalari asosida integratsion o'qitish. Chunki bu dasturlarda o'quvchilarning matematik tafakkuri, muxandislik iqtidori va tabiiy fanlar bo'yicha ko'nikmalarini amaliy shakllantirish qoidalari belgilangan. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda o'qitilayotgan Matematika, Atrofimizdagi olam va Tabiatshunoslik o'quv fanlarini o'zaro bog'liqlikda o'qitish o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, texnologik layoqatlarini yuksaltirish va borliqni o'rganishdagi tushunchalarini chuqurlashtirish imkonini berdi; 2) gumanitar fanlarni TIMSS va PISA xalqaro dasturlari qoidalari asosida integratsion o'qitish. Mazkur xalqaro ta'lim dasturlarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashish va amaliy ko'nikmalarini tarkib toptirish qoidalari belgilangan. Shu ma'noda mamlakatimiz boshlang'ich ta'limida o'qitilayotgan Tarbiya, Texnologiya, Ona tili va o'qish savodxonligi gumanitar fanlarini mazkur xalqaro dasturlar qoidalari asosida integratsion o'qitish muhim ahamiyatga egadir. Bu bilan o'quvchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarining uyg'unlashuviga erishiladi; 3) aniq fanlarni PISA xalqaro ta'lim dasturi asosida integratsion o'qitish. Ushbu xalqaro ta'lim dasturida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, mustaqil faoliyat va faollik ko'nikmalarini yuksak darajada tarkib toptirish qoidalar belgilangan. Shu jihatdan mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qitilayotgan matematika o'quv fanini ana shu xalqaro ta'lim dasturi qoidalari asosida o'qitish bilan o'quvchilarning mantiqiy fikrlash ko'nikmasini talab darajasida tarkib toptirish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Diqqat qilinsa, xalqaro ta'lim dasturlari boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitish bo'yicha muhim metodik omillarni beradi. Buning natijasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirilgan tarzda tarkib toptirish.

2. Xorijiy mamlakatlarning tajribalari asosida takomillashtirish xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitish bo'yicha o'ziga xos tajribalar mavjud. Bu tajribalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: 1) Yevropa mamlakatlari va AQSh boshlang'ich ta'limi jarayonida o'quv fanlarini integratsion o'qitishda amaliy ko'nikmalarga ustuvor darajada e'tibor beriladi. Buning natijasida o'quvchilar o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay olish ko'nikmasini egallaydi. Shu ma'noda mazkur tajriba asosida boshlang'ich ta'lim jarayonining tabiiy fanlarini integratsion o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi; 2) Osiyo mamlakatlari boshlang'ich ta'limi jarayonida gumanitar fanlarni integratsion o'qitishda o'quvchilarning ijodiy layoqatini rivojlantirishga ahamiyat beriladi. Shu sababli mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qitilayotgan gumanitar fanlarni mazkur tajriba asosida integratsion o'qitish asoslarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Unda Rossiya, Janubiy Koreya, Indoneziya kabi mamlakatlari tajribalari amaliy xususiyatga egaligi bilan foydalanish uchun diqatni tortadi. Diqqat qilinsa, xorijiy mamlakatlar boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsion o'qitish bo'yicha o'ziga xos tajribaga ega. Bu tajribalarni o'zlashtirish boshlang'ich ta'lim jaryonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Kezi kelganda eslatib o'tish joizki, bugungi kunda mamlakatimiz boshlang'ich ta'limda o'qitilayotgan matematika aniq o'quv fani jahon mamlakatlari ta'lim jarayoni tajribalari asosida o'qitilmoqda. Bu milliy tajribadan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Individual tajribalar asosida boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitishni takomillashtirish masalasi ham Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida o'z ifodasini topgan. O'zbekistonda uzoq yillik pedagogik tajriba va individual metodikalarga ega bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning tajribalari asosida boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitishni takomillashtirish kutilgan samarani

beradi. Buning uchun quyidagilar amalga oshirilishi dolzarb bo'lib turibdi: 1) individual tajribaga ega bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini aniqlash va ularning tajribalarini o'rganish; 2) masofaviy ta'lim shakli vositasida tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mahorat saboqlari mashg'ulotlarini tashkil etib borish; 3) tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual metodikalaridan yangi avlod boshlang'ich ta'lim darsliklarini yaratishda foydalanish.

Bunday yondashuv boshlang'ich ta'limda o'quv fanlarini integratsion o'qitishning amaliy imkoniyatlarini beradi. Shu sababli mazkur masalaning oliy pedagogik ta'lim muassasalari tomonidan muvofiqlashtirilib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Diqqat qilinsa, mamlakatimiz tajribali o'qituvchilarining individual metodikalaridan foydalanish boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini o'qitishning sifat ko'rsatkichlarini yuksaltirish omillaridan biridir.

**Xulosa.** «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi» asosida boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitishni yo'lga qo'yish bu borada muhim imkoniyatlar, mexanizmlar va metodik yo'nalishlarni beradi. Shu sababli mazkur masala maxsus tadqiq etilishi, nazariy xulosalar asosida metodik ishlanmalar yaratilishi va ularni amaliyotga joriy etilishi dolzarb bo'lib turibdi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - T., 2022.
2. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. - SPb., 2001.
3. Tashpulatova D.M. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish. - T., 2023.

---

## XARBIY DISKURSNING MOHIYATI VA MAZMUNI

**Kenjayeva Zuxra Taxirovna**, *O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada harbiy diskursning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Harbiy diskurs harbiy xizmatchilarning dunyoqarashini nutqda tashkil etishning maxsus turi bo'lib, u nutqning harbiy holati, harbiy sohaning muhiti bilan bog'liq bo'lib ko'plab xususiyatlari ko'rib chiqiladi hamda harbiy diskursga xos xususiyatlar to'g'risida mulohazalar o'rganilgan. Muloqot ishtirokchilarining maqom-rol xususiyatlariga qarab diskursni shaxsiy va institusional turlarga ajratish tahlil qiligan. Institusional harbiy diskursning alohida ijtimoiy guruh sifatida shakllanishiga ta'sir qiluvchi xususiyatlar yoritib berilgan. Harbiy diskursni shakllantirish mezonlari mavjudligi ko'rib chiqiladi.

**Tayanch so'zlar:** *harbiy diskurs, harbiy matnlar, harbiy xizmatchilar, strukturaviy xususiyatlar.*

## СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ВОЕННОГО ДИСКУРСА

**Кенжаева Зухра Тахировна**, *преподаватель Академии МВД Республики Узбекистан*

**Аннотация.** В данной статье освещаются специфические черты военного дискурса. Военный дискурс представляет собой особый тип организации мировоззрения военнослужащих в речи, при этом рассматриваются многие особенности речи, связанные с военной обстановкой и средой военной сферы, а также исследуются комментарии к особенностям военного дискурса. Проанализировано разделение дискурса на личностный и институциональный типы в зависимости от статусно-ролевых характеристик участников диалога, выделены характеристики, влияющие на формирование институционального военного дискурса как отдельной социальной группы. Рассмотрено наличие критериев формирования военного дискурса.

**Ключевые слова:** *военный дискурс, военные тексты, военнослужащие, структурные особенности.*

## THE ESSENCE AND CONTENT OF MILITARY DISCOURSE

**Kenjaeva Zuxra Takhirovna**, *teacher at the Academy of the MIA of the Republic of Uzbekistan*

**Abstract.** This article highlights the specific features of military discourse. Military discourse is a special type of organization of the worldview of military personnel in speech, and many features of speech related to the military situation and the environment of the military sphere are studied. Also, it is focused to examine comments on the features of military discourse. It analyzes the division of the discourse into personal and institutional types depending on the status-role characteristics of the dialogue participants. The characteristics influencing the formation of the institutional military discourse as a separate social group were highlighted. The existence of criteria for the formation of military discourse has been studied.

**Key words:** *military discourse, military texts, military personnel, structural features.*

**Kirish.** Insoniyat tarixi davomida armiya aksariyat davlatlar uchun asosiy ijtimoiy institutlardan biri bo'lib kelgan. Qurolli to'qnashuvlarning boshlanishi, hududlarni egallab olish, boshqaruv va sulhlar – ma'lum bir harbiy harakatlar teatrida sodir bo'layotgan barcha voqealar, til doirasida muayyan kommunikativ strategiyalardan foydalanishni o'z

ichiga oladi, ularning o'ziga xosligi armiya ijtimoiy guruhining o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Binobarin, kundalik hayotda militaristik haqiqatlarning doimiy mavjudligi dolzarblikni belgilar ekan, «harbiy diskurs» tushunchasini tadqiq qilish va uning xarakterli tarkibiy xususiyatlarini aniqlash muhimligini yo'qotmaydi.

**Asosiy qism.** Mavjud manbalarda dastlab muammoga birdan ortiq gaplardan tashkil topgan va «murakkab sintaktik mohiyatli birlik» sifatida qarashgan. Bu hodisa tilshunoslikda mantiqiy grammatika hamda so'zlashuv nutqi aloqadorligi sifatida baholangan. Shuningdek, o'tgan asrda tilshunoslikda diskurs hodisasi og'zaki nutqqa aloqador ekanligi, ularning nutq jarayonida undalma, kirish so'zi, kirish birikmalar bilan ham ifodalanish holatlarining mavjud ekanligi, bu esa, ularning «murakkab sintaktik qurilma» sifatida baholanishiga asos bo'la olishi haqidagi fikrlar ham ilgari surilgan.

Harbiy diskurs – harbiy xizmatchilarning dunyoqarashini nutqda tashkil etishning maxsus turi bo'lib, u nutqning harbiy holati, harbiy sohaning muhiti bilan bog'liq bo'lib ko'plab xususiyatlarga ega: maxsus harbiy xronotop; yaxlit shaklda ishlatiladigan nutq elementlari; aloqadorlik; harbiy-faktik axborotlashtirish; protsessuallik; intertekstuallik; harbiy-nazariy va harbiy-tarixiy manbalarning nufuzi; dunyoning antropotsentrik jihatdan harbiy tasvirlanishi; institusional turdagi boshqa nutqlar bilan o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyati. Harbiy diskursning o'ziga xosligi uning subyektlarining alohida ijtimoiy institutga tegishliligini belgilashidadir. V.I.Karasik muloqot ishtirokchilarining maqom-rol xususiyatlariga qarab diskursni shaxsiy va institusional turlarga ajratishni taklif qiladi. Shunday qilib, diskursning institutsional turi siyosiy, harbiy, diplomatik, huquqiy, ma'muriy, diniy va boshqa yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Harbiy diskursni shakllantirish mezonlari mavjud bo'lib, ularni quyidagi jadvalda taqdim etamiz:

1-jadval

Harbiy diskursni shakllantirish mezonlari

|                    |                                                                                                                                                                                  |
|--------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ishtirokchilar     | Harbiy va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning barcha lavozim va darajalardagi xodimlari                                                                                       |
| Xronotop           | Harbiy kafedralarning yopiq va ochiq majlislari, harbiy qismlar, harbiy bazalar, armiya guruhlar va boshqalar                                                                    |
| Maqsadlari         | Belgilangan vazifalarni bajarish, shu jumladan, harbiy harakatlarni amalga oshirish va dushman ustidan g'alaba qozonish                                                          |
| Ahamiyati          | Urush olib borish uchun zarur bo'lgan jihatlariga murojaat qilish: intizom, uzoqni ko'ra bilish, subordinatsiya (bo'ysunish), harbiy an'analarga rioya qilish, or-nomus, jasorat |
| Strategiyalari     | Belgilangan strategiya                                                                                                                                                           |
| Tematikasi         | Harbiy mojarolar, urush tamoyillari va taktikasi, bo'ysunish ("rahbar-bo'ysunuvchi" munosabatlari)                                                                               |
| Turlar va janrlar  | Buyruqlar, ko'rsatmalar, qarorlar, tavsiyalar va boshqalar                                                                                                                       |
| Pretsedent matnlar | Ustav hujjatlari, shuningdek, harbiy xizmatni tartibga soluvchi hujjatlar                                                                                                        |
| Munozara shakllari | Qonun hujjatlari, umume'tirof etilgan buyruqlar va boshqalar                                                                                                                     |

Harbiy kuchlarning alohida ijtimoiy institut sifatida o'ziga xos xususiyatlari aniq vertikal, ya'ni harbiy idoralar va shaxsiy tarkib barcha bo'g'inlarining bo'ysunishi,

shuningdek, avtoritarizm, qat'iy qoidalar doirasidagi harakatlar, rahbarlikni markazlashtirish va mansabdor shaxslarning javobgarligidir. Harbiy diskurs janrlarini hisobga olgan holda, rus olimlari turli tasniflashlarni taklif qilishgan. G.M.Strelkovskiy Harbiy diskurs matnlarini ikkita asosiy turni ajratadi: harbiy faoliyatini tartibga soluvchi matnlar (nizomlar, buyruqlar, buyruqlar, hisobotlar, xulosalar va boshqalar); axborot mazmuni matnlari (harbiy-ilmiy, harbiy-texnikaviy, harbiy-axborot va harbiy jurnalistik).

Harbiy matnlarning birinchi guruhi rasmiy reestrğa tegishli bo'lib, u taksonomiyaga ko'ra tartiblangan matn tuzilishini, faol foydalanishni nazarda tutadi. Axborot mazmunidagi matnlarning harbiy diskursga tegishli ekanligiga hamma ekspertlar ham rozi emas, chunki ular ilmiy, texnik va axborot sohalariga ta'sir qiladi deb o'ylashadi.

T.S.Yusupova harbiy adabiyot, harbiy publitsistika va harbiy-siyosiy materiallarni alohida guruhga ajratadi. Xorijiy tilshunoslikda diskurs muammosi o'tgan asrda Z.Xarris tomonidan ko'tarildi. «O'rganilgan tadqiqotlarda diskurs so'zlashuv nutqining monopredikativ birligi sifatida talqin etildi. Xatto, 1966 yilda tilshunos R.Godelning diskurs atamasining tilshunoslikka oid tadqiqotlarda qo'llanilishi til va nutq hodisalari haqida aniq xulosa chiqarishga shubha tug'dirishi mumkinligi» haqidagi etirofini N.A.Slyusarev o'z izlanishlarida qayd etdi va R.Godel etiroziga qarshi asosli, ilmiy javob berdi. L.V.Sherbaning fikricha, so'zlashuv nutqi dialogik diskurs shaklida yuz beradi. Diskurs tushunchasi asosan badiiy va matn o'rtasidagi aloqani o'rganishga qaratilgan soha bo'lib, asosan, XX asrning 60-70-yillarida lingvistika, semiotika, psixologiya, antropologiya va sotsiologiya kabi sohalaridagi izlanishlar natijasida yuzaga keldi.

**Xulosa.** Bundan kelib chiqadiki, harbiy diskurs katta hajmdagi ma'lumotlarni uzatish, shuningdek, doimiy o'zgaruvchan muhitda aniq maqsad va vazifalarni belgilash vositasi sifatida ifodalangan fikrning imperativligi, ravshanligi va izchilligi, matnning standartlashtirilgan prototip modellari kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Harbiy diskurs janrlarini ikki turga bo'lish o'rinni: harbiy xizmatchilarning professional muloqoti «yadrosini» tashkil etuvchi janrlar va aloqadan shaxsiyatga yo'naltirilgan muloqotga o'tish mavjud bo'lgan periferik janrlar. Birinchi holda, harbiy diskurs subyekti tartibga solinadigan maqom-rol munosabatlari doirasida harakat qiladigan ma'lum bir ijtimoiy institutning vakili sifatida harakat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Стрелковский Г.М. Теория и практика военного перевода: немецкий язык. - М.: Воениздат, 1979.
2. Слюсарев Н.А. Проблемы функционального синтаксиса современного английского языка. - М.: Наука, 1981. - 206 с.
3. Harris Z.S. Discourse analysis. Language, 1952. - 28 с.
4. Юсупова Т.С. Структурные особенности военного дискурса // Известия Самарского научного центра РАН. - М., 2009. - Т. 11. - Вып. 4. - С. 1056.
5. Щерба Л.В. Восточно-лужское наречие. - П., 1915. - С. 4.
6. Ҳазраткулов А.Ҳ. Диалогик нутқ синтаксисининг баъзи хусусиятлари. - Қарши: Насаф, 1978. - Б. 36.



---

**MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA HAYOT XAFSIZLIGI  
MADANIYATINI SHAKILLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

**Muratova Munavvar O'rolovna**, TDPU o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xafsizligi madaniyatini shakillantirishda ta'lim muhitini shakillantirishning pedagogik shart-sharoitlari bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** pedagog, hayot xavfsizligi, muhit, hamkorlik, faslitator, xavfsizlik qoidalari, ta'lim-tarbiya, tashabbuskorlik, rivojlantirish, hamkorlikdagi yondashuv, mahorat.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ  
БЕЗОПАСНОСТИ ЖИЗНИ У ДОШКОЛЬНИКОВ**

**Муратова Мунаввар Уроловна**, преподаватель ТДПУ

**Аннотация.** В статье описаны педагогические предпосылки формирования образовательной среды при формировании культуры безопасности жизнедеятельности у детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** педагог, безопасность жизнедеятельности, среда, сотрудничество, фасилитатор, правила безопасности, обучение и воспитание, инициатива, развитие, сотруднический подход, мастерство.

**PEDAGOGICAL CONDITIONS OF FORMING THE CULTURE OF LIFE SAFETY  
IN PRE-SCHOOL CHILDREN**

**Muratova Munavvar O'rolovna**, teacher of TSPU

**Abstract.** The article describes the pedagogical prerequisites for the formation of the educational environment in the formation of the culture of life safety in children of preschool age.

**Key words:** educator, life safety, environment, cooperation, facilitator, safety rules, education, initiative, development, cooperative approach, skills.

**Kirish.** Bolaning hayoti va salomatligi ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkiloti hodimlari uchun eng katta qadriyatlardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'pincha xavfli vaziyatda nima qilish kerakligini aniq va bosqichma-bosqich tushunmaydi, chunki «yo'q» so'zi harakat rejasi ham, ko'rsatma ham emas. Kichkintoylar uchun «Jiddiy suhbatlar» shunchaki zerikarli va tushunarsiz jarayon hisoblanadi. Shu sababli, ushbu yoshdagi bolalarga foydali ko'nikmalarni o'yin orqali o'rgatish yaxshiroqdir, bu yerda qiziqarli topshiriqlar, birgalikda va o'yin shaklida javob berilishi lozim bo'lgan savollar o'z aksini topadi.

**Asosiy qism.** Hozirgi fan-texnika, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalar rivojlangan davrda xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chunki ishlab chiqarish jarayonlari misli ko'rilmagan yuksak taraqqiy etgan texnologiyalar bilan ta'minlanishi, insonlarning tabiiy xazinalarga va atrof-muhitga palapartishlik munosabatlari, davlatlar o'rtasida insoniyat hayotiga xavf-xatar soluvchi qurollarning qo'llanilishi, insoniyat tomonidan qo'llanilayotgan turli tuman zararli hamda zaharli moddalar va vositalar turli xildagi xavflarni yuzaga keltirib, ular insonlarning hayotiy faoliyatiga, sog'ligiga, atrof-muhit tozaligiga, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga tahdid

soladi [1, 8-b.]. Xavfsizlik maktabining yaratuvchisi L.Sharova «Taxdidni to'xtating» nomli kitobida qiziqarli va tushunarli tarzda bola bilan shaharda, uyda xavfsiz xatti-harakatlarining asosiy qoidalarini muhokama qilishga yordam beradigan ma'lumotlarni to'pladi. Ko'chada, o'rmonda, hovuz yaqinida va boshqa joylarda, shuningdek, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish qoidalari haqida qimmatli fikrlarini keltirib o'tgan.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda uni har tomonlama jismoniy va aqliy rivojlanishi hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Jaloliddin Davoniy, Jaloliddin Rumi, Yusuf Xos Xojib Abdulla Avloniylarning pedagogik g'oyalari va qarashlarida o'z aksini topgan. P.Yusupova, F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, D.Abdurahimova, X.B.Tulenova, D.R.Babayeva, G.X.Jumasheva, X.I.Kasimova, M.Sh.Rasulova, M.A.Solihova, K.S.Shodiyeva, Sh.A.Sodiqova Sh.Shodmonova, O.U.Hasanboyeva va boshqalar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining mazmuni, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy, jismoniy va psixologik jihatdan tarbiyalash, muammolari tahlil etilgan. Bu sohada psixolog olimlardan G'.B.Shoumarov, Ye.A.Morshinina, E.G'oziev, V.M.Karimova, M.G.Davletshin, N.A.Sog'inov, S.A.Oxunjonova, A.Shojalilov va boshqalar ham o'z tadqiqotlarida bola salomatligiga doir masalalarga alohida e'tibor bergalar. Ma'lumki, salomatlikni tejaydigan texnologiyalardan foydalanish zarurati V.V.Kolbanova, L.G.Tatarinkova va V.P.Pettenkolarning tadqiqotlarida ta'kidlanib, inson salomatligi uning turmush tarziga 60% dan ko'roq bog'liqligini ko'rsatadi. Haqiqatdan ham insonning yashash sharoiti va turmush tarzi uning salomatligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishim mumkin. L.D.Glazyrinaning «Bolalarning jismoniy rivojlanishi», S.Ya.Layzanning «Bola uchun jismoniy tarbiya» kabi uislubiy tavsiyalarida, T.A.Shoryginning «Bolalar bilan xavfsizlik asoslari haqida suhbatlar» qo'llanmasida ko'plab nazariy hamda ularni amaliyotda qo'llashga doir ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Bolalik – bu inson hayotidagi o'ziga xos davr, aynan shu davrda salomatlik shakllanadi, shaxsning shakllanishi sodir bo'ladi. Safarning boshida himoyasiz chaqaloqning yonida ishonchli va g'amxo'rlik qiluvchilari bo'ladi. Ularning g'amxo'rliqi va mehribonligi ostida bola o'sadi va rivojlanadi. Biz bolalarni hayot xavfsizligini ta'minlash uchun ularni qiyin vaziyatga duch kelganda uni yengib o'tishga tayyorlashimiz kerak. Shu bilan bir qatorda, bolalar bilan ishlash jarayonida ularni xavfsizlik qoidalariga amal qilishini ta'minlash uchun o'yin va suhbat metodlarida foydalanish samarali hisoblanadi. Muammoning dolzarbligi shu bilan bog'liq, bu yoshdagi ko'pchilik bolalarning yong'in holatiga himoya reaksiyasi bo'lmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning hayot xavfsizligi madaniyatini ta'minlashda faqtgina pedagog hodimlar emas, balki ota-onalar, mahalla jamoat shu bilan birga har bir inson mas'ul shaxs desak adashmagan bo'lamiz.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti hodimlarining asosiy vazifasi maktabgacha yoshdagi bolalarni hayot xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirishda o'z imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan iborat. Maktabgacha ta'lim tashkilotida Davlat talablarining bosh tamoyili bo'lgan «bolaning noyobligi», «bolaning huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning muhimligi», «bola ta'limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli»ni anglagan holda, MTT, oila, tarbiyachi-pedagoglar hamda ota-onalarning bevosita, doimiy va samarali hamkorligini talab etishi bejizga emas. Kattalar nazarida bolalar o'z sog'ligi haqida qayg'urmagandek tuyiladi: agar ularga qaramasangiz, hammasi derazadan yiqilib, suvga cho'qib, mashina ostiga tushib, ko'zlarini o'yib, oyoqlarini sindirib, yaliganlash bilan kasal bo'lib qolishadi. Yo'q, aslida bunday emas, bolalar huddi kattalar kabi, sog'lom va kuchli

bo'lishni xohlashadi, faqat bolalar buning uchun nima qilishni bilishmaydi. Bolaning xavfsizligi bilan bog'liq muammolar ko'lamini faqat maktabgacha ta'lim tashkilotida hal qilish bu masalaning samarali yechimi hisoblanmaydi. Shuning uchun, turli hil usullardan foydalanish, ota-onalar farzandlarini xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalariga o'rgatish va boshqalarni ta'minlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

**Xulosa.** Maktabgacha yoshdagi bolalar xavfsizligini ta'minlashda oila bilan ishlashda psixolog, uslubchi, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori faoli ishtirok etishi lozim. Bunda psixologning roli alohida ahamiyatga ega. Shunday qilib maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi ota-onalar uchun suhbatlar, bolaning hissiy farovonligi bo'yicha maslahatlar, bolalarning tajribali zilzilalar, suv toshqinlari, yong'inlar va boshqalar bilan bog'liq qo'rquvni yengish bo'yicha maslahatlar ishlab chiqadi hamda so'rovnomalar o'tkazadi. Bolalar uchun xavfsizlik mavzulariga oid bayramlar va o'yin-kulgularni o'tkazish juda qiziqarli va mazmunli bo'ladi. Bunday o'yin-kulgular turli fasllarda o'tkazilishi mumkin, ular «Qutqaruvchilar kuni» va boshqa bayramlarni o'tkazish mumkin. Shunday qilib yagona kompleksdagi barcha tadbirlar bolaning hayoti va sog'ligi xavfsizligi uchun qoidalari va normalarini shakllantirishga qaratilgan yagona izchil tizimni ifodalashi lozim. Faqatgina shunday sharoitlarda kattalar bolaning atrofdagi xatti-harakatlariga nisbatan xotirjam bo'lishi mumkin va xavf tug'ulganda u sarosimaga tushmasligiga unga g'amxo'rlik qilish uchun barcha bilim va ko'nikmalarni qo'llashiga umid qilish mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Tojiyev M.X., Nigmatov L. Hayot faoliyati xavfsizligi. - T., 2012.
2. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. - T., 2018.
3. 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-son «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori // Xalq so'zi. - T., 2016. - 30 dekabr.
4. Дементьева Л., Байданова Н. «Светофор»да ёрдам бериш // Мактабгача таълим. - Т., 2003. - 12-сон.
5. Денисов В.В., Денисова И.А. Безопасность жизнедеятельности. - М., 2003. - 533 с.

---

**MALAKA OSHIRISH JARAYONINI INFORMAL TA'LIM YONDASHUVI ASOSIDA  
TAKOMILLASHTIRISH METODOLOGIYASI**

**Joldasova Kamila Jollibaevna**, *Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada amaldagi malaka oshirish holati, mavjud muammolari tahlil qilingan va bu jarayonni takomillashtirish xizmat qiladigan yondashuv sifatida ta'limning informal turi imkoniyatlari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** malaka oshirish turlari, malaka oshirish muammolari, informal ta'lim yondashuvi imkoniyatlari.

**МЕТОДОЛОГИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КВАЛИФИКАЦИОННОГО  
ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ПОДХОДА НЕФОРМАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**Жолдасова Камила Жоллыбаевна**, *соискатель Национального научно-исследовательского института повышения квалификации учителей и обучения новым методам*

**Аннотация.** В данной статье анализируется современное состояние профессионального развития, существующие проблемы, а также освещаются возможности неформального образования как подхода к совершенствованию этого процесса.

**Ключевые слова:** виды обучения, проблемы обучения, возможности неформального образовательного подхода.

**METHODOLOGY FOR IMPROVING THE QUALIFICATION PROCESS BASED  
ON THE NON-FORMAL EDUCATION APPROACH**

**Joldasova Kamila Jollibaevna**, *researcher at the National research institute for advanced training of teachers and teaching new methods*

**Abstract.** This article analyzes the current state of professional development, existing problems, and highlights the possibilities of non-formal education as an approach to improving this process.

**Key words:** types of learning, learning problems, opportunities for non-formal educational approach.

**Kirish.** Hozirgi kunda butun dunyoda o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirishga xizmat qiladigan ijobiy ishlar amalga oshirilib, malaka oshirish jarayonida foydalaniladigan turli xil ta'lim xizmatlarini o'zaro integratsiyalash yoki o'zaro biri-birining bo'shliqlarini to'ldirish, o'qituvchilarning o'zlari pedagogik faoliyatiga zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarini anglagan holda shaxsan o'zi individual ta'lim traektoriyasini rejalashtirishiga sharoit yaratish, butun kasbiy faoliyati davomida malaka oshirish uchun jarayonni individuallashtirish, differentsiallashtirish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Asosiy qism.** Jahondagi rivojlangan davlatlar qatori so'nggi yillarda respublikamizda «davlat organlari xodimlari malakasini oshirish uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan va xodimlarning malakasini baholashning yangi mexanizmlaridan foydalangan holda masofadan o'qitish», «geografik joylashuvidan qat'iy nazar, ... ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun keng polosali simsiz va mobil

texnologiyalarini yanada rivojlantirish» [2] ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu kabi vazifalar o'qituvchilarning malaka oshirishining institutsionallashtirilgan (formal, noformal) turlari bilan birga institutsionallashtirilmagan (informal) turlarini amalda qo'llash masalalarini ko'rib chiqishga imkon beradi. Shu bois, ushbu maqolada umumta'lim maktablari informatika o'qituvchilarining uzluksiz malakasini oshirishni ta'limning formal, noformal turlari bilan bir qatorda informal turidan ham samarali foydalanish bo'yicha izlanishlarning tahliliy natijalari yoritildi.

Tahlillar natijasida ta'limning informal yondashuvi, asosan, Internet tarmog'idan amaliyotda faol foydalanish kengayganligi sababli dolzarblashganlini ko'rish mumkin. Mavjud tajribalarda ta'limning formal va noformal hamda informal turlariga quyidagicha ta'rif berilgan [4; 9-b.]: kompensatsion (bazaviy ta'limdagi kamchiliklarni to'ldirish) – formal ta'lim; moslashuvchan (o'zgaruvchan ijtimoiy vaziyatda tezkor tayyorgarlik va qayta tayyorlash) – noformal ta'lim; rivojlanuvchi (shaxsning ma'naviy va ijodiy o'sish ehtiyojlarini qondirish) – informal ta'lim. Bunda yangi tushuncha sifatida informal ta'lim mohiyatini tahlil qilish mumkin.

Informal ta'lim – inglizcha «informal» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «in» prefiksi «bo'lmagan» ma'nosida ishlatiladi va bu atama rasmiyatchiliksiz yoki qoidalarsiz ta'lim sifatida talqin qilinadi. Bunda ta'limning ikki tomonining dialektik o'zaro ta'sirini ko'rib chiqish mumkin: tashqi – bu shaxsni ta'lim jarayoniga funktsional kiritish orqali ta'lim darajasining uzluksizligini ta'minlaydi; ichki – bu shaxsning ichki dunyosida ta'limning uzluksizligini shakllantiradi. Ta'limning bu turlari bir-birini uyg'un ravishda to'ldiradi va har bir odamga butun umri davomida semantik va hayotiy ko'rsatmalarni ishlab chiqishga yordam beradi [4]. Respublikamiz olimlaridan ham bu yangi tushunchaga ta'rif berilgan bo'lib, unda «tinglovchining o'zi anglagan kasbiy qiyinchiliklari, ehtiyojlari asosida o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda ta'limning barcha (formal, noformal, informal) turlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega»ligi ta'kidlangan [3, 65-b.].

Informal ta'limning dolzarbligi va amaliyotda qo'llash zarurligini davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonunlarda ham o'z aksini topganligini ko'rish mumkin. Jumladan, yangi qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda ilk bor katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish turlari qayd etilib, katta yoshdagilarni o'qitish «hayot davomida ta'lim olish» tamoyili asosida rasmiy (formal), norasmiy (noformal) va informal ta'lim turlarida amalga oshirilishi belgilandi va ularga quyidagicha ta'rif berildi [1]. Vunda «Rasmiy ta'lim davlat ta'lim muassasalari hamda davlat tomonidan tan olingan akkreditatsiyadan o'tgan nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan ta'lim, norasmiy ta'lim ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan bo'lib, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobili, Informal ta'lim aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgandir hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olishi mumkin» [1, 10-b.].

**Xulosa.** Tahlillar natijasida umumta'lim maktablari o'qituvchilarning, xususan,

informatika o'qituvchilarining malakasini oshirishning tekzorligini oshirish maqsadida institutsionallashtirilmagan ta'lim sifatida informal malaka oshirish turlaridan foydalanish orqali, malaka oshirish jarayonini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga xizmat qiladi degan fikrlarni ilgari surish mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - T., 2020. - 37-38-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.
2. Ibragimov A.A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko'p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish: Ped. fanl. bo'yicha fals. ... Dis. - T., 2018. - 186 b.
3. Санько А.М. Средства обучения в условиях цифровизации образования: Учебное пособие. - Самара, 2020. - 100 с.

---

## OLIV TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARINI KASBIY SARALASHNING DUNYO UNIVERSITETLARI AMALIYOTIDAN

*Dadayeva Ozoda Yuldashevna, O'zDJTU katta o'qituvchisi*

**Annotasiya.** Maqolada rivojlangan dunyo universitetlarida pedagoglarni lavozimlarga tanlash prinsiplari yoritiladi. Jumladan, OTM professor-o'qituvchisi kasbiy mahoratining o'sishi katta ahamiyatga egaligi, chunki mazkur kompetensiya talabalar faoliyati uchun eng muhim rag'batlarni namoyon qilishi va oliy ta'lim muassasasi uchun o'sish potentsiali sifatida ishlashi tahlil qilinadi. OTMlariga professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish hamda ularning tanlovlarda ishtirokini psixologik baholash tizimini yo'lga qo'yish orqali esa, bir qancha masalalarning hal etilishiga erishish mumkin.

**Tayanch so'zlar:** universitet, ta'limning uzluksizligi, professor, o'qituvchi, kasbiy saralash, yaroqlilik, intellekt, diagnostika, tizim, kompetensiya.

## МИРОВОЙ ОПЫТ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ПОДБОРА ПРОФЕССОРОВ-ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВУЗОВ

*Дадаева Озода Юлдашевна, старший преподаватель УзДЖТУ*

**Аннотация.** В статье описаны принципы отбора педагогов на должности в вузы развитых стран мира. В частности, проанализировано, что рост профессионального мастерства профессора-преподавателя вуза имеет большое значение, так как эта компетенция является важнейшим стимулом для активности студентов и работает как потенциал роста для высшего образования. Решить ряд вопросов можно путем создания системы психологической оценки педагогов и их участия в конкурсах.

**Ключевые слова:** вуз, непрерывность образования, профессор, преподаватель, профессиональный отбор, пригодность, интеллект, диагностика, система, компетентность.

## FROM THE PRACTICE OF WORLD UNIVERSITIES OF PROFESSOR-TEACHERS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

*Dadayeva Ozoda Yuldashevna, senior teacher of UzDJTU*

**Abstract.** The article describes the principles of selection process of teachers for positions in universities in developed countries of the world. In particular, it is analyzed that the growth of the professional skills of a university professor is of great importance, since this competence is the most important incentive for students' activity and works as a growth potential for higher education. A number of issues can be resolved by creating a system of psychological assessment of teachers and their participation in competitions.

**Key words:** higher education institution, continuity of education, professor, teacher, professional selection, suitability, intellect, diagnostics, system, competence.

**Kirish.** Ayni paytda dunyoda ta'lim sohasida chuqur o'zgarishlar ro'y bermoqda, ya'ni ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari, jumladan, oliy ta'lim ham yangilanmoqda. Zamon talabidan kelib chiqib oliy ta'limning maqsad va vazifalari sezilarli darajada o'zgarib bormoqda, chunki u nafaqat kelajakdagi elitani, balki aqliy ishchilarning ko'plab qatlamlarini ham tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimi doirasida oliy ta'lim professor-o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar, uni tayyorlash va qayta tayyorlash mazmuni,

shakl va usullari tubdan o'zgarib bormoqda. Yangi sharoitda o'qituvchi faoliyatining tabiati ham o'zgarmoqda, ta'lim jarayonida talabning rolini faollashtirish g'oyasi e'tirof etilmoqda.

**Asosiy qism.** Uzlusiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlaridan hisoblangan oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisini kasbiy-pedagogik tayyorlash shakllari va usullarini tahlil qilish butun dunyo universitetlarida ilmiy-pedagogik kadrlarni tanlash tizimi tajribasini batafsil ko'rib chiqish imkoniyatini beradi. Mazkur muammo esa, o'qitishning asosiy maqsadi, omillari va samaradorligini belgilaydi. Bu esa, o'z navbatida, OTM pedagogining o'quv faoliyatiga o'ta bog'liq. Butun kompleks chora-tadbirlardan keng va tizimli foydalanish oliy ta'lim nazariyasi va amaliyotining o'ziga xos xususiyati va kasbiy-pedagogik tayyorgarlik samaradorligining shartidir. Hozirgi bosqichda butun dunyo universitetlarida o'qituvchilar lavozimlariga tayinlash institut tarkibiga kiradi. Butun protsedura chiziqli model sifatida ifodalanishi mumkin, u to'liq tsikldagi to'qqiz bosqichni o'z ichiga oladi: bo'sh ish o'rinlarini aniqlash va lavozimni to'ldirish mezonlari; vakansiya haqida e'lon; rasmiy tanlash mezonlari; ariza beruvchilar haqida xabarlar olish; nomzodlar to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarni olish; shaxsiy suhbat; eng munosib nomzodlarga lavozimlarni berish; sinov muddati; keyingi kasbiy rivojlanish. Agar bosqichlarga alohida to'xtaladigan bo'lsak, vakansiyaning ta'rifi va lavozimni egallash mezonlarini to'g'ri belgilash o'ta muhim. Chunki har bir ta'lim muassasasi tuzilishi jihatidan farq qiladi. Ushbu bois talab doirasida ariza beruvchilarni tanlashning o'z tizimi belgilanadi. Bu jarayon dunyo universitetlarida turlicha amalga oshiriladi. Masalan, Belgiyada universitetning mustaqilligi ichki qaror bilan tartibga solinadi, bu qonuniy hujjatdir. Buyuk Britaniya institutlari esa, sezilarli avtonomiyaga ega, ba'zilar tanlov tartib-qoidalarini boshqaradigan ichki siyosatni ishlab chiqqan. Avstriyada davlat lavozimiga tayinlash jarayoni qonun bilan belgilanadi. Menejer yangi xodimga ehtiyoj borligini taxmin qiladi va xodimlarning vakillari taklifni tasdiqlaydilar. Biroq, lavozimni tasdiqlash Federal Ta'lim vazirligi orqali amalga oshiriladi.

Finlyandiya, masalan, Xelsinki universitetida «O'qituvchilar ta'limi to'g'risidagi qonun» ba'zi tayinlash jarayonining tartiblarini belgilaydi. O'qituvchi darajasidan past bo'lgan xodimlar fakultetga birlashtirilgan professor-o'qituvchilar tomonidan tayinlanishi mumkin. Lavozimga tavsiyanoma berish bo'yicha qarorlar fakultet, universitet kengashi, so'ngra bosh kengash, so'ngra universitet rektori darajasida qabul qilinadi.

Niderlandiyadagi muassasalar to'rtta shartga rioya qilgan holda parlament akti doirasida katta erkinlikka ega: oliy yoki kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi guvohnoma va ta'lim nazariyasi bo'yicha tegishli tayyorgarlik, ijobiy ma'lumotnoma, tibbiy ma'lumotnoma. Lyuksemburg universitetlarida katta o'qituvchilar va assistentlar Buyuk Gertsog va Ta'lim vazirligi tomonidan tayinlanadi. Kiprda vaqtinchalik lavozimlarga tayinlash Ta'lim komissiyasi (ESC) tomonidan amalga oshiriladi. Arizalar uch a'zodan iborat maslahat qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

AQShda oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha mamlakat pedagogik hamjamiyatining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi milliy markazlar Amerika oliy ta'lim assotsiatsiyasi, Amerika kollejlari va universitetlari assotsiatsiyasi (American Association of Higher Education), Oliy maktablar kengashi, boshqa professional tashkilotlarda amalga oshiriladi. Aynan shu muvofiqlashtiruvchi markazlarning sa'y-harakatlari bilan universitet o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlash bo'yicha turli dasturlar yaratildi va muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Bo'sh ish o'rinlarini (ustoz, o'qituvchi, professor, direktor) to'ldirish to'g'risidagi qaror xodimlarga bo'lgan ehtiyojga bog'liq va belgilangan tasdiqlashni talab qiladi, masalan, direktor raisligidagi kadrlar siyosati qo'mitasi tomonidan, har yili jalb qilingan xodimlar vakillari bilan ustuvorliklarni ko'rib chiqishi mumkin. Bo'sh o'rinni egallash to'g'risidagi qaror kafedra yoki muassasaning rivojlanish rejasiga muvofiq qabul qilinadi va akademik, moliyaviy va resurs ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni o'z ichiga olishi mumkin. Misol uchun, Kiprda har yili yanvar oyida barcha maktablarda reklama kompaniyasi o'tkaziladi. Reklama ichki, universitet ichida yoki milliy universitet tizimida kengroq bo'lishi mumkin. Germaniya va



Avstriyada ta'lim vazirligi maxsus gazetada reklama qilishni talab qiladi. Finlyandiya tanlovdan 30 kun oldin ma'lumotlarni joylashtirishni ta'minlaydi.

Tanlovning rasmiy mezonlari mavjud. Ular qonuniy yoki zarur bo'lishi mumkin. Masalan, shaxsiy xususiyatlar xodimlarning ishlaydigan jamoasi bilan muvofiqi uchun hal qiluvchi omil bo'lishi mumkin. Barcha tizimlarda qonuniy talablardan biri aspirantura diplomi va muvaffaqiyatli kasbiy tajribadir. Masalan, Ispaniyada professor bo'lishni istagan kishi falsafa doktori (PhD) darajasiga ega bo'lishi kerak, u maktab tajribasini o'qitishni talab qilmaydi. Avstriyada fanni o'rganish metodikasi fanidan oliy ta'lim o'qituvchisi quyidagilarga ega bo'lishi kerak: ushbu fanni o'qitish huquqini tasdiqlovchi sertifikat; majburiy maktabda kamida to'rt yillik amaliy ish tajribasi va o'qituvchi sifatidagi baholash sertifikati; fan sohasiga oid to'rtta nashr. Lavozimga nomzodlar o'zlarining kasbiy muvofiqi to'g'risida tavsiyalar berishlari kerak. Ba'zi hollarda barcha murojaat etuvchilardan ma'lumotnomalar talab qilinadi, boshqalarda (masalan, Uelsda) – suhbatga taklif qilmoqchi bo'lganlardan. Ma'lumotnomalarni arizachini biladigan xodimlardan olish mumkin. Niderlandiya va Isroilda yozma ma'lumotnomalar talab qilinmaydi. Nomzodlar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni olish o'ta muhim. Germaniya ta'lim muassasalarida talabgorlar to'g'risidagi ma'lumotlar bosh maktab inspektori tomonidan taqdim etiladi, uning hisoboti tayinlash komissiyasiga yuboriladi. Finlyandiya ta'lim fakulteti nomzodning hisoboti, tadqiqot faoliyati va nashrlarini ko'rib chiqish uchun ikkita ekspertni tayinlaydi. O'qituvchining tegishli bilim darajasining mavjudligi tekshiriladi, uning kasbiy tajribasiga ustunlik beriladi. Bundan tashqari, ochiq ma'ruza va uni uch ballik shkala bo'yicha baholash talab etiladi: A - a'lo, B - juda yaxshi, C - yaxshi. Xabarlar mahalliy qo'mitaga o'tkaziladi. Ariza beruvchining uch yoki to'rt kishidan iborat komissiya tomonidan standart suhbat shaxsiy suhbatning mumkin bo'lgan variantlaridan biridir. Ariza, so'rovnoma, yozma xabarlar va boshqa hujjatlar ma'lumotlari asosida suhbatga chaqirish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Suhbat jarayoni bir necha bosqichlarni va turli shakllarni o'z ichiga olishi mumkin. Shotlandiyada bu jarayon bir bosqichdan iborat, ya'ni besh nafar xodimdan iborat guruhning 40 daqiqalik suhbat: muassasa direktori, direktor o'rinbosari, katta xodim, katta ish tajribasiga ega o'qituvchi, mahalliy maktab direktori. Komissiya a'zolari ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan barcha hujjatlar bilan tanishish huquqiga ega va yig'ilishda ular to'rt yoki beshta talabnoma beruvchi bilan parallel ravishda o'z yo'nalishlari bo'yicha so'rov o'tkazadilar.

Angliyada tayinlash jarayoni uch-to'rt bosqichdan iborat bo'lishi mumkin: katta ma'mur tomonidan O'qituvchilar agentligidan ma'lumot so'rashi; uch talaba bilan individual dars; kurs rahbari bilan suhbat; boshqa abituriyentlar va kafedra xodimlari bilan suhbat. Finlyandiya intervyu yo'q, tavsiyalar hisobga olinadi va ish hisoboti va o'qitish natijalari tekshiriladi. Eng munosib nomzodlarga lavozimlarni taqdim etish. Tayinlash bo'yicha qaror qabul qiluvchilar professional o'qituvchilar, ma'murlar yoki siyosiy guruhlar vakillari bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda qaror yuqori darajada tasdiqlanishi kerak. Finlyandiya davlat nomzodni ko'rib chiqadi va kanslerga tayinlashni tavsiya qiladi. Shotlandiya, Uels va Angliyada muassasa menejrlari guruhi qaror qabul qiladi. Finlyandiya o'qituvchining tadqiqot faoliyati darajasi eng hal qiluvchi hisoblanadi. Angliyada ilmiy yutuqlar, tadqiqot malakalari va kasbiy tajriba o'rtasidagi muvozanat hisobga olinadi. Shotlandiyada Qo'mita oddiy ovoz berish yo'li bilan qaror qabul qilishi mumkin.

Niderlandiya, Islandiya va Germaniyada sinov muddati tayinlanganidan keyin bir yil davom etadi, Isroilda bu uch yil. Gretsiyada u professorlar uchun belgilanmagan. Kiprda Pedagogika instituti direktoridan past bo'lgan barcha lavozimlar uchun shartnomalar bir yilga tuziladi va keyin uzaytiriladi. Buyuk Britaniyada qisqa muddatli shartnomalar tizimi mavjud. Niderlandiyada o'qituvchiga o'qitish bilan bog'liq muammolarning nazariy jihatlarini o'rganish uchun ikki kunlik kurs taklif etiladi. Ko'pgina tayinlanganlar universitetda ishlashni malaka oshirishning asosiy vositasi deb bilishadi, bu ularning seminar va simpoziumlarda ishtirok etishini rag'batlantiradi. Norvegiyada har bir kollejdagi malaka oshirish kurslari mavjud. Finlyandiya «O'qituvchilar ta'limi to'g'risida»gi qonun o'qituvchilarga bir muddat chet elda

qo'shimcha ta'lim olish huquqini beradi. Yangi Zelandiyada o'qituvchilarning faqat yarmi birinchi marta tayinlanganidan keyin qo'shimcha akademik yoki kasbiy malaka oladi. O'qituvchining universitet maqomi akademik malakaga ega bo'lish, pedagogik muammolarga qiziqish ko'rsatish muvaffaqiyatiga bog'liq. Biroq, ko'pgina mamlakatlarda o'qituvchi lavozimini egallashning aniq mezonlari mavjud emas va o'qitishning turli darajalari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarning tabiati aniq emas. Masalan, Amerika tizimi nihoyatda dinamik bo'lib, uning o'zgarishi va yangilanishi bir qancha omillar bilan bog'liq. Ularning asosiylari ta'lim sohasidagi davlat siyosati, fanlarning integratsiyasi va tabaqalanishi, uzluksiz bilim tizimini rivojlantirishdir. Mamlakatda ta'lim, jamiyatning yangi tipdagi pedagog kadrlarini tayyorlash ehtiyojlarini qondirish.

**Xulosa.** XXI asrda universitet o'qituvchilari lavozimiga tayinlashning yuqorida sanab o'tilgan shakllarini joriy qilish orqali nomzodlarda o'quv materialini keng auditoriya oldida taqdim etish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga o'quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan pedagogik mahorat shakllanadi. Oliy ta'lim faoliyatining maqsadlari, vazifalari, mazmunida ro'y berayotgan zamonaviy o'zgarishlar universitet o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga, universitetda o'qitish shakllari va usullariga yuqori talablarni qo'yadi va quyidagilarga imkon beradi: rollarning xilma-xilligini amalga oshirish; zamonaviy o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi; mamlakat oliy o'quv yurtlarining turli ko'rinishlari va o'qitishning eng samarali uslub va uslublari bilan tanishish; turli kasbiy qo'mitalar va komissiyalarga a'zo bo'lish; tajribali hamkasblar bilan o'qitishning dolzarb masalalarini muhokama qilish va natijada ishtiyoqli va kasbiy yo'naltirilgan mutaxassislariga aylanish. OTMlarning professor-o'qituvchilari faoliyatini diagnostika qilish amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda individual o'qituvchi va professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish jarayoniga ta'sir qiluvchi pedagogik ahamiyatga ega omillarni aniqlash, shuningdek, pedagogik kadrlarni tayyorlash, moslashtirish va rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun diagnostika tizimi etarlicha rivojlanmagan. Umuman olganda, OTM o'qituvchilari kasbiy kompetentsiyasining pedagogik va psixologik diagnostikasi tizimli va ko'p tarmoqli bo'lishi lozim.

#### Adabiyotlar:

1. Бонадренко Е.Н. Принципы профессионального отбора научно-педагогических кадров в вузах мира и на современном этапе // Вестник ВолГУ. Серия 6. Вып. 11. - В., 2008-2009.
2. Good T.L. Building the knowledge base of teaching // What teachers Need to know: the knowledge, skills and values essential to good teaching. - San Francisco, 2004.
3. Kendall S., Allebone B., Griffiths J. Different voices in partnership // Mentoring and tutoring. - L., 1998.
4. Kohonen V. New teacher professionalism and collegial school culture: empirical findings of an action research project / ed. E. Kimonen; Curriculum approaches Qyvaskyla, department of teacher education and Institute for educational research. - University of Jyvaskyla, 2003.
5. Gordon S. How to Help Beginning teachers succeed. - Alexandria, 2001. - 243 p.
6. Luukkainen O. Teachers in 2010. Anticipatory project to investigate teachers' initial and continuing training needs (OPEPRO): Report 15, English Summary. - Helsinki: National Board of Education, 2000.

---

## O'QUVCHILARNING TEXNIK IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Nasrullayeva Fatima Azatovna, TDPU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada o'quvchilarning texnik ijodkorligini shakllantirishda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan ishlar, zamonaviy dars o'tish bosqichlari, innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish usullari tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** *ijodkorlik, texnik ijodkorlik, elektron platforma, ilmiy tadqiqot, ilmiy rivojlanish, innovatsion texnologiya.*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА У УЧАЩИХСЯ

*Насруллаева Фатима Азатовна, преподаватель ТГПУ*

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы формирования работ технического творчества учащихся и показаны основные этапы использования инновационных технологий на уроках технологии.

**Ключевые слова:** *инновационные технологии, этапы использования, творчество, научные исследования, научное развитие, творчество, развитие электронная платформа.*

## USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF PUPIL'S TECHNICAL CREATIVITY

*Nasrullayeva Fatima Azatovna, teacher of TSPU*

**Abstract.** The article deals with the formation of the works of technical creativity of pupil's technical creativity and the main stages of the use of innovative technologies in technology lessons.

**Key words:** *innovative technologies, stages of use, creativity, scientific research, scientific development, creativity, electronic platform development.*


**Kirish.** O'quvchilarga ta'lim berishning zamonaviy innovatsion uslublarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan industrial-texnologik lokomotivlari qatoriga kirishi, ya'ni 2030-yilga kelib iqtisodiyotning sanoat va texnologik tarmoqlari bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan biridir.

**Asosiy qism.** O'quvchilarni texnik tafakkurini va mehnatga ijodiy munosabatini rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida fan texnika taraqqiyotini jahon standartiga chiqishni, mahsulot sifatini tubdan yaxshilashni, ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta'minlay oladigan yosh avlodni tarbiyalash eng muhim vazifa hisoblanadi. O'quvchilarning texnik ijodkorligi – o'quvchilarni ijodkorlikka jalb qilishning keng tarqalgan ommaviy shaklidir. Texnologiya ta'limi mashg'ulotlarida o'quvchilarda texnik ijodkorlikni rivojlantirishda kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish natijasida kasbiy munosabatlar samarali rivojlanishi kuzatiladi. O'quvchilar o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajarish, nazorat topshiriqlariga javob berish uchun o'tilgan mavzularni to'laroq o'zlashtirishga intiladilar.

Ijodkorlik – yangi moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyat

turi. Ijodkorlik faoliyati yangi buyumlar yaratilishi bilan belgilanadi. Kompyuterlarda saqlanuvchi axborotlar jamlanmasi bilimlar manbayi hisoblanadi. Unda axborotlarning barchasi belgilangan tartibda jamlab boriladi. Yangi axborot texnologiyalaridan axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va yangi axborotni yaratishda keng foydalaniladi.

Innovatsion texnologiya – ilmiy izlanishlar, ishlanmalar, tajriba-sinov ishlarini olib borish, boshqa fan texnika yutuqlaridan foydalangan holda o'quvchilarga yangi bilim berish. Ijodkorlik faoliyati natijasida buyum yaratiladi. Bu faoliyat reproduktiv va ijodiy bo'lishi mumkin. Reproductiv faoliyat – bu batafsil ishlab chiqilgan algoritm bo'yicha bajariladigan ish faoliyati. Ijodiy faoliyatda hech qanday chegara yo'q. Buning natijasida yangilikka ega bo'lgan mahsulot yaratiladi. O'quvchilar maktabni tugallagandan so'ng ijodkorlik masalalarini hal qila olmasligi bo'yicha ancha qiynalishadi. Bu haqda hech o'ylab ko'rganmisiz? Ko'pgina o'qituvchilar o'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatishda turli xil innovatsion metodlardan foydalanishlarini ta'kidlashadi. Biroq o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini egallashmagani ma'lum bo'lgach bu innovatsion metodlardan foydalanish samara bermayotganini ko'rishimiz mumkin. Har qanday fan bo'yicha mavzuni o'qitishda va o'rganishda shu fan tarkibidan kelib chiqqan holda metod tanlanishi, tanlangan metodlar bosqichma-bosqich to'g'ri olib borilishi zarur. Bunda asosiy 4 ta bosqich muhim hisoblanadi:



Tasavvurlarni shakllantirish bosqichida – o'quvchilar yangi ma'lumotlarni umumiy belgilari bilan tanishadilar, uning umumiy tuzulishini o'rganadilar.

Bilimlarni shakllantirish bosqichida o'quvchilar, asosan, nazariy va amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Bunda ulardagi bilim va ko'nikmalar – ilgari o'rganilgan bilimlarni takrorlash orqali shakllanadi.

Ilmiy va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish bosqichida o'quvchilar, asosan, turli ko'rinishdagi ijodkorlik topshiriqlarini bajaradilar. Bu jarayonda ilmiy va ijodkorlik ko'nikmalari shakllanadi.

Ilmiy rivojlanish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish bosqichida o'quvchilar ijodkorlik va tadqiqotchilik topshiriqlarini bajaradilar. Bunda ilmiy va tadqiqotchilik ko'nikmalari shakllanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan bosqichlar o'quvchilarni o'qitish metodlari va shakllarini to'g'ri tashkil qilishda yordam beradi. Har bitta bosqichda o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlari asta-sekin rivojlantirib boriladi. Dastlabki ikkita bosqich maktablarda muammosiz amalga oshiriladi. Muammolar oxirgi ikkita bosqichda ko'rinib qoladi. Ko'pchilik o'qituvchilarda har bir mavzuni o'rganish borasida tadqiqot olib borishi uchun xohish yo'q. Ilmiy va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda tizimli ishlar shakllantirilmagan. Buning uchun o'qituvchilar ijodkorlik, tadqiqotchilik, ilmiylik ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradigan zamonaviy, innovatsion metodlardan foydalanishni o'rganishlari kerak. O'quvchilarda ilmiy va tadqiqotchilik

ko'nikmalarini shakllantirish uchun o'qituvchilar ilmiy va ommabop adabiyotlarda nashr qilingan yangi ilmiy ishlar, murakkab bo'lmagan ilmiy tadqiqotlarni bajarib ko'rishlari kerak. Fan bir joyda turmaydi, u doimo rivojlanadi. Darsliklardagi ma'lumotlar eskiradi. Ilmiy adabiyotlar bilan ishlash o'quvchilar va o'qituvchilarni muntazam o'z ustida ishlashga, rivojlanib borishiga yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish uchun o'quvchilar nafaqat darsliklardan, balki yangi axborotlardan, texnikadan, internet tarmoqlaridagi ma'lumotlardan, turli sayt va platformalardan foydalanishni talab etiladi. Texnologiya fanni o'qitishda darslik va adabiyotlardan foydalanish samara bermaydi. Uning rivojlanishi uchun, albatta, texnik vositalardan elektron dars shakllaridan, platformalardan foydalanish kerak. Lekin texnologiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy vositalar hali ishlab chiqilmagan. Ishlab chiqilganlari ko'p emas va hozirda juda kam qo'llaniladi.

Ta'lim yangi bosqichga ko'tarilmoqda. O'quvchilarning fikrlash darajasi kengaymoqda. Axborotlarni olish osonlashgan. Yoshlar texnik qurilmalardan bemalol foydalana oladi. Bunday o'sish jarayonida o'qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanmaslik, ta'limda darsning samaradorligini pasayishiga olib keladi.

O'qituvchilar darslarni tashkil etishda turli texnik vositalar kompyuter, proyektor, noutbuk, elektron doskalardan foydalana olishadi. Lekin bu texnik vositalar uchun ma'lumotlar bazasi zarur. Ma'lumotlar bazasini tayyorlashga ko'p vaqt sarflanadi. Ilmiy izlanish qilishni maqsad qilgan tadqiqotchi olimlardan esa, o'qituvchilar ish faoliyatiga yordam beradigan, foydalanishlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bazasini yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish talab etiladi. Fan texnika yutuqlaridan foydalanish, ilmiy izlanishlar olib borish, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o'quvchilarga yangi bilimlarni berish innovatsion texnologiyalarga misol bo'ladi.

O'quvchilarning texnik ijodkorligini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishda «Texnologiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan elektron platform yaratish» bu kabi muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Ta'lim mazmunini yangilash unga zamonaviy texnologiyalarni olib kirish standartlar, dasturlar, darsliklar asosida yaratilgan elektron dars ishlanmalarini platformaga joylash yaratilishi nazarda tutilayotgan elektron platformaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Xulosa. «O'quvchilarning texnik ijodkorligini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish» mavzusida olib borilayotgan ilmiy ish texnologiya fanidagi mavjud muammolarni bartaraf etish, ta'lim mazmunini yangilash, unga zamonaviy usul va metodlarni olib kirish, AKT vositalaridan samarali foydalanish, elektron platforma orqali darslarni masofaviy tashkil etish hamda texnologiya fanining sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan.

### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi moddalarini ularni tadbiq etish yo'llari. - T.: Fan, 2005.
3. Воробей И.А. Педагогические основы трудового воспитания школьников. - T.: O'qituvchi, 1978.
4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. - T., 2006.
5. Sharipov Sh., Qo'ysinov O. va boshq. 7-sinf «Texnologiya» darsligi. - T.: Sharq, 2017.

---

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARDA ONGLI INTIZOMNI TARKIB TOPTIRISHGA O'RGATISH USULLARI**

*Baxronova Adiba Ismoilovna, BuxDU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quvchilarda ongli intizomni tarkib toptirishga o'rgatishning ayrim usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ongli intizom, uni shaxs takomillashuvdagi o'rni bayon qilingan.

**Tayanch so'zlar:** o'qituvchi, tarbiyaviy ishlar, ongli intizom, izchillik, tizimlilik, maktab ta'limi, sinfdan tashqari ishlar, tarbiyaviy faoliyat, mas'uliyat, e'tiqod.

**МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ  
ВКЛЮЧЕНИЮ СОЗНАТЕЛЬНОЙ ДИСЦИПЛИНЫ У УЧАЩИХСЯ**

*Бахронова Адиба Исмоиловна, преподаватель БухГУ*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются некоторые способы обучения будущих учителей начальных классов привитию учащимся осознанной дисциплины. Кроме того, описана сознательная дисциплина и ее роль в личностном развитии.

**Ключевые слова:** учитель, воспитательная работа, сознательная дисциплина, последовательность, систематичность, школьное образование, внеурочная деятельность, воспитательная деятельность, ответственность, вера.

**METHODS OF TEACHING FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS  
TO INCLUDE CONSCIOUS DISCIPLINE IN STUDENTS**

*Bakhronova Adiba Ismoilovna, teacher of BukhSU*

**Abstract.** This article discusses some ways to teach future elementary school students to instill conscious discipline in students. Conscious discipline and its role in personal development are also described.

**Key words:** teacher, educational work, conscious discipline, consistency, systematicity, school education, extracurricular activities, educational activity, responsibility, faith.

**Kirish.** Yosh avlodga tarbiya berishdek murakkab vazifani hal etishda maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. Maktab ta'limi orqali yoshlar ijtimoiy jamiyat va ilmiy texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan mukammal ma'lumotlarni oladilar. Boshlang'ich ta'lim yoshlarning dunyoqarashlariga poydevor hamda g'oyaviy e'tiqodlari uchun negiz yaratadi, ularning irodalarini shakllantiradi, xalqimiz baxt-saodati yo'lida sidqidildan mehnat qilishga taayyorlaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizda yangidan takomillashtirilgan 2020-yil 23-sentyabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun ta'lim tizimining buguni va kelajagiga umid bilan qarashga undaydi.

**Asosiy qism.** O'quvchilarga tarbiya berish, ularga ta'lim berish bilan mustahkam va yaxlit birlikda amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning o'z vazifasi, mazmuni, shakl hamda uslublari bor. O'quv tarbiyaviy jarayon uzviyligi maktab oldiga qo'yilgan eng muhim pedagogik qoidalardan biri hisoblanadi, shuning uchun ham sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o'quv jarayoni bilan bog'langandir [1]. Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarda asosiy vazifalari bo'lmish ilm olishga ishtiyoq uyg'otish, qobiliyati va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratishdan maktabni muvaffaqiyatli tugatish, kasb-korga intilish hissini tarbiyalashdan iboratdir. Yoshlarning

kundalik ehtiyojlari, intilishlari, talab va qiziqishlarini faqat dars jarayoni bilan qondirib bo'lmaydi. Sinf dan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilar faoliyatining barcha qirralarini qamrab olmog'i lozim. Har bir o'quvchi bilan yakkama-yakka ishlash, uni ijtimoiy-ruhiy jihatdan o'rganish sinf faoliyatiga yangicha mazmun olib kiradi. Abdulla Avloniyni «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham bir-biridan ayrilmaydigan, birining biriga bog'langan kabitur» deb ta'kidlashi bejiz emas [2]. Ma'lum bo'ladiki, ta'lim va tarbiyani bir-biridan ajratish mumkin emas. Shu bois, hozirgi kun pedagogikasining asosiy vazifasi bilim berish bilan birgalikda tarbiya tamoyiliga ko'ra tarbiyalash bo'lmog'i lozim.

O'quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda sinf rahbarining vazifasi quyidagilardan iborat: 1. Bilimga qiziqish va muhabbat uyg'otish. Bola bilimga qiziqmasdan turib, o'qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Bolada o'z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o'qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag'batlantirish ahamiyatlidir. Boladagi o'qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni yengishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg'otishga va mustaqilligini kamol topishga olib keladi. 2. O'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lish va unga mas'uliyat bilan yondashish. O'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lishlik ta'limning ijtimoiy, o'qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir. Sinf rahbarlari o'quvchilarga ularning bosh vazifasi – o'qish ekanligini tushuntirishi kerak. O'qishga mas'uliyat hissi, faqat Vatan oldidagi burchgagina emas, keng ijtimoiy qamrovli – jamoa, o'qituvchilar, ota-onalar va o'z oldidagi mas'uliyat, ularning fikrlari, ma'qullashlarini eshitishga intilish, sinf, o'quv jamoasida munosib o'rinni egallashga ham tegishlidir. 3. O'quv madaniyatini oshirish. O'zlashtirishning past bo'lishi aksariyat hollarda, o'quvni tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko'nikmasining bolalarda shakllanmaganligidan kelib chiqadi.

Sinf rahbarining va fan o'qituvchilarining asosiy vazifasi har bir o'quvchining faoliyatini quyidagi shartlar asosiga qurish bilan bog'liq: 1. Faoliyatni reja asosiga qurish. 2. Qunt bilan ishlash. 3. Pala-partishlikka yo'l qo'ymaslik, saranjomlikka o'rganish. 4. Bilim sifatini oshirish. 5. Qiyinchiliklarni yengish. 6. O'quv mehnatida muayyan rejimga itoat etish. Bu degani o'quv mehnatini o'quvchining dam olishi bilan to'g'ri almashtirib borilishidir. 7. O'qishda o'rtoqlarcha o'zaro yordam uyushtirish. O'rtoqlarcha o'zaro yordam sinfda ulgurmovchilikning oldini oladi, sinf jipsligini oshiradi, jamoatchilik ruhining shakllanishiga olib keladi. 8. O'qituvchilar bilan o'zaro hamkorlik. Sinf rahbari ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki shu sinfda dars beruvchi boshqa o'qituvchilar bilan o'zaro hamkorlikda olib boradi.

Sinf rahbari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida o'qish nafaqat har kimning shaxsiy ishi, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ish ekanligini o'quvchilarga tushuntirib boradi. Mustaqil davlatimiz, butun xalqimiz maktab dargohidan chuqur bilimli, hayotga har tomonlama tayyorlangan kishilarning yetishib chiqishini kutmoqda. Bular haqida sinf majlislarida, har bir o'quvchi bilan alohida yoki bir guruh o'quvchilar bilan o'tkaziladigan suhbatlarda, turli tarbiyaviy tadbirlarda sinf rahbari batafsil gapirib beradi. O'qish bu jiddiy mehnat ekanligini va bunga astoydil yondashish, katta mas'uliyat bilan qarash kerakligi bolalarga tushuntirib boriladi. «Bilim – takrorlash mevasidir», – degan edi Abu Rayhon Beruniy [5]. Sinfda va uyda ko'p va jiddiy ishlaydigan bolalar, odatda o'qishda va mehnatda katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Har qanday muvaffaqiyatning zaminida tinimsiz mehnat yotadi. Bolalarni o'qishga mas'uliyat bilan qarash ruhida, ko'chirib olishga qarshi nafrat ruhida tarbiyalash kerak. Tarbiya soatlarida vaqti-vaqti bilan mazkur masalalar butun mazmun-mohiyati bilan muhokama qilinishi, shu orqali o'quv mashg'ulotlariga loqaydlik bilan qaraydigan o'quvchilarga sezilarli ta'sir o'tkazish kerak. Sinfning o'zlashtirish masalasi atrofida jamoatchilik fikrining shakllanishi, bu borada sinf devoriy gazetasi imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi natijalar beradi. O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda qo'llay bilishlarini hisobga olish ayniqsa muhimdir. Bu tajriba juda ko'p maktablarda muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda. O'quvchilarga biror bir fan bo'yicha ko'rgazmali qurol yoki biror jihoz yasab

kelish buyuriladi. Bunda «Agar tirishsang, bu sening qo'lingdan keladi» degan gapni uning qulog'iga quyish kerak. Buni o'quvchi nafaqat oddiy topshiriq, balki o'qituvchining ishonchi sifatida ham qabul qiladi. O'quvchi topshiriqni puxta qilib bajarishi uchun u yoki bu fan asoslarini o'rganishga, o'z bilimini chuqurlashtirishga harakat qiladi, o'zi yasayotgan o'quv quroliga, ushbu fanga nihoyatda qiziqib qoladi. Shu bilan birgalikda har bir yasalgan narsa zahirida mehnat yotganligini his qiladi, sinf va maktab jihozlarini avaylashga o'rganadi. Maktab o'quvchilarining bilimga qiziqishi ularning hayotiy ehtiyojlariga bevosita bog'liqdir. Maktab hovlisidagi bog', tokzor, issiqxonada o'tkaziladigan amaliy jarayon – daraxtlarni butash, ularga payvand solish, tok kesish, daraxt o'tqazish, issiqxonalarda pomidor, sabzavotlar yetishtirish qoidalari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Bu hol ularni botanika, geometriya, jo'g'rofiya, mehnat fanlariga havas, ularni sevib o'rganishga rag'bat uyg'otadi. Axir, yuqoridagi fanlardan chuqur bilim va malaka hosil qilmay turib, mazkur ishlarining mohir ustalari bo'lib yetishish mumkinmi? Bolalarga ijtimoiy fanlarga qiziqishni o'rtirish uchun ularni turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarga tortish ahamiyatlidir. Huddi fizika, ximiya, biologiya, tarix, mehnat, astronomiya, chet tili fanlari ham o'quvchilarda havas uyg'otadigan juda katta hayotiy amaliy imkoniyatlarga egadir. Bilimga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va o'stirishda sinflarni, o'quv xonalarini va maktab binosini jihozlash ham katta ahamiyat kasb etadi, o'quvchilarda turli qarashlar, did, dunyoqarashni shakllantiradi, estetik zavq uyg'otadi, tegishli ma'lum sohalarga havas uyg'otadi. Bolalarda o'quv mehnatiga javobgarlik va mas'ullik hissinini tarbiyalash juda muhimdir. Mas'ullikni sezmayotgan o'quvchi pala-partish o'qiydi. Mas'ullik kishini sergak torttiradi, o'quv faoliyatiga alohida javobgarlik hissi bilan qarashga undaydi. Ma'lumki, ongli intizom va mas'uliyat hissinini sezish maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimining samarasi hisoblanadi.

Pedagogika ensiklopediyasida «intizom (disciplina – o'qitish, o'rgatish; qat'iy tartib) – o'zini tutishning ma'lum bir tartibi, tarixan qaror topgan qonun-qoida, ma'naviy qadriyatlarini odamlar tomonidan rioya etilishi» tarzida talqin qilingan [3]. Shu tartib qoidalari jamiyat yoki ma'lum sinflar yoki alohida jamoat guruhlarining manfaati uchun o'rnatiladi. Intizom keng ma'noda talqin qilinib, uning yordamida jamoat tartib qoidalari amalga oshiriladi. Intizom shunday vositaki, uning yordamida odamlar birligining qandaydir ichki birligiga erishiladi. Intizom jamiyatning normal, barqaror rivojlanishining muhim shartidir. U tufayli insonlarning xatti-harakatlari yaxshilanadi. Intizom jamoa faoliyati va ijtimoiy tashkilotlarning faoliyati ijobiy tus oladi. Jamiyatda doimo barcha majburiy bo'lgan va maxsus intizom mavjud. Maxsus intizom faqatgina ma'lum bir alohida tashkilot (mehnat ma'nosi, harbiy bo'linma) a'zolari uchun majburiydir. Bolalarning intizomli bo'lishida sinf rahbarining xizmati katta. U darsda va darsdan tashqari vaqtlarda turli tarbiyaviy usullardan foydalanib, bolalarda intizomni tarbiyalab boradi, sinfda aniq rejim va ichki tartib o'rnatishga kirishadi; jihozlash, tozalik va tartibni joriy etib boradi. Bu ishlarni sinf rahbari bir o'zi emas, balki o'qituvchilar, sinf jamoasi, faollari va ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Sinfda intizomni saqlash va joriy qilish faqat sinf rahbarining ishi deb tushunuvchilar ham uchrab turadi. Bu mutlaqo noto'g'ri fikr. Intizom uchun butun sinf, pedagogik jamoa mas'uldir. Intizomni tarbiyalash juda qiyin va murakkab tarbiyaviy jarayondir. Shunisi ham borki, ko'p vaqt qilingan mehnatni bir paytni o'zidayoq yo'qqa chiqarish mumkin. Masalan, sinf rahbari va ayrim fan o'qituvchilari darslarida bolalar jim, intizomli o'tirishadi, darslarni berilib tinglashadi, o'quv yumushlari bilan band bo'lishadi; ba'zi o'qituvchilarning darslarida buning aksi: bolalar qiy-chuv qilishadi, bir-biriga qog'oz otishadi, partaning ostiga kirib yashirinishadi, natijada o'qituvchi tajanglashadi, o'quvchilar bilan ixtilofga boradi. Bunday ayanchli manzara har bir maktab hayotida uchrab turishi tabiiy. O'quvchilarda intizomni tarbiyalamasdan turib, ularni maktabga, atrof-muhitga, kishilarga, darslarga to'g'ri munosabatda bo'lishga, uy vazifalarini bajarishga, sarajomlikka o'rgatish qiyin. Ongli intizomni tarbiyalash – maktabning asosiy vazifasi hisoblanadi. Sinf rahbarlari



huddi shunday holatlarga o'z e'tiborlarini qaratishlari lozim. Butun sinf o'qituvchilari oldiga yagona pedagogik talablarni, qattiqqo'llikni, sinfda intizomni saqlash, o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni oshirishni alohida vazifa qilib qo'yish lozim.

Sharqning faylasuf shoiri Shayx Sa'diy: Agarda muallim bo'lsa beozor, Bolalar sinfni qilishar bozor, – deb bejiz aytmagan [5].

Yana shuni ham aytish kerakki, intizom deganda bolalarning partada qimirlamay o'tirishini emas, balki ongli intizomni tushunish kerak. Ko'pgina o'qituvchilar o'zicha intizom o'rnatmoqchi bo'ladilar. Sinfga qosh-qovog'idan qor yog'dirib kiradilar, dag'-dag'a qilib bolalarni siquvga oladilar, gah desa qo'lga qo'nadigan qilmoqchi bo'ladilar. Bu bilan mutlaqo kelishib bo'lmaydi. Zo'ravonlik asosiga qurilgan tartib yaxshilikka olib bormaydi. Bu murg'aq qalblarga adovat urug'ini sochadi, ularni sovuqqon, qo'rqqoq, jur'atsiz, yolg'onchi, ozurda qilib qo'yadi. Lug'atlarda intizomga berilgan ta'riflardan biri «izchillik»dir. Unga ko'ra, intizom izchil, uzluksiz, muntazam bo'lmog'i kerak, shundagina u yaxshi samara beradi [4]. Qat'iy intizomga yoshlikdan o'rgatilsa, bola katta bo'lganda ham intizomli bo'ladi. Intizom inson faoliyatining barcha turlarida bo'lmog'i lozim. Intizom bo'lmagan oila, jamoa va korxona, muassasada ish unumdorligi hamda sifati past bo'ladi. Intizom bo'lmagan joyda parokandalik vujudga keladi, usiz hech qanday tadbiri amalga oshirib bo'lmaydi. Intizom turlicha bo'lishi mumkin. Katta korxonalarda ichki intizom qoidalari ishlab chiqilib, jamoa tomonidan tasdiqlanganidan keyin unga rioya qilish hamma uchun majburiydir. Inson huquqlarining ta'minlanishiga to'siqlik qilmaydigan, insonning insonlik sharafiga zid talablar qo'ymaydigan intizom qoidalari bajarilganda ishchiga ham, ish beruvchiga ham qulay sharoit vujudga keladi. Intizomli odam vaqtdan to'g'ri foydalanadi, o'z vaqtini to'g'ri taqsimlaydi va maqsadga erishadi. Intizomli odam sabr-qanoatli bo'ladi, u nafaqat o'zining, balki boshqalarning ham vaqtini tejaydi. Intizomli odam ahdiga vafo qiladi. Intizomning o'zi ham qaysidir ma'noda odamni tarbiyalaydi. Masalan, aksariyat hollarda intizomli o'quvchi yoki talaba darslarni yaxshi o'zlashtiradi, chunki u o'zini nazorat qilishini, diqqat-e'tiborini jamlashni biladi. Intizom tilimizdagi tartib, qoida kabi so'zlar bilan muayyan holatlarda ma'nodosh bo'lib keladi.

**Xulosa.** Darslardagi tartib-intizomni saqlashning eng yaxshi usuli o'quvchilar ishonchini qozonishdir. Darsni qizg'in, ijodiy, ko'rgazmali qurollar yordamida, ular havasini va hayratini uyg'otish, lol qoldirish, dars o'tilgach birorta ham o'quvchini «bo'sh» yoki topshiriqsiz qoldirmaslik – har biriga o'ziga xos amaliy topshiriqlar berish ayni muddaodir. Intizomli bo'lish nafaqat maktabda, balki o'quvchining kelgusi hayotida ham asqotishi turgan gap. Chunki, inson hayotining chigal va murakkab so'qmoqlarida ham tartib-intizom muhim ahamiyatga ega.

#### Adabiyotlar:

1. Djurayeva S., Turdiyeva N., Baxronova A. Tarbiyaviy ishlar metodikasi: 51111700 - Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. - Buxoro, 2021. - 157 b.
2. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq: <https://saviya.uz/ijod/nasr/intizom>
3. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / Tuzuvchilar: jamoa. - T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. - 376 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild. - T.: «Uzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 672 b.
5. Pedagogika tarixidan xrestomatiya / Tuzuvchi O.Hasanboyeva. - T.: O'qituvchi, 1993. - 464 b.

**ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA INDIVIDUALLASHTIRISH TAJRIBASI**

*Xaydarova Malika Djamshitovna, BuxDU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida individuallashtirishga oid ayrim tajribalar tahlili keltirilgan bo'lib, xorijda ham ta'lim-tarbiya ishlarini individuallashtirishni tashkil etishning ko'plab variantlari amaliyotda qo'llanilayotganligi haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** *individual yondashuv, differentsiatsiya, geterogen, gomogen, prinsip, o'quv faoliyati, o'quv topshiriqlari, shartli refleksiya, ijodiy rivojlantirish, individual xususiyat.*

**ОПЫТ ИНДИВИДУАЛИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ**

*Хайдарова Малика Джамшитовна, преподаватель БухГУ*

**Аннотация.** В данной статье представлен анализ некоторого опыта индивидуализации в современной системе образования и считается, что многие варианты организации индивидуализации воспитательной работы используются на практике за рубежом.

**Ключевые слова:** *индивидуальный подход, дифференциация, разнородный, однородный, принцип, учебная деятельность, учебные задачи, условная рефлексия, творческое развитие, индивидуальность.*

**EXPERIENCE OF INDIVIDUALIZATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM**

*Khaidarova Malika Jamshitovna, teacher of BukhSU*

**Abstract.** This article presents an analysis of some experiences related to individualization in the modern education system, and it is thought that many options for organizing individualization of educational work are being used in practice abroad.

**Key words:** *individual approach, differentiation, heterogeneous, homogeneous, principle, educational activity, educational tasks, conditioned reflection, creative development, individual character.*

**Kirish.** Rivojlangan davlatlarning ta'lim sohasidagi tajribalariga ko'ra, individual yondashuv ta'limning eng muhim tamoyillaridan biri sifatida qaraladi. Har bir o'quvchi shaxsi istisnosiz individual yondashuvga muhtoj. Individual yondashuv faol, shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi tamoyil bo'lib, shu bilan o'quvchi individualligini ijodiy rivojlantirishni nazarda tutadi.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda individuallashtirish g'oyalarini yangicha tushunish o'qituvchi va o'quvchilar uchun ham keng faoliyat maydonini ochadi: o'rganishning pirovard maqsadi va aniq vazifasini anglagan ijodiy, maqsadli shaxsni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratiladi; ta'lim motivatsiyasi kuchayadi, yangi ilg'or pedagogik tafakkur shakllanadi, o'qituvchi o'quvchilarning qobiliyatlari haqida baholash va fikrlarda shablondan xalos bo'ladi, muvaffaqiyatning maksimal rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan «shubhasiz yutuqlar» va soya tomonlarini ko'rishni o'rganadi. Shuningdek, aniq kamchiliklarda (o'qituvchining faol yordami bilan) o'quvchining salohiyatini optimal ravishda ochishga olib keladigan ijobiy tomonlarini payqash imkonini beradi [1]. Inge Unt ta'limotida «o'rganishni individuallashtirish» tushunchasidan foydalanganda shuni yodda tutish kerakki, uni amaliy o'rganishda biz mutlaq emas, balki nisbiy individuallashtirish haqida gapiramiz [2]. Inge Untning fikricha, maktab amaliyotida individual yondashuv odatda

quyidagi holatlarda qo'llanilishi nazarda tutiladi: 1) har bir o'quvchining individual xususiyatlari odatda hisobga olinadi, lekin taxminan bir xil xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar guruhida; 2) faqat ma'lum xususiyatlar yoki ularning komplekslari, aniqrog'i, o'qitish nuqtai nazaridan muhim bo'lganlar (masalan, umumiy aqliy qobiliyatlar) hisobga olinadi; 3) ba'zan ayrim xususiyatlar yoki holatlar ma'lum bir o'quvchi uchun muhim bo'lgan taqdirdagina hisobga olinadi (masalan, qaysidir sohadagi iqtidor, sog'lig'ining buzilishi); 4) individuallashtirish o'quv faoliyatining butun hajmida emas, balki epizodik yoki o'quv ishining qandaydir shaklida amalga oshiriladi. Xorijda ham ta'lim-tarbiya ishlarini individuallashtirishni tashkil etishning ko'plab variantlari amaliyotda qo'llaniladi. Variantlardan biri – ta'limning differentsiatsiyasi, ya'ni bir nechta turli o'quv rejaları va (yoki) dasturlari bo'yicha o'qitish uchun o'quvchilarni individual xususiyatlari yoki ushbu xususiyatlar majmuasi asosida guruhlash. Nisbatan bir xil sinflar (guruhlar, maktablar) shunday yaratiladi.

Ta'lim amaliyotida keng tarqalgan ikki turdagi sinflar (maktablar) mavjud: 1) maxsus qobiliyatlar, qiziqishlar va kasbiy niyatlar asosida yaratilgan; 2) umumiy aqliy rivojlanish darajasi va salomatlik holati asosida shakllanadi.

Hozirgi vaqtda ta'lim ishini individuallashtirishning qaysi shakli ko'proq mos keladi – sinfni gomogenlashtirish yoki geterogenlashtirish masalasi butun dunyoda muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Bir xil sinflarning afzalliklarini isbotlash uchun quyidagi dalillar keltiriladi: o'qituvchining ishlashi osonroq, unga turli xil o'quvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishning har xil turlariga moslashish qulayroqdir, chunki bu yerda farqlar unchalik ahamiyatli emas va o'quv ishini sinf ichidagi individuallashtirishga ehtiyoj kamroq. Bir jinsli sinflarga qarshi quyidagi dalillar ilgari suriladi: o'quvchilarning qaysi sinfga mansubligini bilishi kuchli o'quvchilarda snoblik, kuchsizlarda esa, o'zini pastlik tuyg'ulariga olib keladi; kuchli o'quvchilarning rivojlanish ta'sirisiz o'rtacha va zaif o'quvchilar. Bundan tashqari, bir xil sinflar faqat umumiy aqliy qobiliyatlar asosida yaratilishi salbiy tomoni hisoblanadi, buning natijasida o'quvchi intellektining turli tomonlari va uning shaxsiyatining boshqa xususiyatlari, shuningdek, rivojlanish omillari hisobga olinmaydi. Ko'rinib turibdiki, o'qituvchi individual yondashuvni qo'llashda bolalarni qanday farqlash, ularning xususiyatlarini qanday mezonlar bilan ajratib ko'rsatish, boshlang'ich darajasini qanday aniqlash kerakligi haqidagi muammolarga duch keladi. Shuningdek, individual yondashuvni qo'llashda o'qituvchi har bir o'quvchining rivojlanish darajasini bilishi hamda quyidagilarga amal qilishi kerak [3]: 1) o'quvchining o'sishini ko'rish va uni hisobga olish; 2) o'quvchilarning turli guruhlar bilan jamoaviy ishlash imkoniyatlarini tasavvur qilish; 3) o'quvchilar guruhining har biri bilan ishlash tizimini tanlash; 4) o'quvchilarni o'quv guruhlariga quyidagilarga qarab ajratish: a) o'rganishga munosabat (kognitiv qiziqish); b) kognitiv qobiliyatlar; v) akademik ko'rsatkichlar (bilim darajasi).

Ideal holda, o'rganish imkoniyatlari diagnostikasi psixologlar tomonidan amalga oshirilishi kerak, ammo o'qituvchi sinfda so'rov o'tkazishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, normal (barcha rivojlanish darajasi uchun me'yor ko'rsatkichlariga ega) bolalar faqat kitoblarda uchraydi. Deyarli har bir bolada u yoki bu (kichik bo'lsa ham) og'ishlar mavjud bo'lib, bu kelajakda ta'lim faoliyatida kechikishga olib kelishi mumkin [4]. Ta'lim amaliyotida erishilgan natijalardan ma'lum bo'ladiki, o'quvchilarning maktabda o'qishga tayyorgarlik darajasi bir xil emas. Ba'zilar uchun bu keyingi ta'limning muvaffaqiyati shartlariga mos keladi, boshqalari uchun bu maqbul chegaraga zo'rg'a erishadi [5]. Barcha testlardan olingan ma'lumotlar bolaning maktabga tayyorgarligining individual profilini yaratishga

imkon beradi, buning asosida uning rivojlanish darajasi aniqlanadi. O'qitishning ko'p bosqichli differentsiatsiyasi ta'lim jarayonining turli bosqichlarida keng qo'llaniladi: yangi materialni o'rganish; tabaqalashtirilgan uy vazifasi; darsda bilimlarni hisobga olish; qamrab olingan materialning o'zlashtirilishini joriy tekshirish; mustaqil va nazorat ishlari; nosozliklarni bartaraf etishni tashkil etish; mustahkamlash darslari.

Tashxis natijalariga ko'ra sinf darajalarga bo'linadi: 1-guruh – o'rganish qobiliyati yuqori bo'lgan o'quvchilar: notanish vaziyatda va mustaqil ravishda bilimlarni qo'llash qobiliyatini talab qiladigan murakkabroq materiallar bilan ishlash, muammolarni hal qilishga ijodiy yondashish. Muvozanatli qo'zg'alish va normal rivojlanishga ega o'quvchilar. Ular barqaror diqqatga ega, kuzatish natijasida ular dastlabki tushunchani hosil qiladi. Trening jarayonida ular umumlashtirish jarayonlarini muvaffaqiyatli o'zlashtiradilar, katta lug'at so'z boyligiga ega. 2-guruh – o'rtacha qobiliyatli o'quvchilar: birinchi guruhning topshirig'ini bajaradi, lekin o'qituvchining yordami bilan mos yozuvlar sxemalari bo'yicha. Qo'zg'alish jarayonlaridan tormozlanish jarayonlari ustun bo'lgan o'quvchilar. Ular mavzuning xususiyatlarini mustaqil ravishda aniqlay olmaydilar. Materialni yodlash uchun ular bir necha marta takrorlashlari kerak. Tashqi tomondan, ularning ruhiy xususiyatlari shoshqaloqlik, emotsionallik, e'tiborsizlik va sekinlik bilan namoyon bo'ladi. Bunday bolalar uchun umumlashtirish vazifalari qiyin, chunki ularning analitik fikrlash darajasi past. 3-guruh – o'rganish qobiliyati past bo'lgan o'quvchilar: ular o'quv vazifalarini tashkil etishda aniqlikni, ko'proq o'quv ishlarini va darsdagi yangi narsalarni qo'shimcha tushuntirishni, charchoqni, bilimda katta bo'shliqlarni, vazifalarni e'tiborsiz qoldirishni talab qiladi. Bunday o'quvchilar «zaif» toifasiga kiradilar. Ular sekin, befarq, sinf bilan hamqadam emas. Ularga individual yondashish bo'lmasa, o'rganishga qiziqishni butunlay yo'qotadi, garchi aslida ular muvaffaqiyatli o'qishi mumkin bo'lsa-da sinfdan orqada qoladi. Sinfdan uch guruh o'quvchilarini tanlash o'qituvchilarga ular uchun turli darajadagi vazifalarni tanlashda katta yordam beradi. Bunda har bir topshiriq o'ziga xos maqsad va talablarga ega bo'lishi nazarda tutiladi. Sinf ichidagi individuallashtirish zarurati qanchalik dolzarb bo'lsa, shunchalik geterogen sinf bunday individuallashtirishning obyekti bo'lib xizmat qiladi. Ta'limni individuallashtirishning eng keng imkoniyatlari yakka tartibda amalga oshiriladigan individual mustaqil ishdur.

O'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi talablar nazarda tutiladi:

1) o'quvchilarga o'quv topshiriqlari va ularni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar taklif etiladi; 2) ish o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, lekin uning rahbarligida amalga oshiriladi; 3) ishni bajarish o'quvchidan aqliy mehnatni talab qiladi.

Mustaqil ish jarayonida har bir o'quvchi ma'lum bir yozma ishni bajarishni o'z ichiga olgan aniq topshiriqni oladi, o'quvchilarga bir xil topshiriqlar berilmaydi, ular o'quvchilarning individual xususiyatlariga qarab o'zgaradi. Mazkur topshiriqlar o'quv materialini mahkamlash bosqichida o'quvchilarni turli mezonlar bo'yicha guruh doirasida guruhlash orqali qo'llaniladi [6]. Shuningdek, mustaqil topshiriqlar butun sinf uchun bir xil bo'lishi mumkin, ammo topshiriqning mazmuni butun sinf uchun bir xil, ammo kuchli o'quvchilar uchun ishni bajarish vaqti qisqaradi yoki kattaroq yoki murakkabroq vazifalar taklif qilinadi, zaif o'quvchilar uchun esa, topshiriqni bajarishni osonlashtirish uchun yordamchi material beriladi (qo'llab-quvvatlovchi sxema, algoritm, jadval, dasturlashtirilgan topshiriq, namuna, javob va boshqalar). Shuni ta'kidlash kerakki, jamoaviy ish usullari guruh va individual usullar bilan organik ravishda birlashtiriladi. Amalda bu quyidagicha amalga oshiriladi: dars boshida o'qituvchi barcha o'quvchilar oldiga ma'lum bir vazifani qo'yadi (bir oz bilim

o'rganish, ba'zi ko'nikmalarni egallash) va butun sinf bilan jamoaviy ish boshlaydi. O'quvchilar o'rganilayotgan materialning mazmunini frontal ravishda o'zlashtirar ekan, o'qituvchi ularga mustaqil topshiriqlar beradi (kitob bilan ishlash, ba'zi topshiriqlarni bajarish va h.k.), o'zi esa, qolgan o'quvchilar bilan materialni ishlab chiqishda davom etadi. O'qituvchi materialning keyingi guruh o'quvchilari tomonidan o'zlashtirilganiga ishonch hosil qilgandan so'ng, ularga bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va chuqurlashtirish bo'yicha mustaqil ishlarni taklif qiladi va qolgan o'quvchilar bilan ishlashni davom ettiradi. Materialni ham o'zlashtirib bo'lgach, ularga mustaqil topshiriq ham beriladi (bu vaqtda o'qituvchi birinchi ikki guruh o'quvchilarining bajargan ishlariga qaraydi). Dars oxirida barcha guruh o'quvchilari materialni o'rganadilar.

**Xulosa.** Pedagogik jihatdan asoslangan individual yondashuv bilan o'quv jarayonini sinf ichidagi farqlash muammosini muvaffaqiyatli hal qilish mumkin. O'quvchining ehtiyojlarini, qiziqishlarini, tayyorgarlik darajasini, kognitiv xususiyatlarini bilgan holda, uning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, qobiliyatlarni rivojlantirishdagi roldan to'liqroq foydalanish mumkin. Sinfidagi o'quvchilarning shartli refleksiya va aqliy faoliyatining xususiyatlarini bilgan holda, ta'lim ishining sur'atini to'g'ri tanlash, darslar mazmuni hajmini, o'quvchilar mehnatini tashkil etish turlari va shakllarini aniqlash, kuch va imkoniyatlaridan oqilona samarali foydalanish mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. - T., O'zbekiston, 2001.
2. Унт Инге. Индивидуализация и дифференциация обучения. - М.: Педагогика, 1990. - 192 с.
3. Samarova Sh.R. Ta'lim jarayonida individual yondashuv asosida o'quvchilarni o'qishga qiziqtirish mashqlari. - T., 2020: <https://cyberleninka.ru>.
4. Sherbaev X. O'quvchi shaxsiga munosabatlar va bola atrofdagilar bilan munosabatning ayrim psixologik masalalari // Евразийский журнал академических исследований. - 2021. - № 1 (9). - С. 257-260.
5. Dustmuxamedova Sh.A. O'qituvchilarning o'quv faoliyatlarini boshqarish psixologiyasi. - T., 2000.

**XALQ ERTAKLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS TARVIYAVIY XUSUSIYATLARI**

**Naymova Zuxra Qayratdinovna**, *Nukus davlat pedagogika instituti  
assistent o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada xalq pedagogikasi bo'lgan ertaklar yordamida bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, ma'naviy-ahloqiy jihatdan barkamol insonni voyaga etkazish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ular ongiga singdirish va tarbiyalashning nazariy asoslari masalalari ko'rib chiqiladi, yosh avlod shaxsining ma'naviy rivojlanishi tushunchasining mohiyati ochib beriladi. Maqola ma'naviyat va axloqni tarbiyalashga qiziqish ko'rsatish, yosh avlod o'rtasida axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish muammosini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, bu o'z xalqi madaniyati bilan tanishish imkoniyatini yaratdi.

**Tayanch so'zlar:** *xalq pedagogikasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, og'zaki folklor, ertaklar, tarbiya, ta'lim.*

**НАРОДНЫЕ СКАЗКИ И ИХ СВОЕОБРАЗНЫЕ ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ**

**Наймova Зухра Кайратдиновна**, *ассистент-преподаватель Нукусского  
государственного педагогического института*

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы теоретических основ обучения детей логическому мышлению на основе сказок народной педагогики, воспитания духовно-нравственного совершенного человека, внедрения в их сознание национальных и общечеловеческих ценностей и воспитания, раскрывается сущность понятия духовное развитие личности подрастающего поколения. Статья посвящена проблеме проявления интереса к воспитанию духовности и нравственности, повышению эффективности нравственного воспитания подрастающего поколения, что дало возможность познакомиться с культурой своего народа.

**Ключевые слова:** *народная педагогика, национальные и общечеловеческие ценности, устный фольклор, сказки, воспитание, образование.*

**FOLK TALES AND THEIR PECULIAR EDUCATIONAL FEATURES**

**Naimova Zuhra Kayratdinovna**, *assistant teacher of Nukus state  
pedagogical institute*

**Abstract.** Based on folk pedagogical tales, the article discusses the issues of teaching children logical thinking with the help of fairy tales, educating a spiritually and morally perfect personality, instilling in them national and universal values and educating them, reveals the essence of the concept of spiritual development of the personality of the younger generation. The article is devoted to the study of the problem of showing interest in the education of spirituality and morality, increasing the effectiveness of moral education in the younger generation, which created the opportunity to get acquainted with the culture of their people.

**Key words:** *folk pedagogy, national and universal values, oral folklore, fairy tales, upbringing, education.*

**Kirish.** Bugungi kunda ta'lim va tarbiya oldida turgan vazifalardan biri – ma'naviy-ahloqiy jihatdan barkamol insonni voyaga etkazish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ular ongiga singdirish, xalq pedagogikasi namunasi bulgan ertaklar asosida ularni Vataniga, ona-xalqiga, tarixi va istiqboliga muhabbat ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Bu yo'nalishda hech bir narsa xalqning asrlar osha misqollab to'plagan hayot tajribalarini, ruhiy olamini, xarakter-xususiyatini, urf-odatleri, udumlarini, an'analarini o'ziga jamlagan fol'klorchalik katta ahamiyat kasb eta oladigan soha bo'lmasa kerak. Fol'klor asarlaridan ertaklar

komil inson tarbiyasi, tabiatga, jamiyatga munosabat, insonni mukammallashtirishga qaratilgan tarbiyaning barcha vositalari o'z ifodasini topgan. Bolalarni fol'klor asarlari ertaklar asosida tarbiyalash ijtimoiy hayotimiz talab etgan barcha fazilatlarni bola shaxsiga mujassam etishga yordam beruvchi eng muhim vositadir.

**Asosiy qism.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni, 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari ertaklar orkali bolalarni komil inson tarbiya vazifalarni amalga oshirishda o'z aksini topdi. Ertaklar noyob hodisa sifatida yaratilishi, tarqalishi nuqtai nazaridan qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ular xalq pedagogikasida og'izdan-og'izga o'tib, asrlar osha tarixiy davrlar silsilasida o'zini yaratgan xalq bilan birga yashab, hayot bilan hamohang qadam tashlab, har bir davrga xos iqtisodiy, madaniy, xar xil urf-odat, an'analar bilan chambarchas bog'liq holda tarixda ular haqida o'ziga xos iz qoldirib kelmoqda. Rasman xalqning o'zi yaratgan tarbiyaviy an'analari, og'zaki ijodi – fol'klorni yaxlit bir madaniy-ruhiy, ma'naviy hodisa, deb hisoblasak, ertaklarni esa, undan alohida olib qarash mumkin emas. U xalq pedagogikasining bir bo'lagi sifatida xalq bilan birga yashab, birga rivojlanib kelmoqda. Ular bir-biri bilan tig'iz aloqada bo'lib, biri-birini to'ldirib, boyitib kelish xususiyatiga ega. Shu sababli ham ertaklar o'zining tuzilishi, mohiyati jihatidan xalq pedagogikasining ko'pgina adabiy vositalari bilan bog'liq holda rivojlanish qobiliyatiga ega. Xususan, ular asrlar osha yaratilib, xalqning ma'naviy boyligiga aylangan – ertak, savol-javob, chechanlik so'zlari, aytishuvlar bilan uyg'un holda rivojlanib kelmoqda. Xalq pedagogikasida ertaklarning tarbiyaviy ahamiyatiga, ayniqsa, ertaklar yordamida bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish usulidan keng foydalanilgan. Ertaklar biror bir voqea sababli ertak syujetiga jalb etiladi. Ular ertak mazmunini kuchaytirishga, rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda ertak voqeasidagi har bir epizod, asosiy syujet mazmuniga qo'shiladigan yangi ma'no ertak voqeasining rivojlanish nuqtasi bo'lib, uning obrazlilikining fantaziyasining, syujet voqealarining rivojlanishiga yordam beradi. Ertaklarni ertaklardan ajratib olishbu – o'sha ertakni yo'q qilish yoki ertakning biror epizodini butunlay o'zgartirish sanaladi va ular bir-biri bilan o'zaro organik bog'liqqa ega. Xalq pedagogikasida ertaklarning nasriy yo'lda, ya'ni oddiy so'zlar bilan ifoda etilishi, eng avvalo, xalqning o'sha ertaklarni qanday tahlilida qabul qilishiga, istagiga bog'liq bo'ladi. Ba'zan xalq ixcham, qisqa bayon etilgan o'tkir, dono so'zlarni eshitishni istasa, ba'zan oddiy aniq, lo'nda so'zlar bilan batafsil bayon etilishini xohlashida ko'zga tashlanadi. Har ikkala vaziyatda ham xalq pedagogikasi o'z ma'naviy xazinasiga bo'lgan ehtiromini, uni qadrlay olishini ko'rsatadi. Qoraqalpoq ertaklaridagi etti yashar qizning ertak echishi motivi, voqeasi, ayniqsa, diqqatga loyiq. Ertak syujetining asosiy maqsadi – qizni sinashdan iborat: shunday qilib, ertakda patriarxal munosabatlar – ayollarning erlari tomonga o'tishi voqeasi berilgan. Etti yashar qizni podshohning o'zi yoki uning qiz tomonga yuborgan sovg'alar ertaklar bilan sinab ko'radi. Xalq pedagogikasida qizlar donoligini bildiradigan, ko'rsatadigan ertaklarning yaratilishi qaysi davrlarga borib taqalishini aytish amri mahol. Bizning fikrimizcha, bunday ertaklar bolalarga tarbiya berish uchun ilgari ham, keyinchalik ham yaratilib kelingan.

«Jarlinin' qizi» (Kambag'alning qizi) ertak-topishmog'ining ikkinchi qismi, faqat savol echimini toptirish emas, balki butunlay boshqa – qiz aytirish, uylanish motiviga qurilgan. Bunda podshoh qizga sovg'a yuborib, qalin molini aniqlatadi. Qiz unga: «O'n besh o'roq,

yigirma besh ketmon, ellikta qarg'a, oltmishta chumchuq bersin, uyidagi yolg'iz qo'zisini bersa bersin, bermasa o'zi bilsin, xoningga shuni aytib bor», – deydi. Xon «Mateke oqil» dagan kishidan ushbu topishmoqning echimini (ta'birini) aytib berishini so'raydi. O'n besh o'roq degani – yigit o'n besh bolaida o'roqdek o'tkir bo'ladi; yigirma besh ketmon degani – yigit yigirma beshda ketmon kabi kesadi; ellik bolada – odamning qarg'adek holi bo'ladi; oltmish bolada – sizdek aqlsiz xonning chumchuqdek ahvoli; uyidagi yolg'iz qo'zisini bersa bersin, bermasa o'zi bilsin degani – uyidagi yolg'iz o'g'liga olsa olsin, olmasa gapini qo'ysin, degani, – debdi. Shunday qilib, xon qizni bolasiga kelin etib olibdi, deyiladi ertakda. Tarbiyaviy ertaklarda qizning topqirliligini, teran fikrliligini ko'rsatish bilan birga, ayol erkinligi boshqalar izmida bo'lib, or-nomusi oyoq osti bo'lgan davrlarda, ozodlik deb orzu qilgan qahramonning sirli holda xon farmoniga bo'ysunmay, qarshi turishi holati – xalq orzusi ideali ham ilgari suriladi. Bolalarni tenglikka, odamgarchilikka tarbiyalashda qiz Guloyimdek yoki Ayparshadek botir bo'lmasa ham ular donoligi bilan o'z maqsadiga etishi ertaklarda tasvirlanadi.

«Bag'lan taz» ertakda xonning qizi kuyov tanlash bahonasi bilan yigitlarning aqlini sinamoqchi bo'ladi. U (xonning qizi) ertak aytadi va kimda-kim o'sha ertakni topsa, u boy bo'lsa ham, kambag'al bo'lsa ham o'shanga tegishini bildiradi. Uning topishmog'ini hech kim echa olmaydi. Oxirida chorig'i ming yamoq, sahroda qo'y boqib yurgan Bog'lon degan kal bola kelib, topishmoqni topib, qizga uylanadi. Qizlar yigitlarning donoligini, qobiliyatini sinash uchun har xil «qiyin masalalarni», og'ir vazifalarni bajarishni shart qilib qo'yishi ertaklardagina emas, umuman, xalq qo'shiqlarida ham ko'p uchraydigan motivlardan biridir. Ularda faqat topishmoq echilibgina qo'yilmasdan, kurash tutish, poygada o'zib kelish, bir qo'yning go'shtini bir o'zi eyishi, inson bajarishi mushkul bo'lgan ko'p ishlarni bajarish, bir shaharni ikkinchi bir o'ringa ko'chirish, bir kechada yangidan shahar barpo etish kabi vazifalar qo'yiladi. Bundan tashqari, ushbu vazifalarini bajara olmasa, o'lim jazosi ham qo'llanilishi eslatib qo'yiladi. Ertaklarning yana bir turi xalq pedagogikasida bolalarni chechanlik, zukkolikka o'rgatish masalasi qo'yilgan ertaklardir. Chechanlik musobaqasi asosiga qurilgan ertaklar ko'pincha aytishuvlarga ham o'xshab ketadi. Ayniqsa, xun to'lash, bevalik, er, tuxmat va boshqalarga bag'ishlangan ertaklar chechanlik salohiyati bilan echiladigan ertaklarning shakliy dialoglarga ham o'xshab ketadi. Ammo chechanlikni ko'rsatuvchi ertaklar aytishuvga yaqin bo'lib, qofiyalanib kelsa ham ularning aytishuvlar kabi mukammalligi oz bo'ladi. Shunday bo'lsa ham, isboti bilan aytilgan, qanotli, hikmatli so'zlarga boy bo'lgan dalilli, zukko javoblar ko'pgina bolalarni o'limdan olib qoladi, boshqalarning mol-mulki qaytarib olib beriladi, yani ular xalq donoligini namoyish etgan so'z chechanlaridir. Shu sababli ham xalqda «so'z ju'yesin tapsa, mal iyesin tabadi» (so'z o'z o'mini topsa, mol egasini topadi) degan maqol xalq donoligiga o'qilgan yana bir tasanno kabi jaranglaydi. Chunki xalqning tarbiyaviy an'analari insonni xoruzor etadigan, jamiyatda xalq shunday sirli, ramzli so'zlar ishlatib dushmanni gapdan mot qilib, oqni oq, qorani qora deb, halolni haromdan ajratib, adolatni tiklash yulida tarbiyalanib borgan. Xalq o'z ertaklarida yovuz insonlarni yomon ko'rish, ularning iflos kirdikorlarini majoziy so'zlar bilan oshkora etish bilan birga o'zlarining sevimli, adolatti qahramonlarini ezgulik timsollari sifatida ulug'laydi. Xalq bolalarga o'z orzu-istaklarini ba'zan ochiq bildirishga, ba'zan zulmdan qo'rqib kinoya bilan, ramziy bildirishga majbur bo'lgan. Zamonlar o'tishi bilan insonlar ongi ham, ularning borliqqa nisbatan dunyoqarashi ham yuksalib, yaratilish, unish-o'sish, hayot va mamot haqidagi tushunchalarini ertaklarga mavzu, motiv qilib olib kelganligi kuzatiladi. Xalq og'zaki ijodida bu haqdagi afsona va



ertaklar haliyam o'z qadr-qimmatini, teran ma'noliligini saqlab kelmoqda. Bular xalq og'zidagi afsona va rivoyatlar, ertaklar singari ijod namunalari bo'lgan bo'lsa ham, ularda hayot realligi aks etgan «qo'y ustida to'rg'ay yumalagan adolatli zamon» bo'lishini qumsagan xalq orzu-istaklari o'z ifodasini topgan. Bilim beradigan, savod ochish imkoniyatini beradigan ommaviy maktablar bo'lmagan bir davrlarda ba'zi masalalarni badiiy adabiyotda ramziy aks ettirib, shu yo'sinda masalani hal qilishni orzu qilgan. Uning eng oddiy ko'rinishi «Dunyoda eng og'ir narsa nima, eng engil narsa nima?» – og'ir narsa – er, engil narsa – havo, «erga etti jumbog'imni yo'qotdim» (osmonda tirgak yo'q, suvda qaymoq yo'q, toshbaqada jigar yo'q, daryoda qopqoq yo'q) deb echadi. Bir g'oz uchib kelayotib, qo'nib o'tirgan g'ozlarga qarab: «Assalomu alaykum yuz g'oz!», – debdi, shunda erdagi g'ozlar: «Yo'q, biz yuz emasmiz, yuz bo'lishimiz uchun bizga yana shuncha yana uning yarmisicha, yana uning choragicha va sening o'z ing qwshilsang yuz bwlamiz», – debdilar.

**Xulosa.** Xalq pedagogikasida ertakning bu kabi xususiyatlari bolalar tarbiyasida, ularning mantiqiy tafakkurining va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarining takomillashuvida katta ahamiyatga ega bo'lib, ularning barkamol avlod bo'lib voyaga etishida eng muhim ijtimoiy omildir.

#### Adabiyotlar:

1. «2018-2022 yillarda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori loyihasi: <http://regulation.2018.gov.uz/uz/document/480>
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga kuramiz. - T.: O'zbekiston, 2017. - 488 b.
3. Abdimuratov P. Qaraqalpaq xalqinin dosterleri ham onin jaslar tarbiyasindagi ahmiyeti. - No'kis: Bilim, 1996. - 91 b.
4. Almetov N.Sh. O'quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish. - Chimkent, 1993.
5. Aleuov U. Xalq pedagogikasida bolalarga aqliy tarbiya berish an'analari: Monografiya. - Nukus: Qaraqalpaqstan, 2018. - 102 b.
6. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. - T.: Tafakkur sarchashmalari, 2013.

---

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING BUNYODKORLIK KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH**

*Saylijeva Mashkura, Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bunyodkorlik ko'nikmasini shakllantirish masalasi to'g'risida fikr yuritilgan va tavsiyalar shakllantirilgan.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim, boshlang'ich, ko'nikma, bunyodkorlik, shakllantirish, vosita, bilim, tajriba.

**ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ**

*Сайлиева Машкура, магистрант Чирчикского государственного педагогического университета*

**Аннотация.** В статье рассматривается проблема формирования творческих способностей будущих учителей начальных классов и сформированы рекомендации.

**Ключевые слова:** образование, начальное, навык, созидание, формирование, средство, знание, опыт.

**FORMATION OF CREATIVE SKILLS OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS**

*Saylieva Mashkura, master's student of Chirchik state pedagogical university*

**Abstract.** The article considers the problem of formation of creative abilities of future primary school teachers and forms recommendations.

**Key words:** education, primary, skill, creation, formation, means, knowledge, experience.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yangi milliy g'oyaning asosiy tamoyillari biri sifatida bunyodkorlik belgilangan. Shu sababli mazkur tamoyil bo'yicha oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ko'nikmasini shakllantirish dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'rinda e'tiboringzni ana shu masalaning tahliliga tortamiz.

**Asosiy qisim.** Bunyodkorlik tamoyilining mazmuni. Bunyodkorlik – «barpo etish», «yaratish» «obod qilish» ma'nolarini anglatadi va atama sifatida shaxsning ongida va axloqida yaratuvchilik hamda hayotservarlikda intilish tushunchasini beradi. Shu sababli bunyodkorlik tamoyili yangi milliy g'oyamizning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, uning vositasida shaxsni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Xalqimiz asrlar davomida bunyodkorlik g'oyasiga tayanib qudratli davlat, ma'rifatli jamiyat va farovon hayot barpo etib kelgan. Shu sababli bugungi kunda shaxsning ongi va axloqida bunyodkorlikni shakllantirish dolzarb hisoblanadi. Chunki bu masala quyidagi jihatlari bilan ahamiyatga ega: a) yosh avlodni bunyodkorlik ruhida tarbiyalash; b) jamiyatni bunyodkorlik g'oyasi asosida taraqqiy ettirish; c) xalqning bunyodkorlik qadriyatiga voris sifatida yashash. Shu sababli bunyodkorlik tamoyilining hozirgi zamon insoni va jamiyatida tutgan o'rni muhimdir. Ayniqsa, yangi O'zbekiston taraqqiyotida bunyodkorlik tamoyili muhim o'rin tutadi. Buning uchun pedagogik merosni o'rganish va undagi bunyodkorlikka doir yondashuvlarni o'zlashtirish zaruriyat bo'lib turibdi. Misol uchun, Amir Temur (1336-1405)

«Tuzuklar» asarida «Men kuch, adolat va bunyodkorlikka asoslanib qudratli davlat tuzdim, ulusni obodanlashtirish va yurtni farovon hayot bilan ta'minladim» deydi. Bunday fikrlar va yondashuvlarni o'rganish milliy g'oyamizning bunyodkorlik tamoyili mazmunini anglashda qo'l keladi, shu sababli bunyodkorlik g'oyasi va tamoyilining pedagogik merosdagi talqinini mahsus o'rganish dolzarb masalalardan biridir. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida mutaxassislik va tanlov fanlari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ana shu masalar bo'yicha nazariy bilim va metodik ko'nikmalar berish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida bunyodkorlik tamoyili bo'yicha ko'nikmani shakllantirish vositalari. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining oliy pedagogik ta'limga qadar bunyodkorlik bo'yicha muayyan tushunchalari tarkib topgan bo'ladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yangi milliy g'oyamizning bunyodkorlik tamoyili bo'yicha ko'nikmasini shakllantirish taqazo etiladi. Bunda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi: 1) tarbiyaviy tadbirlar vositasida shakllantirish; 2) treninglar vositasida shakllantirish; 3) auditoriyadan tashqari tadbirlar vositasida shakllantirish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bunyodkorlik ko'nikmasini shakllantirishda tarbiyaviy tadbirlar vositasi muhim o'rin tutadi. Bunday tadbirlar tarkibini bunyodkorlik g'oyasiga, asosan, tayyorlangan pedagogik kechalar, teatrlashtirilgan tomoshalar, zakovat o'yinlari, talabalarning taqimotlari kabilar tashkil qiladi. Bunday tarbiyaviy tadbirlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bunyodkorlik ko'nikmasini amaliy shakllantirish uchun asos bo'ladi. Shu sababli bunday tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda talabalarning tashabbuslariga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Umuman bunday tarbiyaviy tadbirlarni talabalarning o'zlari tashkil etishi muhim ahamiyatga ega. Tadbirlarni tayyorlash jarayonida ular bunyodkorlik asoslari bo'yicha izlanishadi va natijada ularda bunyodkorlik ko'nikmasi tabiiy ravishda shakllanadi.

Bunyodkorlik ko'nikmasini shakllantirishda treninglar vositasi ham muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, talabalar kichik guruhlariga bo'linib, bunyodkorlik asoslari bo'yicha treninglar o'tkazishga yo'naltiriladi. Bunday treninglarning mavzularni bunyodkorlik asoslari, bunyodkorlik mazmuni, bunyodkorlikning inson hayotida tutgan o'rni, bunyodkorlikning jamiyat farovonligidagi ro'li, bunyodkor xalqimizning milliy qadriyati ekanligi kabilar tashkil etishi kutilgan samarani beradi. Trening jarayonida talabalarda qiziqish va faollik yuzaga keladi. Natijada talabalarda bunyodkorlik tamoyili asoslari bo'yicha mustaqil izlanish tarkib topadi. Shu sababli trening vositasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida bunyodkorlik ko'nikmasini shakllantirishning ilmiy-amaliy omillaridan biri hisoblanadi.

Auditoriyadan tashqari tadbirlar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bunyodkorlik ko'nikmasini shakllantirish muhim imkoniyatlarini beradi. Buning uchun talabalarning kinoteratlarga tashriflarni uyushtirish, muntazam muzeylarda bo'lishini tashkil qilish va ularning mamlakatimiz qadimiy shaharlari Samarqand, Shaxrisabz, Termiz, Qarshi, Buxoro, Xiva kabi joylarga sayohatlarini muntazam amalga oshirib borish kutilgan samarani beradi. Buning uchun jamiyatimiz tomonidan sharoitlar yaratilganligini eslatib o'tish joiz. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida xalqimiz va ajdodlarimizning bunyodkorlik ruhi paydo bo'lishini ta'kidlash lozim. Shu sababli auditoriyadan tashqari tadbirlar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bunyodkorlik ko'nikmasini shakllantirish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida bunyodkorlik ko'nikmasining shakllanganlik

darajasini baholash. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining Bunyodkorlik ko'nikmasini shakllanganlik darajasini o'rganib borish va baholash muhimdir. Buning uchun t'yutorlar tomonidan mahsus savolnoma tuzib u asosida talabalarda so'rovnova o'tkaziladi. So'rovnoma asosida olingan ma'lumotlar tahlil qilib chiqiladi va har bir talabada bunyodkorlik ko'nikmasining shakllanganlik darajasi aniqlanadi. Aniqlangan ma'lumotlar asosida talabalarining bunyodkorlik ko'nikmasiga egaligi «qoniqarli» va «qoniqarsiz» tarzda baholanadi. Mazkur baholash kurslar kesimida amalga oshiriladi. «Qoniqarsiz» baholangan talabalar yoki kurslar guruhlar bilan t'yutorlar tomonidan bunyodkorlik ko'nikmasi asoslari bo'yicha tadbirlar o'tkazish rejasini ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga bunyodkorlik ko'nikmasining shakllanganlik darajalarini baholab borish pedagogik zaruriyat hisoblanadi. Aynan baholash natijalari qaysi talaba yoki kurs bilan Bunyodkorlik ko'nikmasi bo'yicha baholash mahsus tadbirlarni amalga oshirishni namoyon qiladi. E'tibor berilsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bunyodkorlik ko'nikmasini shakllantirish zaruriyati va vositalarini o'rganib borish dolzarb bo'lib turibdi. Shu sababli mazkur masala bo'yicha nazariy va metodik yangi tadqiqotlarga ehtiyoj yuqori ekanligini eslatib o'tish joiz.

**Xulosa.** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida yangi milliy g'oyamizning bunyodkorlik tamoyili bo'yicha ko'nikmasini shakllantirish ilmiy, nazariy, metodik va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezigulik va bunyodkorlik — milliy g'oyamizning poydevoridir. - T., 2021.
2. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. - T., 2009.
3. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. - T., 2023.
4. Amir Temur Tuzuklar. - T., 2006.
5. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. - T., 2009.

---

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ МЕНЕДЖМЕНТ КАК ОСОБЫЙ ВИД УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Муродов Нодирбек Ойбек угли, магистрант ТГПУ*

Аннотация. В статье освещаются вопросы организации педагогического процесса с позиции управления. Раскрывается происхождение термина «менеджмент» и факторы его появления в национальной и зарубежной педагогической науке, и практике. Цели менеджмента определяются как специфический вид управленческой деятельности. Педагогический менеджмент рассматривается как особая отрасль со своей спецификой и закономерностями. Представлены определения педагогического менеджмента, данные различными авторами.

**Ключевые слова:** менеджмент, управление образованием, управленческая деятельность, педагогический менеджмент.

## PEDAGOGIK MENEJMENT BOSHQARUV FAOLIYATINING MAXSUS TURI SIFATIDA

*Murodov Nodirbek Oybek o'g'li, TDPU magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada boshqaruv nuqtai nazaridan pedagogik jarayonni tashkil etish masalalari yoritilgan. «Menejment» atamasining kelib chiqishi va uning mahalliy va xorijiy pedagogika fanlari va amaliyotida paydo bo'lish omillari ochib berilgan. Menejmentning maqsadlari boshqaruv faoliyatining o'ziga xos turi sifatida belgilanadi. Pedagogik menejment o'ziga xos xususiyatlari va qonunlariga ega bo'lgan maxsus sanoat sifatida qaraladi. Turli mualliflar tomonidan berilgan pedagogik menejment ta'riflari keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** menejment, ta'limni boshqarish, boshqaruv faoliyati, pedagogik menejment.

## PEDAGOGICAL MANAGEMENT AS A SPECIAL TYPE OF MANAGEMENT ACTIVITY

*Murodov Nodirbek Oybek o'g'li, master's student of TSPU*

**Abstract.** The article highlights the issues of the organization of the pedagogical process from the position of management. The author reveals the origin of the term «management» and the factors of its appearance in domestic and foreign pedagogical science and practice. Management goals are defined as a specific type of management activity. Pedagogical management is considered as a special branch with its own specifics and patterns. The definitions of pedagogical management given by various authors are presented.

**Key words:** management, education management, management activity, pedagogical management.

**Введение.** В стране осуществляется большая работа по реализации Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года. В Концепции определены стратегические цели, приоритетные направления, задачи, этапы развития высшего образования в нашем регионе.

**Основная часть.** Стратегическими целями развития системы высшего образования являются повышение качества подготовки высококвалифицированных, креативно и системно мыслящих кадров на основе международных стан-

дартов, способных самостоятельно принимать решение для реализации их интеллектуальных способностей и формирования в качестве духовно развитой личности. Особое внимание в Концепции уделяется повышению результативности научно-исследовательских работ, широкому привлечению молодёжи к научной деятельности, формированию инновационной структуры науки в высших учебных заведениях. Несмотря на то, что вопросы управления рассматриваются как за рубежом, так и в нашем регионе, проблема управленческо-педагогической подготовки недостаточно изучена в национальной педагогической практике, теоретическое и практическое решение некоторых вопросов в области педагогического менеджмента не выходит за рамки разработок отдельных педагогических задач. Важным фактором в разработке данной проблемы является интегративный, многоуровневый, непрерывный иерархический характер управленческо-педагогической подготовки. В сферу управленческо-педагогической подготовки вовлекаются все области управленческой и педагогической деятельности, особенности образовательных процессов, что придает еще большую весомость педагогическому аспекту данной проблемы. В связи с этим особую значимость для исследования приобретают труды Ю.К. Бабанского, С.Я. Батышева, А.П. Беляевой, В.П. Беспалько, П.Я. Гальперина, Р.Х. Джумаева, Р.И. Гимуш и других, в которых раскрываются различные аспекты профессиональной подготовки специалистов.

В настоящее время в высших образовательных учреждениях существует противоречие между структурно-функциональной расчлененностью педагогической и управленческой подготовки менеджера образования и необходимостью разработки целостной системы управленческо-педагогической подготовки студентов; между потребностью обеспечения конкурентоспособности специалиста в сфере педагогического менеджмента и отсутствием механизма подготовки будущих менеджеров образования.

В настоящее время в теории и практике образования нашей страны отмечается значимость осмысления целостного педагогического процесса с позиции науки управления и придание ему научно обоснованного характера. Согласно мнению Е.А. Челноковой, управление этим процессом представляет собой целенаправленное, сознательное взаимодействие его субъектов на основе познания объективных закономерностей для достижения оптимального результата [1]. Управление образованием связано с понятием «педагогический менеджмент». Английское слово «менеджмент» (management) на русский язык дословно не переводится. Его принято переводить как «управление», а «менеджер» – как «руководитель». Первоначально слово «менеджмент» обозначало искусство управлять лошадьми и произошло от глагола to manage, который примерно означает «объезжать лошадей» и, в свою очередь, восходит к латинскому manus – «рука». Применение менеджмента не ограничивается только сферой бизнеса. К управленческой деятельности любой сферы, в частности, образования, могут быть отнесены его постулаты и теоретические положения. В работе Ф.У. Тейлора [2] отмечено, что целью менеджмента является формулировка и применение в любой организации и сфере деятельности человека всеобщих принципов управления, к которым относятся: определение целей и задач управления; разработка конкретных мероприятий по их достижению; раз-

деление задач на отдельные виды операций, распределение работ; координация взаимодействия различных подразделений внутри организации; совершенствование формальной иерархической структуры, оптимизация процессов принятия решений и коммуникаций; поиск адекватной мотивации деятельности и т.д. С функциональной точки зрения, это выступает как процесс планирования, мотивации и контроля, которые необходимы для формирования и достижения цели. Исследователи проблем менеджмента акцентируют внимание на то, что управление – это умственный труд, в результате которого осуществляется процесс управления. Процесс управления – это непрерывное осуществление последовательных действий от прогноза предстоящей деятельности, постановки цели и разработки способов ее достижения до анализа ее фактического результата [3, 4]. В исследовании М.Х.Мескон менеджмент рассматривается с различных подходов: в качестве «умения добиваться поставленных целей, используя труд, интеллект, мотивы поведения других людей»; «управления, функции, вида деятельности по руководству людьми в самых разнообразных организациях»; «области человеческого знания, помогающего осуществлять эту функцию» [5].

В мировой практике менеджмент рассматривается в качестве науки, искусства и деятельности по мобилизации интеллектуальных, материальных и финансовых ресурсов для эффективного и действенного функционирования организации. В нем присутствует синтез двух направлений: коммерческо-экономического или организационно-технического и психолого-педагогического, связанного с управлением людьми, организацией коллектива для достижения поставленной цели. Наиболее полное определение менеджмента, которое может быть применено в образовании, мы видим у известного американского теоретика менеджмента П.Друкера, считавшего, что менеджмент в современных условиях является специфическим видом управленческой деятельности, которая ориентирована на человека и ставит целью сделать людей способными к совместному действию, придать их усилиям эффективность и сгладить присущие им слабости, ибо человеческая способность вносить вклад в общество столь же зависит от эффективности управления предприятием, как и от собственных усилий и отдачи людей. К факторам, способствующим появлению термина «менеджмент» в теории педагогической науки и практики, можно отнести следующие: применение научных подходов и технологий современного менеджмента в различных сферах управления, в том числе и в сфере управления образовательными системами; интеграцию мирового опыта в теорию менеджмента.

Педагогический менеджмент можно рассматривать как особую отрасль менеджмента, имеющую свою специфику и закономерности, присущие только ей. Специфичность педагогического менеджмента состоит в исключительности предмета, продуктов, орудий и результата труда менеджера образовательного процесса. Предмет труда менеджера образовательного процесса – деятельность субъекта управления, продукт труда – информация об учебно-воспитательном процессе. Средством труда выступает слово, речь. Результат труда – уровень грамотности, воспитанности и развития объекта педагогического менеджмента – обучаемых. Понятие «педагогический менеджмент» содержит значения, характеризующие различные аспекты управленческой деятельности: теория управления в образователь-

ном учреждении (В.И.Загвязинский, Л.Е.Капто); система управления образовательным учреждением и, как необходимость, поиск путей его развития, принятие стратегических и оперативных решений (Б.С.Гершунский, С.В.Лазарев); управление образовательной деятельностью (А.М.Моисеев, В.П.Симонов); комплекс принципов, методов, организационных форм и технологических приемов управления педагогическими системами, которые направлены на повышение результативности их функционирования и развития (Н.В.Кузьмина, Е.Ю.Никитина). При раскрытии понятия «педагогический менеджмент» необходимо отметить, что управлению уделено пристальное внимание в научной литературе, акцентирующей внимание на процессе управления на всех ступенях образования и в различных разделах педагогической науки.

Управление – элемент, функция организованных систем различной природы (биологических, социальных, технических), обеспечивающая сохранение их определённой структуры, поддержание режима деятельности, реализацию программы, цели деятельности. Управление предполагает осуществление субъектом управления ряда последовательных операций: подготовку и принятие решений (директив, планов, законов, правил и т.д.), организацию выполнения решений и контроль за их выполнением, подведение результатов. В учебном пособии для системы повышения квалификации и переподготовки педагогических работников слова «менеджмент», «управление», «руководство» приводятся как синонимы. По мнению ученых (Р.Х.Джураев [6], Д.Касымова [7], Ф.М.Матмуродов [8], Б.Х.Ходжаев [9] и др.), менеджмент обозначает способность управляющего добиваться преследуемых целей, планируя, организуя и контролируя деятельность других людей наиболее эффективными способами. Менеджмент – это не только междисциплинарное учение или совокупность научных знаний, но это уже самостоятельная наука, имеющая методологическую основу, свой предмет и метод. Анализ научных источников свидетельствует о том, что в оценке менеджмента как науки аргументами служат следующие соображения: управление – это наука, которая имеет свой предмет, сумму накопленных человеческих знаний, представленных различными концепциями, теориями и как любая другая наука имеет свои проблемы, принципы и методы их решения.

В менеджменте как науке используются методы научного познания: наблюдение объекта исследования, сбор, обработка и изучение полученной информации об объекте исследования посредством анализа и синтеза, комплексного и системного подходов, разработка гипотез и их проверка, проведение экспериментов, моделирование в логических и математических формах. Следует особо отметить, что управленческий труд это, прежде всего, умственный труд, осуществляемый человеком в виде нервно-психических усилий. Процесс умственного труда состоит из таких элементарных действий или операций, как слушание, чтение, общение, наблюдение за действиями различных устройств, мышление и т.п.

Сопоставляя педагогическую и управленческую деятельность, можно отметить у них наличие таких схожих функций, как: мотивационная, конструктивная, организационная, информационная, контроля и принятия решений. Анализ действий, необходимых для реализации менеджмента с позиции изменения роли педагога, стал фактором целесообразности интеграции управленческой и педагогической деятельности. Исходя из этого, формирование нового направления



в педагогической деятельности стал основой педагогического менеджмента. Результатом многих работ учёных является процесс самосовершенствования содержания образования в педагогических образовательных учреждениях применительно к формированию умений педагогического менеджмента у будущих учителей. В деятельности преподавателя как менеджера учебно-воспитательного процесса В.П.Симонов выделяет четыре функции: целевую или проекторезультативную, коммуникационную, содержательно-организационную и аналитико-результативную. Согласно его мнению, педагогический менеджмент - это процесс, деятельность, динамическая система, находящаяся в постоянном развитии, она не только управляется, но и самоуправляется, самосовершенствуется и саморазвивается под воздействием и при участии менеджера-преподавателя. При прохождении курсов «Основы образовательного менеджмента» и «Стратегический менеджмент в образовании» особое внимание уделялось содержанию эффективной организации управления персоналом с использованием инновационных технологий. Целью данных дисциплин являлось формирование управленческих навыков и компетенций у обучающихся. Особое внимание уделялось вопросам освещения научных школ стратегического менеджмента, анализу зарубежного опыта, нормативных документов, факторов, влияющих на стратегическое управление образованием. Освоение содержания данных дисциплин способствовало развитию у обучающихся таких навыков, как: мотивационно-познавательные, информационные, коммуникативные, идейно-мировоззренческие, понимание характера проводимых во всех сферах реформ, духовно-нравственные, акмеологические и аксиологические.

**Вывод.** Выше отмеченное свидетельствует о значимости усвоения названных учебных дисциплин, раскрывающих содержание педагогического менеджмента как особого вида управленческой деятельности.

#### Литература:

1. Челнокова Е.А. Тьютор как менеджер образовательного процесса // В мире научных открытий: Материалы X международной научно-практической конференции. - М., 2013. - С. 110-113.
2. Тейлор Ф.У. Принципы научного менеджмента // Контроллинг. - М.: Изд-во стандартов, 1991.
3. Закон Республики Узбекистан № ЗРУ-637 «Об образовании» от 23 сентября 2020 года.
4. Указ Президента Республики Узбекистана № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года.
5. Указ Президента Республики Узбекистана № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года.
6. Джураев Р.Х., Тургунов С.Т. Управление образованием. - Т., 2006.
7. Касымова Д. Теория управления. - Т.: Tafakkur dostoni, 2011.
8. Гимуш Р.И., Матмуродов Ф.М. Инновационный менеджмент // Национальное общество философов Узбекистана. - Т., 2010.
9. Ходжаев Б.Х. Теория и практика общей педагогики. - Т., 2017.

---

## MUSTAQIL TA'LIM ASOSIDA TALABALARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

*Dosanova Gulbanu Angsatbaevna, NDPI magistranti,  
Ilxanova Aydana Kambarovna, NDPI magistranti*

**Annotasiya.** Maqolada pedagogika oliy o'quv yurtlarida talabalarning kommunikativ va axborot madaniyati bo'yicha didaktik shart-sharoitlarni shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi, axborot, sivilizatsiya, shaxsning ma'naviy rivojlanishi tushunchalarining mohiyati ochib beriladi. Maqola o'quv jarayonida talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish, ularning kompyuter texnologiyalari bo'yicha bilimlari samaradorligini oshirish muammosini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, bu axborot texnologiyalari va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish madaniyatiga qo'shilish imkonini berdi.

**Tayanch so'zlar:** oliy ta'lim muassasalari, talaba, axborot, madaniyat, axborotlar oqimi, dunyokarash, o'quv jarayoni, didaktika, pedagogika.

## ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ

*Досанова Гулбану Ангсатбаевна, магистрант НГПИ,  
Илханова Айдана Камбаровна, магистрант НГПИ*

**Аннотация.** В статье рассмотрены вопросы формирования дидактических условий у студентов коммуникативно-информационной культуры в педагогических высших учебных заведениях, раскрыта сущность понятия информация, цивилизация, духовное развитие личности. Статья посвящена изучению проблемы формирования у студентов информационной культуры в учебном процессе, повышению эффективности у них знаний компьютерных технологий, что предоставило возможность приобщиться к культуре информационных технологий и использованию компьютерных технологий в учебном процессе.

**Ключевые слова:** высшее учебное заведение, студент, информация, культура, поток информации, мировоззрение, учебный процесс, дидактика, педагогика.

## FEATURES OF THE FORMATION OF INFORMATION CULTURE OF STUDENTS ON THE BASIS OF INDEPENDENT WORK

*Dosanova Gulbanu Angsatbayevna, NSPI masters,  
Ilkhanova Aidana Kambarovna, NSPI masters*

**Abstract.** The article considers the formation of didactic conditions for students of communicative and information culture in pedagogical higher educational institutions reveals the essence of the concept of information, civilization, and spiritual development of the individual. The article is devoted to the study of the problem of the formation of information culture among students in the educational process, increasing the efficiency of their knowledge of computer technology, which provided an opportunity to join the culture of information technology and the use of computer technology in the educational process.

**Key words:** higher educational institutions, student, information, culture, educational processes, didactics, pedagogy.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish shart-sharoitlarni tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida davr talabiga ko'ra, axborot texnologiyalari O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan davlat siyosati negizida yosh avlodda axborotlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish, ularni malakaga, odatga aylanishini ta'minlash vazifalariga alohida ahamiyat berilgan. Shu jihatdan ham turli axborotlar

oqimining kirib kelishi yoshlar, shu jumladan, talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish muammosi ijtimoiy-pedagogik jihatdan muhim sanaladi.

**Asosiy qism.** Oliy ta'lim muassasalari talabalarida axborot madaniyatini shakllantirish ijtimoiy-iqtisodiy harakatlarni izchil, uzluksiz, tizimli va maqsadga muvofiq tashkil etish va kutilgan natijalarga erishish imkonini beradi. Shuning uchun o'qituvchi talabalarga o'quv mashg'ulotlari jarayonida faqatgina bilimlar beribgina qolmay, balki ularda axborot madaniyatini shakllantirishning shart-sharoitlarini samarali bo'lishini ta'minlaydi. Chunki, axborotlar oqimi talabalarning axloq-odobiga, jamiyat, inson, dunyo haqidagi bilimlarini rivojlantirishga ta'sir etadi. Buning natijasida o'zining shaxsiy nuqtai nazarini asoslash, boshqalarning fikr qilishini tushunish, ularni o'zining faoliyati bilan taqqoslash kabilarni amalga oshiradi. Oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishda mustaqil ta'lim faoliyati ularning bilimlarini yaxshilashga qaratilgan jarayon sifatida ma'lum muammolarni yechishda muhim ahamiyatga ega. Ammo shunga qaramasdan oliy ta'lim muassasalari talabalarida mustaqil ta'limni tashkil etishda bir qator muammolar mavjud. Bular: talabalarning o'zi ko'nikkan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqma olmasligi, axborotlarning, yangilik haqidagi bilimlarning yetishmasligi yoki yangilikni his qilmaslik, unga nisbatan ishonchsizlik kabi xolatlar mavjud. Shu jihatdan ham talabalarni mustaqil ta'lim faoliyatiga tayyorlashda har bir ishning maqsadini aniqlay olish vaziyatlarini tahlil etib, tezkor xulosalar chiqarish, o'quv jarayoni bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, muammolarni hal etishning maqbul vosita va usullarni izlab topish, kuzatish va tajriba natijalarini tizimlashtirish, o'z ustida mustaqil ishlashni rejalashtirish, o'z ishini natijasini nazorat va tahlil qilish, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, yangi g'oyalarni izlab topish kabi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish kabilarni ta'lim mazmuniga o'qituvchidan yangilikni kiritishga texnologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, yangi g'oyani izlash, yangicha yondashuvni talab etadi.

Mustaqil ta'lim jarayonida – yangi ijtimoiy talablar vujudga kelgan muammolarni yechish tashkil etiladi va tizimlashtirilgan axborot texnologiyasi amalga oshiriladi. Mustaqil ta'lim o'quv jarayoni taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan faoliyat bo'lib unda didaktik, evristik, kreativ, muammoli, loyihali ishlar bajariladi. Demak, talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishda mustaqil ta'lim jarayoni zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, yangi axborotlarni o'rganish, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilish malakasini mustahkamlaydi. Mustaqil ta'lim jarayoni talabalarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalari bilan muloqotga kirisha olish, kasbiy faoliyatni tashkil etish vazifalarini oqilona hal qilish, natijalarni real baholash, sog'lom psixologik muhitni yaratish olish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglash va bartaraf etish kabilarni sifatli bo'lishini kafolatlaydi. Bunda o'qituvchi ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilashda axborot muhitidagi zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinni, samarali foydalanish ishlarini amalga oshiradi. Mustaqil ta'lim talabalarning bilim sifatleri, fikrlash xususiyatlari, shaxsiy qarashlarini o'zgartirish, kengaytirish, chuqurlashtirish, aniqlashtirish kabilarni rivojlantiradi. Ularning shaxsiy fikri, nuqtai nazari, tushunish malakalarini egallash, taqqoslash kabilarni amalga oshiradi. Talabalarning axborotdan foydalanish yo'lidagi mustaqil xatti-harakatlariga ijobiy munosabatda bo'lish ularning axborot muhitidagi faoliyatini nazorat yoki suhbatlar, savol-javoblar, pedagogik kuzatish orqali tahlil qilib borish muhim sanaladi. Ushbu jarayonda amaliy seminarlar, treninglar, haftaliklar, pedagogik o'qishlar, mintaqaviy va respublika konferensiyalarini uyushtirish, shuningdek, ularni xalqaro anjumanlarda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratish asosida talabalarda axborot ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayonlarda talabalarda axborotlarning ta'sirchanligi borasidagi tushunchalarini boyitish, ularni axborot xavfidan muhofazalash, zarur vaqtda oliy ta'lim muassasalari va ijtimoiy tashkilotlar, xavfli axborotlarga qarshi jamoatchilik bilan birgalikda kurasha olishga ega bo'lishlarini amalga oshirishi, ularni

salbiy, buzg'unchi axborotlar xavfidan himoyalashda o'z samarasini ko'rsatadi. Mustaqil ta'lim jarayonida: talabalarda axborot madaniyatini rivojlantirish asosida har qanday ma'lumot mohiyatini ijobiy hamda salbiy tarzda baholash, salbiy axborotlarga qarshilik va muvaffaqiyatli himoyalalanish, ularga ta'sir ko'rsatish, axborotning mazmuni, ko'lam qanday bo'lishidan qat'iy nazar uning xalq manfaatiga xizmat qilish; talabalarga axborotlarning mazmuni, ijtimoiy hamda shaxsiy oqibatlar to'g'risida yetarlicha ma'lumot berish, axborotlarni o'rganib borish, jamiyatda axborotlar bilan to'g'ri munosabatda bo'la olish, ularni muntazam ravishda izchil va uzluksiz tahlil qilish; axborotning ijtimoiy-shaxsiy ahamiyati va oqibatlari, texnik axborotlarni xabardor etish, oliy ta'lim muassasalarining tarbiyaviy ishlar jarayonida talabalarda axborot madaniyatni rivojlantiradigan tadbirlar, dastur, o'quv mashg'ulotlarining ishlanmalarini tayyorlash; talabalarining axborotlashgan jamiyatda to'g'ri faoliyat olib borishlarini ta'minlashga doir va amaliy metodik bilimlarni boyitishga e'tibor qaratish va ulardan samarali foydalanishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish; talabalarning axborotlar bilan ishlashga yo'naltirilgan faoliyatlarini vaqti-vaqti bilan nazorat qilib borish, muammo yuzaga kelganda o'qituvchilar bilan o'zaro hamkorlikka pedagogik va psixologik yordam ko'rsatish kabilarni amalga oshirish o'z samarasini ko'rsatadi. O'qituvchi mustaqil ta'lim jarayonida talabalarda axborot madaniyatini rivojlantirish asosida ularda aniq maqsadga intilish, ishchanlik faolligini oshirish, izchil ravishda yangilanib borayotgan axborot texnologiyalarni o'zlashtirish, asosiy kasbiy fanning so'nggi yangiliklarni izlash yo'lida olib boradigan amaliy xatti-harakatlari o'quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda talaba shaxsida ijtimoiy-madaniy, kasbiy, psixologik, axborotli texnologik, kognitiv, kreativ, regulativ, motivatsion kabi komponentlar muhim hisoblanadi. Talabalarining yangiliklardan xabardorligi, kasbiy bilim jarayonida kasbiy yondashuvning mavjudligi, muammoli vaziyatlarning mazmun-mohiyati, uning yangilikka bo'lgan munosabatini belgilab berishda, oliy ta'lim muassasasi maqsadlariga erishishda muxim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Mustaqil ta'lim dasturlari, o'quv materiallari, metodik ishlanmalar talabalarining bilimlarini faollashtirishda, muammoli o'qitish va muammoli vaziyatlarni tashkil etishda, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda yuzaga keladigan ko'pgina muammolarni aniqlash imkoniyatini beradi. Ular fan mashg'ulotlarida, talabalar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaslik, ularda eslab qolish darajasining bir xil bo'lmislik, o'zlashtirish darajasining past bo'lishi, mustaqil ta'lim va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlarning yetarli emasligi kabi xolatlar uchrab turadi. Mustaqil ta'lim har bir dars jarayonini haqqoniy baholashda ijobiy ta'sirini belgilab beradi va talabalarga nisbatan ijobiy munosabatlarni keltirib chiqaradi. Ushbu jarayonda talabalarining obyektiv shart-sharoitlari, psixologik xususiyatlari o'qituvchining o'quv va tarbiya jarayonini tashkil eta bilishiga bog'liqdir.

#### Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 июндаги «Республика ахборот технологиялари соҳасини ривожлантириш учун шарт-шароитларни тубдан яхшилаш чора-тадбирлари туғрисида»ги Фармони // Халқ сўзи. - Т., 2017. - 1 июль.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 28 июлдаги «Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги bosqichga kўtariш туғрисида»ги Қарори // Халқ сўзи. - Т., 2017. - 29 июль.
3. Авлиякулов Н.Х. Замоनावий ўқитиш технологиялари. - Т., 2001. - 67 б.

## ABU NASR FARABIYNING «FOZIL ODAMLAR SHAHRI» ASARI – BUGUNGI KUN YOSHLARINING MA'NAVIYAT MAKTABI SIFATIDA

*Esanova Kamola Ilhomjon qizi, O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abu Nasr Farabiyning «Fozil odamlar shahri» asarining bosh g'oyasi bo'lgan ta'lim va tarbiya masalalarida Farabiyning qarashlari haqida so'z boradi. Maqolada bugungi davr uchun dolzarb hisoblangan ta'lim-tarbiya masalalari va yoshlar kamolotidagi ahamiyati yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** jamiyat, madaniyat, axloq, an'ana, ta'lim, tarbiya, baxt-saodat, barkamol avlod, yurt ravnaqi.

## «ГОРОД ДОБРОДЕТЕЛЬНЫХ ЛЮДЕЙ» АБУ НАСРА ФАРАБИ – КАК ШКОЛА ДУХОВНОСТИ СЕГОДНЯШНЕЙ МОЛОДЕЖИ

*Эсанова Камола Илхомжон кизи, студентка Международной Исламской Академии Узбекистана*

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о взглядах Абу Насра Фараби на вопросы образования и воспитания, что является основной идеей произведения Абу Насра Фараби «Город добродетельных людей». В статье рассмотрены вопросы образования и воспитания, которые считаются актуальными на сегодняшний день и показано их значение в развитии молодежи.

**Ключевые слова:** общество, культура, нравы, традиции, образование, обучение, счастье, хорошее поколение, развитие страны.

## ABU NASR FARABI'S «THE CITY OF PROSPEROUS PEOPLE» – AS A SCHOOL OF SPIRITUALITY OF TODAY'S YOUTH

*Esanova Kamola Ilhomjon qizi, student of International Islamic Academy of Uzbekistan*

**Abstract.** This article talks about the views of Abu Nasr Farabi on the issues of education and upbringing, which is the main idea of Abu Nasr Farabi's work «The city of Virtuous people». The article describes the issues of education and upbringing that are considered relevant for today and their importance in the development of young people.

**Key words:** society, culture, morals, tradition, education, training, happiness, good generation, development of the country.

**Kirish.** Barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma'n'an barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

**Asosiy qism.** Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida doimo xalqimiz boy madaniy merosini izchillik bilan o'rganishga, undan yoshlar ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishda foydalanishga da'vat etib kelmoqdalar. – «Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun ajdodlarimizning madaniy-ma'naviy boyligini chuqur va har tomonlama o'rganishimiz darkor» [1].

Jamiyatimizga har tomonlama barkamol, mustaqillik ma'naviyatiga ega bo'lgan insonlar

zarur. Zero, «zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g'urur bilan ta'kidlash lozim» [2, 41-b.]. Ma'naviy boyliklarni yaratgan buyuk siymolar merosini o'rganish va o'zlashtirish, u bo'yicha keng ta'lim-tarbiyaviy, ilmiy-tadqiqot va o'quv-uslubiy ishlarni olib borishni talab etadi. Ular mustaqillik sharoitida yosh avlodni milliy madaniy boyliklarni yaxshi bilgan, milliy g'urur, vatanparvarlik hissi bilan yo'g'rilgan, dunyo madaniy rivojlanish darajasidan xabardor bo'lib yetishuvda yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi [3]. Ushbu maqolada tizimli, mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Farobiy asarlari Sharq va G'arb olimlarini haligacha bilim doirasining kengligi bilan hayratga solib kelmoqda. U fanning turli sohalarini bo'yicha 160 dan ortiq asar yozgan, lekin ko'plari bizgacha yetib kelmagan. Uning «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv yo'llari haqida risola», «Davlat arbobining hikmatlari» kabi asarlarida O'rta Sharqda birinchi bo'lib, jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida ta'limot yaratgan. Bu ta'limotda ijtimoiy hayotning ko'p masalalari – davlatga birlashish xususiyatlari, davlatni boshqarish, davlatning vazifalari, insonning jamiyatdagi o'rni va burchi, umumiy baxt-saodatga erishish yo'llari, ta'lim-tarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, urush va tinchlik, mehnat va boshqalar qamrab olingan. Shuningdek, shaxsning rivojlanish muammolarini bayon qiladi. Farobiy asarlari orasida «Fozil odamlar shahri» asari alohida ahamiyatga ega. Unda jamiyatning (insonlar jamoasi) kelib chiqishi, adolatli jamiyatga erishish yo'llari, fozil shahar hokimi va aholisining fazilatlarini, davlat hokimiyati va boshqaruvchi kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish kabi masalalar bayon etilgan. Bundan ming yilcha muqaddam yaratilganiga qaramasdan, asar o'zining dolzarbligini to'laigicha saqlab qolgan. Mutafakkimning ta'kidlashicha, johillar nodon, ilmsiz, ma'naviyatsiz, ma'rifatsiz kimsalar, shuning uchun ular baxt-saodat, yuksak kamolot nimaligini tushunmaydi, ular haqida hech qanday tasavvurga ega emaslar, shu sababdan ular bunga intilmaydilar ham. «Ular, — deydi Farobiy, — baxt-u davlat bo'lib ko'rinadigan o'tkinchi, yuzaki narsalarni, mol-dunyoni, jismoniy lazzatni, hirs-u havasni, obro', amal, shon-shuhratni haqiqiy baxt, farovonlik deb o'ylaydilar. Shu ne'matlardan har biri jaholatdagi odamlar nazarida hayotdan maqsad, baxt-saodat bo'lib ko'rinadi». Farobiy ma'naviy-axloqiy, jihatdan nosog'lom, har qanday pastkashlik yo'li bilan o'z maqsadiga erishuvchi bunday odamlarga nisbatan salbiy munosabatda bo'ldi. Donishmandning fikricha, agar bu illatlarning oldi olinmasa, ular yildan-yilga, avloddan-avlodga o'tib, yanada chuqur ildiz otadi [4, 301-b.]. Farobiy inson boshqa jonzotlardan sifat jihatidan tubdan farq qiladi, deb ko'rsatadi. Birinchidan, deydi u inson aqlli mavjudot bo'lib, aql va jon insonning tabiiy ibtidosidir. Ikkinchidan, insonning tili va nutqi bor. Uchinchidan, inson kasb-hunarga ega. Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bu barcha xususiyatlar insonning rivojlanishi va takomillashuviga imkon beradi. Farobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: munosib inson bo'lish uchun odamda ikki imkoniyat, ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa, bu kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir, deydi.

Farobiy ta'lim, tarbiyaga birinchi marta ta'rif berib, ta'lim — degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya — nazariy fazilatlarini, mas'ul hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, — deydi olim. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba orqali o'rganishdir. Shuningdek, buyuk insonshunos olim Abu Nasr Farobiy «fozil», ya'ni adolatli jamiyat bilan birga «johil» insonlar va jaholatdagi jamiyatlar haqida qimmatli fikrlarni bildirgan. U johil jamiyatning juda ko'p turlarini sanab, axloqiy sifat va fazilatlardan mahrum bo'lgan o'z hayoti va faoliyati

davomida ularga rioya qilmaydigan kishilar jamoasini johillar jamoasi deb ataydi. Bunday jamoa a'zolari yaramas axloqli, xulq-atvorli kishilardir. «Fazilatsiz shahar odamlari yomon fe'llari, tabiati tufayli ko'ngillari, ruhlari ham yomonlashib boraveradi. Mabodo, ular ana shu yomon ishlarida izchil sa'y-harakat, tobora kuch-g'ayrat ko'rsatsa, ularning ruhlari yanada bolalar dunyoga keladi, bu esa, jamiyat va davlatning kelajagini xavf ostida qoldiradi. «Ammo, – deydi alloma, – jaholat, yovuzlik, haqsizlik, abadiy hodisalar emas, bu illatlarga, albatta, barham beriladi. Jamiyatda ezgulik, hamkorlik, hamjihatlik, do'stlik, adolat, albatta, tantana qiladi, shunday zamonlar keladiki, insoniyat albatta yuksak kamolotga oliy baxt-saodatga erishadi» [5].

Fozil shahar, undagi umumiy madaniy ravnaq munosabati bilan Farobiy axloq, xulq-odob masalalariga juda katta e'tibor berdi. Xulq-odob masalalarini Farobiy insonning intellektual sifatleri – «aqlilligi», «donoligi» bilan uzviy bog'liq holda olib tekshirdi. Shuning uchun u qayd qilgan va tahlil etgan axloqiy tushunchalar, kategoriyalar kishilarning o'zaro munosabatlarida mavjud bo'lgan xulq normalarining ifodasigina emas, balki kishilarning o'z hayotlari davomida olib borgan aqliy faoliyatining natijasi sifatida talqin etadi. Farobiy fozil shaharning fozil hukmdori timsolida odamlarga haqiqiy baxt-saodatga erishish yo'llarini ko'rsatuvchi va komil inson g'oyasini ilgari suruvchi buyuk allomadir. Uning g'oyalari O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurishda yetakchi bo'lib kelayotgan shahar, tuman va viloyatlarning hokimlari hamda boshqa rahbarlar uchun ibrat maktabidir. Ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy-madaniy merosda shunday fikrlar borki, ular bugungi kunda ham taraqqiyotimizning o'ziga xos yo'lini belgilashda o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Xalqimiz madaniyatini, milliy istiqlol mafkurasini rivojlantirishda madaniy merosimiz, undagi ilm-fan, ijtimoiy-siyosiy, ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarni o'zlashtirish va amalga tatbiq qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Zero, «o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi» [3].

Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari vositalari haqidagi qarashlari qimmatlidir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l – ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta'lim so'z va o'rganish bilan tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo'ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi, deb ko'rsatadi.

**Xulosa.** Farobiy pedagogik ta'limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o'z mohiyati bilan ijtimoiy, ya'ni faqat jamiyatda, o'zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi. Insonning kamolga yetishida ham aqli, ham axloqiy tarbiyaning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Farobiy tavsiya etgan ta'lim-tarbiya usullari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi bilan diqqatga sazovordir.

### Adabiyotlar:

1. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz: Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. - T.: O'zbekiston, 2016. - 14 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. -
3. <https://buxdu.uz/media/maqola/Abu%20Nasr%20Forobiyning%20%E2%80-%9CFozil%20odamlar%20shahri%E2%80%9D%20asaria%20ta'lim-tarbiya%20>
4. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutaffakirlari. - T.: O'zbekiston, 1971.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: Xalq merosi, 1993.

## GUMANITAR VA IJTIMOIIY FANLAR TA'LIMI

# ОБЪЕМ И СОДЕРЖАНИЕ НАУЧНОГО ПОНЯТИЯ «ЯЗЫКОВАЯ КАРТИНА МИРА»

**Нурманов Абдуназар Тошбоевич**, заведующей кафедрой русского языка  
и методики преподавания, профессор ДжГПУ,  
**Каримова Зульфия Одилжоновна**, преподаватель ДжГПУ

**Аннотация.** Языковая картина мира – целостный образ мира, который «изображён» языком. Это система взглядов, образов и представлений, которые являются результатом языковой концептуализации. О существовании и функционировании этой системы мы можем судить по системе языка, о её элементах и их взаимодействии – по единицам языка, их связям и отношениям.

**Ключевые слова:** языковая картина мира, концептуализация, концептосфера культуры, наивная модель мира, концептосфера.

## «OLAMNING LISONIY MANZARASI» ILMIY TUSHUNCHASI HAJMI VA MAZMUNI

**Nurmanov Abdunazar Toshboevich**, rus tili va o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri,  
JDPU professori, **Karimova Zulfiya Odiljonovna**, JDPU o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Olamning lisoniy manarasi dunyoning til tomonidan «tasvirlangan» yaxlit tasviridir. Bu lingvistik kontseptualizatsiya natijasi bo'lgan qarashlar, tasvirlar va tasvirlar tizimidir. Biz ushbu tizimning mavjudligi va ishlashini til tizimi, uning elementlari va ularning o'zaro ta'siri – til birliklari, ularning aloqalari va munosabatlariga qarab baholay olamiz.

**Tayanch so'zlar:** dunyoning lingvistik tasviri, kontseptualizatsiya, madaniyat konsentrat, dunyoning soddasi modeli, kontseptsiya sohasi.

## VOLUME AND CONTENT OF THE SCIENTIFIC CONCEPT «LINGUISTIC PICTURE OF THE WORLD»

**Nurmanov Abdunazar Toshboevich**, head of the department of Russian  
Language and teaching methods, professor, JSPU  
**Karimova Zulfiya Odiljonovna**, lecturer of JSPU

**Abstract.** The linguistic picture of the world is a holistic image of the world that is «depicted» by language. It is a system of views, images and representations that are the result of linguistic conceptualization. We can judge the existence and functioning of this system by the language system, its elements and their interaction – by the units of the language, their connections and relationships.

**Key words:** linguistic picture of the world, conceptualization, culture concentrate, naive model of the world, conceptosphere.

**Введение.** В качестве результата языковой концептуализации мира выступает языковая картина мира. Впервые о понятии «языковая картина мира» (Weltbild der Sprache) в науке о языке в работе «Родной язык и формирование духа народа» в качестве научной метафоры заявил немецкий лингвист, сторонник неогумбольдтианства, Й.Л.Вайсгербер [1].

**Основная часть.** В общем виде языковая картина мира означает «взятое в



|--------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| атхана, дәнхана, мұхана, қозыхана, пешехана, түрмехана/қамақхана, балахана, әскерхана т.б. | мейманхана, наубайхана, қасапхана, кітапхана, асхана, шайхана, жатақхана, аурухана, шеберхана, қымызхана, сырахана, дәріхана, перзентхана т.б. |

Akademik I.Kenesbayevning fikricha, bu jarayon arab-forsiy so'zlarini qozoq tiliga kirib kelishda asosiy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili va mazkur tilda gapiradigan insonlar bilan muloqot qilishi bilan bog'liq. Tilshunoslikning maxsus sohasi bo'lgan dialektologiya dialekt so'zlarni tovush va ma'no nuqtai nazaridan har tomonlama o'rganadi. Dialekt so'zlar adabiy tilga qarab bir necha turlarga bo'linadi: 1) leksik dialektizmlar; 2) leksik-fonetik dialektizmlar; 3) leksik-semantik dialektizmlar; 4) hosila dialektizmlar [4, 23-b.]. Ko'rinish turidiki, zamonaviy til tadqiqotining antropotsentrik paradigmasida so'zning lingvomadaniy mazmuniga alohida e'tibor qaratilgan. Lekin, Toshkent va Sirdaryo viloyatlaridagi ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarida govorlardan tashqari, me'yorga to'g'ri kelmaydigan uzlashgan so'zlar ko'p ishlatiladi:

*мұнда, онда* kabi olmoshlar – *боя, боята, оя, оята, бір, екі, тәрт* son s'oz turkumlari – *бітм, екіта, тәртт, тәменге тәс – пәске тәс; -мен, -пен, -бен*, qo'shimchasi – *білен* (сен білен бірге – сенімен бірге); *ерте* – *ертеге* va boshqalar. Shuning uchun biz ayrim tushunarsiz mahalliy so'zlarni tilning govorlari bilan aralashtrib yuboramiz. O'zbekistonning ayrim hududlarida qozoq tilining tovush uyg'unligi og'zaki nutqda birmuncha yo'qolgan. Ularning tillari o'zbek tiliga tovush uyg'unligiga ega. Qozoq tilidagi so'zlar o'zbek tilining tovush uyg'unligi bilan talaffuz qilinadi. Siz - siz - shundaymisiz? Kelayotgan - kelayotgan - tashrif buyurgan va hokazo. Salomlashish odoblari? To'g'ri: Salomlashish odoblari? Vaziyat so'rasa yaxshimisiz? Bunday so'zlarni ishlatish asta-sekin odat bo'lib bormoqda. O'zbekistondagi qozoqlarning til me'yorlaridagi so'zlarni tasniflashda ham chalkashliklar mavjud: *Мен баруым керек – баруым керекпін (баруымыз керекпіз). Сен баруы керек – баруы керексі (баруымыз керексіз). Ол баруы керек – баруы керекті (баруымыз керекті).* Ba'zida ikki so'zni ajratmay qushib aytadigan holatlar ham uchraydi: *Аласымыз ба? Дұрысы: Аласымыз ба, аласыз ба? Жәресіміз ба? Дұрысы: Жәресіміз бе, жәресіміз бе? («ба» емес). Бар, жә, тә, әл, отыр va boshqa buyruq fe'llari ikki shaklda buzulgan nusxada aytiladi: барсай (дұрысы: бар), жәрсей (жә), тәрсай (тә), асай (әл), кесей (кел) т.б.; барғын (бар), жәргін (жә), тәргін (тә), ағын (әл), кегін (кел), отырғын (отыр) т.б. Endi bu singan so'zlar bir-biriga bog'lanib, shunday aytiladi va yoziladi. So'zning o'zagi qo'shimchasi keyin bog'lovchi qo'shilsa ham tuzatib*

bo'lmaydi. Aksincha, singan so'zlarni oshiradi: барсай + шы (д[р]ысы: барса[ш]ы), ж[р]сей + ш[и] (ж[р]се[ш]и), т[р]сай + шы (т[р]са[ш]ы), асай + шы (алса[ш]ы), отсай + шы (отырса[ш]ы), кесей + ш[и] (келсе[ш]и) т.б.; бар[ай] + сы (д[р]ысы: барарсы[ш]), ж[р]гей + с[и] (ж[р]герси[ш]), т[р]ай + сы (т[р]арарсы[ш]), а[ай] + сы (аларарсы[ш]), кегей + с[и] (келерси[ш]), от[ай] + сы (отырарсы[ш]) т.б. Мен, сен, ол, олар, биз degan oddiy so'zlarni ham men[sh], sen[sh], ol[sh], olar[sh], bizder[sh] deb o'zgartirib aytadi. Maktab o'quvchilari nutqida singarmonizm qoidalari uzgartirib aytiladigan xollar odatiy bo'lib qoldi:

б[ш]ин ба? (д[р]ысы: б[ш]ин бе), кеше ма? (кеше ме), дейсін ба? (дейс[ш]и бе), т[ш]сінді дерма? (т[ш]сінді[ш] дерме), сіздерме? (сіздерме[ш]а) boshqalar. Bo'lajak qozoq tili va adabiyoti o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri boshqa tildagi so'zlardan govor (nutq) so'zlarini ajrata bilish, adabiy til me'yorida so'zlashga ko'nikish va o'quvchilarni ham tayyorlashdan iborat. Bolalarga to'g'ri ta'lim berish uchun o'qituvchilar o'zlari adabiy til nomasida to'g'ri gapirishlari va yozishlari kerak. Tilimizning bunday mahalliy xususiyatlarini, ya'ni dialektizmlarni to'plash va ko'rib chiqish ta'lim oluvchilar va izlanuvchan talabalar uchun katta ahamiyatga ega. Dialektologik amaliyotning (o'quv amaliyoti) maqsadi – har bir hududga xos bo'lgan govorlarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini farqlash, tilning mahalliy xususiyatlari bilan tanishish, govorlarning til taraqqiyotida tutgan o'imi va adabiy tilni boyitishdagi tutgan o'imini ko'rsatishdan iborat. Shuningdek, qozoq tili tarixiga oid dialekt so'zlar va turli iboralarni, mahalliy til ma'lumotlarini to'plash, tadqiqot ishlarini, tilning rivojlanish va o'sish jarayonlarini kuzatish, qozoq tilining boshqa turdosh turkiy tillar bilan tarixiy aloqasi va munosabatlarini aniqlash, til leksikonini boyitish va kengaytirishda katta ahamiyatga ega ekanligi ma'lum. Govorlarning milliy adabiy tilga munosabatini aniqlash, ularning o'zaro aloqadorligini ochib berish ko'p mehnat talab etadi. Shuningdek, qozoq tilining dialektal va so'zlashuv tarkibini aniqlash, ularning xarakteri, o'ziga xosligi, tarixiy asoslarini aniqlash masalalari mahalliy o'ziga xosliklarni to'liq hisobga olish, ularni to'plash, chuqur tadqiq etish orqaligina hal etilishi mumkin. Tilimizdagi dialektizmlarni o'lka, xalq va maktab o'quvchilari tilidan, ayniqsa, dialektologik tajriba orqali, ekspeditsiya materiallarini to'plash yo'li bilan amalga oshiriladi. Dialektologik eksperiment davomida bo'lajak talabalarga mahalliy (govor) til xususiyatlari, shuningdek, joylashuvi va tarixi, xalqning geografik xususiyatlari va tabiiy sharoyiti, iqtisodiyoti va kasbi haqida u yerning odamlaridan to'liq ma'lumotlarni to'plash tavsiya etiladi. Shundagina talaba tomonidan to'plangan mahalliy til materiallari o'sha joyning tabiiy lingvistik xususiyatlarini to'liq ochib berishga yagona asos bo'ladi. Maktab o'quvchilari tilida, ularning turli mazmunda yozma ishlari va insholari, she'r va turli ijodiy ishlarida mahalliy govor so'zlari uchraydi. O'rganish davrida duch kelgan mahalliy dialektal ma'noga ega so'zlarni yig'ish, o'rganish va to'g'ri talaffuz qila bilish dialektologik amaliyot va dialektologiya fani uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. Tilimizdagi dialektizmlar milliy meros manbai bo'lib, ular xalqimiz, ajdodlarimizning turmush tarzidan, hayotiy ehtiyojlardan, turmush, kasb-hunar, turmushning turli jabhalaridan kelib chiqadi. Ularning milliy adabiy tilimizga ta'siri katta. Milliy adabiy til bilan dialektizmlar o'rtasidagi uzluksizlik va bog'liqlik, tafovutlar doimo saqlanib qoladi. Umuman olganda, tilimizning mahalliy xususiyatlari tilimiz boyligini tahlil qilish va rivojlantirishda hamda tilimizning rivojlanish tarixidan zarur lingvistik ma'lumotlar, materiallar bilan ta'minlash, adabiy tilimizni boyitishda bitmas-tuganmas manba ekanligi ma'lum. Xalq tilining mahalliy o'ziga xosliklari, dialektizmlar, zaruratga ko'ra, adabiy tilimizga kirib boradi, uning boyishiga salmoqli hissa qo'shadi deb hisoblash mumkin. Adabiy tilimizning boyib borishi ko'pincha tilda eng ko'p uchraydigan dialektal leksik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Demak, tilimizning leksik xususiyatlari adabiy tilimizni boyitish kanali va manbalaridan biridir. Tildagi dialektal til ma'lumotlarini izlash va to'plashning bir necha usullari mavjud. Ularning asosiy turi suhbat usuli bo'lib, ya'ni ular mahalliy odamlar bilan gaplashganda e'tiborli va ehtiyot bo'lishlari kerak. Suhbatdoshingiz bilan samimiy muloqot tashkil etgan odamdek gaplashib, maqsadingizni bildirmagandek bo'lib, istalgan mavzuda suhbatni boshlaganingiz ma'qul. Bu usul tajriba davomida bajariladigan ishlarning eng mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi. Suhbatdoshning har bir so'ziga jiddiy e'tibor qaratib, kerakli deb topgan lingvistik ma'lumotlarni qog'ozga tushirgan ma'qul. Aks holda, suhbatdoshning yonida o'tirgan keyingi tadqiqotchi talaba va suhbatdosh o'rtasidagi suhbat o'rtasidagi kerakli til ma'lumotlariga tegishi yoki telefon yozuvchisi bilan yozib olishi kerak. Bu

yo'nalishda dialektologik amaliyot jarayonida mahalliy aholi bilan kuniga uch-to'rt marta suhbatlar o'tkazish zarur. Dialektologik amaliyot uchun asosan yozma materiallardan haqiqiy ma'lumotlar olinadi. Talabalar lingvistik ma'lumotlarni turli gazeta va jumallar sahifalaridan, badiiy asarlardan, maktab o'quvchilari yozgan asarlar mazmunidan, insho, qo'lda yozilgan xat, ishonchnoma, ish hujjatlari va hokazo manbalardan oladi. Suhbat davomida u kishining erkin gapirishi va harakatlanishi uchun sharoit yaratib, oraliqda unga savollar berib, ma'lum qiziqarli mavzularda suhbatni boshlagan ma'qul. Yurtimizdan, ayniqsa, xalqimiz orasidan tilimiz govorlarini to'plash dialektologik tajribalar, ekspeditsiya materiallari, til xususiyatlaridan foydalanadigan kishilar bilan bevosita muloqot qilish, mahalliy lingvistik ma'lumotlar, turli so'z birliklari yoki iboralarni yozib olish orqali amalga oshiriladi. Mahalliy til birliklari, dialektik lug'at materiallarini tahlil qilishda tahlil, sintez, asoslash kabi usullar bilan birgalikda qarama-qarshi qo'yish usulidan samarali foydalanish mumkin.

**Xulosa.** Dialektal leksika til egasining butun ma'naviy-moddiy madaniyatini, boyligini, millatning mazmun-mohiyatini, hayotini saqlab turuvchi til obrazining eng boy manbalaridan biridir. Til va madaniy kompetensiya – bu lingvistik va madaniy elementlardan kontekstda foydalanish, madaniy, tarixiy va maxsus milliy ma'lumotlardan lingvistik aloqada foydalanish, lingvistik bilimlar tizimi, millat tarixi, an'analari va madaniyati haqidagi bilimlardan oqilona foydalanish, nutq madaniyatini rivojlantirish. Nafaqat chet tili, balki, ona tilini chuqur o'zlashtirish uchun ham dunyoning etnomadaniy qiyofasi, lisoniy ongi, xalqning turmush tarzi, urf-odatlari to'g'risidagi tushuncha shakllanishi kerak. Shu sababli, «til va madaniyatni birgalikda o'rganish» printsipli ona tilida til birliklarining madaniy semantikasini o'rganishda ham joriy etila boshlandi. «Madaniyat va til»ni lingvomadaniy birliklar (lingvokultura) majmui sifatida ko'rib chiqish doirasida lingvomadaniy yondashuv natijasida ona tili va adabiyoti yo'nalishi talabalarida ham lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish maqsadida konkretlashtirilgan vazifalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni kafolatlash bugungi kunda dolzarbligicha qolmoqda.

#### Adabiyotlar:

1. Айдаров Т. Қазақ тілінің лексикалық ерекшеліктер (Ўзбекстандағы ?аза? говорларыны? материалдары бойынша). - А., ?ылым, 1975.
2. Тасымов А. ?аза? диалектологиясы. - А.: ?аза? университети, 2014.
3. Исаев С. ?аза? тілі. О?у ??ралы. - А.: ?нер, 2007.
4. ?алиев ?, Сарибаев Ш. ?аза? диалектологиясы. - А., 1991.
5. Abduvalitov E. Aesthetic education and perception in the teaching of literature of fraternal peoples: <http://ijmmu.com> editor@ijmmu.com
6. Duysabayeva D. Formation of linguo-culturological competence of Future Native Language Specialists: <https://ijssrr.com/journal/issue/view/21>.
7. Abduvalitov N. Ways of teaching samples of world literature at literature classes by Grene Features: <http://ijmmu.com> editor@ijmmu.com. ISSN 2364-5369 Vol. 9, Issue 3 March, 2022. - P. 219-223.
8. Sayfulayev B. Structural features of Uzbek-Kazakh dialectal phrasemes: <https://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/311>
9. Yusupov B.B. Motherland and patriotism in the lyrics of Tulegen Aibergenov: <https://ijssrr.com/journal/issue/view/28>
10. Манкеева Ж. ?аза? тіліндегі этном?дени атауларды? танымды? негіздері. - А.: Жібек жолы, 2008. - 356 б.



## FRANSUZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH JARAYONIDA TRANSFORMATSIYALARDAN FOYDALANISH

*Xamidova Nargiza Yusufovna, O'zDJTU katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tarjima transformatsiyalariga sabab bo'ladigan «shaffof so'zlar» deb nomlanuvchi birliklarni tarjima qilish muammolari o'rganilgan. Bunday so'zlarni tarjima qilishda qo'llaniladigan transformatsiya turlari va usullari ko'rsatilgan va ularni tarjima qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Tayanch so'zlar:** tarjima transformatsiyalari, tarjima usullari, konkretlashtirish, desemantizatsiyalashgan leksika.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА С ФРАНЦУЗСКОГО НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

*Хамидова Наргиза Юсуфовна, старший преподаватель УзГТУ*

**Аннотация.** В данной статье изучаются проблемы перевода «прозрачных слов». Показаны переводческие трансформации и методы перевода таких слов, даются рекомендации по их переводу.

**Ключевые слова:** переводческие трансформации, приёмы перевода, конкретизация, десемантизированная лексика.

## THE USE OF TRANSFORMATIONS IN THE PROCESS OF TRANSLATION FROM FRENCH INTO UZBEK

*Khamidova Nargiza Yusufovna, senior teacher of UzSWLU*

**Abstract.** The article discusses the problems of translation of the so called «transparent words» which cause translation transformations. Transformations and translation methods are indicated and recommendations are presented in translating them.

**Key words:** translation transformations, translation methods, concretization, words which lost their meaning.

**Kirish.** Tarjima jarayonida transformatsiyalarni yuzaga keltiruvchi turli so'z turkumlari mavjud. Bu so'zlar qatoriga, odatda, «shaffof» ma'noga ega so'z yoki so'z birikmalari kiradi. «Shaffof» so'zlar ko'p ma'noli bo'lib, ular boshqa ko'p ma'noli so'zlardan muayyan jihatlari bilan farq qiladi. Qo'llashda va tarjima qilishda «shaffof» so'zlar kontekstni talab etadi, uning butun ma'nosini lug'atlarda aks ettirishning iloji yo'q. Bunday «shaffof» so'zlar tarjimashunoslikda «desemantizatsiyalangan leksika», ya'ni moddiy ma'nosi kuchsizlangan so'zlar nomi bilan yuritiladi.

**Asosiy qism.** Fransuz tilida bunday so'zlar ko'p. Masalan, *cas, pièce, chose, état, communauté, facilité, challenge, performance, record, engagement, échouer, défi, s'engager* va boshqalar. Bu so'zlar qo'llangan gaplarni tarjima qilishda, matn qaysi uslubga tegishli bo'lishidan qat'i nazar, leksik va aksariyat hollarda leksik-semantik transformatsiyalardan foydalanishga to'g'ri keladi. «Shaffof so'zlar»ni tarjima qilish ularning ma'nolarini aniqlashtirishni, konkretlashtirishni talab etadi. Bundan tashqari, tarjimaning umimlashtirish, so'z ma'nolarini rivojlantirish, antonimik tarjima kabi usullaridan ham tegishli o'rinlarda ma'noni to'g'ri berish uchun foydalaniladi. Konkretlashtirish usuli aynan «shaffof so'zlar»ni

aniq tarjima qilish uchun qo'llaniladi. Chunki «shaffof so'zlar» hajmi juda keng bo'lganligi bois tarjimon mazkur so'z ma'nolarini topishda qiyin ahvolga tushib qolishi mumkin. Chunki bunday so'zlarning lug'atlarda berilgan ma'nolari tarjimonni qoniqtirmaydi. Tarjimon bunday so'zlarning birorta ma'nosiga tayanolmaydi. Unga «shaffof so'zlar»ni tarjima qilishi uchun turtki bo'ladigan ma'noning o'zi lug'atda bo'lmaydi. Bunday qiyin vaziyatdan tarjimon qanday chiqib ketishi mumkin. Birinchidan, tarjimon barcha transformatsiyalardan hamda tarjima usullaridan xabardor bo'lishi, ikkinchidan, muayyan tajribaga ega bo'lishi, uchinchidan, o'zi tarjima qilayotgan matnni his etishi, to'rtinchidan, so'zlar valentligi haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, beshinchidan, tarjima qilinayotgan so'zning nima uchun qo'llanganligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi, oltinchidan, adekvatlikka erishish yo'llarini bilishi lozim.

Endi yuqorida keltirilgan ba'zi «shaffof so'zlar» tarjimasiga to'xtalib o'tamiz. Fransuz tilida ijtimoiy-siyosiy matnlarda ko'p qo'llanadigan leksik birliklardan biri – *la communauté* so'zi hisoblanadi. Bu so'zning shaffofligi shu sohada tajribaga ega tarjimonlarga ma'lum bo'lsa-da, bu so'z hali-hanuz tarjimada muammo tug'diradi. Bu so'zning ma'nosi turli lug'atlarda turlicha berilgan, ya'ni uning informativ hajmi keng. X.Ibragimov va boshqalar tomonidan tuzilgan salkam 28000 so'z va iboradan iborat «Fransuzcha-o'zbekcha lug'at»da *communauté* so'zining bir nechta (jamo, umumiylik, jamiyat, ittifoq, uyushma, hamdo'stlik) ma'nosi keltirilgan [2, 102-b.]. N.Umbarov, N.Mullabayevlar tomonidan tuzilgan 25000 so'z va iboradan iborat Fransuzcha-o'zbekcha lug'atda *la communauté* so'zining jamoa, tashkilot, umumiylik, birlik ma'nolari berilgan [2, 143-b.]. Bu so'zning birikmalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: *Les intérêts de la communauté, la communauté noire, la communauté financière (d'affaires), La Communauté économique européenne, la communauté technologique, la communauté de biens, la communauté d'intérêts*. Birinchi so'z birikmasi *Les intérêts de la communauté* so'z birikmasini yuqoridagi lug'atda keltirilgan jamiyat so'zi orqali tarjima qilish mumkin. Mazkur so'z birikmasini tarjima qilish uchun *intérêt* so'zining ma'nolariga ham e'tibor berish lozim bo'ladi. Bu so'z «shaffoflik»ka da'vo qilmaydi, uning aniq ma'nosi mavjud. U aksariyat hollarda o'zbek tiliga «manfaat» deb tarjima qilinadi. Mantiqan fikr yuritadigan bo'lsak, ikkita asosiy manfaat haqida gapirish mumkin. Birinchisi – shaxsiy manfaat, ikkinchisi – jamiyat manfaati. Shuning uchun fransuzcha-o'zbekcha lug'atda berilgan so'zning «jamo» ma'nosi emas, jamiyat degan ma'nosini tarjimada qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, *les intérêts de la communauté* birikmasi o'zbek tiliga «jamiyat manfaatlari» deb tarjima qilinadi.

Navbatdagi *la communauté noire* birikmasidagi *la communauté* so'zini bu yerda manfaat degan mazmunda tarjima qilib bo'lmaydi. Chunki qora tanlilar jamiyati bo'lishi mumkin, biroq jamiyatning ma'nosi keng. Bu yerda tarjimaga aniqlik kiritish, ya'ni konkretlashtirish usulidan foydalanish talab etiladi. Fransuz tilidagi noir(e) so'zi nafaqat qora rang balki, qora tanlilarni ham anglatadi. Qora tanli birikmasining o'zi mavjud tarjima muammosini ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Tarjimonning o'z intuitsiyasiga tayanib, yuqoridagi birikmani qora tanli aholi deb tarjima qilishi to'g'ri bo'ladi. Shunday qilib, *la communauté* noire birikmasini o'zbek tiliga qora tanli aholi deb o'girish ayni muddaodir. Iqtisod sohasida qo'llanadigan keyingi birikma – *la communauté financière (d'affaires)* hisoblanadi. Bu birikmadagi so'zning ma'nosi birinchi va ikkinchi so'z birikmasida qo'llangan *communauté* so'z ma'nosidan butunlay farq qiladi. Moliyaviy jamoa, moliyaviy jamiyat kabi so'z birikmalari sun'iydir. Shuning uchun bu o'rinda mazkur birikmadagi *communauté* so'zini «doira» deb olish maqsadga muvofiq. Demak, yuqoridagi birikmani

o'zbek tiliga moliyachilar (tadbirkorlar) doirasi deb tarjima qilish to'g'ri yo'l deyish mumkin. Navbatdagi birikma *La Communauté économique européenne*ni tarjima qilish uncha muammo tug'dirmaydi, chunki mazkur birikma tarkibida *communauté* shaffof ma'noli so'z bo'lsa ham, birikma matbuotda faol qo'llanganligi bois, uni o'zbek tiliga tarjima qilish (faol bo'lgani va hammaga ma'lum bo'lgani uchun) muammo tug'dirmaydi va u Yevropa iqtisodiy hamjamiyati deb tarjima qilinadi.

Keyingi birikmaning tarjimasi yuqoridagilardan ancha farq qiladi. Fransuz tilidagi *la communauté technologique* birikmasi tarjimonda muammo tug'dirishi aniq, chunki *technologique* so'zi fransuz tilida *communauté* so'zi bilan birikma hosil qilishi kam kuzatilgan. Shuning uchun birikmani tarjima qilish tarjimondan katta mehnat va mahoratni talab etadi. Aytganimizdek, lug'atda bu so'zning ma'nosi aks ettirilmagan, shuning uchun so'z ma'nosini aniqlash uchun lug'atdan tashqari, sohaga tegishli adabiyotlardan va manbalardan ma'lumot olishga to'g'ri keladi. Mazkur birikmani o'zbek tiliga texnik hamkorlik deb tarjima qilish tavsiya etiladi. Navbatdagi *la communauté de biens hamda la communauté d'intérêts* so'z birikmalaridagi *communauté* so'zi bir xil ma'noda qo'llangan. Ikkala birikmada ham mazkur shaffof so'z «umumiylik» ma'nosida kelgan. Ba'zan shaffof so'zlarning aniq, ya'ni faol qo'llanadigan ma'nosi olinadi. Lug'atda *communauté* so'zining birinchi ma'nosi – umumiylik deb berilgan [2, 102-b.]. Shunday qilib, birinchi birikmani o'zbek tiliga mol-mulkka umumiy egalik qilish, ikkinchisini esa, manfaatlarning umumiyliги deb tarjima qilish talab etilmoqda.

**Xulosa.** Fransuz tilida «shaffof» ma'noli so'zlar mavjud. Ularni tarjima qilish tarjimondan tarjima transformatsiyasi va usullarini yaxshi bilishni, har ikki til bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishni hamda topqir bo'lishni, tajriba egallashni talab etadi. Bunda kontekst (matn) uslubi va sohasi ham muhim ahamiyatga ega. Tarjima muammolari paydo bo'lganda, tarjimonning (bir tilli, tarjima va qomusiy hamda maxsus) lug'atlar bilan birga tegishli soha bo'yicha maxsus adabiyotlar va boshqa manbalarga murojaat etishi maqsadga muvofiqdir.

#### Adabiyotlar:

1. Ibragimov X. va boshq. Fransuzcha-o'zbekcha lug'at. 28 000 so'z va ibora. - T., 2015.
2. Umbarov N., Mullabayeva N. Dictionnaire francais-ouzbek. Fransuzcha-o'zbekcha lug'at. - T., 2014.
3. Paul R., Josette Rey-Debove, Alain Rey. Le Petit Robert de la Langue Francaise. French Edition, 2011.

---

## IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA ANDIJON VILOYATI KOOPERATIVLARINING KENG ISTE'MOL MOLLARINI ISHLAB CHIQRISHDAGI ROLI

*Dadamirzayeva Gulchexra Abdunabiyevna, NamDU v.b. dotsenti, PhD*

**Annotatsiya.** Maqolada 1946-1960 yillarda Andijon viloyatidagi ishlab chiqarish va nogironlar kooperativlarining aholini keng iste'mol mollari bilan ta'minlashdagi o'rni va roli birlamchi manbalar orqali ochib berilgan. Bundan tashqari, kooperativlar partiya va sovet organlari yo'riqnomalari asosida rejali iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganligi hamda nogironlarni ish bilan ta'minlashdagi muammolar tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** nogironlar kooperatsiyasi, hunarmandchilik kooperatsiyasi, hunarmandchilik kooperativlari, kooperativ sanoati, nogironlar kooperativ uyushmasi, staxanovchilik harakati, artel, transport xizmati, maishiy xizmat ko'rsatish.

## РОЛЬ КООПЕРАТИВОВ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ В ПРОИЗВОДСТВЕ ТОВАРОВ ШИРОКОГО ПОТРЕБЛЕНИЯ В ГОДЫ ПОСЛЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

*Дадамирзаева Гулчехра Абдунабиевна, и.о. доцента НамГУ, PhD*

**Аннотация.** В статье по первоисточникам раскрывается место и роль производственной и инвалидной кооперации Андижанской области в 1946-1960 годов в обеспечении населения товарами народного потребления. Кроме того, проанализирован факт функционирования кооперативов как составной части плановой экономики по заданию партийных и советских органов и проблемы обеспечения занятости инвалидов.

**Ключевые слова:** кооперация инвалидов, промысловая кооперация, промысловые кооперативы, кооперативная промышленность, кооперативное объединение инвалидов, стахановское движение, артель, транспортная служба, бытовое обслуживание.

## THE ROLE OF COOPERATIVES OF THE ANDIJAN REGION IN THE PRODUCTION OF GOODS OF WIDE CONSUMPTION IN THE YEARS AFTER WORLD WAR II

*Dadamirzayeva Gulchexra Abdunabievna, associate professor of NamSU, PhD*

**Abstract.** The article, based on primary sources, reveals the place and role of industrial and disabled cooperation in the Andijan region in 1946-1960. in providing the population with consumer goods. In addition, the fact of the functioning of cooperatives as an integral part of the planned economy on the instructions of the party and Soviet bodies and the problem of ensuring the employment of the disabled were analyzed.

**Key words:** disabled cooperative, craft cooperative, craft cooperatives, cooperative industry, disabled cooperative association, stakhanovite movement, artel, transportation service, household service.

**Kirish.** O'zbekiston bugungi kunda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va liberallashtirish yo'lidan borar ekan, bozor iqtisodiyoti sharoitida kooperatsiyaning boshqa xo'jalik yuritish mexanizmlari va mulk shakllari qatorida aholini mahsulot va xizmatlar sohasidagi ehtiyojini qondirishdagi faoliyati uchun sharoit yaratib berilmoqda.

**Asosiy qism.** Xalq xo'jaligi sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va aloqa, savdo kabi o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlardan iborat. Mamlakatlar iktisodiyotida kooperativ tashkilotlari turlicha ulush va salmoqda faoliyat yuritadi. Ular qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishi, qurilish, savdo, transport sohalarida ishtirok etadi. Sovet davrida faoliyat olib borgan kooperativlarning aniq maqsad va vazifalari, mustaqil matbuot organi hamda boshqaruv tizimiga

ega bo'lganligi, o'z a'zolarining moddiy ahvolini yaxshilash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish kabi muammolarni hal qilishdagi ahamiyatining o'rganilishi aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy himoya muammolarini hal qilishga yordam berish hamda jamiyatda o'rta qatlamni shakllantirishning ilmiy nazariy asoslarini ochib berishda muhim o'rin tutadi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda hunarmandchilik kooperativlari ishlab chiqarish vositalari umumlashtirilgan va mehnati kooperativlashtirilgan korxonalarning egasi bo'lishi bilan birga, uning ishchilari ham hisoblanardi. Mamlakat iqtisodiyotida kooperativ sanoati muhim rol o'ynab, kooperativ ishlab chiqarish davlat ishlab chiqarishini to'ldirib bordi. Bu paytda uning asosiy maqsadi – mahalliy xom ashyodan foydalangan holda, aholining iste'mol mollariga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iborat bo'ldi. O'zbekiston Nogironlar kooperatsiyasi Soveti hisobot-balans komissiyasining 1947-yil 2-martdagi hisobotiga ko'ra, «Andijon viloyati nogironlar kooperativ uyushmasi bo'yicha nogironlarni ishga joylashtirish atigi 36,2 foizga bajarilgan. Shu bilan bir vaqtda, viloyat nogironlar kooperativ uyushmasi tizimidagi urush nogironlariga yordam tariqasida ajratilgan mablag'ning 44 foizi sarflangan, xolos». Ma'lumot uchun keltirish o'rinliki, 1947-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, tizimda 1397 nafar umumiy ishchilar bo'lib, shulardan 77,9 foizi artel a'zolari sanalgan [1, 2-b.]. Ustavga ko'ra, mulkni umumlashtirish to'g'risidagi talablarini bajarmay, tuyakashlarni maxsus hissasi ko'rinishida, lekin aslida shaxsiy mulk sifatida qoldirgan. Natijada, yuk tashuvchilar belgilangan reja badalini bajara olmagan. Artelning barcha a'zolari, ya'ni 68 kishi xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullangani uchun 1948 yil 25 iyuldagi buyruqqa asosan, mol-mulki musodara qilinib, materiallar javobgarlikka tortish uchun tergov organlariga o'tkazilgan. Natijada, ushbu artel tugatilganligi to'g'risida «Stalin bayrog'i» gazetasida e'lon berilgan [2, 221-b.]. Yuqorida keltirilgan barcha soxta artellar ham, asosan, odam va yuk tashish faoliyati bilan shug'ullangan. Shuning uchun ushbu soxta artellar tugatilib, boshqa yo'nalishdagi artellarga qo'shib yuborilgan edi. O'zbekiston SSR matlubot va hunarmandchilik kooperatsiyalari ishi bo'yicha Bosh boshqarma katta inspektori tomonidan SSSR Ministrlar Sovetining 1948 yil 1 maydagi «Arava, g'ildirakli arava, chana, tirkovchi moslama va boshqa turdagi arava-xo'jalik asbob-uskunalarini ishlab chiqarishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining bajarilishi bo'yicha Andijon viloyatidagi kooperativ tashkilotlarida 24 noyabrdan tekshiruv o'tkazilishi belgilangan. Lekin, O'zbekiston SSR KPMQning murojaatnomasiga asosan, barcha kooperativ tashkilotlari paxta yig'im-terimiga jalb etilganligi tufayli tekshiruvni 5 dekabrdan oldin yakunlashning imkoni yo'qligi haqida Andijon viloyati bo'yicha inspektor bosh boshqarmaga murojaat qilgan edi [2, 303-b.]. Bundan ko'rinib turibdiki, kooperativ korxonalari ham qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilingan. Shunday bo'lsada, Andijon viloyati ijroiya qo'mitasida artellar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot va buyurtmalar masalasi ko'rib chiqilgan. Masalan, «Bolshevik» arteli qishloqda bolalar poyabzaliga katta talab mavjudligiga qaramay, asosan, erkaklar poyabzali ishlab chiqargan. 1948 yilning birinchi yarmida jami 550 juft bolalar poyabzali ishlab chiqargan bo'lsa, shundan 50 juftigina joylardagi savdo tarmoqlariga berilgan, xolos. Yoki Andijon viloyati nogironlar kooperativ uyushmasining «Tikuvchi» arteli tomonidan ichki va ustki kiyim-kechaklar chegaralangan o'lchamda va hisob-kitoblarsiz ishlab chiqarilgan. Bundan tashqari, joylardagi savdo tarmoqlariga mahalliy rusumdagi kiyimlarga talab yuqori bo'lishiga qaramay, yevropacha rusumdagi kiyimlar taqsimot qilingan.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, Andijon viloyati ijroiya qo'mitasi 1948-yil uchun ehtiyojini hisobga olib, artellarga joylarda sotish uchun sopol idish, arava, chiyotka, tugma, taroq, ohak, yelim, g'isht, bo'yoqlar, xo'jalik sovuni, chelak, suv idish va krovatlarga qo'shimcha buyurtma bergan [2, 289-b.]. Bosh boshqarma inspektorlari tomonidan berilgan hisobotda qayd etilishicha, viloyatdagi hunarmandchilik va nogironlar kooperatsiyalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning sifati iste'molchilarning o'sib borayotgan talablarini qondirmagan va natijada, artellarda tayyor mahsulotlar to'planib qolgan. Bundan tashqari, hunarmandchilik kooperatsiyasining 45 foiz ishchisi belgilangan ishlab chiqarish rejalarini

bajarmaganligi aniqlangan [3, 48-b.]. Ma'lumki, bu davrda Ittifoq miqyosida artellarda staxanovchilik harakati ham keng yoyilgan edi. Bu jarayonda Andijon viloyati mehnat-kashlarining ishtiroki ham kuzatilib, jumladan viloyat nogironlar kooperativ uyushmasi bo'yicha «Pobeda» artelining tikuvchisi staxanovchi R.Ahmadjonova 1948-yil uchun ishlab chiqarish rejasini oktabr oyida 125 foizga bajargan edi. «Paxta uchun» arteli temirchisi, nogironligi bo'lgan Rahimjon Odilov esa 1947-yil rejasini 125 foizga, 1948-yil rejasini esa, 200 foizga bajarishga muvaffaq bo'lgan edi [4, 35-b.]. 1949-yil 19-fevralda Respublika nogironlar kooperatsiyasi faoliyati haqidagi hisobotda ko'pchilik artellar, ayniqsa, Namangan va Andijon viloyatlari nogironlar kooperativ uyushmasi artellari o'z ishlab chiqarish faoliyatida nogironlarni o'qitish, kooperativlashtirish hamda ishga joylashtirishga emas, balki yollanma ishchilar tarkibiga tayanganligi qayd etilgan. Xususan, Andijon viloyati nogironlar kooperativ uyushmasida yollanma ishchilar tarkibi 69 foizni, ayrim artellarda esa 50 foizni tashkil etgan. Masalan, «Zagottorg» artelida 28 nafar ishchining faqatgina 4 nafari artel a'zolari bo'lsa, Namangan viloyati nogironlar kooperativ uyushmasida yollanma ishchilar tarkibi 78,1 foizga yetgan edi [5, 23-b.]. Yo'llanma ishchilar salmog'ining ortib borishi ishlab chiqarishda nogironlar uchun mehnat sharoitlarining qoniqarsizligi bilan bog'liq edi.

Andijon shahridagi «Vatan uchun» artelining 1949 yildagi yig'ilishida ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarilishi masalasi muhokama qilinib, unda «...artel ishlab chiqarish bo'limi boshlig'i iste'molchilar sifatli mahsulot talab qilayotgani uchun barcha bilim va kuchlarni sifatli mahsulot tayyorlashga yo'naltirish hamda charm zavodida sifatsiz mahsulot ishlab chiqarilgani tufayli javobgarlikka tortilishi», – ta'kidlandi [6, 32-b.].

Tadqiq etilayotgan yillarda respublika miqyosida ko'plab taftish ishlari olib borilganini kuzatish mumkin. Jumladan, Respublika nogironlar kooperatsiyasi Bosh boshqarmasi katta inspektorlari tomonidan rejadagi topshiriqlarga ko'ra, mehnat va urush nogironlarini artellarga ishga joylashtirish yuzasidan tekshiruv o'tkazilgan. Ushbu tekshiruvlar Andijon viloyati nogironlar kooperativ uyushmasi va «G'alaba» hamda «Zagottorg» artellarida o'tkazilgan. Tekshiruv natijalariga ko'ra, nogironlarni ishga joylashtirishning qoniqarsizligi, kooperativ ustavi meyorlarining buzilishi va artel a'zolarining qo'nimsizligi kabi holatlar aniqlangan. 1949 yilinig birinchi yarim yilligi uchun nogironlarni ishga joylashtirish rejasini ortig'i bilan bajarilgan bo'lsa-da, qoniqarsiz ishlab chiqarish va maishiy sharoitlar tufayli katta miqdorda xodimlar qo'nimsizligi yuzaga kelgan. Shuningdek, viloyat nogironlar kooperativ uyushmasi tomonidan nogironlarni ishga joylashtirish tadbirlari o'tkazilmagan, ya'ni I-II guruh nogironlari ishlashi mumkin bo'lgan maxsus tarmoqlar tashkil etilmagan. Aksincha, sanoatning nogironlar mehnatidan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lmagan ko'p kuch talab qiladigan tarmoqlari vujudga keltirilgan [7, 90-b.]. «Vatan uchun», «Sanoat», «Qizil bayroq» va «Qizil dehqon» artellari charm-teri, kigiz-namatchilik, ohak ishlab chiqarish, yog'ochni qayta ishlash, kulolchilik hamda metallni qayta ishlash tarmoqlariga ega bo'lib, mazkur sohalarida nogironlar ishlash imkoniyati mavjud bo'lmagan. Natijada, ushbu artellarning ma'lum qismi hunarmandchilik kooperatsiyasi korxonalaridan deyarli farq qilmagan hamda keyingi yillarda sog'lom ishchi kuchining salmog'i ortib borgan. O'z o'rnida shuni qayd etish kerakki, viloyat nogironlar kooperatsiyasi tizimida ko'zi ojizlar va sil kasalligi bo'lgan nogironlarni ishga joylashtirish uchun maxsus artellar ham mavjud bo'lmagan. Ikkinchi jahon urushi va mehnat nogironlarini ishlashi uchun sharoit yaratilmaganligi, xom ashyo ta'minoti va asbob-uskunalaridagi uzilishlar bekor turib qolishiga olib kelgan. Ba'zi artellarda bir xil ish bajarilishiga qaramay, yo'llanma ishchilarning maoshi nogironlarning maoshidan yuqori ekanligi kuzatilgan [7, 91-b.]. Noreal ishlab chiqarish rejasini qo'yilishi artellar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Masalan, Andijon viloyati nogironlar kooperativ

uyushmasiga qarashli «O'zbekiston» artelida 1950-yil uchun ishlab chiqarish rejalarini belgilashda aynan shunday holatni kuzatish mumkin. Masalan, non mahsulotlari, muzqaymoq, kolbasa tayyorlash va don mahsulotlarini qayta ishlash uchun artel hech qanday xom ashyo bazasiga ega bo'lmagan. Bundan tashqari, Sobiq Ittifoq Ministrlar Sovetining 1949-yil 9-avgustdagi qaroriga muvofiq, tizimda bozor narxlarida don va dukkakli qishloq xo'jaligi mahsulotlari va shakar tayyorlash ta'qiqlangan edi [8, 4-b.]. Hunarmandchilik va matlubot kooperatsiyalari ishlari bo'yicha Respublika Bosh boshqarmasi tomonidan Andijon viloyatidagi «Mehnat qahramoni» artelining metallni qayta ishlash sexida 1950-yil yanvar oyida tekshiruv o'tkazilganda quyidagilar aniqlangan: 20 kishidan iborat moldavanlar guruhi (ko'chmanchilar) artelning 22 dekabrda umumiy yig'ilishida o'z arizalariga ko'ra, a) zolikka qabul qilinib, unda artel a) zolarining shaxsiy yig'ma jildi yuritilmaganligi, uskuna va jihozlarning umumlashtirilmaganligi, a) zolikka kirish badallarining to'lanmaganligi, artel a) zolari o'zlari uchun ajratilgan binolarda emas, ochiq maydonda ishlaganliklari ko'rsatilgan. Shuningdek, umumiy yig'ilish qarorisiz, artel buyrug'i bilan metallni qayta ishlash sexiga moldavalardan birining tayinlanganligi, u artel boshqaruvining nazoratsizligidan foydalanib, artel mablag'larini o'zlashtirganligi, sex ishchilari artel mol-mulkini sotib, o'zaro bo'lib olganliklari aniqlangan [9, 58-b.].

**Xulosa.** Tahlil etilayotgan yillarda respublikaning boshqa viloyatlaridagi kabi Andijon viloyati hunarmandchilik va nogironlar artellari ham partiya va sovet organlari yo'riqnomalari asosida rejali iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib bordi. Artellar aholi ehtiyojlari uchun kiyim-kechak, charm-poyabzal, uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish bilan birga, Andijonda transport xizmati va maishiy xizmat ko'rsatish sohalarining yetakchi tarmoq bo'lganligini kuzatish mumkin. Bu davrga kelib eng asosiy muammolardan biri mahsulot sifati masalasi bo'lib, bu o'rinda sexlarning moslashmagan binolarda joylashganligi, xom ashyo sifatining pastligi bilan bir qatorda malakali mutaxassis kadrlarning yetishmovchiligi sohadagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan. Shuningdek, Andijon viloyati xunarmandchilik kooperativlari tizimida faoliyat yuritgan nogironlar kooperatsiyasi ham qator kamchiliklar kuzatilgan. Xususan, nogironlarni ishga joylashtirishning qoniqarsizligi, kooperativ ustavi meyorlarining buzilishi va artel a'zolarining qo'nimsizligi kabi holatlar mavjud bo'lgan. Garchi ayrim yillarda nogironlarni ishga joylashtirish rejasi ortig'i bilan bajarilgan bo'lsa-da, qoniqarsiz ishlab chiqarish va maishiy sharoitlar tufayli katta miqdorda xodimlar qo'nimsizligi yuzaga kelgan.

#### Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎЗМА). Р. 2326-фонд, 1-рўйхат, 145-йиғма жилд.
2. Андижон вилоят давлат архиви (Андижон ВДА). 198-фонд, 1-рўйхат, 10-йиғма жилд.
3. Андижон ВДА, 198-фонд, 1-рўйхат, 15-йиғма жилд.
4. ЎЗМА, Р-2326-фонд, 1-рўйхат, 245-йиғма жилд.
5. ЎЗМА, Р-2326-фонд, 1-рўйхат, 348-йиғма жилд.
6. Андижон ВДА, 549-фонд, 2-рўйхат, 1-йиғма жилд.
7. Андижон ВДА, 198-фонд, 1-рўйхат, 16-йиғма жилд.
8. ЎЗМА, Р-2326-фонд, 1-рўйхат, 457-йиғма жилд.
9. Андижон ВДА, 198-фонд, 1-рўйхат, 17-йиғма жилд.

---

## BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA GUMANITAR FANLARNI O'QITISHNING INNOVATSION TAJRIBALARI

*Jabborova Onaxon Mannapovna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, PhD*

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion tajribalari tahlil qilingan va tavsiyalar taqdim etilgan.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim, boshlang'ich, metodika, innovatsiya, bilim, ko'nikma, samara, malaka.

## ИННОВАЦИОННЫЙ ОПЫТ ПРЕПОДАВАНИЯ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК В ПРОЦЕССЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Джабборовна Онахон Маннаповна, Чирчикский государственный педагогический университет, PhD*

**Аннотация.** В статье представлены инновационные эксперименты по преподаванию гуманитарных дисциплин в процессе начального образования и даны рекомендации.

**Ключевые слова:** образование, начальное, методология, инновации, знания, навыки, плоды, квалификации.

## INNOVATIVE EXPERIENCE OF TEACHING HUMANITIES IN THE PRIMARY EDUCATION SYSTEM

*Jabborova Onakhon Mannapovna, Chirchik state pedagogical university, PhD*

**Abstract.** The article presents innovative experiments on teaching humanities in the process of primary education and provides recommendations.

**Key words:** education, primary, methodology, innovation, knowledge, skills, fruits, qualifications.

**Kirish.** «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi»da belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash jarayonida boshlang'ich ta'lim jarayonini takomillashtirish masalasi ham muhim o'rin tutadi.

**Asosiy qism.** Mazkur masalada boshlang'ich ta'lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion mexanizmlari tajribalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki innovatsion mexanizmlar bugungi kunda boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilayotgan talablar va vazifalarni yangicha yondashuvlar asosida xalq etish imkonini beradi. Shu ma'noda bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich ta'lim jarayonida gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion tajribalari taqdim qilamiz.

1. Boshlang'ich ta'lim jarayonida gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion takomillashtirish tajribasi. Mamalakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonida gumanitar fanlar muhim o'rin tutadi. Mazkur fanlarning asosiy tarkibini «Musiqqa madaniyati», «Tasviriy san'at», «Texnologiya», «Tarbiya», «Jismoniy tarbiya», «Atrofimizdagi olam» hamda «Ona tili va o'qish savodxonligi» fanlari tashkil etadi. Bu o'quv fanlari o'quvchilarning bilim, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va tabiiy layoqatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli boshlang'ich ta'limda mazkur fanlarni o'qitishning innovatsion takomillashtirish tajribasiga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda quyidagilarga ahamiyat berish kutilgan samarani berishini eslatib o'tish joiz: a) gumanitar fanlarning mavzularini



integratsiyalash; b) gumanitar fanlarning qo'shma mashg'ulotlarini tashkil etish; v) gumanitar fanlarning o'qitish tajribalarini hududlar kesimida ommalashtirish. Bunday yondashuv boshlang'ich ta'limda gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion takomillashtirish tajribasini beradi. Unga ko'ra, gumanitar fanlarning mavzulari o'zaro bog'liqlikda tuzilishi muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, «Musiqa madaniyati» va «Tasviriy san'at» o'quv fanlarining mavzulari o'zaro integratsiyalanishi kutilgan samarani beradi. Chunki o'quvchi kuylash, musiqa tinglash, musiqa chalish yoki raqsga tushish kabi xolatlarni rasm tariqasida tasvirlashi bilan ularning bu fanlar bo'yicha bilimlari chuqurlashadi, mustaqil fikrlash ko'nikmasi tarkib topadi, ijodiylik va layoqat ko'nikmalarining tabiiy rivojlanishi yuzaga keladi. Shu jihatdan, boshlang'ich ta'limda gumanitar o'quv fanlarining mavzularini integratsiyalash, ya'ni o'zaro bog'liqlikda tarkib toptirish ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichini kuchaytiradi.

Boshlang'ich ta'limda gumanitar fanlarning qo'shma mashg'ulotlarini tashkil etish ham gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion takomillashtirish tajribasida muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, mazmun va obyekt jihatidan o'zaro yaqin bo'lgan o'quv fanlarining qo'shma mashg'ulotlarini tashkil etib borish o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini kuchaytirishga xizmat qiladi. Misol uchun, «Texnologiya» hamda «Ona tili va o'qish savodxonligi» o'quv fanlarining qo'shma mashg'ulotlarini tashkil etish muhim amaliy samarani beradi. Chunki o'quvchilar «Texnologiya» o'quv fani asosida mehnatsevarlik fazilatlarini va mustaqil ishlash ko'nikmalarini o'zlashtiradi, bu ko'nikmalarning tavsifini berish malakasini egallash bo'yicha «Ona tili va o'qish savodxonligi» o'quv fani keng imkoniyatlarni beradi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda gumanitar fanlarning o'zaro integratsiyasi asosida qo'shma mashg'ulotlarni tashkil qilish tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion takomillashtirish tajribasida mavjud yutuqlarni hududlar kesimida ommalashtirish dolzarb bo'lib turibdi. Unga ko'ra, shahar yoki qishloq hududlarida faoliyat yuritayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining gumanitar o'quv fanlarini o'qitish bo'yicha individual tajribalaridan keng jamoatchilikni xabardor qilib borish muhim amaliy ahamiyatga ega. Misol uchun, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, qishloq hududlarida «Tasviriy san'at» o'quv fani bo'yicha bir qator boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual tajribalari mavjud va bunday tajribalar real imkoniyatlardan oqilona foydalanishga mo'ljallanganligi bilan e'tiborni tortadi. Shu jihatdan, o'qituvchilar tajribalarini keng ommalashtirib borish boshlang'ich ta'limda gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion qatlamini kuchaytiradi. Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion takomillashtirish tajribasi amaliyotga yo'naltirilganligi bilan e'tiborni tortadi. Bu tajribadan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Boshlang'ich ta'lim jarayonida gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion uyg'unlik tajribasi. Bu o'rinda uyg'unlik atamasining o'zaro bog'liqlik va hamkorlik ma'nosiga e'tibor berish lozim. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda gumanitar fanlarni o'qitishning fanlararo uyg'unlik tajribasi asoslarini quyidagilar tashkil etadi: a) o'quv fanlarining mazmunan uyg'unligi; b) o'quv fanlarining metodik uyg'unligi; v) o'quv fanlarining amaliy ahamiyat jihatidan uyg'unligi. Boshlang'ich ta'limda gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion uyg'unlik tajribasida o'quv fanlarining mazmunan uyg'unligi masalasi muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, gumanitar fanlarning mazmun jihatidan uyg'unligiga asosan o'qitish muhim o'rin tutadi. Misol uchun, «Texnologiya» va «Jismoniy tarbiya» o'quv fanlari mazmunan uyg'unlikka ega. Chunki har ikkala fanda ham o'quvchilarning jismoniy, aqliy

va estetik xatti-harakatlariga asoslangan holda mashg'ulotlar o'tkaziladi. Shu jihatdan, mazkur o'quv fanlarini mazmunan uyg'unligidan kelib chiqib, ularning mashg'ulotlarini ketma-ketlikda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda o'qitilayotgan gumanitar o'quv fanlari metodik jihatdan o'zaro uyg'unlikka ega. Bunda metodikaning asosiy mohiyatini boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim olamiga olib kirish va ularda o'zlashtirish ko'nikmasini shakllantirish tashkil qiladi. Ayni paytda, muayyan gumanitar fanlar metodik jihatdan o'zaro uyg'unlikda o'qitilishi boshlang'ich ta'lim sifatini kuchaytiradi. Misol uchun, «Musika madaniyati» va «Tasviriy san'at» o'quv fanlari metodik jihatdan uyg'un bo'lib, bunda ijod uslubi ustuvor hisoblanadi. Shu sababli mazkur fanlarning mashg'ulotlarini metodik uyg'unlikda tashkil etish va amalga oshirish o'quvchilarning ijodkorlik va layoqatlik ko'nikmalarini kutilgan darajada shakllantirish imkonini beradi. Bunday tajriba amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarimizning individual yondashuvlarida mavjud ekanligini eslatib o'tish joiz. Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qitilayotgan gumanitar o'quv fanlari amaliy jihatdan o'zaro uyg'unlikka ega. Ayni paytda, o'quv fanlarining metodik yaqinligi asosida amaliy jihatdan o'zaro uyg'unlikda o'qitish kutilgan samarani beradi. Misol uchun, «Musika madaniyati» va «Tasviriy san'at» o'quv fanlari amaliy jihatdan o'zaro uyg'unlikka ega, shuningdek, «Texnologiya» va «Jismoniy tarbiya» o'quv fanlari ham amaliy asoslarga ko'ra o'zaro hamkor va uyg'un usullarga tayanadi, «Ona tili va o'qish savodxonligi» o'quv fanining o'zida amaliy jihatdan uyg'unlik mavjud, ya'ni o'quvchi bunda ona tili va nutq asoslarini o'zlashtiradi hamda ularni o'qib tahlil qilish ko'nikmasi bilan uyg'unlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda o'quv fanlarining o'zaro uyg'unlik xususiyatlariga asosan mashg'ulotlarni tashkil etish o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini kuchaytirishga xizmat qiladi. Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion uyg'unlik tajribasi muhim asoslarga ega. Mazkur asoslarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etish boshlang'ich ta'limda innovatsion rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

3. Boshlang'ich ta'lim jarayonida gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion yondashuv tajribasi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion yondashuv tajribasi o'ziga xos tarzda tarkib topgan. Mazkur tajribaning asosiylari quyidagilardan iborat: a) milliy yondashuv tajribasi; b) xorijiy yondashuv tajribasi; v) individual yondashuv tajribasi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion yondashuv tajribasida milliy yondashuv muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, mamlakatimizda gumanitar fanlarni boshlang'ich ta'limda milliy yondashuv tajribasi mavjud. Bu tajriba asosini gumanitar fanlarning xalqimiz milliy qadriyatlariga asoslanganligi tashkil etadi. Shu jihatdan milliy yondashuv tajribasi gumanitar fanlarni o'qitishning o'ziga xos yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Misol uchun, «Texnologiya» o'quv fani asosida o'quvchilarning mehnatsevarlik fazilatlarini xalqimizning o'ziga xos qadriyati sifatida shakllantiriladi. Buning natijasida o'quvchilar xalol mehnat qilish, xalol mulkga ega bo'lish va mehnat tufayli farovon yashash kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi. Shu sababli bunday milliy yondashuvlar tajribasidan foydalangan holda boshlang'ich ta'limda o'quv fanlarini o'qitishni tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayoniga xorijiy yondashuvlarning joriy etilayotganligi ham innovatsion omillardan hisoblanadi. Misol uchun, Finlandiya boshlang'ich ta'lim tajribasiga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari matn tahlilidan so'z turkumlari qoidalarini o'rganishga o'tish tajribasi mavjud. Unda o'quvchilarga kichik matnlar taqdim qilinadi va muayyan so'z turkumlariga mansub so'zlarni topish vazifasi beriladi. Bu jarayonda o'quvchi fikrlaydi, matnni mustaqil

tahlil qiladi va berilgan vazifani individual tarzda bajaradi. Shu tariqa o'quvchida so'z turkumlari bo'yicha tabiiy o'zlashmalar tarkib topadi. Bunday xorijiy yondashuvlardan foydalanish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishning innovatsion omillaridan hisoblanadi.

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchilarning o'ziga xos individual yondashuvlari va oliy pedagogik ta'lim jarayonida professor-o'qituvchilarning o'z tajribalariga tayangan yondashuvlari mavjud. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda gumanitar fanlarni o'qitishning individual yondashuvlaridan foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil etish qulayligi bilan diqqatni tortadi. Chunki individual yondashuvlar yillar davomida amaliy tajribadan o'tgan xususiyatga ega bo'ladi. Shu sababli bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'qitishdagi individual yondashuvlarini chuqur o'rganish va umumlashtirish, ulardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion yondashuv tajribasi muhim xususiyatlarga ega bo'lib, u boshlang'ich ta'limni yangicha uslublar va usullar asosida takomillashtirib borish imkonini beradi.

**Xulosa.** Boshlang'ich ta'lim jarayonida gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion tajribalarini o'zlashtirish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bunday innovatsion tajribalarning eng muhimlari takomillashtirish tajribasi, uyg'unlashtirish tajribasi va yondashuv tajribasidan iborat ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida mazkur masalalarni ilmiy, nazariy va metodik jihatdan chuqur tadqiq etish taqozo etiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi: [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).
2. Hasanboev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. - T., 2009.
3. Jabborova O. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. - T., 2023.
4. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. - SPb., 2001.

---

**TALABALAR IJTIMOYIY FAOLLIGINI OSHIRISH – JAMIYAT RIVOJINING OMILI SIFATIDA**

*Ismatov Shuxrat, Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada barkamol avlodni milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, ularning ongiga Vatanga muhabbat, mustaqillik goyalariga sadoqat hamda yurt taqdiriga dahldorlik hissini singdirish, shuningdek, yoshlarimiz ijtimoiy faolligini oshirishning dolzarb masalalari yoritib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** yoshlar, ijtimoiy faollik, ta'lim-tarbiya, Vatan, mustaqillik, mafkuraviy g'oya.

**ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ – КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА**

*Исмаилов Шухрат, преподаватель Бухарского государственного университета*

**Аннотация.** В данной статье освещаются актуальные вопросы сохранения наших национальных ценностей, традиций и обычаев, воспитания в их сознании любви к Родине, верности символам независимости и отваги перед судьбой страны, а также повышения социальной активности нашей молодежи.

**Ключевые слова:** молодежь, социальная активность, воспитание, Родина, независимость, идеологическая идея.

**INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS - AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY**

*Ismatov Shukhrat, teacher of Bukhara state university*

**Abstract.** This article highlights topical issues of preserving our national values, traditions and customs, educating in their minds love for the Motherland, loyalty to the symbols of independence and courage before the fate of the country, as well as increasing the social activity of our youth.

**Key words:** youth, social activity, education, motherland, independence, ideological idea.

**Kirish.** Kelajakda mamlakatimizning taraqqiyoti, erkinligi va farovonligi, uning ayni zamonda rivojlangan davlatlar qatorida qanday o'rin egallashi, eng avvalo, bugungi kunda maktab sinf xonalarida va oliygo'ha ma'ruxaxonalarida tahsil olayotgan yoshlarning qanday insonlar bo'lib voyaga yetishlari, ya'ni bugungi kunda ularga qanday ta'lim-tarbiya berib borishimizga bog'liq. Chunki aynan hozirgi kun ertamiz egalari bo'lgan barkamol avlodni milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, ularning ongiga Vatanga muhabbat, mustaqillik o'ylariga sadoqat hamda yurt taqdiriga dahldorlik hissini singdirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, axborotlar asri hisoblangan hamda xalqaro maydonda turli tahdidlar, mafkuraviy, g'oyaviy va axborot xurujlari kuchayib borayotgan hozirgi murakkab sharoitda yoshlarni turli ma'naviy tahdid va mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yon-atrofdagi bo'layotgan voqea va xodisalarga sog'lom fikr va ongli pozitiv munosabatni shakllantirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy islohotlar jarayoniga, Vatan taqdiriga dahldorlik hissini kuchaytirish, mustaqillik g'oyalariga va tinchligimizga xavf soluvchi tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama rivojlangan, ma'naviyati yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab borish vazifasi bu sohadagi olib borilayotgan g'oyaviy-tarbiyaviy faoliyatimizni yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

**Asosiy qism.** Hozirgi tez o'zgarib borayotgan, turli texnika va texnologiyalar, ilmfanning ilg'or yutuqlari, innovatsion ishlanma va g'oyalar ta'lim jarayoniga kirib kelayotgan bir zamonda, tarbiya sohasida ham o'ziga xos «noodatiy» yangiliklar (masalan, «ommaviy madaniyat» niqobi ostidagi yoshlarning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va ozgina xushyorlik bilan uning oldi olinmasa turli mudxish oqibatlariga olib boruvchi illatlar) ham asta-sekinlik va ko'zga ko'rinmas mafkuraviy targ'ibot orqali bizning yurtimizga chetdan «yordam»ga kelmoqda. Bunday holatlar yoshlar tarbiyasiga mas'ul bo'lgan barcha darajadagi ta'lim muassasalari, ota-onalar va jamoat tashkilotlari oldiga yoshlar bilan olib boriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchan usullarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash, shuningdek, tarbiya masalalarida oila-bog'cha-maktab-mahalla-korxona va tashkilotlarning yaqin hamkorligini yo'lga qo'yilishini taqozo qiladi. Chunki aynan turli tashkilotlarning yaqin hamkorligi, birinchidan, yoshlarning ish va o'qish yoki boshqa ijtimoiy-foydali yumushlari bilan bandligini ta'minlasa, ikkinchidan, ularning nazoratsizligini ham oldini oladi. Yurtimizda yashayotgan har bir fuqaro, ayniqsa, yosh avlod o'z mustaqil fikriga, hayotiy pozitsiyasiga, sog'lom turmush tarzi negizida shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa har xil turli ma'naviy tahdidlarga va uning ko'rinishlariga bardosh bera olmaydi.

Darhaqiqat, yoshlar tarbiyasi masalasi barcha zamon va davrlarga ham umumijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Agarda biz O'zbekistonimizni dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishini va taraqqiyotga erishishini xohlar ekanmiz, buning uchun hozirgi kun yoshlarini zamon talablariga javob beradigan, yurt taqdirini o'zining hayotiy maqsad va maslagiga bog'lab ish ko'radigan va Vatan istiqboli uchun kurashadigan vatanparvarlarni tarbiyalab borishimiz kerak. Chunki bunday ulug'vor maqsad ya'ni yurt tinchligi, Vatan istiqboli va taraqqiyoti hamda uning taqdiriga dahldorlik tuyg'usini kuchaytirish, bu eng, avvalo, ertangi kun egalari va jamiyatni yetaklovchi kuch bo'lgan yoshlarimizning ijtimoiy faolligini rivojlantirish orqali amalga oshirishni asosiy vazifa sifatida belgilab olishimiz kerak. Xo'sh, nega aynan yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ya'ni bu insoniy sifatlarni rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat berishimiz kerak? degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. Chunki, aynan ijtimoiy faol inson bu dunyoga kelganidan, yashashdan maqsadi, umri davomida qilgan ezgu ishlari, oldida turgan vazifalari, o'ziga, oilasiga, atrofidagilarga, borinki, jamiyat va davlat oldidagi burchi va mas'uliyatini chuqur anglaydi va, o'z navbatida, hayotiy faoliyatiga mas'uliyat hissi bilan yondashadi. Bu orqali bunday inson jamiyat hayotini va rivojini o'z shaxsiy hayotida in'ikosini ko'radi. Natijada, o'ziga talabchan va mas'uliyatli inson jamiyatning faol a'zosiga aylanadi va uning taraqqiyotini o'zining asosiy maqsadiga aylantiradi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasi haqida, ayniqsa, ularni bilim olishga va hunar o'rganishga da'vat etib bildirgan quyidagi fikrlari e'tiborga molik: «Biz o'z oldimizga O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya orqali erisha olamiz. Buning uchun, avvalo, islohotlarning amaliy natijadorligini oshirish, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faol, yanada tashabbuskor bo'lishiga erishmog'imiz lozim. Ayni paytda islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha ta'limning barcha bo'g'inlarini izchil isloh qilmoqdami.

Nafaqat yoshlar, balki, butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi va saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va,

albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm. Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!» [1]. Davlatimiz rahbari oldimizga qo'yayotgan vazifalardan ham bilsa bo'ladiki oldimizga turgan ulug'vor maqsad – bu jamiyatga har jihatdan yetuk, barkamol, ijtimoiy faol, yangilikka intiluvchan, zamonaviy fikr, bilim va mustahkam shaxsiy pozitsiyasi va mustaqil qarashga ega yosh avlodni tarbiyalab berish davlat talabi hisoblanadi. Bu talab, o'z navbatida, har tomonlama rivojlangan, ma'naviyati yetuk barkamol avlodni tarbiyalash, bir qator hamkor muassasalar: oila, bog'cha, ta'lim muassasalari, mahalla va ish beruvchi tashkilotlar va shu bilan bir qatorda davlat va jamoat tashkilotlari, shuningdek, yoshlar tarbiyasiga dahldor bo'lgan turli muassasa, markaz va uyushmalar zimmasiga ko'pgina vazifalarni yuklaydi. Chunki, bugungi kunda bu borada davlat tomonidan yaratilib berilayotgan imkoniyatlarga qaramasdan, yoshlar tarbiyasi borasida yuqorida ko'rsatilgan hamkor tashkilotlarning ish tutuvi o'zining samarasini bermoqda deyish qiyin. Ya'ni ular orasida o'zaro aloqadorlik sezilmayapti. Kamchiliklar va muammolar ham yetarli. Tarbiya masalasida mazkur mexanizmdan to'laqonli foydalana olmayapmiz [2].

Nazarimizda yoshlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni yoki ma'naviy-ma'rifiy va targ'ibot tadbirlarini bir-biridan ajratmagan holda tashkil etishimiz kerak. Tarbiya borasida boshqa sohalaridan farqli o'laroq faqat tadbir o'tkazish yoki biron bir ma'lumotlarni targ'ibot - tashviqot qilish yo'li orqali aniq natijaga erishib bo'lmaydi. Ya'ni, «Tadbir o'tkazish bilan yoshlar o'zlariga tegishli ma'lumotni olib tarbiyalanib boradi», – degan fikr ham aslida xato. Tarbiyada o'rgatish, ibrat ko'rsatish va ushbu ko'rsatmalarga amal qilib borish muhim samara kuchiga ega. Ilk yozma manbaa bo'lgan «Avesto» asarida ham – «Ezgu so'z, ezgu fikr, ezgu amal» so'zlari yaxlit bir usulni tashkil etgan. Ya'ni, biz tadbirlarda ezgu fikrlar, ezgu so'zlarni bildirsakda unga amal (ezgu amal) qilmasak, ya'ni bu usuldan hech kimga manfaat tegmaydi. Xalqimizda aytilganidek: Har bir so'z yoki amal isboti bilan go'zaldir. Mamlakatimizda qabul qilingan «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonunda davlatimiz tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini, tegishli hududda yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning faoliyatini muvofiqlashtirishni, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishning samaradorligini oshirish uchun yoshlarning ehtiyoji monitoringi olib borilishini, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda nodavlat-notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qilinishi alohida ta'kidlab o'tilgan. Ayniqsa, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularni ma'naviy-ijtimoiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlay olish malakasini shakllantirish, yoshlar faoliyati va yutuqlarini turli ijtimoiy institutlar tomonidan keng targ'ib qilinishi dolzarb masalaga aylanmoqda. Chunki, mamlakat yoshlarini o'z atrofida birlashtirgan O'zbekiston Yoshlar ittifoqining asosiy maqsadi ham teran fikrli, ijtimoy faol, bunyodkor yoshlarni jamiyat hayotidagi ishtirokini kuchaytirishdan iboratdir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev yoshlar quriltoidagi nutqida yoshlarga jamiyatning eng faol bo'g'ini sifatida ishonch bildirishini, ularning har bir taklifi, fikri jamiyatdagi islohotlar jarayonida ahamiyatli ekanligini ta'kidladilar.

Davlatimiz tomonidan yoshlarga, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasiga berilayotgan e'tibor yoshlarimizdan millat va davlat taraqqiyoti, jamiyat rivoji, xalqimiz farovonligi yo'lida mas'uliyat hissini chuqur anglab, huquq va burchlari bilan birga – Vatan oldidagi, ya'ni – yurt taqdiriga

dahldorligi majburiyatini his qilishni, oldilariga qo'yilgan ulug'vor maqsadlariga erishish uchun ibrat namunasini va ijtimoiy faollik sifatlarini ko'rsatib tinimsiz izlanishni va mukammallikka erishishni taqozo qilmoqda [3]. Hozirgi kunda yurtimizda yoshlarning sifatli ta'lim olishi va kasb-hunar o'rganishlari, shuningdek, ma'naviyatini yanada yuksaltirish hamda onguta-fakkurini rivojlantirish borasida barcha sohalar bo'yicha keng imkoniyatlar yaratib berilgan. Bunga javoban yoshlarimizning turli tanlovlarda, shuningdek, sport sohasidagi xalqaro ahamiyatdagi musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritib o'z imkoniyat va salohiyatlarini namoyish etayotganliklari misol bo'la oladi. Masalan, mamlakat yoshlar terma jamoasining shaxmat bo'yicha, boks bo'yicha jahon arenalarida g'oliblikni qo'lga kiritayotganliklari yoki yaqinda, ya'ni Navro'zi olam bayrami oldidan yoshlarimizning Iroq terma jamoasi ustidan finalda g'alaba qozonib futbol bo'yicha Osiyo chempioni bo'lganliklari va ularni mamlakatimiz rahbari shaxsan tabriklab g'oliblik kubogini vakillarimiz bilan birga qabul qilib olganliklarini ko'rib ko'ksimiz faxr-iftixorga to'lgani aniq. Chunki, boshqacha bo'lishi ham mumkin emas edi. Bu degani mamlakatda yoshlarga berilayotgan e'tiborning samara bera boshlaganiga yaqqol misol bo'la oladi. Shu o'rinda bu misol ulug' nemis mutafakkiri I. Gyotening: «Umid bilan suqilgan tayoq, vaqti kelib berar, mevayu-yaproq» – degan misralariga hamohang keladi. Darhaqiqat, hech shak-shubhasiz O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha sohadagi islohotlar ertamiz uchun sarflanayotgan sarmoyadir. Bu e'tibor va qullab-quvvatlashning deyarli katta qismi Yangi O'zbekiston bunyodkorlari bo'lgan – yoshlarimizga ajratilayotgan sarmoya, ya'ni inson omili – ertangi farovon hayot – kelajak egalarining porloq istiqboliga sarflanayotgan kapital bo'lib hisoblanadi. Chunki, kelajagini o'ylagan har bir jamiyat, millat va davlat aynan shu yo'ldan boradi. Hurmatli Yurtboshimizning bu boradagi: «Mening eng katta ishongan kuchim, davlatimizning eng katta boyligi – bu yoshlar!» – deya yoshlarimizga bildirayotgan fikrlarini katta g'amxo'rlik namunasi deb e'tirof etish mumkin. Tarixga murojaat qiladigan bo'lsak, taraqqiy topgan, ya'ni eng rivojlangan davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi, avvalo, izchil siyosat, yoshlarni moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ularning qalbida Ona-Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish va mamlakat taqdiriga daxldorlik hissini uyg'otish orqali ijtimoiy faolligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratib g'amxo'rlik qilganligidadir [4]. Bugungi yoshlar Yangi O'zbekistonning bunyodkorlari deya talqin qilinmoqda. Davlatimiz rahbarining ularga bo'lgan ishonchi xalqimizning ham orzusidir. Chunki, yoshlar, ertangi kun egalari – kelajak bunyodkorlaridir. Har bir jamiyat, har bir davlat ham ertangi kunini porloq, istiqbolini nurafshon bo'lishini istaydi. Bejiz emaski, bu harakat bundan 5-yil oldin aynan ta'limni takomillashtirishdan boshlangan edi. Ko'pchilikning esida bor, muhtaram Prezidentimiz taklifi bilan bu harakat – maktabgacha ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlashdan boshlangan edi. Ya'ni, maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilib, uning maqsad va vazifalari belgilab berilgan edi. Aynan shu harakat bilan mazkur sohadagi islohotlarga tamal toshi qo'yilgan edi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, aynan o'sha yillar (2017-2018 yy.) maktabgacha ta'lim bilan xalqimiz farzandlarining qamrovi 20%dan sal ziyodroq (aniqrog'i 27%) edi. O'tgan muddat davomida bu sohaga davlat e'tiborini kuchayishi natijasida va yangi zamonaviy bog'chalar, ya'ni maktabgacha ta'lim tashkilotlari qurilib foydalanishga topshirilishi natijasida bu ko'rsatgich bugungi kunda 70%dan oshganligini alohida takidlash lozim. O'tgan yilning 15-noyabr kuni Toshkent shahrida Kichik yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish bo'yicha butunjahon konferensiyasi o'tkazildi. Konferensiyada dunyoda 2030 yilgacha maktabgacha ta'lim sohasiga oid siyosatni belgilab olish va bu borada O'zbekistonning boshqa davlatlari bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalasi belgilab olindi. Mazkur anjumanda YUNESKO Bosh direktori Odri Azule xonim

va dunyodagi 150 ga yaqin mamlakatdan vazirlar va mutaxassislar, xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etganliklaridan bu anjumanning naqadar muhim masalaga bag'ishlanganligini anglash qiyin emas. Mazkur konferensiyada davlatimiz rahbarining ishtirok etib nutq so'zlagani anjuman ishtirokchilariga O'zbekistonda bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh tashkilotchi tomonidan raqamlar orqali tahlil qilib berilganligi katta tassurot qoldirdi. Davlatimiz rahbari o'z nutqining avvalida soha bo'yicha dunyodagi vaziyatga to'xtalib, millionlab bolalarning boshlang'ich bilim olish imkoniyati cheklangani, mutaxassislar birgalashib, maktabgacha ta'lim qamrovini oshirishi muhimligini aytdi. O'zbekistonda «Inson qadri, uning huquq va manfaatlari – oliy qadriyat» degan tamoyil asosida aholi uchun munosib turmush sharoitlari yaratilayotgani ta'kidlandi. Bu ishlarni jaddalashtirish raqamli ta'lim texnologiyalarga bog'liqligi va bunga katta e'tibor berilayotganini ta'kidladilar [5].

**Xulosa.** O'zbekistonning bu boradagi tajribasi yaqin muddatda dunyo yuzini ko'radi. Bu degani, mamlakatimiz dunyodagi boshqa davlatlar uchun u yoki bu sohada o'rnak, ibrat sifatida ko'rsatiladi. Bu degani O'zbekistondagi islohotlar jarayoni umumjahon miqyosida tan olinmoqda, ya'ni mamlakatimizning obro'-e'tibori oshib borayotganidan dalolatdir. Mamlakat byudjetining kattagina qismi ijtimoiy sohaga yo'naltirilganligi bunga asos bo'lmoqda. Yurtimizda inson qadri ulug'lanayotganligiga faqat qog'oz yoki baland parvoz shiorlarda emas, balki amalda ekanligiga isbotdir. Zero, joriy yilimizga «Inson qadri ulug'lash va sifatli ta'lim yili» deb nom berilganligi, bu borada ulug'vor maqsadlarni o'zida jamlagan va katta mablag'ni o'z ichiga olgan davlat dasturi qabul qilinib, ayni damda joylarda uning ijrosi tashkil etilayotganligi yuqoridagi fikrlarimizga dalil bo'la oladi.

#### Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: О'zbekiston, 2021.
2. Самиева Ш.Х., Усмонова Г.Х. Научные направления развития творческих и интеллектуальных способностей молодежи // Eurasian Journal of social sciences, philosophy and culture. - 2022. - Т. 2. - № 4. - P. 35-38.
3. Самиева Ш., Шодмонова М., Рахматова Г. Инновацион таълим муҳитида бўлажак мутахассислар ижодкорлик ва лойиҳалаш кўникмаларини шакллантиришнинг муҳим йўналишлари // Образование и инновационные исследования. - М., 2022. - № 1. - С. 154-162.
4. Хикматова С.С. и соавт. Профессиональное развитие личности педагога в системе среднего специального профессионального образования // Анналы Румынского общества клеточной биологии. - 2021. - С. 2946-2949.
5. Махмудов А.Х., Анарбаева Ф.У. Рақамли таълимда педагогик технологияларни қўллаш имкониятлари // Development issues of innovative economy in the agricultural sector. - 2021. - С. 476.



---

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIL KOMPETENSIYALARINI OSHIRISHDA  
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RN**

**Sagdullaev Pulatbek Kayumjanovich**, *TDPU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning til malakalarini oshirishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Til o'rganishda raqamli texnologiyalarning nechog'lilik samaradorligini o'rgangan tadqiqotlarning adabiyot sharhini, shuningdek, til o'rgatish va o'rganish jarayonida qo'llanilishi hamda ishlatilishi mumkin bo'lgan raqamli vositalar va resurslar misollarini taqdim etadi.

**Tayanch so'zlar:** *til kompetensiyalari, raqamli texnologiyalar, til o'rganish, o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari, tilni rivojlantirish, raqamli vositalar, raqamli resurslar, texnologiya integratsiyasi, so'rovnoma tadqiqotlari.*

**РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЯЗЫКОВОЙ  
КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

**Сагдуллаев Пулатбек Каюмжанович**, *преподаватель ТГПУ*

**Аннотация.** В данной статье исследуются возможности цифровых технологий в совершенствовании языковых навыков будущих учителей. Представлен обзор литературы исследований, изучающих эффективность цифровых технологий в изучении языков, а также приведены примеры цифровых инструментов и ресурсов, которые можно использовать для поддержки преподавания и изучения языка.

**Ключевые слова:** *языковые компетенции, цифровые технологии, изучение языка, программы подготовки учителей, развитие языка, цифровые инструменты, цифровые ресурсы, интеграция технологий, обзорное исследование.*

**THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE LANGUAGE  
COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS**

**Sagdullaev Pulatbek**, *teacher of TSPU*

**Abstract.** This article explores the possibilities of digital technologies in improving the language skills of future teachers. Provides a literature review of studies examining the effectiveness of digital technologies in language learning, as well as examples of digital tools and resources that can be used to support language teaching and learning.

**Key words:** *language competencies, digital technologies, language learning, teacher education programs, language development, digital tools, digital resources, technology integration, survey research.*

**Kirish.** Hozirgi kunda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shunday bo'lishiga qaramay bugungi kunda ta'lim tizimimizda zamonaviy sifatli ta'lim haqida gapirib bo'lmaydi. Fikrimizcha, ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni jalb etib ta'lim sifatini oshirish ilgarigi ta'lim dasturlarini an'anaviy usuldan yangi zamonaviy ta'lim dasturlariga almashtirish vaqti keldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan parlamentga yo'llangan Murojaatnomada ta'kidlanganidek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish O'zbekiston uchun kelgusi yillarda eng dolzarb va ustuvor yo'nalishlardan biri. Yurtimizda 2020 yil «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb e'lon qilingani ham bejiz emas. 2020 yilda AKT sohasida

bir qator yirik loyihalar amalga oshirildi. 2020 yil 28 aprelda «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» Prezident qarori qabul qilindi. Hujjatga muvofiq, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligida raqamli iqtisodiyot bilan shug'ullanadigan yaxlit tizim yaratildi. Jumladan, «Elektron hukumat», iqtisodiyot tarmoqlari va qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, IT parklarni tashkil etish va boshqarish kabi vazifalar to'liq vazirlik vakolatiga o'tdi. Shu bilan birga, qarorda yangi loyihalarning moliyaviy manbalari ham aniq ko'rsatilgan.

**Asosiy qism.** Ta'lim jarajonida tilni bilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turli sohalarida ko'p tilli muloqotga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir vaqtda til o'rganish ta'limning muhim jihati hisoblanadi. Chet til o'qituvchilari o'quvchilar o'rtasida til rivojlanishini rag'batlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi va bo'lajak o'qituvchilarning til malakalarini oshirish o'qituvchilar ta'lim berishida asosiy ustuvor yo'nalish hisoblanadi. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar tilni o'rgatish va o'rganishga tobora ko'proq integratsiyalashgan bo'lib, tilni rivojlantirish va til kompetensiyalarini yaxshilash uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqolada biz bo'lajak o'qituvchilarning til malakalarini oshirish uchun raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini o'rganamiz. Til kompetensiyalarini rivojlantirish samarali muloqot jarayoni uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, o'qituvchilar o'z tilini turli kontekstlarga moslashtira olishlari kerak, masalan, mavzu bo'yicha terminologiyani o'rgatish yoki murakkab tushunchalarni tushuntirish shular kabilardir. Bundan tashqari, tillarni bilish ko'p tilli va ko'p madaniyatli muhitda ishlaydigan o'qituvchilar uchun juda muhimdir. O'qituvchi til kompetensiyalariga ta'lim berish jarayonida asosiy e'tiborni qaratadi. O'qituvchilar tilni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar, jumladan, grammatika, lug'at va til ko'nikmalarini o'rgatish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari o'qituvchilarga o'zlarining til kompetensiyalarini, shuningdek, til o'rganish nazariyalari va strategiyalari bo'yicha bilimlarini rivojlantirish imkoniyatini berishi kerak. Raqamli texnologiyalar til o'rganish va til kompetensiyalarini yaxshilash uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Til o'rganuvchilar keng ko'lamli onlayn resurslardan, jumladan, interaktiv til kurslari, multimedia kontenti va ijtimoiy media platformalaridan foydalanishlari mumkin. Ushbu manbalar o'quvchilarga til ko'nikmalarini asl kontekstda mashq qilish, ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish va ularning tilni bilishi haqida fikr-mulohazalarni olish imkoniyatini beradi. Raqamli texnologiyalar til o'rgatish uchun ham yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Bo'lajak o'qituvchilarning bilimini yaxshilash uchun turli xil raqamli vositalar va resurslardan foydalanish mumkin, masalan, onlayn ta'lim platformalari, til o'rganish dasturlari hamda ilovalari va multimediya kontenti. Ushbu vositalar talabalarga qiziqarli va interaktiv ta'lim tajribasini, shuningdek, til ko'nikmalarini asl kontekstda mashq qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Til o'rganish va o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samarali natija berishiga qaramay, ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi sust kechmoqda. Ko'pgina o'qituvchilar o'qitish jarayonida hali ham ma'ruzalar va darsliklar kabi an'anaviy til o'qitish usullariga tayanadilar va o'qitish jarayoni raqamli texnologiyalarni o'z ichiga olmaydi. Raqamli texnologiyalarning o'qitish jarayoniga sekinlik bilan integratsiyalashuvining sabablaridan biri o'qituvchilarda raqamli texnologiyalarni qo'llay olishida bilimlarning yetarli darajada emasligidir. Ko'pgina o'qituvchilar til o'rgatish uchun eng so'nggi raqamli vositalar va resurslar bilan tanish emaslar va bu texnologiyalarni o'qitishga kiritish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va

bilimlarga emasliklari to'siq bo'lmoqda. Bundan tashqari, o'qituvchilar uchun raqamli texnologiyalarni qo'llashni o'rgatuvchi o'quv resurslar yoki infratuzilma yaxshi takomillashmagan va juda oz miqdorda.

O'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish talabalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi bilishi va ulardan foydalanishida muhim omil bo'lmoqda. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganish samarali usullardan biridir. Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o'rganish va o'rganish jarayonida undan unumli foydalanish eng samarali usul hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so'zlashuvchi odamlar bilan muloqot qilish imkoniyati mavjud. O'quv jarayoniga zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ulardan maqsadli va to'g'ri foydalanish, o'quvchining chet tillarga qiziqishini oshirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masaladir. Bu innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni keng va rang-barang yoritishda foydalanish dars samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish ko'zda tutilgan. Chet tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortayotgan bir paytda o'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish bu jarayonni yanada samarali tashkil etadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi ularning ta'lim jarayonida to'g'ri va samarali qo'llanilishidadir.

Til kompetensiyalarini oshirishdan tashqari, raqamli texnologiyalar til o'rganuvchilar orasida lingvo-kulturologik madaniyatni ham rivojlantirishi mumkin. Ijtimoiy media platformalari va video konferensiya dasturlari kabi onlayn muloqot vositalari o'quvchilarga til sohiblari va butun dunyo bo'ylab til o'rganuvchilar bilan muloqot qilish imkonini beradi. Bu o'quvchilarga o'zlarining til ko'nikmalarini rivojlantirishda amalda qo'llab, turli xalqlar madaniyatini o'rganish va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ham beradi. Muammolardan biri raqamli tafovut bo'lib, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida raqamli texnologiyalar va resurslardan tengsiz foydalanishni anglatadi. Yana bir qiyinchilik – til o'rgatish va o'rganishda raqamli texnologiyalarning samaradorligi to'g'risida empirik dalillarning yo'qligi. Raqamli texnologiyalarning potensial afzalliklarini ko'rsatadigan ba'zi tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ularning tilni bilish va madaniyatlararo kompetensiyaga ta'siri bo'yicha yanada qat'iy va tizimli tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud. Shunday ekan, texnologiyani joriy etish, o'qitish usullarini zamon talablariga javob berishini ta'minlash o'qituvchilarning dolzarb vazifasidir. Mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz bilan dunyo o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy aloqalar mustahkamlanib borayotgan bir paytda yoshlarimizning xorijiy mamlakatlar hayoti, madaniyati, urf-odatlar va tillariga qiziqishi ortib bormoqda. Bu munosabatlarni rivojlantirishda xorijiy tillar, xususan, ingliz tili muhim o'rin tutadi. Raqamli texnologiyalar til o'rganish va o'qitish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etadi va til o'rganuvchilar o'rtasida madaiyatlararo kompetensiyani rivojlantirishi mumkin. Raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda, o'qituvchilar ta'limi dasturlari bo'lajak o'qituvchilarni bugungi globallashuv jarayonida dunyoning ko'p tilli va ko'p millatli muhitlariga tayyorlashi hamda ularga o'quvchilar o'rtasida til rivojlanishi va millatlararo kompetensiyani rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

---

**Xulosa.** Ta'lim dasturlari o'qituvchilar uchun ta'lim berish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi, chunki ular bo'lajak o'qituvchilarning til malakalarini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Shunday ekan, ta'lim tizimida samarali hamda sifatli o'qitishni tashkil etish uchun, avvalambor, ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqishni ta'lab etadi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalarni xorijiy til o'qituvchilar uchun ta'lim dasturlariga kiritish o'qituvchilarning o'rganish tajribasini oshirishi va ularni kelajakdagi xorijiy til o'qituvchilari rollariga yaxshiroq tayyorlashi mumkin. Til kompetensiyalarini oshirishda eng samarali bo'lgan raqamli vositalar va strategiyalarni o'rganish va ta'lim dasturlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni.
2. Ataeva N., Rasulova F., Hasanov S. Umumiy pedagogika: pedagogika tarixi. - T.: Fan va texnologiya, 2011.
3. Chen, Y., Chen, C. (2021). EFL learners' perceptions of using digital technologies for autonomous learning: a mixed-methods study // Journal of educational technology development and exchange, 14(1), 1-24.
4. Makoe, M. (2021). Digital technologies in foreign language teaching and learning: A review of the literature // English Language teaching and learning, 5(1), 1-18.
6. Sagdullaev P. Modern approaches and innovations in teaching foreign languages // Андрияновские педагогические чтения. - Т., 2022. - С. 210-212.
7. Sagdullayev P.K. Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirish // Pedagogika. - Т., 2020. - 5-son. - В. 19-21.

## О ФОРМИРОВАНИИ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ-УЗБЕКОВ НА ОСНОВЕ РУССКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК

*Ескараева Гулмира Бекетовна, преподаватель ДЖГПУ*

**Аннотация.** Язык тесно связан с культурой народа. В языке представлены наименования самых значимых для этноса явлений, и по словам и выражениям национального языка мы можем судить о мировосприятии народа, о его картине мира. В данной статье показаны лингводидактические возможности использования текстов русских народных сказок для формирования лингвокультурологической компетенции студентов в процессе изучения русского языка как иностранного.

**Ключевые слова:** лингвокультурология, лингвокультурологическая компетенция, РКИ, русские народные сказки, цель и задачи исследования, фольклор, мировоззрение.

## RUS XALQ ERTAKLARI ASOSIDA O'ZBEK TALABALARNING LINGVO-MADANIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH HAQIDA

*Eskaraeva Gulmira Beketovna, JDPU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Til xalq madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Til etnik guruh uchun eng muhim hodisalarning nomlarini o'z ichiga oladi va milliy tilning so'zlari va iboralariga ko'ra, biz odamlarning dunyoqarashini, dunyo haqidagi rasmni baholashimiz mumkin. Ushbu maqola rus tilini chet tili sifatida o'rganish jarayonida talabalarning lingvokulturologik kompetentsiyasini shakllantirish uchun rus xalq ertaklari matnlaridan foydalanishning lingvovidaktik imkoniyatlari ko'rsatilgan.

**Tayanch so'zlar:** lingvokulturologiya, lingvokulturologik kompetentsiya, rus tili chet tili sifatida, rus xalq ertaklari, o'rganish maqsadi va vazifalari, folklor, dunyoqarash.

## ON THE FORMATION OF LINGUO-CULTUROLOGICAL COMPETENCE OF UZBEK STUDENTS ON THE BASIS OF RUSSIAN FOLK TALES

*Eskaraeva Gulmira Beketovna, lecturer of JSPU*

**Abstract.** The language is closely connected with the culture of the people. The language contains the names of the most significant phenomena for the ethnic group, and according to the words and expressions of the national language, we can judge the worldview of the people, their picture of the world. Russian linguo-didactic possibilities of using the texts of Russian folk tales for the formation of linguistic and cultural competence of students in the process of learning Russian as a foreign language are shown in this article.

**Key words:** linguoculturology, linguoculturological competence, Russian as a foreign language, Russian folk tales, purpose and objectives of the study, folklore, worldview.

**Введение.** Образы мира, которые создает народ в коллективном опыте освоения действительности, запечатлеваются в национальном языке, выступающем как культурное хранилище всего ценного, что накоплено этносом за время его духовной эволюции.

**Основная часть.** Большинство языковых значений, по удачной формулировке В.Н.Телия, так или иначе соотнесены с тем или иным культурным кодом, который как-то «вычитывается» в словах и выражениях естественного языка в речевой практике этноса [1]. Все это стало основой для становления в гуманитарном знании такого междисциплинарного научного направления, как лингвокультурология. Благодаря этой, относительно новой науке, в лингводидактике складывается одно из ключевых понятий в обучении РКИ - лингвокультурологическая компетенция. Воспитание

интереса к русскому языку и русской культуре является одной из важнейших задач в обучении РКИ, выступая как основа формирования страноведческой компетенции у обучающихся. Эта задача решается комплексно, и одним из важнейших механизмов ее успешного и эффективного разрешения является использование на занятиях по РКИ значимых текстов русской культуры, в которых концентрируются основы народной ментальности и национального характера, системы ценностей и культурных установок. К таковым текстам относятся своды русских народных сказок. Использование богатого и разнообразного языкового материала русских народных сказок в преподавании русского языка как иностранного характеризуется значительным лингводидактическим, коммуникативным и лингвострановедческим потенциалом в плане ознакомления студентов-иностранцев с особенностями русского мира. Оно позволяет наглядно показать иностранному обучающемуся отражение в сказках национальной и культурной специфики русского народа. Именно усвоение языкового материала народных сказок на занятиях по РКИ обеспечивает для иностранца углубление в национально-культурную тематику, понимание отраженных в языке народных сказок национально-обусловленных мировоззренческих и ценностных особенностей русской языковой общности. Признание большой роли народных сказок в реализации лингвострановедческого и лингвокультурологического компонентов в преподавании РКИ, а также необходимость уточнения методики включения народной сказки в занятия по РКИ обусловили выбор темы настоящего исследования.

Актуальность работы заключается в общекультурной, научной и учебно-методической значимости методики использования русской народной сказки в преподавании русского языка как иностранного в свете востребованного в современном гуманитарном знании лингвокультурологического подхода. Изучение русской народной сказки играет значительную роль в формировании лингвокультурологической компетенции у студентов, потому что именно русская сказка помогает иностранцам легче всего понять многое о национальных особенностях русских.

Цель исследования - проанализировать тематические, жанровые, композиционные и языковые особенности русских народных сказок и возможности их использования для формирования лингвокультурологической компетенции в преподавании РКИ, на основе чего разработать учебно-методические рекомендации по использованию русской народной сказки в реализации лингвокультурологического компонента преподавания РКИ в вузе.

Поставленная цель предполагает решение следующих исследовательских задач: охарактеризовать место русской народной сказки в русской культуре и ее значение для знакомства иностранцев с русской культурой; осветить тематическую, жанровую, композиционную и стилистическую специфику русской народной сказки на уроках РКИ; выявить языковые особенности русской народной сказки и виды информации, транслируемые языковыми единицами народной сказки; проанализировать принципы использования русской народной сказки для формирования лингвокультурологической компетенции в обучении РКИ и существующие методики включения народной сказки в учебный процесс; разработать учебно-методические материалы по изучению концептосферы русской народной сказки на занятиях по РКИ в свете формирования лингвокультурологической компетенции; разработать учебно-методические материалы занятий по чтению русских народных сказок на уроках РКИ. Материалами для исследования являются данные словарных, справочных и энциклопедических источников, учебно-методические рекомендации по изучению русских сказок в преподавании РКИ, а также тексты русских народных сказок из трехтомного сборника А.Н.Афанасьева.

История филологического изучения русской народной сказки имеет в гуманитарном знании давнюю традицию. В середине XIX века возник широкий общественный и

научный интерес к русской народной сказке. В 1855 году вышел в свет первый выпуск «Народных русских сказок», который был подготовлен историком, теоретиком фольклора, издателем памятников народного творчества А.Н.Афанасьевым. До появления этого сборника русская народная сказка была практически неизвестна. Основу сборника составили сказочные материалы архива Русского географического общества, большое количество текстов было передано А.Н.Афанасьеву В.И.Далем, небольшое количество сказок было записано им, множество текстов изданных рукописей были записаны разными лицами. Собрание сказок А.Н.Афанасьева содержит около шестисот текстов. Это самый большой сборник народных сказок, известных мировой науке. Следует заметить, что А.Н.Афанасьев очень бережно относился к текстам, исповедуя принцип неприкосновенности к тексту, внося редакционные поправки лишь в отдельных случаях. У сказки так много свойств, что представители разных наук (историки, этнографы, историки религии, психологи, литературоведы, лингвисты и т.п.) заняты изучением разных ее аспектов. Известный русский этнограф и фольклорист XIX века А.Н.Афанасьев в книге «Поэтические воззрения славян на природу» большое место уделяет генезису русских сказочных мотивов и их связи с мироощущением славянских народов [2]. В работах историка Н.И.Костомарова «Домашняя жизнь и нравы великорусского народа» также говорится о фольклорных героях [3]. В литературоведении большую роль в исследовании типологии сюжета народной сказки сыграл выдающийся русский ученый XIX века А.Н.Веселовский [4]. В первой половине XX века основатель структурного метода в изучении фольклора В.Я.Пропп определил набор основных мотивов русской волшебной сказки, посредством разных комбинаций которых можно описать любой сказочный сюжет [5]. В работах теоретика и историка литературы В.М.Жирмунского также говорится о «бродячих сюжетах» и о «вечных мотивах» [6].

В современной истории литературы и фольклористике изучение сказки связано с трудами таких ученых, как Неклюдов, Лазутин, Гусев, Аникин и др. В частности, Э.В.Померанцева определяет русскую народную сказку как «эпическое художественное произведение русского народа, преимущественно прозаического, волшебного и авантурного или бытового характера с установкой на вымысел» [7, с. 12]. Сказки всегда выступали в работах исследователей как носители идей и ценностей русской культуры. Любая русская сказка содержит поучение, слова назидания [8]. В работе В.С.Новикова подробно характеризуются основные персонажи русских народных сказок. Также «сказка является идеальным полем для лингвистов, занимающихся выявлением и описанием национальных культурных констант» [9, с. 131].

Все сказанное выше предопределило интерес к изучению русской народной сказки и в лингводидактическом освещении [10], а именно в интересующем нас аспекте преподавания русского языка как иностранного. Так, в работах В.Э.Матвеевко отчетливо прозвучала мысль о том, что фольклорные тексты в процессе обучения РКИ предстают в двух направлениях: как материал и средство овладения языком и как художественно-эстетическое явление русской культуры [11]. В методическом пособии Н.Г.Большаковой и Г.А.Усачёвой справедливо отмечается, что нарочито упрощенная форма скрывает в себе в имплицитном виде огромные пласты смысла, выражающие разные стороны народной ментальности, нравственных принципов этноса [12]. В методике обучения РКИ отчетливо формируется лингвокультурологический подход к изучению сказки как важнейшего средства формирования лингвокультурологической компетенции. В этом же смысле высказывается Т.М.Балыхина, утверждая, что «сказки способствуют толерантному усвоению русской культуры» [13, с. 24]. В трудах О.М.Барсуковой-Сергеевой предложена целая система работы с русской народной сказкой на уроках РКИ именно в аспекте формирования коммуникативной, лингвострановедческой и лингвокультурологической компетенции обучающихся [14].

Вывод. Однако, как нам представляется, существующие принципы и методы работы с русской народной сказкой на занятиях РКИ могут быть существенно усовершенствованы, если мы свяжем задачу формирования лингвокультурологической компетенции в преподавании РКИ на фольклорном материале с изучением концептосферы русской народной сказки [9], что позволит углубить представления обучающихся о мировоззренческих основах русской народной сказки.

Литература:

1. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Языки русской культуры, 1996. - 288 с.
2. Афанасьев А.Н. Поэтические воззрения славян на природу. В 3 т. - М.: Современный писатель, 1995. - Т. 1. - 416 с.
3. Костомаров Н.И. Домашняя жизнь и нравы великорусского народа. - М.: Экономика, 1993. - 567 с.
4. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. - М.: Высшая школа, 1989. - 405 с.
5. Пропп В.Я. Русская сказка. - М.: Лабиринт, 2000. - 16 с.
6. Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. - Л.: Наука, 1977. - 407 с.
7. Померанцева Э.В. Русская устная проза. - М.: Просвещение, 1985. - 272 с.
8. Арышева Т.М. Русская народная сказка на занятиях по русскому языку как иностранному: из опыта работы // Проблемы современной аграрной науки: Материалы международной заочной научной конференции. - Красноярск: КГАУ, 2015. - С. 210-215.
9. Горшкова Т.М., Ручина Л.И. Словарь комбинированного типа как способ лексикографического описания концептосферы русской народной сказки // Вестник Нижегородского университета. Серия: Филология. - Н., 2011. - № 6 (2). - С. 130-135.
10. Камалова Л.А. Воспитательное значение русских народных сказок // Роль учебных дисциплин в воспитательном процессе образовательных учреждений: Сборник материалов научно-практической конференции. - Казань: КГПУ, 2004. - С. 183-185.
11. Матвеев В.Э. Использование русских народных сказок в процессе обучения студентов-филологов РКИ с учетом современных технологий // Вестник РУДН. Серия «Русский и иностранные языки и методика их преподавания». - М., 2013. - № 4. - С. 72-81.
12. Большакова Н.Г., Усачёва Г.А. Читаю самостоятельно: Пособие по чтению для студентов-иностранцев. - М.: РУДН, 2003. - 112 с.
13. Балыхина Т.М. Методика преподавания русского языка как неродного (нового): Учебное пособие. - М.: РУДН, 2007. - 185 с.
14. Барсукова-Сергеева О.М. Русская народная сказка как инструмент формирования коммуникативной компетенции иностранных учащихся // Русский язык за рубежом. - М., 2013. - № 4. - С. 28-35.



---

## НАУЧНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

**Сагатова Зиёда Бахтияровна**, преподаватель Ташкентского педиатрического медицинского института

**Аннотация.** Данная статья содержит информацию о взаимном научном сотрудничестве между Узбекистаном и Турцией, а именно, в областях медицины, науки и технологии, образования и культуры. Также обсуждаются вопросы о непосредственном и тесном сотрудничестве двух стран.

**Ключевые слова:** клинические испытания, информационная технология, культурная программа, исследовательский проект, молекулярная биология.

## MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON VA TURKIYA O'RTASIDAGI ILMIY HAMKORLIK

**Sagatova Ziyoda Baxtiyarovna**, Toshkent tibbiyot pediatriya instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi o'zaro ilmiy hamkorlik, xususan, tibbiyot, fan-texnika, ta'lim va madaniyat sohalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ikki davlat orasidagi bevosita va yaqin hamkorlik masalalari muhokama qilingan.

**Tayanch so'zlar:** klinik sinovlar, axborot texnologiyalari, madaniy dastur, tadqiqot loyihasi, molekulyar biologiya.

## SCIENTIFIC COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND TURKEY IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

**Sagatova Ziyoda Bakhtiyarovna**, teacher of the Tashkent pediatric medical institute

**Abstract.** This article contains information about mutual scientific cooperation between Uzbekistan and Turkey, namely in the fields of medicine, science and technology, education and culture. Issues in direct and close cooperation between the two countries are also discussed.

**Key words:** clinical trials, information technology, cultural program, non-research project, molecular biology.

**Введение.** Как известно научное сотрудничество между Узбекистаном и Турцией имеет давнюю историю и продолжает развиваться в настоящее время. Одной из областей сотрудничества является медицина. Узбекистан и Турция сотрудничают в области обмена медицинскими работниками, проведения совместных клинических испытаний и разработки новых лекарств. В 2019 году подписано соглашение между Узбекистаном и Турцией о сотрудничестве в области здравоохранения. Еще одной областью сотрудничества является наука и технологии. Узбекистан и Турция сотрудничают в области информационных технологий, разработки новых материалов и энергетических технологий. В 2019 году подписано соглашение между Узбекистаном и Турцией о сотрудничестве в области науки и технологий. Кроме того, Узбекистан и Турция сотрудничают в области образования и культуры. Существует обмен студентами и преподавателями между университетами Узбекистана и Турции. Также проводятся культурные программы, такие как выставки, концерты и фестивали. Узбекистан и Турция имеют долгую историю культурных

и религиозных связей, а также тесные отношения в области науки и образования. С начала независимости Узбекистана в 1991 году отношения между двумя странами стали еще более тесными и продуктивными, в том числе в области научного сотрудничества.

**Основная часть.** В феврале 2020 года в Турции, в связи с вступлением Республики Узбекистан в Совет тюркского сотрудничества, при совместном участии Государственного университета Карабук Республики Турции, Государственного музея литературы имени Алишера Навои и Кокандского государственного педагогического института имени Мукими издана книга «Исследования языка и литературы». В этой книге приведены научные статьи на узбекском и турецком языках узбекских и турецких ученых, посвященные проблемам языка, литературы и фольклора. В этом же году организована встреча, на которой были обсуждены вопросы двустороннего сотрудничества в сфере высшего образования. В частности, рассмотрены меры по ускорению создания в Узбекистане Узбекско-Турецкого университета при участии ведущих образовательных учреждений Турции. Соответствующая договоренность достигнута в августе 2020 года в ходе визита правительственной делегации Узбекистана в город Анкару. Стороны наметили дальнейшие шаги в данном направлении и договорились согласовать имеющиеся вопросы в ближайшее время.

Отмечены и другие успехи, достигнутые в сотрудничестве в сфере образования. Так, в частности, успешно функционируют Ташкентский филиал университета экономики и технологий Турции и факультет Университета медицинских наук Турции, созданный в Бухарском государственном медицинском институте. Выражена взаимная готовность к расширению взаимовыгодного партнерства, в связи с чем рассмотрены возможности создания новых филиалов ведущих образовательных учреждений Турции в регионах Узбекистана по таким направлениям, как инженерное дело, искусство, медицина, сельское хозяйство и туризм. Также обсуждены перспективы углубления взаимодействия по обмену профессорско-преподавательским составом, научными работниками и студентами.

Ниже приводятся некоторые примеры совместных исследовательских проектов и программ, проводимых учеными и университетами Узбекистана и Турции:

1. Сельское хозяйство: Узбекистан и Турция сотрудничают в области сельского хозяйства и развития сельских районов. В рамках этого сотрудничества проводятся совместные исследования и обмен опытом в области сельского хозяйства, а также организуются тренинги и семинары.

2. Энергетика: Узбекистан и Турция также сотрудничают в области энергетики. В частности, ученые и инженеры из обеих стран работают над проектами по развитию возобновляемой энергетики и повышению энергетической эффективности.

3. Информационные технологии: Узбекистан и Турция активно сотрудничают в области информационных технологий. В рамках этого сотрудничества проводятся совместные исследования и разработка программного обеспечения, а также организуются тренинги и семинары для специалистов в этой области.

4. Образование: Узбекистан и Турция также сотрудничают в области образования. В рамках этого сотрудничества проводятся совместные исследования, обмен студентами и преподавателями, организуются совместные курсы и программы обучения. Это лишь некоторые примеры совместных исследовательских проектов

и программ, проводимых учеными и университетами Узбекистана и Турции. Области сотрудничества могут быть различными, и они могут меняться в зависимости от нужд и приоритетов обеих стран.

**Вывод.** В настоящее время в Узбекистане существует несколько турецких университетов, которые имеют свои филиалы в стране. Например, университеты «Эдирун Атилим» и «Истанбул Шишли» имеют свои филиалы в Ташкенте. Также существует филиал турецкого университета «Хадыджи Ахмеда Яссави» в городе Карши. Кроме того, в Узбекистане проводятся совместные научные исследования между учеными из Узбекистана и Турции в различных областях, таких как медицина, наука, технологии и т.д. Например, в 2019 году в Ташкенте проведена конференция по медицине, на которой принимали участие ученые из Узбекистана и Турции. Также существует сотрудничество между институтами и научными центрами Узбекистана и Турции. Например, Институт биологии и генетики имени академика Г.Н.Абдуллаева Национальной академии наук Узбекистана сотрудничает с Институтом молекулярной биологии и генетики Университета Анкары. В целом, научное сотрудничество между Узбекистаном и Турцией продолжает развиваться и расширяться в различных областях, и исследования проводятся как в Узбекистане, так и в Турции. Оба государства прилагают усилия для укрепления своих отношений и сотрудничества в научно-технической сфере.

#### Литература:

1. Sagatova Z.B. O'zbekistonning Turkiy Davlatlar Tashkiloti bilan o'zaro aloqalari bo'yicha mulohazalar // Pedagogika. - T., 2022. - 4-son. - B. 191-193.
2. <https://gov.uz/ru/news/view/26448>
3. <https://invest.gov.uz/ru/mediacenter/news/uzbekistan-and-turkey-plan-to-expand-cooperation-in-the-field-of-education/>

## TABIIY FANLAR TA'LIMI

**YOSHLARDA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA  
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVDAN FOYDALANISH**

*Artikbayeva Zamira Allayarovna, p.f.n., TDPU dotsenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yoshlarda ekologik ta'lim-tarbiyani shakllantirishda, kompetensiyaviy yondashuvdan foydalanish, tarbiyaning ahamiyati va ularni ijobiy hal qilish bilan bog'liq dolzarb masalalar ko'tarilgan.

**Tayanch so'zlar:** yoshlarda ekologik ta'lim-tarbiya, tabiiy-ilmiy savodxonlik, uzluksiz ta'lim, tabiat muhofazasi, asosiy vazifalar.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ФОРМИРОВАНИИ  
ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ МОЛОДЕЖИ**

*Артикбаева Замира Аллаяровна, к.п.н., доцент ТГПУ*

**Аннотация.** В статье рассматривается важность образования в формировании экологического мировоззрения и актуальные вопросы, связанные с их положительным решением.

**Ключевые слова:** эколого-гигиеническое образование, естественно научная грамотность, непрерывное образование, охрана природы, основные задачи.

**IMPLEMENTING COMPETENCE BASED APPROACH IN DEVELOPMENT  
OF ECOLOGIC EDUCATION IN YOUTH**

*Artikbayeva Zamira Allayarovna, TSPU, professor, docent*

**Abstract.** This article discusses the importance of education in the development of ecological worldview and current issues related to their positive solution.

**Key words:** ecological and hygienic education, natural science literacy, continuing education, nature protection, main tasks.

**Kirish.** Yoshlarda ekologik ta'lim-tarbiyadagi dunyoqarash – dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillardan iborat.

**Asosiy qism.** Yoshlarda ekologik ta'lim-tarbiyadagi dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog'liq. Yoshlarda ekologik ta'lim-tarbiyadagi dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik, ekologik bilimlar, qarashlar o'z aksini topadi [1]. Shunga ko'ra, u falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik, ekologik dunyoqarash kabi turlarga bo'linadi. Yoshlarda ekologik ta'lim-tarbiyadagi dunyoqarashning asosini tabiiy-ilmiy savodxonlik tashkil etib, bu, shuningdek, insonning ekologik dunyoqarashi darajasini belgilaydi. Hozirgi kunda kimyo masalalarini matematika formulalari yordamida yechish, ekologik-gigiyenik dunyoqarashni shakllantirish borasida muayyan tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiya masalalari E.O.Turdiqulov, R.U.Beknazarov, R.Y.Maxmudov, X.Tog'ayev, D.To'xlijev, Sh.Otaboev, M.Ataboev, A.S.To'xtayev, G.A.Bachinskiy, Y.V.Novikov, V.Gordiyenkolar tomonidan tadqiq etilgan. O'zbek ekolog olimi E.O.Turdiqulov yosh avlodga ekologik bilimlarni singdirish orqali ekologiya sohasidagi har qanday muammoni oldini olish mumkin deb hisoblaydi. Boshqa o'zbek pedagog olimlari ham ekologik ta'limning o'rniga alohida e'tibor bilan yondashadilar. Xususan, Sh.Otaboyev, Z.Hidoyatova

ekologiya, gigiyena va sihat-salomatlikning o'zaro uyg'unligini, Sh.Otaboyev, M.Ataboev, Z.Artikbayevalar esa, agroekologiya va salomatlik muammolarini o'rganib, bu sohada ta'lim-tarbiyaning muhim o'rin tutishini ta'kidlashgan [2]. A.R.Malikova va N.Sh.Bozorovlar tomonidan talabalar ekologik madaniyatini shakllantirishning didaktik jihatlari tadqiq etilgan [3].

Ekologik-gigiyenik tarbiya umumiy ta'lim-tarbiyaning bir qismi hisoblanib, bunda shaxs oldiga aniq va maqsadli vazifalar qo'yiladi. Masalan, tabiatga mehri, oqibatli bo'lish, Ona-Vatan tabiatini sevishi, tabiat resurslarini boyitishga harakat qilish, uni asrash kabi. Bunday vazifalarni hal etish uchun, avvalo, yoshlar (o'quvchilar)ga inson – jamiyat – tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va ularning bir-biriga ta'sir etish me'yorlarini tushuntirish zarur. Mustaqil O'zbekistonning har bir fuqarosi o'zini, Vatanini, xalqini sevil, ular bilan hamkorlikda ekologik-gigiyenik madaniyatini oshirib borishi o'z oldida turgan eng dolzarb masala ekanini tushunib yetishi, qo'ldan kelgancha shu muammoni hal qilishda faol qatnashishi lozim. Ekologik jarayon murakkablashayotgani uchun u yangicha fikrlashni, madaniy-ma'naviy yetuklikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsni bilimli qilish, unda madaniyatni shakllantirish pedagoglar oldiga qo'yilgan eng murakkab vazifadir. Inson tabiat bilan o'zaro chambarchas bog'liqligi, tabiatning bir qismi ekanini tushunib yetishi, tabiiy muhitda qanday o'zgarishlar bo'lmasin, insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri qaytib o'ziga salbiy ta'sir etishini va murakkab vaziyatni yuzaga keltirishini anglashi zarur. Tabiat antropogen salbiy ta'sir oqibatida inson hayoti uchun xavfli bo'lib qolishi, bu ekologik qonunbuzarliklar natijasi ekanini tushunib yetishi lozim [4].

G.A.Bachinskiyning ta'kidlashicha, tabiat va jamiyatda bir vaqtning o'zida sodir bo'layotgan yirik o'zgarishlar va u bilan bog'liq inqirozlar ijtimoiy-ekologik inqirozni keltirib chiqaradi [5]. Aholining barcha qatlamlariga, xususan, yoshlarga uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiya berish, bu doimo maqsadli jarayon hisoblanib, shaxsning tabiiy atrof-muhitni, o'z salomatligini asrashdagi muammosini yechishda asosiy rol o'ynaydi. Ekologik-gigiyenik ta'lim-tarbiya masalalarini hal etishda yoshlarda yuqori javobgarlik mas'uliyati, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tejamlorlikni tarbiyalashni asosiy masala deb bilish zarur. Ekologik ta'lim-tarbiyaning eng asosiy vazifalaridan biri ekologiya va gigiyena sohasidagi bilimlarni tarqatishdir. Bu tabiiy atrof-muhitni, tabiatni asrash, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni, tirik tabiiy muhit omillari bilan jonsiz tabiiy muhit omillari o'rtasidagi bir butun yaxlitlikni ta'minlash, har bir shaxsda shu jarayonlar bilan bog'liq tushunchalarni shakllantirishni taqozo etadi [6, 76-b.]. Inson tabiat qo'ynida yashar ekan, uning beminnat sahovati, in'omi va marhamatidan bahramand bo'ladi. Yoshlarda Vatanga, ona-tabiatga mehr-muhabbatni oshirishda keng jamoatchilik, ota-ona va o'qituvchilar salmoqli o'rin tutadilar. Inson ona mehri, tabiatning ajib manzaralari og'ushida yashaydi, unadi, kamolotga yetadi. Tiriklik, hayot manbai bo'lmish quyosh, havo, suvdan, ko'rkam tabiatning in'omi bo'lmish turfa ne'matlardan bahra olib ulg'ayadi. Ana shu insoniyatga hayot baxsh etgan tabiatni muhofaza qilishga yoshlarni jalb qilish lozim.

Bunda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish katta ahamiyat kasb etadi: yoshlarning tabiatga oid bilimlarini kengaytirishga imkoniyat yaratish, ularning fuqarolik burchlarini anglab yetishlari, tabiat muhofazasi borasidagi mas'uliyatlarini his etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq qonunchilikni ular ongiga singdirish; yoshlarni tabiat muhofazasi borasidagi ishlarga jalb etish; tabiat boyliklarini himoya etuvchi davlat mutasaddi tashkilotlari bilan uzviy bog'langan holda faoliyat ko'rsatishlariga shart-sharoit yaratish.

Maktablar va oliy o'quv yurtlarida tabiat burchaklari tashkil etib, yoshlarni tabiatni sevil va muhofaza qilishga jalb etishning ahamiyati juda katta. Tabiat muhofazasiga bag'ishlangan kechalar tashkil etib, ularda mutasaddi tashkilot xodimlari va mutaxassislar bilan yoshlar muloqotini o'tkazish ham xayrli tadbirlardan hisoblanadi. Yoshlarni gazeta va jurnal sahifalarida chop etilgan tabiat muhofazasiga oid maqolalar bilan tizimli ravishda tanishtirib borish kerak. Tegishli muassasalarda tabiat go'zalligi madhiyasi va uni muhofaza etishga bag'ishlangan havaskorlik filmlari, fotosuratlar,

rasmlar, shuningdek, maqola va ocherklar uchun tanlovlar o'tkazilish ham atrof-muhitni pokiza saqlash, uni himoya etishda muhim vositalar hisoblanadi. Davriy ravishda tabiat muhofazasi muammolari bo'yicha seminarlar o'tkazish yoshlar dunyoqarashining kengayishi uchun zarur tadbirlardan hisoblanadi. Yoshlarning tabiat boyliklarini muhofaza qilishga qaratilgan hasharlarga keng jalb qilish ham xayrli ishlardan sanalib, fasllarga qarab yoshlar o'rtasida obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlarining o'tkazilishi kutilgan natijalar beradi.

Ekologik ta'lim-tarbiyadagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: ta'lim-tarbiyaga oid meyoriy hujjatlar asosida ekologik ta'lim mazmunini tanlash va uni o'qitish metodikasini yangidan ishlab chiqish; o'quvchilarni umumbashariy va umumintaqaviy ekologik muammolar, holatlar bilan tanishtirish va amaliy faoliyatni takomillashtirish; o'quv dasturlari va darsliklar mazmunini davlat ta'lim standartlari asosida muvofiqlashtirish, ekologik mazmundagi bilimlar bilan boyitish; ajdodlarimizning tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanish borasidagi meroslaridan, milliy an'analardan samarali foydalanish; ta'lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy ekologik qadriyatlardan foydalanish; ekologiyaga oid auditoriyadan va maktabdan tashqari ishlarni yo'lga qo'yish; yoshlarda atrof-muhitda sodir bo'ladigan xavfli hodisalar, ularning turg'unligi, tabiat komponentlarining o'zaro bog'liqligi, yaxlitligi haqida to'liq bilimlarni shakllantirish uchun fanlararo hamkorlikni amalga oshirish, ekologiya va gigiyena fanlarini integratsiyalashtirishga qaratilgan o'quv dasturi hamda darsliklar yaratish; uzluksiz ekologik va gigiyenik ta'lim tizimini yo'lga qo'yishni ijobiy hal qilish.

**Xulosa.** O'qituvchilar uchun ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifalari shulardan iboratki, o'qituvchi dars mavzusining ekologik maqsadi, mazmuni, vazifalari va istiqbollari ko'ra bilishi, mavzuning maqsadi ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy manfaatlariga mos kelishi va u bilan bog'langanligini aniq tasavvur qilishi zarur. O'qituvchi auditoriyadan, darsdan, sinfdan, maktabdan tashqari vaqtlarida olib boriladigan ekologiyaga oid mashg'ulotlar mazmunining hajmi, tashkiliy shakllarini ishlab chiqishi va uning samaradorligini ko'z oldiga keltira olishi kerak. Buning uchun o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni to'la-to'kis yo'lga qo'yish zarur. Asosiy maqsad – vatanimizning tabiiy muhitini asrash, uning boyliklarini ko'paytirish va yoshlarning tabiat bilan uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlashdir. Davr xalqimiz dunyoqarashini milliy istiqloq ruhida isloh qilishni talab qilmoqda. Shunday ekan, milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy tarbiyani yo'lga qo'yish jamiyatimizda sog'lom muhitni saqlash bilan barovar ekanligini anglashimiz dardkor.

#### Adabiyotlar:

1. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-d/dunyoqarash-uz/>
2. Отабоев Ш., Хидоятова З. Экология, гигиена ва сифат-саломатлик китоби. - Т.: Фан, 2007. - 320 б.; Отабоев Ш., Атабоев М., Артикбаева З. Агроэкология ва саломатлик муаммолари: Илмий рисола. - Т.: Тош-даУ, 2014. - Б. 134-137.
3. Маликова А.Р. Педагогика олий ўқув юрти талабаларида экологик маданиятни шакллантириш: Пед. фанл. номз. ... Автореф. - Т., 2010. - 20 б.; Бозорова Н.Ш. Талабаларда экологик маданиятни шакллантириш-нинг илмий педагогик асослари (олий ўқув юртлари мисолида): Пед. фанл. номз. ... Автореф. - Т., 2006. - 22 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатлари таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. - Т.: Ўзбекистон, 2016. - 488 б.
5. Бачинский Г.А. Социология: теоретические и практические аспекты. - Киев: Наукова думка, 1991.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият - энгилмас куч. - Т.: Маънавият, 2008.

## TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Fayziyeva Mahbuba Raximjonovna, TDPU professor v.b.*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi globallashuv jarayonida ta'lim transformatsiyasini amalga oshirish va unda raqamli texnologiyalarning o'rni xususida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, bulutli texnologiyalar, mobil texnologiyalar, smart texnologiyalar, buyumlar internet texnologiyalari, VR/AR texnologiyalar, LMS, CMS, MOOC tizimlari, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar bazasi va infografika kabi raqamli texnologiyalarning mazmuni ochib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** bulutli texnologiyalar, mobil texnologiyalar, smart texnologiyalar, buyumlar internet texnologiyalari, VR/AR texnologiyalar, LMS, CMS, MOOC tizimlari, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar bazasi.

## ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ

*Файзиева Махбуба Рахимжоновна, и.о.профессора ТГПУ*

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о реализации образовательной трансформации в современном процессе глобализации и роли цифровых технологий. Также раскрывается содержание цифровых технологий, таких как облачные технологии, мобильные технологии, смарт-технологии, технологии Интернета вещей, технологии VR/AR, системы LMS, CMS, MOOC, искусственный интеллект, большая база данных и инфографика.

**Ключевые слова:** облачные технологии, мобильные технологии, смарт-технологии, технологии Интернета вещей, технологии VR/AR, LMS, CMS, MOOC-системы, искусственный интеллект, большая база данных.

## DISTINCTIVE FEATURES OF THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION

*Fayzieva Makhbuba Rakhimjonovna, TSPU associate professor*

**Abstract.** This article provides information on the implementation of educational transformation in the modern process of globalization and the role of digital technologies. It also discloses the content of digital technologies, such as cloud technologies, mobile technologies, smart technologies, Internet of Things technologies, VR / AR technologies, LMS systems, CMS, MOOCs, artificial intelligence, a large database and infographics.

**Key words:** cloud technologies, mobile technologies, smart technologies, Internet of Things technologies, VR/AR technologies, LMS, CMS, MOOC systems, artificial intelligence, big database.

**Kirish.** Raqamli texnologiyalar tariximizdagi har qanday innovatsiyaga qaraganda tezroq rivojlaib bormoqda. Raqamli texnologiyalar atiga yigirma yil ichida rivojlanayotgan dunyo aholisining qariyb 50 foizini qamrab oldi va jamiyat hayot tarzini o'zgartirib yubordi.

**Asosiy qism.** Raqamli texnologiyalar moliya, savdo va davlat xizmatlaridan foydalanishni kuchaytirish orqali tizimli ekvalayzer sifatida namoyon bo'ldi. Masalan, sog'liqni

saqlash sohasida sun'iy intellektga (SI) asoslangan texnologiyalar inson hayotini saqlab qolish, kasalliklarga tashxis qo'yish va umr ko'rish davomiyligini uzaytirishga yordam bermoqda. Ta'limda elektron va masofaviy ta'lim jismoniy nuqsoni bor talabalar uchun o'quv dasturlari yaratishda yordam bermoqda. Raqamlashtirish orqali davlat xizmatlari yanada qulay va shaffof ko'rinishiga kelmoqda, bu esa, raqamli texnologiyalar turli sohalaridagi to'siqlarni kamaytirishga va samaradorlikni oshirishga yordam berayotganligidan dalolat. Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash jarayonidagi muammolar ham texnologik rivojlanish natijasida o'z yechimini topmoqda. Bularni barchasi raqamli texnologiyalar rivojlanishining progressiv ko'rsatkichlari sifatida alohida e'tirof etiladi. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish borasida O'zbekistonda ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktabrdagi «Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari» to'g'risidagi PQ-4851-son qarori asosida «Raqamli O'zbekiston – 2030» konsepsiyasini amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlari va u bilan bog'liq jarayonlar belgilab berildi.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy, aqlli, samarali va soddalashtirilgan ish joylarini yaratish; o'quvchilar va yoshlarni raqamli dunyoga moslashtirish, yashash va ishlashga tayyorlash, o'rganish va o'qitish tajribasini yaxshilash, yaxlit o'zgarishlarni boshqarish, qat'iy jarayonni yengillashtirishga qaratilgan va yaxshi tuzilgan ta'lim transformatsiyasini amalga oshirishi mumkin [1], [2], [3].

Chang [4], Ciampa [5], H.Niemi [6], Oakley [7], Taylor larning [8] fikriga ko'ra, o'quvchilarning dars jarayonlariga samarali mazmunli ishtirokini interaktiv raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish mumkin. Raqamli aloqa va hamkorlik vositalari raqamli savodxonlik, 21-asr ko'nikmalari va o'quv natijalarini yaxshilash bilan birgalikda akademik ta'lim uchun zamin yaratadigan o'zaro faoliyat o'quv fonlarini yaratishi mumkin.

D.M.Al-Hezam [9] o'z tadqiqotida o'qituvchilar uchun raqamli texnologiyalarning afzalliklari, axborotni yetkazib berish qulayligi va o'quvchilar uchun vositalarning unumdorligini aniqladilar. D.Hopkins va D.Sternning [10] fikriga ko'ra, ta'limga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish va ulardan foydalanishda muvaffaqiyatga erishish tajribali o'qituvchilar tomonidan boshqariladi. Raqamli bilimlarni yaratish va tarqatish uchun o'qituvchilar raqamli strategiyalar va resurslarni ishlab chiqishda hamjihatlikda ishlash orqali o'z hissalarini qo'shishlari mumkin. K.K.Weining [11] fikriga ko'ra, raqamli texnologiyalarni o'zlashtirishning rivojlanishi axborot savodxonligi tengligi bilan yangi raqamli bo'linishga ta'sir qiladi va ta'lim natijalarida farqlar paydo bo'lishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar — bu axborotni «raqamlashtirilgan», ya'ni universal raqamli shaklda taqdim etadigan texnologiyalar hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar axborotlarni yaratish, qayta ishlash, saqlash va uzatish imkonini beradigan elektron vositalar, tizimlar, qurilmalar va resurslardir. Ta'limda raqamli texnologiyalar – bu raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim muhitini tashkil etish hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida quyidagi raqamli texnologiyalardan foydalanish mumkin: Mobil texnologiya – foydalanuvchilarning mobil qurilmalar orqali ma'lumotlarni almashishda qo'llaniladigan usul va vositalar majmui hisoblanadi. Bulutli texnologiyalar — ma'lumotlarni saqlash, boshqarish va qayta ishlash uchun Internetdagi kompyuterlardan foydalanish jarayoni. Bulutli texnologiyalar odatda, foydalanuvchiga kompyuter resurslari, dasturlari va quvvatini internet-xizmat ko'rinishida taqdim etadi. Bulutli texnologiya resurslari bir nechta



serverlarda joylashgan bo'lib, markazlashtirilgan holda boshqariladi. Smart texnologiyalar — insonlar tomonidan yaratilgan va ma'lum bir vazifani bajaruvchi an'anaviy texnologiyaga bir qancha aqliy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi qo'shimcha funksiyalarni qo'shilgan texnologiyalar. Jumladan, smart soat, smart kostyum, smart soyabon va boshqalar. Umumiy ma'noda smart texnologiya bir yoki bir nechta sensorlar bilan jihozlangan aqli qurilmalarga tayanadi, ular aniq vazifani oldindan dasturlashtirilgan qoidalar asosida tahlil qiladi, xulosalar chiqaradi va boshqa smart qurilmalar bilan aloqa o'rnatishi orqali biror vazifani bajaradilar. Buyumlar interneti (Internet of Things – IoT) – Internetga ulangan milliardlab jismoniy obyektlar yoki buyumlar» ni anglatadi, ularning barchasi Internet orqali boshqa qurilmalar va tizimlar bilan ma'lumotlarni yig'ishi va almashishi mumkin. Hozirgi vaqtda odatdagi uy sharoitida ko'plab qurilmalarda zamonaviy apparat vositalari (mikrokontroller) va dasturiy ta'minot mavjud. IoT ushbu qurilmalarni birgalikda ishlashga intiladi va intellektual buyumlar tarmog'ini yaratishda bir-biriga yordam beradi. Masalan, agar mikroto'lqinli pech, sovutgich, eshik qulfi, videokuzatuv kamerasi yoki boshqa shu kabi qurilmalar Internetga ulangan bo'lsa, ularni smartfon yordamida masofadan boshqarish imkonini beradi. Virtual reallik (Virtual reality – VR) – sezgi (ko'rish, eshitish va sezish) organlari yordamida axborotni foydalanuvchining ongiga yetkazish imkonini beradigan dasturiy va texnik vositalar to'plamidan iborat sun'iy axborot muhiti. Virtual reallik inson real borliqda harakat qilayotgani illyuziyasini kompyuterda yaratish imkonini beruvchi interfaol texnologiya. Bunda obyektiv borliqni tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o'rini maxsus interfeys, kompyuter grafikasi va ovoz vositasida sun'iy yaratilgan kompyuter axboroti egallaydi. Inson miyasidagi neyronlar virtual elementlarga haqiqiy dunyo elementlari singari javob beradi. Shuning uchun, inson virtual muhitni idrok etadi va virtual olam ichida sodir bo'layotgan voqealarga haqiqatda sodir bo'layotgan voqealar singari munosabatda bo'ladi [12]. To'ldirilgan borliq (Augmented reality - AR) - bu atrofdagi haqiqiy dunyo obektlari ustida interaktiv raqamli elementlar joylashtirilgan axborot muhiti. Ushbu texnologiya vizual qurilma orqali virtual elementlardan foydalangan holda haqiqiy dunyoni to'ldirishga qaratilgan. AR virtual obyektlari real dunyoni ko'rish uchun kameradan olingan ma'lumot bilan bir vaqtning o'zida to'ldiriladi va kuzatiladi. Natijada, real dunyo sun'iy elementlar va yangi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. Buni odatiy smartfon va planshetlar, to'ldirilgan borliq ko'zoynaklari, statsionar ekranlar, proeksion moslamalar va boshqa texnologiyalar uchun dasturlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Elektron ta'lim – raqamli texnologiyalar orqali ta'limni tashkil etish usuli hisoblanib, kompyuter yoki boshqa raqamli qurilma orqali onlayn yoki oflayn tarzda amalga oshirilishi mumkin. Unga kompyuter, noutbuk, planshet yoki smartfon kabi ko'pgina elektron qurilmalar orqali kirish mumkin, bu esa talabalar uchun qayerda bo'lishidan qat'i nazar, o'rganishning ko'p qirrali va oson usulini taqdim eta oladi. Ta'limni boshqaruv tizimlari (Learning Management System - LMS) - videodars, ma'ruza materiallari, taqdimotlar, kitoblar kabi o'quv materiallari majmuasidan iborat bilim olish faoliyatini boshqarish uchun mo'ljallangan hamda muloqot rejimida ishlay oladigan inson-mashina majmuasi yoki masofaviy ta'limning bir shakli. Ommaviy Ochiq Onlayn Kurs (Massive Open Online Course – MOOC) – o'quvchilarga yil davomida yoki qisqa sessiyalarda ta'lim olish imkoniyatini beruvchi platforma. MOOC platformalari orqali dunyoning Garvard va Massachusetts singari nufuzli ta'lim muassasalari turli yo'nalish va turli darajadagi onlayn kurslarni taqdim etiladi. Shuningdek, bir vaqtning o'zida minglab o'quvchilarni royxatdan o'tkazish, yil davomida belgilangan vaqt ichida yoki ixtiyoriy vaqtda kursga a'zo bo'lib

o'qish imkoniyatini beradi. Kontentni boshqaruv tizimlari (Content Management System - CMS) - tayyor shablonli tuzilmalar, ma'lumotlarni kiritish va dizayn uchun funksiyalar to'plamidan iborat platforma. CMS matnli va multimediali sahifalardan iborat saytlarni qulay va oson yaratish hamda o'zgartirish (qo'shish, tahrirlash va o'chirish) imkonini beradigan saytni boshqaruv tizimi. Katta ma'lumotlar (Big Data) - vaqt o'tgan sayin o'sib boruvchi katta ma'lumotlar to'plami bo'lib, ma'lumotlar ustida amallar bajarishga yo'naltirilgan texnik va dasturiy vositalarni o'zida jamlagan. Big data a'naviy ma'lumotlar bazasidan farqli ravishda katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va uzatish imkoniyatini taqdim etadi. Bu ma'lumotlarning samarali tahlil qilish orqali kerakli axborotlarning qo'lga kiritilishiga yordam beradi. Bilimlar bazasi (Data Science) - fanlararo soha bo'lib, u odatda katta hajmdagi ma'lumotlar to'plamidan yangi bilimlarni ya'ni foydali ma'lumotlarni olishga qaratilgan. Ushbu soha tahlil qilish uchun ma'lumotlarni tayyorlashni va tashkilotda yuqori darajadagi qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan muhim ma'lumotlarni aniqlaydi. Sun'iy intellekt – tashqi ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilish, ularni o'rganish va turli vaziyatlarga moslashish orqali aniq maqsad va vazifalarga erishishda ushbu ma'lumotlardan foydalana olish qobiliyatiga ega tizim [13]. Sun'iy intellekt mashinalarga inson intellektual xulq-atvori va fikrlash qobiliyatiga taqlid qilish imkoniyatni taqdim etadi. Infografika — ma'lumotni taqdim etishning grafik usuli bo'lib, oddiyroq qilib aytganda vizual ko'rinishida taqdim etilgan ma'lumotlardir. Infografikada axborotlarni tasvirlashning grafika, tasvir, diagramma, jadval, xaritalar, sxemalar kabi vizual vositalari qo'llaniladi. Infografika axborotni tezkor, vizual va jonli taqdim etish uchun mo'ljallangan. Ta'lim bu butun tarix davomida shaxsiy qadr-qimmat va imkoniyatlar manbai bo'lib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan. Uni 2030 yilda yana shunday kuchga ega bo'lishini istasak ta'limning raqamli transformatsiyasini amalga oshirish kerak. Ta'limning raqamli transformatsiyasi – bu ta'lim rejalari va natijalari, ta'lim mazmuni, ta'lim metodlari va tashkiliy shakllarini yangilash, shuningdek, jadal rivojlanayotgan raqamli muhitda har bir talaba erishgan natijalarni baholash jarayonini tubdan yaxshilash jarayonidir. Ta'limni raqamli transformatsiyasi «Raqamli yetuklikka» erishish jarayoni hisoblanib, uning natijasida ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini umumlashtiruvchi axborot tizimlari yig'indisidan iborat raqamli ta'lim muhiti shakllanadi. Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish boshqa sohalarga nisbatan dolzarb hisoblanadi. Raqamli texnologiya nafaqat oliy ta'limda, balki ta'limning barcha bosqichlarida, ya'ni bolalar bog'chasidan to universitet darajasigacha qo'llanilmoqda. Texnologiyadan foydalanish uchun avvalo uning imkoniyatlari bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malaka bo'lishi lozim. Shunda texnologiyadan kutilgan samaraga erishiladi.

**Xulosa.** Ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'p sonli elektron jumallar va elektron kitoblarni o'quv faoliyatiga qo'llash va u orqali darsni tashkil etish, masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish, bosqaruv faoliyatini masofaviy tashkil etish, talabalar fikr-mulohazalarini doimiy bilib borish, avtomatlashgan nazorat sinovlarini tashkil etish, elektron o'quv manbalarini o'zida mujassam etgan katta ilmiy bazalarni shakllantirish, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarini joriy qilish, kompyuter fanlarida kompyuter texnikasi va ko'p sonli dasrturlardan samarali foydalanishda namoyon bo'ladi. Raqamli texnologiya o'qitish va o'qish jarayonlaridagi o'zgarishlarni amalga oshiradigan yagona katalizator hisoblanadi. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish: yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari va kontseptual tushunishni rivojlantirish uchun taqdim etilgan va ko'p hollarda talabalarning ijodkorligi, tasavvurlari va muammolarni

hal qilish ko'nikmalarini yaxshilovchi innovatsion pedagogik modellarni nazarda tutadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali talabalar o'zlarining mantiqiy fikrlashlarini yaxshilashlari, turli tushunchalar bo'yicha ma'lumot ishlab chiqarishlari, muloqot qilish qobiliyatlarini yaxshilashlari va o'z faoliyatlarini samarali yo'lga qo'yishlari mumkin; talabalarning masofaviy yoki virtual laboratoriya simulyatsiyalardan faoydalanishlarini taminlaydi; raqamli texnologiya xalqaro hamkorlikni osonlashtirdi. Talabalar bir-birlari bilan hatto kompyuter va mobil qurilmalarda ham yuzma-yuz muloqot qilishlari mumkin. Shu tarzda, ular muloqotda yuzaga keladigan barcha to'siqlarni yengib o'tishga qodir bo'ladilar; baholash pedagoglarga talabalarning bilimlarni o'zlashtirishlarini kuzatish va shunga mos ravishda o'qitish usullariga tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Bu, shuningdek, munozaralarda ko'proq talabalarning dinamik hissasini qo'shishi mumkin. Qachon talabalar o'z bilimlarini oshira olsalar, ular seminarlarda, guruh muhokamalarida va boshqa sohalarda faol ishtirok etishlari aniq. Raqamli texnologiya baholashni qo'llab-quvvatlaydi va ko'nikmalarning rivojlanishiga imkon beradi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hozirgi tendensiyada davom etsa yaqin yillar ichida insonlar hayot tarzida keskin o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bu esa, barcha sohalarning yanada mobil bo'lishini va kadrlar bilim va salohiyati jamiyat talabiga javob bera olishini ta'minlaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Haynes C.A., Shelton K. (2018). Beyond the classroom: a framework for growing school capacity in a digital age. *Journal of Research on Technology in Education*, 50(4), 271-281.
2. <https://www.iste.org/standards/iste-essential-conditions>
3. [http://download.microsoft.com/download/8/e/4/8e4d5383-058a-431e-9090-1f241ac23246/1\\_ms\\_edu\\_transformationpapers/ms\\_edu\\_bonuscsoverview.pdf1](http://download.microsoft.com/download/8/e/4/8e4d5383-058a-431e-9090-1f241ac23246/1_ms_edu_transformationpapers/ms_edu_bonuscsoverview.pdf1)
4. <https://doi.org/10.19173/irrodl.v19i1.3168>
5. <https://doi.org/10.1080/19388071.2017.1280863>
6. <https://doi.org/10.30935/cet.470999>
7. <https://doi.org/10.1080/07908318.2017.1386193>
8. <https://doi.org/10.1080/15391523.2020.1747577>
9. <https://doi.org/10.15663/wje.v22i2.567>
10. [https://doi.org/10.1016/0742-051X\(95\)00055-O](https://doi.org/10.1016/0742-051X(95)00055-O)
11. <https://doi.org/10.1287/isre.1090.0273>
12. <http://vr.cs.uiuc.edu/vrbook.pdf>.
13. Kaplan, A., Haenlein, M. (1 January 2019). Siri, Siri, in my hand: Who's the fairest in the land? On the interpretations, illustrations, and implications of artificial intelligence. *Business Horizons*. 62 (1): 15-25.

---

## UMUMTA'LIM MAKTEBLARIDA SHAXMATNI O'QITISHNING TALAB VA TAMOIYILLARI

*Yakubov Javlon Nigmatovich, i.f.n., dotsent*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida shaxmatni o'qitishning talab va tamoyillari yoritilgan bo'lib, shaxmatni maktablarda o'qitishdagi asosiy muammolar va amalga oshiriladigan vazifalar bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** *shaxmat, shaxmat predmeti, maktab o'quv dasturi, tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash, intellektual va shaxsiy fazilatlar, nostandart echimlarni topish qobiliyati, vatanparvarlik, ongli fuqarolik pozitsiyasi, muammoli vaziyatlar.*

## ТРЕБОВАНИЕ И ПРИНЦИПЫ ОБУЧЕНИЯ ШАХМАТАМ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

*Якубов Жавлон Нигматович, к.э.н., доцент*

**Аннотация.** В данной статье освещены требования и принципы обучения шахматам в начальных классах общеобразовательных школ, а также описаны основные проблемы и задачи, которые предстоит решить при обучении шахматам в школах.

**Ключевые слова:** *шахматы, шахмат как предмет обучения, школьная программа, инициатива, творческое мышление, интеллектуально-личностные качества, умение находить нестандартные решения, патриотизм, сознательная гражданская позиция, проблемные ситуации.*

## REQUIREMENT AND PRINCIPLES OF TEACHING CHESS IN COMPREHENSIVE SCHOOLS

*Yakubov Javlon Nigmatovich, candidate of economic sciences, associate professor*

**Abstract.** This article highlights the requirements and principles of teaching chess in the primary grades of comprehensive schools, as well as describes the main problems and challenges, which should be solved during teaching chess in schools.

**Key words:** *chess, chess subject, school curriculum, initiative, creative thinking, intellectual and personal qualities, ability to find non-standard solutions, patriotism, conscious citizenship position, problem situations.*

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yaqin istiqbolda mamlakatni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirishga hamda tarqqiy etgan mamlakatlar bilan iqtisodiyotning turli sohalarida raqobatlashishga qaratilgan. Islohotlarning asosiy subyektlaridan biri bu mutaxassisni tayyorlashda quyidagi fazilatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi: tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash va nostandart echimlarni topish qobiliyati, kasbiy yo'lni tanlash qobiliyati, hayot davomida o'rganishga tayyorligini namoyish etish, vatanparvarlik, ongli fuqarolik pozitsiyasi va hokozolar talab etiladi. Qayd etilgan fazilatlarning barchasi maktab ta'limi tizimida va, xususan, boshlang'ich sinflarda shakllanadi. Zarur shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy poydevori maktablarda o'qitish mazmuni sifatini oshirishga bog'liq bo'lib, bugungi kunda maktablarda o'quv jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

**Asosiy qism.** Maktabni modernizatsiya qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari bir qator direktiv hujjatlarni o'z ichiga oladi, unda asosiy qoidalar maktab ijodiy salohiyatini rivojlantirish (o'quvchilarning har tomonlama rivojlangan shaxs qilib shakllantirish) va o'qituvchilarning kasbiy faoliyati madaniyatini oshirish (ularning kasbiy fazilatlarini rivojlantirish, ijtimoiy mavqeini va pedagogik kasbning obro'sini oshirish) mexanizmlarini izlashga qaratilgan vazifalarni hal qilishga bog'liq. Tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, mehnat bozori talablari maktab oldiga chuqur bilimlar bilan bir qatorda o'zlashtirilgan amaliy faoliyat ko'nikmalarini, shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, ta'lim va kasbiy harakatchanlik qobiliyatini o'z ichiga olgan yangi talablarni qo'yadi: chuqur bilim, bilimning mohiyati va uning asosiy tarkibiy qismlarini tushunish, bilimlarning izchilligi va yaxlitligi; ma'lumotni faol idrok etish, o'z mentalitetiga mos ravishda yangi bilimlarni egallash; tahliliy va tadqiqotchilik qobiliyati; ijodiy fikrlash, nostandart vaziyatlarda echim topish qobiliyati; o'z-o'zini o'qitish, o'z-o'zini tashkil etish va qayta tayyorlashga tayyorligi; umrbod ta'lim olish zarurligiga e'tibor qaratish. Ta'lim traektoriyalarini individuallashtirish amalga oshirilishi kerak; o'z maqsadlariga erishish uchun yangi ta'lim xizmatlari majmuasini shakllantirish qobiliyati; muammoning ko'rinmas (yashirin) qismlarini ko'rish qobiliyati; qaror qabul qilishda tizimli yondashuv; o'quvchining mustaqil ishlashi, ta'lim resurslari va o'z-o'zini tarbiyalash texnologiyalaridan mustaqil ravishda foydalanish qobiliyati; qabul qilingan qarorlar uchun mas'uliyat hissiga ega; tanlagan vaziyatda mustaqil ravishda qaror qabul qilish, ularning mumkin bo'lgan oqibatlarini bashorat qilish; hamkorlik qilish, harakatchanlik, dinamizm va konstruktivlik; samaradorlik, ta'lim maqsadlariga erishish uchun iroda va sa'y-davolashni jamlash masalasi.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda zamonaviy maktabning asosiy vazifalari o'quvchilarda shunday shaxsiy fazilatlarini shakllantirishdan iborat: dunyoni faol va qiziqish bilan bilish; mehnat, ilm-fan va ijod qadriyatini anglash; o'rganish qobiliyati; ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalashning hayot va mehnat uchun ahamiyatini anglash; olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyati; kasblar dunyosiga yo'naltirish, inson uchun kasbiy faoliyatning ma'nosini tushunish. Maktab o'quv dasturlari qanday bo'lishi kerakligi, o'quvchilar qanday natijalarni ko'rsatishi kerakligi, maktabda o'z maqsadlariga erishish uchun qanday sharoitlar yaratilishi kerakligi haqidagi talablarni belgilaydigan yangi ta'lim standartlariga o'tilishi o'qituvchi va mutaxassis olimlar uchun ushbu muammolarni hal qilishning innovatsion yondashuvlari va usullarini izlash muammosini keltirib chiqaradi. Ushbu innovatsion yondashuvlardan biri maktab o'quv dasturiga «shaxmat» fanini kiritishdir [3]. Shaxmatni o'qitishning samarali yondashuvlari va usullarini aniqlash, shaxmatning didaktik imkoniyatlari, psixologik-pedagogik, falsafiy, madaniy-mantiqiy tadqiqotlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga, uning o'quvchilar shaxsini shakllantirishning shaxsiy, ularning ijodiy rivojlanishini va umuman fikrlashni aniqlashga imkon beradi. Shaxmatni o'qitishning etakchi tamoyillarilari quyidagilardan iborat: maqsadga muvofiqlik tamoyili; ta'limning hayot bilan aloqasi; tizimlilik va izchillik; ong va faollik; o'rganishning ko'rinishi; mavjudlik; integrativ yondashuv; ta'lim va rivojlanish ta'limi tamoyili. Shaxmatning asosiy afzalligi shundaki, o'yin o'yinchini kelajak haqida o'ylashga va maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan resurslardan maksimal darajada foydalanishga o'rgatadi. Shaxmat – bu hayotning o'ziga xos modeli bo'lib, unda o'quvchi g'alaba qozonishga (bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirishga), to'g'ri xulosalar chiqarishni o'rganishga yoki vaqtinchalik murosaga rozi bo'lishga undaydi. O'yin maqsadlarga erishish usullarini tashkil etish va rejalashtirishga tizimli, algoritmik munosabatni shakllantiradi, xarakterni,

yo'qotishni qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi, maqsadga muvofiqlik ruhini kuchaytiradi, raqibni qadrlash va hurmat qilishni o'rgatadi. «Shaxmat» fani o'quv jarayonini ilmiy asoslangan holda tashkil etish quyidagi asosiy tamoyillariga: maqsadga muvofiqlik tamoyili, ta'limning hayot bilan aloqasi, sistematiklik va izchillik, ong va faollik, o'rganishning ko'rinishi, mavjudligi, integrativ yondashuv, ta'limni tarbiyalash va rivojlantirish tamoyillariga asoslanganda samarali natija beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi «Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-4954-sonli qarori qabul qilindi [2]. PQ-4954-sonli qaror bilan tanlov asosida 1000 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida 2, 3 va 4-sinf o'quvchilarini «Jismoniy tarbiya» fani doirasida 18 soatlik reja asosida shaxmatga o'qitish hamda ularga metodik yordam ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi. Ko'pgina etakchi mutaxassislar maktabda keng qamrovli bilimlarni emas, balki mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan model namunalarni berish kerakligini ta'kidlaydilar. Bir qator ko'rsatkichlarga ko'ra, shaxmat o'yini ideal tushuntirish modelidir.

**Xulosa.** Shaxmat, birinchi navbatda, o'yin bo'lib, u orqali o'quv materiali yaxshiroq va charchoqsiz o'zlashtiriladi. Shaxmat bolalarni mantiqiy fikrlashga, diqqatni jamlashga, xotirani, qat'iyatlilikni, topqirlikni, vaqtni aniq hisoblash, natijani taqqoslash va bashorat qilish qobiliyatini rivojlantiradi, xolislik, mas'uliyat, g'alaba qozonish irodasi, qat'iyatlilik kabi shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Maktab o'quv dasturiga shaxmatning kiritilishi o'quvchilarni majbur qilmasdan bilim olishga bo'lgan doimiy qiziqishni saqlab qolish imkonini beradi. Demak, bunday darslarning asosiy mazmuni o'quvchilarning mustaqil ravishda vaziyatni tahlil qilish, strategik va taktik harakatlar qurish, solishtirish, tasniflash, guruhlash, xulosa chiqarish, qonuniyatlarni aniqlashdagi faolligini oshiradi. Bularning barchasi ularning ijodiy qobiliyatlari va mantiqiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi. Maktabning boshlang'ich sinflarida shaxmat o'ynash bolalarda ko'plab aqliy jarayonlarni va idrok, e'tibor, tasavvur, xotira, fikrlash, irodaviy xatti-harakatlarni boshqarishning boshlang'ich shakllari kabi fazilatlarni yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9 avgustdagi PQ-3609-son «O'zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi PQ-4954-son «Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori.
3. Махмудов А.Х., Джураев Р.Х., Якубов Ж.Н., Каримов К.А., Усмонова З.Б. Дидактические возможности шахмат в развитии творческого мышления школьников. - Т.: Нодирабегим, 2021. - 128 с.
4. Maxmudov A.X., Yakubov J.N. O'quvchilarda kompetentlikni shaxmatni o'rgatish orqali rivojlantirish didaktikasi // Maktab va xayot. - T., 2019. - 6-son. - B. 16.

## TA'LIM VA AMALIYOT UYG'UNLIGI TALABALARNI ISH BILAN TA'MINLASH VOSITASI SIFATIDA: SOHADAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

**Umarov Xusan Abduraximovich**, TDPU «Texnologik ta'lim metodikasi»  
kafedrası v.b. dotsenti, PhD

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta'lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash orqali amaliy ko'nikmalarni hosil qilish bo'yicha kasbiy kompetentsiyalarini oshirish, shuningdek bitiruvchi kurs talabalarini ish bilan ta'minlash masalalari tadqiq qilingan. Mazkur muammoni hal etishda asosiy vosita sifatida ta'lim muassasalarining turli tashkilotlar bilan hamkorligi va amaliyotni tashkil etish shakllari bo'yicha jahon tajribalari tahlili keltirilgan

**Tayanch so'zlar:** talabalar amaliyoti, kasbiy faoliyatga tayyorlash, bilimlarini amaliyotda qo'llash, amaliy ko'nikmalarni hosil qilish, kasbiy kompetentsiyalarini oshirish, bitiruvchi kurs talabalarini, ish bilan ta'minlash, ta'lim muassasalarining hamkorligi, amaliyotni tashkil etish.

## ВЗАИМОСВЯЗЬ ОБРАЗОВАНИЯ И ПРАКТИКИ КАК СРЕДСТВО ТРУДОУСТРОЙСТВА СТУДЕНТОВ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ В СФЕРЕ

**Умаров Хусан Абдурахимович**, и.о. доцент, PhD кафедры  
«Методика технологического образования» ТГПУ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы подготовки студентов к профессиональной деятельности, повышения их профессиональных компетенций в виде практических навыков путем применения знаний, полученных в ходе образовательного процесса, а также трудоустройства студентов выпускных курсов. В качестве основного инструмента решения этой проблемы приведён формы организации практики на основе анализа мирового опыта по содержанию сотрудничества образовательных учреждений с различными организациями.

**Ключевые слова:** практика студентов профессиональная подготовка, применение знаний на практике, развитие практических навыков, повышение профессиональных компетенций, выпускные курсы, трудоустройства, сотрудничество образовательных учреждений, организация практики.

## INTERRELATION OF EDUCATION AND PRACTICE AS A MEANS OF EMPLOYMENT OF STUDENTS: PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE SPHERE

**Umarov Xusan Abdurahimovich**, acting Associate Professor, PhD, Department of  
Methods of Technological Education, TSPU

**Abstract:** This article discusses the issues of preparing students for professional activities, improving their professional competencies in the form of practical skills through the application of knowledge gained during the educational process, as well as employment of graduate students. As the main tool for solving this problem, the forms of organization of practice are given based on the analysis of world experience in the content of cooperation between educational institutions and various organizations.

**Key words:** practice of students, professional training, application of knowledge in practice, development of practical skills, improvement of professional competencies, graduation courses, employment, cooperation of educational institutions, organization of practice.

**Kirish.** Mamlakatning tez va barqaror rivojlanishining muhim omili bo'lgan – inson resurslarini malakali mutaxassis darajasida tayyorlash ta'lim sohasining jamiyat oldidagi asosiy vazifasi bo'lib turgan davrda, professional va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va amaliyot uyg'unligiga e'tibor qaratish nafaqat bo'lajak kadrlar kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish, balki ularni ish bilan ta'minlash masalalarini hal etishga xizmat qiladi.

**Asosiy qism.** Mazkur vazifani amalga oshirishning dolzarbligini belgilovchi yana bir holat iqtisodiyotning turli sohalarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash muammosini hal etishda mehnat bozorida o'z professional ko'nikma va malakalarini taklif etayotgan mutaxassislarning potensial ish beruvchilar talablariga nisbatan nomutanosibligi, shuningdek sifat va miqdor o'rtasidagi tafovudning kattaligi borasidagi muammolarning mavjudligidir.

Yuqoridagi muammolarni hal etish maqsadida mahalliy va horij oliy ta'lim muassasalari tajribasini o'rganishdan avval amaliyotning mazmun-mohiyati aniqlandi.

Amaliyot – amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga, shuningdek, kelgusidagi kasbiy faoliyat bilan bog'liq kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan ta'limiy faoliyatning bir turi hisoblanib, uning vazifalari ta'lim muassasasida olingan bilimlarni mustahkamlash, umumlashtirish va amaliy tekshirish; jarayonlar texnologiyasini o'zlashtirish, kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lish; real sharoitda mutaxassislik bo'yicha ishlashning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishishdan iborat:

Ta'lim va amaliyot uyg'unligini ta'minlash quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- tanlangan kasb bo'yicha birinchi amaliy tajribani olish (va uni keyinchalik o'z shaxsiy rezyumesida aks ettirish);
- sohaning tajribali professional vakillari bilan muloqot qilish, ular tajribasini o'rganish;
- mehnat bozorida mutaxassisdan talab etilayotgan real malakalar haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- sohada yo'nalish olish va o'zining kasbiy o'sish traektoriyasini belgilash;
- Amaliyot o'talغان korxonada ishga joylashish imkoniyatlarini olish, ish izlash va ish beruvchi bilan muloqot qilish ko'nikmalariga ega bo'lish va boshqalar.

Turli ilm-fan, ta'lim va ijtimoiy sohalariga yo'naltirilgan davlat va nodavlat ish beruvchi tashkilotlar, bilan o'zaro hamkorliklarni olib borish bo'yicha qo'shma dastur va loyihalarni amalga oshirish yo'nalishlari bo'yicha xorij va mahalliy tajribalar analiz qilish uchun (OAV, tashkilotlarining veb-saytlari, ilmiy tadqiqot ishlari va boshqa) ochiq axborot manbalari materiallaridan olingan ma'lumotlardan foydalanildi.

Ta'lim va amaliyot uyg'unligining yaqqol namunasi sifatida Germaniyaning dual tizimini keltirib o'tish mumkin. Unga ko'ra hunar ta'limi yo'nalishida taxsil oluvchi talabalar nazariy ta'lim bilan bir qatorda ishlab chiqarish korxonalarida bevosita kasbiy faoliyatlarini amalga oshiradilar. Mazkur amaliyotni rivojlangan korxonalar (Simens,) va tashkilotlar o'zlarining ta'lim muassasalarini (Simens technic academy) tashkil etish orqali yoki kichik tashkilotlarning o'zaro birlashgan holda o'zlarining ta'lim tizimlari (Ausbildungsverbunde)ni tashkil etish orqali qo'llab-quvvatlashlarini namuna tarzida keltirishimiz mumkin.

Braziliyaning Texnik ta'lim olish va bandlikni ta'minlash milliy dasturi – PRONATEC (Programa Nacional de Acesso ao Ensino Tecnico e Emprego) doirasida kadrlarni kasbiy tayyorlash bo'yicha SENAI (milliy ishlab-chiqarish ta'limi hizmati), SENAT (transport sohasidagi milliy ta'limi hizmati), SENAC (savdo sohasidagi milliy ta'limi hizmati) va SENAR (milliy qishloq xo'jaligi ta'limi hizmati) yo'nalishlari bo'yicha ishlarni amalga oshirishda ta'lim va amaliyot uyunligi tajribasi keng qo'llanilmoqda.

JAR, Hindiston kabi qator mamlakatlarda TVET (Technical Vocational Education and Training) yo'nalishida tashkil etilgan ta'lim jarayonlari bevosita amaliyot bilan bog'langan holda olib boriladi. JARning ilg'or yutuqlaridan biri ta'lim vazirligining xususiy sektor vakillarini kadrlar tayyorlash tizimiga jalb qilshidir. Bunga misol tariqasida autsorsing hizmatlari va diversifikatsiyalangan ishchi kuchini boshqarish yo'nalishida ish olib boruvchi xususiy Adcorp biznes kompaniyasini keltirishimiz mumkin.

Uning asosiy vazifalariga: kasbga yo'naltirish; talaba, ta'lim muassasasi va ish beruvchi o'rtasidagi shartnomalarni imzolash; ish joyida va ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish; kasbiy mahoratni baholash va sertifikatsiyalashdan iborat.

Mamlakatimizda ham bu borada qator tajribalar amalga oshirilmoqda. Jumladan,



pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalari ta'lim jarayonini «2+4 tizimi» bo'yicha haftaning 2 kuni bevosita maktablarda olib borish tavsiya etilmoqda. Mazkur tashabbusning asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarga ularning kelgusidagi bevosita kasbiy faoliyatlari olib boriladigan muassasani «ichkaridan» ko'rsatish. Ammo bu tajribani taklif etishda shundoq ham sinf honalarini to'lib ketgani, ba'zi maktablar ikki-uch smenada darslarni tashkil etishga to'g'ri kelayotganliklarini inobatga olinmaganligi kelajakda qator noqulayliklarni keltirib chiqarish bilan bir qatorda, maktablardagi mavjud muammolarni yanada chuqurlashishiga olib keladi.

Bu borada Nizomiy nomidagi TDPU tajribasi va qo'lga kiritgan natijalari alohida e'tibor talab etadi. Bir necha yildan buyon pedagogik amaliyotni o'tash uchun talabalarga o'z yashash joylaridan uch tomonlama shartnomalar tuzish amaliyoti sinovdan o'tkazilishi, talabalar uchun qulay bo'lgan hududlardagi potentsial ish beruvchilarga o'z qobiliyatlarini namoyon etish imkonini beradi.

**Xulosa.** Shunga qaramay mamlakatimizda ta'lim va amaliyot uyg'unligi va talabalarni ish bilan ta'minlashning barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalanilayotgani yo'q. Jumladan, qator tadqiqotchi olimlar tomonidan taklif etilgan va tadqiqot ishi doirasida sinovdan o'tkazilib afzalliklari ochib berilgan talabalar yutuqlari ekrani (Dashboard) va elektron portfoliosini namoyish etish orqali potentsial ish beruvchilarni jalb etishga, ularni o'zlarining bo'lajak kadrlariga avvaldan e'tibor qaratishga motivlarini oshiruvchi vositalarga yetarli e'tibor qaratilmayotgani, shu bilan birga qator OTM talabalarning o'quv, ishlab chiqaruv amaliyotlariga amaliy bilimlarni o'zlashtirish, o'z potentsialini namoyon qilish orqali ish beruvchi e'tiborini tortish vositasi sifatida qarash o'miga, ta'lim muassasasi administratsiyasi tomonidan bajarilishi majburiy, ta'limni keyingi bosqichiga o'tish (yoki yakunlash) uchun zarur topshiriq sifatida qaralishini zudlik bilan hal etilishi lozim bo'lgan mavjud muammolar sifatida keltirishimiz mumkin.

Hozirgi kunda jaxon ta'lim tizimi Universitet 3.0 konsepsiyasi tomon harakatlanmoqda. Uning asosiy g'oyasi «kasbiy faoliyatni olib borish uchun yo'naltirilgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishdan farqli o'laroq, moddiylashuvchi bilimlar va ularni «monetizatsiyalashtirish»ga qaratilgan ko'nikmalarni o'rgatish»dan iboratdir. Buning uchun yuqorida sanab o'tilgan va shu kabi qator vazifalarni yechish bilan bog'liq ishlarni hal etish talab etiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Umarova F.A., Umarova Z.A., Umarov X.A. «Scientific and practical bases of creation and use of electronic educational resources in educational process.» European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol.7 №. 12,2019. ISSN 2056-5852.

2. Умаров Х.А., Умарова З.А. «Использование электронно-образовательных ресурсов в целях создания образовательной экосистемы». Перспективные информационные технологии / Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018) 2018.

3. Умарова ФА, Умаров Х.А. / Масофадан ўқитиш, интернет ва бошқа манбалардан фойдаланиш орқали дарс самарадорлигини ошириш / Сборники конференций НИЦ Социосфера 2016.

4. Khusan Abdurakhimovich Umarov / Analysis of Approaches to the Formation of Professional Readiness of Students in Uzbekistan (On the Example of Future Teachers) / Annals of the Romanian Society for Cell Biology 2021/3/6

## MODUL BILAN BERILGAN FUNKSIYALAR GRAFIKLARINI YASASH ORQALI TALABALAR MATEMATIK KOMPETENTLIGINI O'STIRISH METODIKASI

**Siddiqov Zayniddin Xoldorovich**, FarDU katta o'qituvchisi, p.f.f.d., PhD

**Annotatsiya.** Maqolada modulli tenglamalarni yechish usullari, funksiya grafiklarini qurish yo'llari, grafiklarni qurishda e'tibor beriladigan jihatlar haqida bayon qilingan.

**Tayanch so'zlar:** funksiya, modul, aniqlanish sohasi, grafik, simmetrik, interval.

## МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ПУТЕМ ПОСТРОЕНИЯ ГРАФОВ ЗАДАВАЕМЫХ С МОДУЛЕМ ФУНКЦИЙ

**Сиддигов Зайниддин Холдорович**, старший преподаватель ФарДУ, PhD

**Аннотация.** В статье описаны методы решения модульных уравнений, способы построения графиков функций, аспекты, которые необходимо учитывать при построении графиков.

**Ключевые слова:** функция, модуль, область, график, симметричный, интервал.

## METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' MATHEMATICAL COMPETENCE BY CONSTRUCTING GRAPHS OF FUNCTIONS ASSEMBLED WITH THE MODULE

**Siddikov Zayniddin Kholdorovich**, senior lecturer of FarDU, PhD

**Abstract.** The article describes methods for solving modular equations, methods for constructing graphs of functions, aspects that must be taken into account when constructing graphs.

**Key words:** function, module, region, graph, symmetrical, interval.

**Kirish.** Modulli funksiya grafiklarini qurish maktab va oliy ta'lim matematikasining asosiy tarkibiy-uslubiy yo'nalishlaridan biridir. Har bir matematik funksiyaning analitik usulda qurish ba'zi mutanosib o'zgarishlarni amalga oshirishni talab qiladi. Funksiya o'zgarishlari algebraik xossalari va matematik tahlil davomida o'rganiladi.

**Asosiy qism.** Modul – lotinchadan olingan so'z bo'lib, «miqdor» degan ma'noni bildiradi. Ba'zi hollarda u «modul» o'rniga mutlaq qiymat deb ham ataladi. Modulning ramzi 1841 yilda nemis matematigi K.Veyersstrass (1815-1897) tomonidan kiritilgan. Matematika kursining eng dolzarb masalalaridan biri bu funksiya grafiklarini to'g'ri almashtirish madaniyatini shakllantirishdir. Talaba matematik ifodalarning to'g'ri o'zlashtirishi natijasida analitik ifodani oddiy ifodaga almashtirishga, aniqlanish sohasidagi o'zgarishlarni boshqarishga, o'zgarishlarni tez va xatosiz bajarishga, matematik kompetentlik va hokazo ko'nikmalarni egallaydi.

Ta'rif. a soni musbat bo'lganda a ga teng bo'ladigan, a soni manfiy bo'lganda -a ga teng bo'ladigan songa a sonining moduli deb ataladi, ya'ni


$$|a| = \begin{cases} a, & a \geq 0 \\ -a, & a \leq 0 \end{cases}.$$

Muhokama.  $y = |f(x)|$ ,  $y = f(|x|)$ ,  $y = |f(|x|)|$  funksiyalarning grafiklarini chizish mumkin.

1.  $y = |f(x)|$  funksiyaning aniqlanish sohasi  $y=f(x)$  funksiya aniqlanish sohasiga mos kelishi aniq. Agar ba'zi  $x$  larda  $|f(x)| = f(x)$ , ba'zi  $x$  larda  $|f(x)| = -f(x)$  bo'lsa va bu ikki funksiyaning ordinatalari bir-biriga to'g'ri keladi, ya'ni grafiklarda umumiy nuqta mavjud. Modul ta'rifi bo'yicha  $y=|f(x)|$  funksiya grafigi  $y=f(x)$  funksiya grafigini  $y<0$  bo'lganda Ox o'qiga simmetrik qilib o'zgartiriladi.

Modul bilan berilgan funksiyalarning grafiklarini yasashga ba'zi misollarni keltiramiz:

a)  $y = |x - 1|$  funksiya grafigini chizish uchun  $y = x-1$  funksiya grafigini Ox o'qidan quyida joylashgan qismini Ox o'qiga nisbatan simmetrik ko'chirish kerak (1-rasm).




1-rasm.

2.  $y = f(|x|)$  grafigini chizish uchun  $x \geq 0$  uchun  $|x| = x$  ekanligini esga olamiz, ya'ni  $x \geq 0$  uchun  $f(|x|) = f(x)$  bo'ladi. Demak, bu funksiya grafigi Oy o'qiga nisbatan simmetrik bo'ladi.

$y = f(|x|)$  funksiyaning grafigini chizish uchun

$$y = f(|x|) \Leftrightarrow \begin{cases} x \geq 0 \\ f(x) \end{cases} \begin{cases} x < 0 \\ f(-x) \end{cases} \text{lar bir xil.}$$

b)  $y = |\log_2(x - 3)|$  funksiya grafigi 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm.

2)  $y = f(|x|)$  funksiya grafigini chizish uchun, ya'ni  $x \geq 0$  uchun  $|x| = x$  tenglikning to'g'riligini eslaymiz, ya'ni  $f(|x|) = f(x)$  bo'ladi. Shuning uchun tekislikning Oy o'qi bilan chegaralangan o'ng yarmida joylashgan funksiyaning nuqtalari ham funksiyaga mos keladi. Shuning uchun, grafik Oy o'qiga simmetrik bo'ladi.


a)  $y = |x| - 1$  funksiyani chizish uchun  $y = x - 1$

funksiyaning grafigiga asoslanamiz.  $y = x - 1$  funksiyani chizamiz. O'qning chap qismidagi bo'lagini olib tashlaymiz va uni o'q o'ng tomoniga simmetrik tarzda nusxa olamiz. Natijada,  $y = |x| - 1$  funksiyani hosil bo'ladi (3-rasm).



3-rasm.

b)  $y = \log_2|x - 3|$  funksiya grafigi 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm.

c)  $y = \frac{1}{|x| - 1}$  funksiya grafigini chizing.

Yechish:

1) Berilgan funksiyani aniqlash sohasi  $(-\infty; -1) \cup (-1; 1) \cup (1; +\infty)$ .  $x = -1$  va  $x = 1$  to'g'ri chiziqlar vertikal asimptotalar bo'ladi.

2) Berilgan funksiya juft ( $y(-x) = y(x)$ ), shuning uchun  $x \in [0; 1) \cup (1; +\infty)$  da funksiya grafigini chizish kifoya qiladi, so'ng olingan grafikni Oy o'qi bo'yicha simmetrik ko'chiramiz.


3) har qanday  $x \in D(y)$  uchun  $y \neq 0$ ,  $y(0) = -1$ .

4)  $0 \leq x \leq 1$  da  $y < 0$  va  $x > 1$  da esa  $y > 0$ .  $0 \leq x_1 < x_2 < 1$

$x_1, x_2$  lar uchun  $\frac{1}{x_1 - 1} < \frac{1}{x_2 - 1}$ , bu  $(1; +\infty)$  oraliqda funksiya kamayuvchi ekanligini

ko'rsatadi.

5)  $y(0,5) = -2$ ;  $y(2) = 1$  bo'ladi. Ushbu funksiyani grafigi 5-rasmda keltirilgan.




5-rasm.

$y = x^2 - 4|x| + 3$  funksiyaning grafigi 6-rasmda keltirilgan.

3)  $y = |f(|x|)|$  funksiya grafigini chizish uchun  $y = f(x)$  funksiya-ning grafigidan  $y = f(|x|)$  funksiyaning grafigiga o'tish kerak va bundan  $y = |f(|x|)|$  funksiyaning grafigiga o'tamiz.

d)  $y = |x^2 - 4|x| + 3|$  funksiya grafigi 6-rasmda keltirilgan.



6-rasm

Natija. Modul bilan berilgan funksiyalarning grafklarini yasashning qiymati shundaki, u berilgan ifodani unga o'xshash boshqa ifoda bilan, uchinchi o'xshash ifoda bilan almashtiradi va hokazo almashtirishga imkon beradi. Boshqacha aytganda, funksiyalarning grafklarini yasashda aniqlanish sohasi va qiymatlar sohasi, o'sish va kamayish oraliqlari hamda boshqa xossalarga e'tibor qaratish lozim.

4)  $y = |f_1(x)| + |f_2(x)| + |f_3(x)| + \dots + |f_n(x)|$  funksiya grafigi quyidagi tartibda chiziladi:

- 1) modul belgisi ostida ifodalarning nolga teng bo'lgan  $x$  qiymatlarini topish;
- 2) topilgan qiymatlarni sonlar o'qida belgilash;
- 3) har bir son oraliq'ida funksiya grafigi alohida-alohida chiziladi.

Misol.  $y = |x| - |x+1| + 3|x+2|$  funksiyaning grafigini chizish kerak (7-rasm). Berilgan funksiyada har bir modul ichidagi ifodalarni 0 ga tenglashtirish orqali  $x$  ning qiymatlarini topamiz.

- 1)  $x=0$ , 2)  $x+1=0$ ,  $x=-1$  3)  $x+2=0$ ,  $x=-2$

Ular sonlar o'qini to'rtta intervalga bo'ladi:

$$(-\infty; -2), [-2; -1], (-1; 0), [0; +\infty] . .$$

1-intervalda modullarni ochamiz:

$$(-x) - (-x - 1) - 3(x + 2) = -x + x + 1 - 3x - 6 = -3x - 5; \quad x \in (-\infty; -2)$$

2-intervalda modullarni ochamiz:


$$(-x) - (-x - 1) + 3(x + 2) = -x + x + 1 + 3x + 6 = 3x + 7; \quad x \in [-2; -1]$$

3-intervalda modullarni ochamiz:

$$(-x) - (x + 1) + 3(x + 2) = -x - x - 1 + 3x + 6 = x + 5; \quad x \in (-1; 0)$$

4-intervalda modullarni ochamiz:

$$(x) - (x + 1) + 3(x + 2) = x - x - 1 + 3x + 6 = 3x + 5; \quad x \in [0; +\infty)$$



**Xulosa.** Hulosa qilib aytganda, funksiyalarning grafiklarini yasashda, ularni ayniy shakl almashtirishda arifmetik amallarning xossalari, qonunlariva, shuningdek, funksiyalarni tekshirishning umumiy sxemasini yahshi o'zlashtirish talab etiladi. Bularning barchasi talabalarning fanga oid kompetensiyalarini takomillashishiga imkoniyat yaratadi.

#### Adabiyotlar:

1. Tojiyev M., Barakayev M., Xurramov A. Matematika o'qitish metodikasi. - T., 2017.
2. Siddiqov Z.X., O'sarov J.A., Mahmudova D.M., Yusupova A.K., Eshmatov I.A. Matematika o'qitish metodikasi (umumiy metodika): O'quv qo'llanma. - T., 2020.

---

## MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MEDIARESURSLARDAN FOYDALANISHNING ROLI

**Umarova Zaxro Abduraxim qizi**, TDPU dotsent v.b., PhD

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada media va axborot savodxonligini oshirishda media-resurslardan foydalanishning ahamiyati, xorijiy mamlakatlardagi media ta'lim an'analari tahlili hamda mamlakatimizning ko'pgina oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga media ta'limni joriy etilishi atroflicha yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** media savodxonlik, axborot savodxonligi, media va axborot savodxonligi, mediaresurs.

## РОЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕДИАРЕСУРСОВ В ПОВЫШЕНИИ МЕДИА И ИНФОРМАЦИОННОЙ ГРАМОТНОСТИ

**Умарова Захро Абдурахим кизи**, и.о. доцента ТГПУ, PhD

**Аннотация.** В данной статье подробно рассмотрено значение использования медиаресурсов в повышении медийно-информационной грамотности, приведен анализ традиций медиаобразования в зарубежных странах, говорится о внедрении медиаобразования в образовательный процесс многих высших учебных заведений нашей страны.

**Ключевые слова:** медиаграмотность, информационная грамотность, медийно-информационная грамотность, медиаресурс.

## THE ROLE OF USING MEDIA RESOURCES IN IMPROVING MEDIA AND INFORMATION LITERACY

**Umarova Zakhro Abdurakhim qizi**, acting associate professor of TSPU, PhD

**Abstract.** In this article, the importance of using media resources in improving media and information literacy, the analysis of media education traditions in foreign countries, and the introduction of media education into the educational process of many higher educational institutions of our country are detailed.

**Key words:** media literacy, information literacy, media and information literacy, media resource.

**Kirish.** XXI asr – axborot asri. Axborot asridagi eng kuchli qurol – bu axborot ekanligini «Ma'lumotga egamisan, demak, sen qurollangansan» degan naql orqali ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Axborot oqimining shiddat bilan o'sishi, shuningdek, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida axborotni izlash, tanqidiy baholash, saralash va yaratishga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, media savodxonlik, axborot savodxonligi kabi atamalarni muomalaga kiritilishi, uni chuqur va atroflicha tahlil etishga olib keldi.

**Asosiy qism.** YUNESCOning media va axborot savodxonligi bo'yicha o'quv dasturi hamda shunga mos tarzda media va axborot kompetensiyalari asosi ikkita tarmoq sohasi, ya'ni media savodxonlik va axborot savodxonligi atamalarini yagona «Media-axborot savodxonligi» atamasi ostida birlashtirish g'oyasini yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. Bunda media-axborot savodxonligi atamasining asosiy elementlari (1-rasm) sifatida media savodxonlik alohida, axborot savodxonligiga alohida ta'rif berildi.



1-rasm. Media va axborot savodxonligi atamasining asosiy elementlari

Media savodxonlik deganda, bugungi demokratik jamiyatda uning a'zolari tomonidan ommaviy axborot vositalari (OAV)ning roli va vazifalarini tushunish, OAV mazmuni va uning o'ziga xos funksiyalaridan kelib chiqib tanqidiy baholash, foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentni AKT yordamida yangilash tushuniladi. Axborot savodxonligi esa, axborot ehtiyojlarini aniqlash, axborotni izlash, uni baholash, tartibga solish, axborotdan foydalanish, axborotni qayta ishlashda AKT ko'nikmalarini qo'llashdir. Demak, media-axborot savodxonligi axborotni topish, OAVning turli shakllari orqali taqdim etilayotgan axborotni baholash, tushunish, turli xil media axborot vositalaridan tanqidiy va samarali foydalanish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Media-axborot savodxonligi bu insonning tobora globallashtirib borayotgan raqamli dunyoda munosib harakat qilishiga imkon beruvchi bilim, ko'nikma va malakalar majmui. Bugungi kunda universitetlarda media ta'limni joriy etish muammosi tobora kuchayib bormoqda [1]. Media ta'lim muammosi ko'pgina olimlar tomonidan tadqiq etilgan, jumladan, A.Fedorov, Yu.Usova, I.Chelischeva, E.Bondarenko, L.Mastermen, J.Potter, S.Bekmurodova, S.Bobojonovlar media savodxonlikni oshirish borasida ko'pgina tavsiyalar ishlab chiqishgan.

J.Potter [2] media kompetentlikning uchta komponentini ajratib ko'rsatadi: «Birinci komponent – tajriba. Media va real dunyo bilan ishlashda qanchalik ko'p tajribaga ega bo'lsak, yuqori darajadagi media kompetentlikni rivojlantirish uchun salohiyatimiz shunchalik katta bo'ladi. Ikkinchi komponent – media sohasida ko'nikmalarni faol qo'llash. Uchinchi komponent – bu mustaqil ta'lim, ya'ni mustaqil o'rganishga bo'lgan tayyorgarlik hisoblanadi».

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar media ta'lim sohasida salmoqli tajribaga ega. Jumladan, Turkiyada media savodxonlik bo'yicha dasturlar Milliy ta'lim vazirligi va Radio va televideniya oliy kengashi hamkorligida 6-7 va 8-sinf o'quvchilari uchun media savodxonlik bo'yicha tanlov kursi sifatida o'qitiladi. 1970-yilda Finlyandiya boshlang'ich ta'limga media savodxonlik dasturi qo'shilgan bo'lsa, 1977-yilda o'rta maktablarda ham media savodxonlik dars sifatida o'tila boshlandi. Finlyandiya mediata'lim nafaqat bolalar bog'chalari va maktablarda, balki kutubxonalar, o'yin xonalari, yoshlar markazlari, hatto virtual jamoalar va raqamli o'yinlarda, xullas, bolalar va yoshlar bo'lgan barcha joylarda amalga oshiriladi. Finlandiyada media savodxonlikni targ'ib qiluvchi qariyb 100 ta tashkilot mavjud bo'lib, ulardan bir Finlyandiya mediata'lim jamiyati hisoblanadi. Germaniyada 80-90-yillarda media savodxonlik ta'lim tizimiga kiritildi. Xitoyda media savodxonlikka oid dasturlar orasida bolalar tomonidan yaratilgan «Little masters», bolalarning jamoaviy jumali va muloqotning asosiy ko'nikmalarini o'rganishga yordam beradigan, turli muammolarni yoritadigan Xitoy nashrlari eng ommalashgan dasturlar sanaladi. Niderlandiyada LessonUp onlayn platformasi yaratilgan. Bu platforma o'qituvchilarga mediaresurslar kontentini osongina yaratish imkoniyatini beruvchi vosita bilan ta'minlangan. Platformadan foydalanish uchun har bir ta'lim oluvchi shaxsiy profilini yaratishi talab etiladi. So'ngra o'qituvchi tomonidan yaratilgan ta'limiy media materiallar bilan mustaqil ravishda, ixtiyoriy joyda foydalanish mumkin bo'ladi [3]. Singapurda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish idorasi (MDA) media savodxonlikni XXI asr yashash uchun muhim vosita sifatida



tan oladi [3]. AQShda media savodxonlikni oshirish bo'yicha bir-nechta federal agentliklar tomonidan dasturlar ishlab chiqilgan. Misol uchun, AQSh federal savdo komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Admongo dasturi 8-12 yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bola [www.admongo.gov](http://www.admongo.gov) sayti orqali onlayn o'yinni o'ynaydi. Bu o'yin bolalarda media savodxonlik hamda reklamalarni tahlil qilish qobiliyatini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Admongoni muntazam ravishda o'ynab kelgan bolalar, bu o'yinni o'ynamaganlarga nisbatan media savodxonlik bo'yicha o'tkazilgan testda 9% ga yaxshiroq natija ko'rsatgan [4]. Admongo ko'p bosqichli o'yin bo'lib, uning har bir bosqichida reklamalarni tahlil qilish uchun o'yin ishtirokchilariga tahliliy material va topshiriqlar beradi. Xususan, 2-bosqich «Advanced Design Studio» deb nomlanib (2-rasm), mazkur bosqichda matn, grafika, audio va videodan reklama vositalarida foydalanish va insonlarga uning ta'siri yoritilgan.


Matnning xususiyatlari orasida uning axborot beruvchanligi, to'liqligi, yakunlanganligi, yaxlitligi, uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Lekin bugungi kunda, tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mobil inqilob ta'sirida ko'pgina insonlar sakkiz soniyadan keyin konsentratsiyani yo'qotishini inobatga olsak, mediaresurslarning boshqa turlariga ham ehtiyoj tug'iladi.



2-rasm. «AD Studio» bosqichi: mediaresurslarning roli

Mediaresursning yana bir keng tarqalgan turi grafikadir (3-rasm), chunki ularni an'anaviy ta'lim vositasi, ya'ni bosma nashrli kitob va darsliklar kontenti tarkibida ham uchratish mumkin. Rasmi mediaresurs grafiklar va jadvallarni ham o'z ichiga oladi. Grafik ma'lumotlar – diagrammalar, eskizlar, jadvallar, belgilar shaklida taqdim etiladigan axborotlar yoki ma'lumotlardir.


3-rasm. Admongoda mediaresursning grafika turiga doir tahliliy material va topshiriq namunasi



Xuddi shunday, video ham vizual jihatdan foydalidir. Dars mazmuniga qarab tanlangan hujjatli, ilmiy, ommabop filmlar va boshqa barcha turdagi videolar ham ta'limiy mediaresurs

sifatida foydalaniladi. Ular yordamida ta'lim berish va ta'lim olish jarayoni jonli va interaktiv tarzda olib borilishiga erishish mumkin.

Audio ta'limiy mediaresursi – musiqa, audio nutqlar, audio yozuv va boshqalardan iborat bo'lgan resursdir (4-rasm).



4-rasm. Admangoda mediaresursning audio turiga doir tahliliy material va topshiriq namunasi

O'zbekistonda 2021-2022-o'quv yilidan boshlab 10-11-sinf o'quvchilarining «Tarbiya» darsligiga «Media savodxonlik» bo'limi kiritildi. Respublikaning O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O'zbekiston milliy universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Qarshi davlat universiteti, Samarqand davlat chet tillari instituti kabi oliygohlarining jurnalistika fakultet va yo'nalishlarida media savodxonlik darslari o'tiladi. 2022-2023 o'quv yilidan boshlab Toshkent davlat pedagogika universitetining barcha ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalariga «media va axborot savodxonligi» fani kiritildi. Mazkur fanni o'qitishdan asosiy maqsad – bo'lajak pedagog kadrlarda media va axborot savodxonligini shakllantirish, mediaresurslardan foydalanish orqali ixtiyoriy media vositasini tanqidiy tahlil qilish, baholash, saralash, ularni yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Media bizning bilimlarimizni kengaytiradi. V.Gerlach va D.Elining ta'kidlashicha, «talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga sharoit yaratadigan har qanday shaxs, material yoki voqea media tarkibida tasniflanishi mumkin».

**Xulosa.** Demak, media va uning har qanday ko'rinishi bo'lgan mediaresurslarning ta'lim jarayonida ham ahamiyati katta. Media va axborot savodxonligini oshirishda mediaresurslardan foydalanishning ahamiyati katta. Mazkur mediaresurslar nafaqat reklama yoki OAV vositalarini tahlil qilish yoki ularning salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan media va axborot savodxonligini oshirishga qo'l keladi, shu bilan birga, ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini ham beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Umarova Z.A. The role of media resources in the process of self - education // International Journal Papier Public review. Vol. 2. Issue 1. 2021. - P. 49-53.
2. Gerlach V.S., Ely D.P. Teaching and media: a systematic approach. - New Jersey: Prentice Hall, Inc. 1980.
3. Umarova Z.A. Mediaresurslar vositasida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasini takomillashtirish: P.f.f.d. ... Dis. - T., 2021. - 156 b.
4. Givens D. Measuring the Impact of FTC's online advertising literacy game «Admango» Working paper.

## OLIV TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR USULLAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

**Umarova Fotima Abduraximovna, TDPU dotsent v.b., PhD**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy usullari tahlil qilingan va o'quv jarayonini sifatini oshirish, xususan, ta'lim oluvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish yo'llari ochib berilgan. Elektron ta'lim resurslaridan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etish talabalarning mustaqil fikrlashini, ijodkorlik va texnik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularning bilim va ko'nikmalarini oshiradi.

**Tayanch so'zlar:** multimedia, elektron darslik, mobil dastur, mediaresurs.

## НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ ОСНОВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕРЕДОВЫХ МЕТОДОВ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ

**Умарова Фотима Абдурахимовна, и.о.доцента ТГПУ, PhD**

**Аннотация.** В данной статье проанализированы современные методы подготовки специалистов и раскрыты способы повышения качества учебного процесса, в частности, развития личностных качеств учащихся. Организация учебного процесса с использованием ресурсов электронного обучения способствует развитию у студентов самостоятельного мышления, творческих и технических навыков, а также повышает их знания и навыки.

**Ключевые слова:** мультимедиа, электронный учебник, мобильное приложение, медиа ресурс.

## SCIENTIFIC AND PRACTICAL BASIS FOR THE USE OF ADVANCED METHODS AND DIGITAL TECHNOLOGIES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATION

**Umarova Fotima Abdurakhimovna, acting associate professor of TSPU, PhD**

**Abstract.** This article analyzes modern methods of training specialists and discloses ways to improve the quality of the educational process, in particular the development of personal qualities of students. The organization of the educational process using e-learning resources contributes to the development of students' independent thinking, creative and technical skills, and also increases their knowledge and skills.

**Key words:** multimedia, e-textbook, mobile application, media resource.

**Kirish.** Mamlakatimizning bugungi kuni va kelajak istiqboli yuksak ma'naviyatli va ma'rifatli yoshlarimiz qo'lidadir [1]. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish, kelajakda mutaxassislarni yangi avlodining yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish qonuniyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan [2-3].

**Asosiy qism.** Ma'lumki, bugungi kunda ta'limni insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish muhim masalaga aylandi. Shuning uchun ham ta'limni insonparvarlashtirish orqali yuzaga kelgan muammolarni oqilona hal etib borish, yangicha metodologiya, didaktika va metodikani ishlab chiqilishini taqozo etadi. Hech kimga sir emas bugungi bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan zamonda jamiyatimiz taraqqiyoti barcha sohalariga yangidan-yangi texnologiyalarni, jumladan,

yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jalb qilishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, multimedia va web-texnologiyalarning keng joriy qilinishi, kompyuter yordamida grafik tasvirlar, animatsiyalar va videoroliklarni hosil qilish va qayta ishlash texnologiyasini jiddiy o'rganish bilim oluvchilardan kompyuter savodxonligini talab qiladi. Keyingi yillarda O'zbekistonda kompyuterlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish uchun muayyan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida axborot kommunikatsiya texnologiyalari faoliyat ko'rsatishining muhim iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilab beruvchi qonunchilik bazasi yaratildi. O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida» 2002 yil 30 maydagi PF-3080-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2002 yil 200-son Qarorlari shular jumlasidandir. Hozirgi zamon ilmiy-texnik rivojlanishning jadallashgan bosqichining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu jamiyat hayotining barcha jabhalarini kompyuterlashtirishdan iboratligi, kasbiy faoliyatning tuzilishini keskin o'zgartirishni keltirib chiqaradi. Ta'lim tizimi barcha bo'g'inlarining axborot texnologiyalaridan foydalanishi ta'limning axborotlashuvda kundalik talabni keltirib chiqaradi, bu esa, o'z navbatida, ta'lim muassasasi bitiruvchilaridan yangi axborotlar muhitida bimalol ishlay oluvchi ko'nikmalarini o'zlashtirishni talab etadi [4]. Bo'lajak mutaxassislar axborot texnologiyalari bilan ishlay olish malakalarini shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj, birinchidan, ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi intellektual ta'lim resurslarini joriy etilishi, ikkinchidan, ulardan foydalangan holda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining dars berishi va maxsus fanlar bo'yicha mustaqil tarzda elektron ta'lim resurslarini ishlata olish, ishlab chiqarish qobiliyatiga egaligi, uchinchidan, o'qituvchining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarilishi bilan chambarchas bog'liq [5-6]. Ta'lim tizimida foydalaniladigan elektron ta'lim resurslari haqida so'z borganda, dastavval «elektron ta'lim resursi» nima va unga qanday ta'lim vositalari taaluqliligini aniqlab olishimiz zarur.

Elektron ta'lim resurslariga fan bo'yicha yaratilgan elektron darslik, o'quv qo'llanma, ko'rsatmalar, multimediyali vositalar, ma'lumotnomalar va lug'atlar, gipermatnlar, elektron testlar va topshiriqlar hamda shunga o'xshash o'quvchining mustaqil bilim olishini ta'minlovchi, o'rganishga qiziqish uyg'otuvchi resurslar kiradi: 1. Elektron darslik – fanning o'quv hajmini to'liq qamragan va masofaviy o'qitish hamda mustaqil o'rganish uchun kompyuter texnologiyalariga asoslangan, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirishga mo'ljallangan bo'lib, o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda; o'quv materiallar verbal (mant) va ikki o'lchamli grafik shaklda; multimedia (ko'p axborotli) elementlari, ya'ni ma'lumot ikki-uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozi, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda ifodalanadi. 2. Elektron o'quv qo'llanma – fanning o'quv hajmini qisman yoki to'liq qamragan va axborotning adaptatsiya blokini o'z ichiga olgan bo'lib, masofaviy o'qitish va mustaqil o'rganish uchun mo'ljallangan o'quv manbai. 3. Elektron uslubiy qo'llanma – pedagogik tajribani umumlashtirish va uzatish hamda ta'lim faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarqatish shakli. 4. Virtual stendlar – haqiqiy obyektlar, jarayonlar va hodisalarning elektron modeli. 5. Multimediyali vositalar – turli tipdagi axborotlarni va jarayonlarni matn, rasm, sxema, jadval, diagramma va virtual muhitlarni yaratish, saqlash, ishlov berish, raqamlashtirilgan va jarayonli ko'rinishda amalga oshirishning kompyuterli vositasi. 6. Elektron o'quv nashri – o'quvchilar tomonidan bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlarni ijodiy va faol egallashlarini ta'minlaydigan ilmiy amaliy bilim sohasiga mos ravishdagi tizimlashtirilgan o'quv materialga ega bo'lgan elektron nashr. 7. Gipermatn – elektron shaklda taqdim etilgan hamda tarmoqlangan bog'lanishlar tizimi bilan ta'minlangan va uning bir fragmentidan boshqasiga darhol o'tish

imkoniyatlari oldindan berilgan matn. 8. Elektron kutubxona – o'quvchi hamda pedagoglar uchun hujjatlashtirish va xavfsizlikning xususiy tizimi bilan ta'minlangan, to'liq matnli elektron axborotni resurslar, telekommunikatsiya vositalari asosida jamlash va yetkazish imkoniyatini ta'minlovchi dasturlar majmuadir. 9. Elektron lug'at-an'anaviy «qog'ozli» lug'atga mos keluvchi elektron axborot manbai. Kompyuter versiyada so'z yoki so'zlar guruhiga maxsus ajratilgan ko'rsatma bilan istalgan dasturdan chiqarilishi mumkin. An'anaviy lug'atlardan farqli ravishda elektron lug'at matn va grafikaviy tasvirlar bilan bir qatorda video va animatsion lavhalar, tovush, musiqa va boshqalar bilan birga media-obyektlarning butun spektrlarini o'z ichiga olishi mumkin. 10. Elektron nazorat (testlashtirish) – elektron o'quv adabiyotining komponenti bo'lib, an'anaviy kompyutersiz testlashtirishning analogidir. Elektron testlashtirish holatida kompyuter test va uning natijalarini ko'rsatib beradi, bu bilan bog'liq bo'lgan algoritmlarni joriy qiladi. 11. Elektron testlar – saqlangan, ishlov berilgan va testlashtiruvchiga kompyuter yoki telekommunikatsion texnikasi yordamida takdim etiladigan testlar. Testlashtiruvchi «qog'oz» blankalarni to'ldirib, so'ngra unga kompyuterda ishlov bersa, bular kompyuterli test bo'lib hisoblanmaydi. 12. Elektron topshiriqlar – o'qituvchiga o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda mustaqil va nazorat ishlari uchun tartibga keltiradigan topshiriqlar majmuini o'zida aks ettiruvchi axborot manbasining muhim ko'rinishidir. Yaratilgan topshiriqlar o'quvchilarga an'anaviy «qog'oz»li va elektron variantlarida tavsiya etilishi mumkin. Elektron ta'lim resurslarini loyihalash jarayoni kasbiy ta'limning ham pedagogik, ham psixologik jihatlarini hisobga olinib bajarilishi bilan bevosita aloqadorlikda kechadi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan maxsus fanlar bo'yicha didaktik qonuniyatlarga javob beradigan elektron ta'lim resursi tarkibi va mazmunini ishlab chiqish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi [5]: 1. Maxsus fanlarni o'qitish maqsadi va yakuniy natijalarini belgilash. 2. Elektron ta'lim resursi uchun zaruriy amaliy dasturiy ta'minotni belgilash. 3. Ta'limning audiovisual vositalarini tanlash (audio va video konvertorlar). 4. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish (grafik va animatsion datuslar: CorelDraw X3, Adobe Photoshop CS4, Autodesk 3dsMax, Autodesk AutoCad - 2007). 5. Maxsus fan mavzulariga doir animatsiyalarni ishlab chiqish (animatsion dasturlar: Macromedia Flash, Tech Smith Camtasia Studio 8.0.). 6. Fan mazmuniga oid elektron o'quv va uslubiy ta'minotni tayyorlash (Macromedia Dreamweaver, Teachbook Constructor). 7. Elektron ta'lim resursini o'quv jarayoniga tatbiq etish. 8. Ilm-fan va texnika-texnologiya yangiliklarini uzluksiz ravishda kiritib borish kabilar.

Elektron ta'lim resursi tizimini loyihalashda obyektga yo'naltirilgan yondashuvdan foydalaniladi. Dastavval maxsus fanning elektron ta'lim resursi uchun kompyuterning D diskida yangi papka ochiladi va unga fan maqsadi bo'yicha belgilangan o'quv materiallarining elektron matnli, grafik, tovushli, animatsion vositalari tayyor holda yig'iladi. Buning uchun CorelDraw X3, Adobe Photoshop CS 4, Autodesk 3dsMax, Autodesk AutoCad - 2007 va marvelous Designer amaliy dasturlaridan keng foydalaniladi. CorelDraw X3 dasturida vektorli grafika asosida ayollar ustki kiyimi eskizining grafik tasvirlar hosil qilinib, fayllardagi obyektlar JPEG formatda alohida papkaga saqlanadi. Adobe Photoshop CS4 dasturida turli xil formatdagi raqamli tasvirlarga ishlov berish: filtrlarni qo'llash, masshtabini o'zgartirish, rang berish, bir necha tasvirlarni yagona faylga birlashtirish mumkin. Autodesk 3dsMax dasturida uch o'lchamli tasvirlar va video roliklar hosil qilinadi. Autodesk AutoCad - 2007 yordamida ayollar yaxlit bichimli ustki kiyimning asos konstruksiyasi, model konstruksiyasi, andazalari, texnologik uzullari kabi komponentlarning ikki o'lchamli tasvirlari bajariladi. Bu dasturning fayllari DWG formatiga ega bo'lib, ularni web sahifalarga joylashtirish uchun JPEG formatga Adobe Photoshop CS 4 dasturi yordamida o'tkaziladi. Fan bo'yicha o'quv materiallari Microsoft Office Word - 2007 dasturida yozilib, tayyor fayllarni yagona elektron tizim, ya'ni ta'lim resursi ko'rinishiga keltirishda Teachbook Constructor dasturiga murojaat qilinadi. Teachbook Constructor dasturi yordamida elektron

ta'lim resursi tarkibiga ovozi va animatsion komponentlarni kiritish uchun muayyan buyruqlar majmuasi mavjud [6-9]. O'quv materiali elektron shaklda mavjud bo'lganida shuni yodda tutishimiz kerakki, kompyuter ekranidan biror ma'lumotni idrok etish jarayoni 25-30% murakkablikni tug'diradi. Shuning uchun, elektron ta'lim resursining dizayni, ish paneli va o'quv oynasining joylashuvini to'g'ri tanlanishi ta'lim muassasasi o'quvchilarining yoshi va bilimlarni o'zlashtirish qobiliyatiga psixologik jihatdan mos tanlanishi kerak. Asosan, moviy, yashil, oq va och kul rang ranglarni tanlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu kabi ranglar, insonni idrok qilishini yengillashtirib, matnni o'qish davomida o'quvchilar ko'zini toliqtirmaydi.

**Xulosa.** Demak, talabalarda kiyimlarni loyihalash to'g'risida olgan yangi bilimlarini mustaxkamlash maqsadida mustaqil o'zlashtirish uchun ushbu mobil dasturlardan foydalanish qulay bo'lib, bu talabalarni mavzuni mukammal o'zlashtirishlariga va o'qituvchini vaqtini tejashga, talabalarga qulay vaqtlarda, qulay sharoitlarda mustaxkamlovchi bilim olishlariga imkoniyat yaratadi. Bunday dasturlardan foydalanish osonligi tufayli turli xil muammolar keltirib chiqarmaydi. Bu dasturni telefon ekranida turgan knonkaga birgina barmoqni tekka-zish bilangina dastur ishga tushadi va osonlik bilan kitob varaqlash kabi yengillik bilan keyingi ma'lumotlarga o'tish, yoki gippersilkalar orqali ma'lumotning kerakli joyiga o'tish imkoniyati mavjud.

#### Adabiyotlar:

1. Umarova F.A., Muslimov N.A. Improving the Effectiveness of education through the Use of modern information and communication technologies in the training of designers // Journal La Edusci. - 2020. - № 12(31).
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.
3. Abduqodirov A. A. va boshq. Axborot texnologiyalari. - T., 2002.
4. Umarova F.A. Use of modern information and communication technologies in the training of designers // Journal of Central Asian Social Studies - 2022.
5. Umarova Z.A. Digital media educational environment: media resources and their role // Journal of Central Asian Social Studies. - 2020.
6. Xaknazarova Z.K., Tadjibayev E.E. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga maxsus fanlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish // Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilish masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - T., 2014. - B. 314-316.
7. Xaknazarova Z.K., Isakulov V.T. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining axborotli-grafik kompetentligini shakllantirishning innovatsion shartsharoitlari // Ta'lim texnologiyalari. - T., 2015. - 2(52)-son. - B. 70-75.
8. Xaknazarova Z.K. Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasini o'qitishning innovatsion imkoniyatlari // Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi sharoitida innovatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2013 yil 29-30 noyabr. - II-qism. - T., 2013. - B. 279-282.
9. Umarova F.A. Advantages of using electronic learning resources in the educational process // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 8, 2020. ISSN 2056-5852.

---

## ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ЗООЛОГИИ БЕСПОЗВОНОЧНЫХ (НА ПРИМЕРЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ QUIZ BOT)

*Абидова Садокат Абдураходовна, преподаватель ТГПУ*

**Аннотация.** В данной статье рассматривается методика совершенствования преподавания курса Зоология беспозвоночных на основе цифровизации образования на примере использования бота Quizbot. Раскрывается эффективность применения данного бота для контроля и закрепления знаний и терминов, используемых при изучении зоологии беспозвоночных.

**Ключевые слова:** зоология беспозвоночных, цифровизация образования, технологии, Quizbot, цифровые технологии, тесты, тестирование, смартфон.

## UMURTQASIZLAR ZOOLOGIYASINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI (QUIZ BOT-DAN FOYDALANISH MISOLIDA)

*Abidova Sadokat Abduaxadovna, o'qituvchi  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada misol tariqasida Quizbot bota yordamida ta'limni raqamlashtirish asosida umurtqasizlar zoologiyasi kursini o'qitishni takomillashtirish metodologiyasi muhokama qilinadi. Umurtqasizlar zoologiyasini o'rganishda qo'llaniladigan bilim va atamalarni nazorat qilish va mustahkamlash uchun ushbu botdan foydalanish samaradorligi aniqlandi.

**Таянч so'zlar:** umurtqasizlar zoologiyasi, ta'limni raqamlashtirish, texnologiyalar, Quizbot, raqamli texnologiyalar, testlar, test o'tkazish, smartfon.

## THE EFFECTIVENESS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES TO IMPROVE TEACHING METHODS OF INVERTEBRATE ZOOLOGY (ON THE EXAMPLE OF USING QUIZ BOT)

*Abidova Sadokat Abduakhadovna, lecturer  
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami*

**Abstract.** This article discusses the methodology for improving the teaching of the course Invertebrate Zoology based on the digitalization of education using the Quizbot bot as an example. The efficiency of using this bot to control and consolidate knowledge and terms used in the study of invertebrate zoology is revealed.

**Key words:** invertebrate zoology, digitalization of education, technology, Quizbot, digital technologies, tests, testing, smartphone.

**Введение.** По утверждению Президента Узбекистана Ш.М.Мирзиёева, «Самое большое богатство в мире – это знания и профессия, полученные в молодости». В связи с этим большая ответственность возлагается на учителя, который является источником знаний для современных школьников и подготовка грамотных, всесторонне развитых учителей является основной задачей высших педагогических вузов.

**Основная часть.** Современную науку и образование невозможно предста-

вить без современных компьютерных технологий, поэтому развитие современной науки предусматривает её цифровизацию. Огромное внимание в Республике Узбекистан уделяется развитию высшего образования в условиях цифровой экономики, и основным требованием, повышающим уровень современного образования, является её цифровизация. 5 октября 2020 года вышел Указ Президента «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации». В своём ежегодном послании к Олий Мажлису 24 января 2020 года Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев объявил 2020 годам «Годом развития науки, просвещения и цифровой экономики».

